

N.M. Quchqorova

# **PEDAGOGIK KASBIY KOMPETENTLIGI VA KREATIVLIK**



74.10 ya-7  
Q-70

17a

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

**Quchqorova Nargiza Mamajonovna**

# **PEDAGOGIK KASBIY KOMPETENTLIGI VA KREATIVLIK**

**(DARSLIK)**

<b>Bilim sohasi:</b>	100000 - Ta'lim
<b>Ta'lim sohasi:</b>	110000 - Ta'lim
<b>Magistratura mutaxassisliklari:</b>	70110201 - Ta'lim va tarbiya nazariyasi metodikasi ( maktabgacha ta'lim)

**“BOOKMANY PRINT”  
TOSHKENT – 2022**

**UO‘K: 373.2:159.954.4(07)**

**KBK: 74.10ya7**

**Q 85**

**ISBN 978-9943-8095-7-4**

Quchqorova, Nargiza Mamajonovna.

Pedagogik kasbiy kompetentligi va kreativlik [Matn] : darslik / N.M. Quchqorova. – Toshkent: Bookmany print, 2022. – 260 b.

Mazkur darslik 70110201 – Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta‘lim) magistrларini “Pedagogik kasbiy kompetentligi va kreativlik” fani mavzularini o‘rganishlari uchun mo‘ljallangan.

Darslikda maktabgacha tarbiya tashkiloti tarbiyachisining kompetensiyasi, tarbiyachining pedagogik mahorati, zamonaviy tarbiyachining imidji, tarbiyachi-pedagog faoliyatiga kreativ yondashuv, tarbiyachining innovatsion faoliyati, maktabgacha ta‘lim tizimini texnologiyalashtirish, maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida mashg‘ulotlarini tashkil etish yo‘llari va rivojlangan davlatlarda maktabgacha ta‘lim tizimi yoritilgan.

Maktabgacha ta‘lim magistrлари, bo‘lg‘usi tarbiyachilar va maktabgacha ta‘lim tashkilotida pedagogik faoliyat yurituvchi kadrlar samaradorlikka erishish uchun darslikdagi ma‘lumotlardan ijodiy foydalanishlarini tavsiya qilamiz.

**Muallif:**


**Quchqorova Nargiza Mamajonovna** – Urganch davlat universiteti, “Maktabgacha ta‘lim metodikasi” kafedrası dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori.

**Taqrizchilar:**

**Egamberdiyeva N.M.** – O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash huzuridagi “Mahalla va oila” ilmiy tadqiqot instituti direktori, p.f.d., professor.

**Salayeva M.S.** – UrDU, Maktabgacha ta‘lim metodikasi professori, p.f.doktori.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2022-yil 17-martdagi 0650/17 buyrug‘iga asosan darslik sifatida nashrga tavsiya etilgan.



© **Quchqorova N.M.**

© **“Bookmany print” nashriyoti, 2022.**

## Kirish

***“O‘qituvchining vazifasi talabaga  
bir umrga yetadigan bilim berish emas,  
balki uni bir umr bilim olishga o‘rgatishdir”***

Mamlakatimizning kelajagi, mustaqil O‘zbekistonning istiqboli, ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan tarbiyachi-o‘qituvchiga, uning saviyasiga, tayyorgarligiga, fidoyiligiga, yosh avlodga ta’lim berish va barkamol inson darajasida tarbiyalab, voyaga yetkazishga nisbatan shijoatiga bog‘liq. Ma’lumki, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyaviy jarayon bevosita tarbiyachi tomonidan tashkil qilinadi va olib boriladi. Yangicha ijtimoiy sharoitda ta’lim-tarbiyada ko‘zda tutilayotgan maqsadlarga erishish, bolalarning mashg‘ulot va mashg‘ulotdan tashqari xilma-xil tarbiyaviy faoliyatlarini uyushtirish, ularni bilimli, odobli, e’tiqodli, vatanparvar, mehnatsevar, barkamol inson qilib o‘stirish tarbiyachilar zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Yana bir muammoni hal etish o‘ta muhim hisoblanadi:bu pedagog va professor-o‘qituvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir. Bu borada ta’lim olish, ma’naviy-ma’rifiy kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlarini shakllantirish jarayonlariga faol ko‘mak beradigan muhitni yaratish zarur”,- degan fikrlari katta ahamiyat kasb etadi.<sup>1</sup>

Yurtimizda maktabgacha ta’lim muassasasasi tarbiyachisi, magistrning metodik tayyorgarligiga muhim talablar qo‘yilayotgan bir vaqtda uning pedagogik-psixologik tayyorgarligini takomillash-tirish mexanizmlarini ishlab chiqish, dastur talablari asosida ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish, faoliyatlarga kreativ yondashgan holda turli usul va vositalarni amaliy qo‘llay bilish va magistrning pedagogik kasbiy kompetentligini shakllantirish hozirgi kundagi dolzarb masalalardandir.

---

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh M “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak”. O‘zbekiston. Toshkent, 2017. 45-bet.

2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to’g’risida”gi Qonunning

8-moddasi maktabgacha ta’lim va tarbiyaga doir bo’lib, unda maktabgacha ta’lim va tarbiya bolalarni o’qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek, bolalarni umumiy o’rta ta’limga tayyorlashga qaratilgan ta’lim turi ekanligi izohlangan. Ta’lim tizimining dastlabki bo’g’inida faoliyat yurituvchi tarbiyachi-pedagoglarni samarali natijalarga olib keluvchi nazariy bilim va kreativ faoliyatga undovchi amaliy ko’nikmalar bilan qurollantirish zamon talabidir.

Maktabgacha ta’lim magistrlarini “Pedagogik kasbiy kompetentligi va kreativlik” fanidan o’quv dastur asosida o’rganishlari lozim bo’lgan nazariy mavzular tarkibi quyidagicha berilgan.

II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg’ulotlari)<sup>2</sup>.

Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu: Maktabgacha tarbiya tashkiloti tarbiyachisining kompetensiyasi.

2-mavzu: Tarbiyachining pedagogik mahorati kabilar

Demak, mazkur darslikda “Pedagogik kasbiy kompetentligi va kreativlik” fanining tuzilmasi va mazmuni bayon etilgan. Darslikning tuzilishi, mavzularning bayon etilishida tanlangan stilistik uslub, yangidan kiritilgan ma’lumotlar magistr-talabalar, tarbiyachilar tomonidan maqbul tarzda idrok etilishiga imkon beradi. Ushbu darslikni magistr-talabalar, tarbiyachilarga taqdim eta turib, bu manbaa ma’lum darajada o’quv-tarbiyaviy jarayonning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi, degan umiddamiz.

Muallif kitobxonlar tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalarni qabul qiladi, keyingi nashrlarda, albatta, ularni inobatga oladi.

**Muallif**

---

<sup>2</sup> Pedagogik kasbiy kompetentligi va kreativlik . Fan dasturi. Toshkent 2021. 2-bet.

# I BOB. "PEDAGOGIK KASBIY KOMPETENTLIGI VA KREATIVLIK" FANINING NAZARIY ASOSLARI

## 1-mavzu: Maktabgacha tarbiya tashkiloti tarbiyachisining kompetensiyasi

### Reja:

1. Pedagog olimlarning tarbiyachi shaxsi haqidagi fikrlari.
2. Tarbiyachi kompetensiyasi piramidasi.
3. Kompetensiya turlari.

*Tayanch soʻz va iboralar:* kompetensiya, olimlarning tarbiyachiga doir fikrlari, dastlabki maktablar, pedagog, Komenskiy taʼlimoti, shaxs, kasbiy tayyorgarlik, kasb masʼuliyati, kompetensiya piramidasi, uygʻonish davri pedagoglari.

### 1. Pedagog olimlarning tarbiyachi shaxsi haqidagi fikrlari

Sharq allomalari adabiy meroslarida taʼkidlangan, tarbiyachilik haqida bildirilgan dono fikrlarni yoshidan, pedagogik mahoratidan qatʼiy nazar barcha tarbiyachilar bilishlari, ularga qatʼiy amal qilishlari maqsadga muvofiqdir.

Buyuk allomalarimiz oʻz asarlarida tarbiyachilik kasbining nozikligini, masʼuliyatli ekanligini va murakkabligini, shu bilan birga sharaflil ekanligini yoritib, muallimning mahorati, ularga qoʻyilgan talablar, fazilatlariga oid qarashlar, shogirdlar bilan munosabatga kirishish mahorati, muomalasi toʻgʻrisida oʻz mulohazalarini bildirganlar. Uygʻonish davrining yetuk namoyandalari Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Kaykovus, Abul-Qosim Umar Az Zamaxshariy, Shayx Saʼdiy Sheroziy, Abdurahmon Jomiy, Jaloliddin Davoniy, Husayn Voiz al-Koshifiy va Alisher Navoiy kabilarning ijodiy merosi pedagogik tafakkurni shakllantirishda boʻlajak murabbiylarga muhim manba boʻlib hisoblanadi. Ular avlodlardan avlodlarga oʻtib, oʻz qimmatini yoʻqotmagan mudarrisarlarni, tarbiyachilarni tayyorlash tajribalarini umumlashtirib, boyitib borishgan.

Abu Nasr Forobiy (873-930) Oʻrta Osiyo xalqlari madaniyatini rivojlantirishga ulkan hissa qoʻshgan olimdir. Forobiy arifmetika, geometriya, astronomiya va musiqani muhim tarbiyaviy fanlar deb

atadi. Ushbu fanlarni o'rgatuvchi o'qituvchini har tomonlama mukammal bilimga va tajribaga ega bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi. Forobiy ta'limotiga ko'ra ta'lim-tarbiya jarayoni tajribali va bilimli o'qituvchilar tomonidan tashkil etilishi, boshqarilib turilishi va ma'lum maqsadlarga yo'naltirilgan bo'lishi lozim, chunki "har bir bola o'zicha narsa va hodisalarni bila olmaydi hamda baxtga erisholmaydi.

Abul-Qosim Mahmud Ibn Umar Az-Zamaxshariy (1075-1144) jahon ilm-fani va madaniyatiga salmoqli hissa qo'shgan mashhur olim va adibdir. U o'z asarlarida halollik va pokizalikni, ilmga muhabbatni, mardlik va olijanoblikni ulug'laydi. Ulug' mutafakkir "Navobig' ulkalim" ("Nozik iboralar") asarida kishilar ilmi bo'lish, o'qitish, yozish bilan hosilu mukammal bo'ladi, olim kishi oqil, bilimdon va chiroyli xushxat yozuvga ega bo'lsa, bu uning kamolotga yetganligidan dalolatdir, deydi. Asarda mudarrislar to'g'risida noyob fikrlar bildirilgan: "Murabbiy o'qib tursagina murabbiy bo'la oladi, agar o'qishni to'xtatib qo'yar ekan, unda murabbiylik o'ladi".

Buyuk allomalardan Abdurahmon Jomiy o'z asarlarida tarbiyachi-muallim foaliyatiga quyidagicha ta'rif beradi: "Muallim bilimli, aqlli, adolatli, o'zida butun yuksak fazilatlarini mujassamlashtirgan bo'lishi kerak. O'zini nomunosib tutgan odam hech vaqt bolalarga bilim va odob bera olmaydi". Muallimning yuksak sifati uning aqli, ilmi, fikri, so'zi, axloq-u odobidadir, - degan edi.

Alisher Navoiy (1441-1501) ijodida muallimlarga munosab alohida e'tibor berilgan. Uning fikricha, har bir inson o'ziga ta'lim va tarbiya bergan ustozini umrbod hurmat qilishi va uni e'zozlashi kerak. Tarbiyachi mehnatini har qanday xazina bilan o'lchab bo'lmaydi:

Haq yo'linda kim senga, bir harf o'qitmish ranj ila,  
Aylamak bo'lmas ado, oning haqqin yuz ganj ila

Alisher Navoiy yosh avlod tarbiyasini har qanday tasodifiy murabbiyga ishonib topshirib bo'lmasligini aytib, o'qituvchiga yuksak talablarni qo'yadi. Bolani tarbiyalash va unga bilim berish, uning qobiliyatini o'stirish uchun nihoyatda savodli o'qituvchi va mahoratli tarbiyachi bo'lish kerak. Alisher Navoiy o'qituvchini faqat dars beruvchi, bilim beruvchi deb bilmaydi, balki mahoratli

tarbiyachi bo'lishi lozim deb ilm-odobni birga olib borilishini, bu ikki jarayon hech qachon ajralmasligini ta'kidlab o'tadi.

XV asrda yashab, ijod etgan mutafakkir, Alisher Navoiyning yaqin do'sti Kamoliddin Husayn Voiz al-Koshifiy (taxm. 1440-1505 y.) bola tarbiyasida maktab va muallimning alohida o'rni borligi haqida gapirib, muallimlar dono, bilimli, shirinsuxan, adolatli bo'lishi zarur, deb hisoblaydi. Alloma murabbiylar to'g'risida "Axloqi Muhsiniy" asarida shunday yozadi: "Murabbiy (bolaga) nasihat va ta'lim berishda lutf va odob qoidalariga rioya qilishi darkor. Jamoatchilik joylarida unga pand berish yaramaydi, balki xilvat joyda bolaga nasihat qilish zarur. Agar (murabbiy) nasihat berishning fursati kelganini bilsa, unga muloyimlik bilan murojaat qilishi lozim, chunki bizning zamonamizda muloyim va xushfe'l bo'lish maqsadga muvofiqdir".

Taniqli murabbiy, maktabshunos olim Hikmatulla Abdullayev o'zining "Yashil daftar hikmati" asarida bejiz quyidagi fikrni bildirmagan:

"O'qituvchi tarbiyachining yuz qarashlari ham, gapirishlari ham, qalbi ham, ko'rinishi ham, yurish-turishi ham, kiyinishi ham chiroyli va ibrat namunasi bo'lsin. Ayniqsa, uning nutqi tushunarli, ravon, ta'sirli bo'lishi darkor. U muloqotda bamisoli so'z zargari ekanligini ko'rsata olishi muhimdir. Shunga erishish kerakki, odamlar, ayniqsa, ota-onalar va o'qituvchilar uni rostgo'y, halol, pokiza, sog'lom fikrli, shafqatli va muruvvatli, insonparvar kishi sifatida e'tirof etsinlar".

Tarbiyachilarning kasbiy mahoratlarini takomillashtirish to'g'risidagi muammolar yevropa olimlari Ya. A. Komenskiy, Djon Lokk, Pestalotssi, A.Disterverg, K.D.Ushinskiy kabilarning asarlarida o'z ifodasini topgan. Jumladan, chex olimi, mashhur pedagog Ya.A. Komenskiy o'qituvchi-tarbiyachining eng muhim xususiyatlari qatoriga bolalarni sevishi, yuksak axloqi, bilimdonligi, iqtidori, qobiliyati kabilarni kiritadi va ularning mohiyatini mukammal tavsiflab beradi. Yan Amos Komenskiy o'z davrida o'qituvchilarning bola dunyoqarashini rivojlantirishdagi rolga yuqori baho berib, o'qituvchilik "yer yuzidagi har qanday kasbdan ko'ra yuqoriroq turadigan juda faxrli kasb" ekanligini ta'kidlaydi. Muallifning fikricha, tarbiyachi-o'qituvchi o'z burchlarini chuqur



anglay olishi hamda o'z qadr-qimmatini to'la baholay bilishi zarur. Ya.A. Komenskiy tarbiyachi-o'qituvchi obrazini tasvirlar ekan, uning shaxsida quyidagi fazilatlar namoyon bo'lishi maqsadga muvofiqligini ta'kidlaydi: vijdonli, ishchan, sabotli, axloqli, o'z ishini sevuvchi, bolalarga mehr bilan muomala qiluvchi, ularda bilimga havas uyg'otuvchi, bolalarni o'z ortidan ergashtiruvchi va diniy e'tiqodni shakllantiruvchi.

I.G.Pestalotsi tarbiyachining kasbiy sifatlariga baho berish bilan birga, asosan uning xalq ta'limi tarmog'ini takomillashtirishdagi roli hamda fan asoslarini egallashdagi ahamiyati va vazifalariga to'xtalib o'tadi.

Buyuk nemis pedagogi Adolf Disterverg tarbiyachining doimiy ravishda fanlarni mutolaa qilish bilan shug'ullanishi haqida gapirib, shunday degan edi: "Pedagog muntazam ravishda fan bilan shug'ullanmog'i lozim. Aks holda u qurigan daraxt va toshga o'xshab qoladi. Qurigan daraxt va tosh meva bera olmaganidek, kelajakda bunday pedagogdan hech qanday natija kutib bo'lmaydi" A. Disterverg o'qituvchi tarbiyachining ta'limdagi roliga yuqori baho berib, u o'z faoliyatini chuqur bilib, pedagogik mahoratini oshirib borishi bolalarni qalbdan yoqtirishi natijasida yuzaga keladi deb uqtiradi. O'qituvchi bolalarning individual xususiyatlarini, qobiliyatini, faoliyatini mukammal bilishi uchun muayyan darajada psixologik bilimlarga ham ega bo'lishi kerakligini ta'kidlab o'tgan.

Pedagog olim Djon Lokk o'qituvchi pedagog psixologiyasining eng muhim jihatarini ishlab chiqqan. Ular orasiga mo'tadillik, g'ayrat-shijoatlilik, ehtiyotkorlik kabi hislatlarni kiritib, tarbiyachining pedagogik faoliyatidagi rolini asarlarida yoritib bergan. A.I.Gersen, K.D.Ushinskiy, V.A.Suxomlinskiy, V.A.Slastyonin, L.N.Tolostoy, A.S.Makarenko kabi rus pedagog olimlari g'arb mutafakkirlari g'oyalarining vorislari sifatida mazkur muammolarga o'z mulohazalarini bildirganlar. Jumladan, A.I.Gersen mulohazalariga ko'ra, pedagogning asosiy hislati - bu uning bolalar bilan munosabatda bo'layotganligini sezishda, bolalar ruhiy dunyosini tushina olishida, axloqiy qobiliyatning mavjudligida, chunki u shunday iste'dodga ega bo'lmog'i zarurki, unga har qaysi pedagog erisha olmaydi.

Taniqli rus pedagogi K. D. Ushinskiy ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogning roli va shaxsiga yuqori baho berib, "Pedagog kasbiga oid ilmiy mulohazalarida hech bir Qonun yoki Programma, ta'lim-tarbiya to'g'risidagi metod yoki tamoyillar pedagog shaxsining pedagogik faoliyatdagi mahorati o'rnini bosa olmaydi" deb hisoblaydi.

Buyuk rus adibi L.N.Tolstoy tarbiyachi fazilatining mukammalligini o'z mutaxassisligiga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lishi bilan bir vaqtda bolalarga bo'lgan munosabatida, ularni xuddi o'z farzandlaridek jon-dilidan sevishida ekanligida ko'rgan. Uning ta'kidlashicha, "agar pedagog faqat ishiga havas qo'ygan bo'lsa, u yaxshi pedagog bo'ladi. Agar pedagog bolaga faqat otasi va onasi kabi havas qo'ygan bo'lsa, u oldingi pedagogdan yaxshiroq bo'ladi. Bordiyu, ikkala hislatni ham o'zida mujassamlashtirsa, u holda u mukammal pedagog bo'la oladi". Hozirgi kunda ham yevropaning yetakchi olimlari (B.P.Zyazin, V.A.Kan-Kalik, Y.N.Kyuluytkin, N.D.Nikandrov, L.I.Ruvinskiy va boshqalar) o'qituvchi-tarbiyachilarning pedagogik mahoratini yanada takomillashtirish uchun ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar.

O'zbekiston Respublikasida tarbiyachi kadrlarning ma'naviy qiyofasi, aqliy salohiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan jiddiy talablar qo'yilmoqda. Chunonchi, bu borada O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov quyidagilarni qayd etadi: "Tarbiyachi - ustoz bo'lish uchun, boshqalarning aql-idrokini o'stirishi, ma'rifat ziyosidan bahramand qilishi, haqiqiy vatanparvar, haqiqiy fuqaro etib yetishtirish uchun, eng avvalo, tarbiyachining o'zi ana shunday yuksak talablarga javob berishi, ana shunday buyuk fazilatlariga ega bo'lishi kerak". Yuqorida qayd etilgan fikrlardan kelib chiqib bugungi kun tarbiyachisi shaxsiga nisbatan qo'yilayotgan talablar mazmuni anglaniladi.

Tarbiyachilarning kasbiy mahoratlarini milliy an'ana va urf-odatlarimizdan, qadriyatlarimizdan kelib chiqib yanada takomillashtirish, ularning pedagogik faoliyatini hozirgi zamon talablari darajasida rivojlantirish uchun metodik qo'llanmalar, tavsiyanomalar paydo bo'ldi. Hozirgi kunda ham ushbu muammo bo'yicha ilmiy izlanishlar, ilmiy tadqiqotlar davom etmoqda XXI asrga kelib tarbiyachining vazifasi yanada takomillashib bormoqda

Endilikda global o'zgarishlar, fan-texnika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining kun sayin rivojlanib borishi tarbiyachida yuksak mahoratni, o'tkir irodani, psixologik quvvatni, chuqur bilim va mulohazali bo'lishni talab qiladi.

## 2. Tarbiyachi kompetensiyasi piramidasi

**“Kompetentlik” tushunchasining mohiyati.** Bozor munosabatlari sharoitida mehnat bozorida ustuvor o'rin egallagan kuchli raqobatga bardoshli bo'lish har bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega bo'lish, uni izchil ravishda oshirib borishni taqozo etmoqda. Xo'sh, kompetentlik nima? Kasbiy kompetentlik negizida qanday sifatlar aks etadi? Pedagog o'zida qanday kompetentlik sifatlarini yoritish zarur. Ayni o'rinda shu va shunga yondosh g'oyalar yuzasidan so'z yuritiladi.

Inglizcha “competence” tushunchasi lug'aviy jihatdan bevosita “qobiliyat” ma'nosini ifodalaydi. Mazmunan esa “faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish”ni yoritishga xizmat qiladi.

“Kompetentlik” tushunchasi ta'lim sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan. Shu sababli kompetentlik “noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik” ni anglatadi.

Kasbiy kompetentlik - mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olishi

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va xarakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim

ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi.

Kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo'ladi.

- murakkab jarayonlarda;
- noaniq vazifalarni bajarishda;
- bir-biriga zid ma'lumotlardan foydalanishda;
- kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo'la olishda.

Kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassis:

- o'z bilimlarini izchil boyitib boradi;
- yangi axborotlarni o'zlashtiradi;
- davr talablarini chuqur anglaydi;
- yangi bilimlarni izlab topadi;
- ularni qayta ishlaydi va o'z amaliy faoliyatida samarali qo'llaydi.

Qobiliyat - bu kasbiy faoliyat shakllaridan biri bo'lib, u ma'lum bir mavzudagi samarali faoliyat uchun zarur bo'lgan bilim va tajribaning mavjudligini anglatadi. Maktabgacha ta'limdagi tarbiyachi bolalarni kognitiv rivojlanishiga imkon beradigan quyidagi ijtimoiy va kasbiy kompetentsiyalarga ega bo'lishi kerak:

1. Ijtimoiy vakolatlarga ega jismoniy shaxslar o'rtasida ma'lumot almashish, ularning qiziqishlari va ehtiyojlarini bayon qilish, boshqa odamlarga nisbatan bag'rikenglikning namoyon bo'lishi va ularning fikrlari, jamoada ishlash qobiliyati va hissiy barqarorlikka ega bo'lgan boshqa odamlarga turli xil yordam berish qobiliyati kiradi;

2. Kognitiv kompetentsiyalar ma'lumotni mustaqil ravishda qayta ishlash va tuzishda, yangi axborot manbalarini izlashda, o'qish yoki ishlashga konsentratsiya qilishda, olingan bilim va ko'nikmalardan foydalanish qobiliyatida namoyon bo'ladi.

3. Operatsion kompetensiyalar - maqsad va ish tartibini belgilash, noaniqlik va noaniqlikka qarshi turish qobiliyati, qaror qabul qilish va amalga oshirish qobiliyati, ish natijalarini sarhisob qilish, ish vaqti jadvalini aniqlash;

4. Maxsus kompetentsiyalarga muammoni hal qilish, o'zini o'zi boshqarish, kasbiy faoliyatda faol bo'lish, yangi vaziyatlarga moslashish, rejalarni baholash va tuzatish, xatolarni aniqlash va ularni yo'q qilishning yetarli usullarini rejalashtirish usullari kiradi.

O'z tadqiqotlarida A.K.Markova pedagogning kasbiy kompetentligi quyidagi tarkibiy asoslardan iborat ekanligi aytadi.

Maxsus yoki kasbiy  
(kasbiy faoliyatni  
yuqori darajada  
tashkil etish )

Tarkibiy qismlar

Shaxsiy kompetentlik  
(o'z-o'zini  
rivojlantirish, o'z –  
o'zini namoyon etish)

Ijtimoiy kompetentlik  
(qo'shimcha faoliyatni  
hamkorlikda tashkil etish)

Individual kompetentlik (o'z-  
o'zini boshqarish, kasbiy  
rivojlanish va yangiliklar  
yaratish )

Demak, kasbiy kompetensiyalar pedagogik jarayonga kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish uchun asos bo'lib, maktabgacha tarbiyachiga bilim, ko'nikma va malakalarni innovatsion faoliyatni amalga oshirishda va zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan amaliyotda foydalanishda yordam beradi.

### 3. Kompetensiya turlari

Kompetensiya atamasi ilmiy adabiyotlarda turlicha talqin qilingan. **Kompetensiya** (lot. competo — erishyapman, munosibman, loyiqman) — 1) muayyan davlat organi (mahalliy o'zini o'zi boshqarish organi) yoki mansabdor shaxsning qonun, ustav yoki boshqa hujjat bilan belgilangan vakolatlari, huquq va burchlari doirasi;

2) u yo bu sohadagi bilimlar, tajriba.<sup>3</sup>

**Kompetensiya** (lot. competere — layoqatli, munosib bo'lmoq) — 1) muayyan organ yoki mansabdor shaxsning rasmiy hujjatlarda belgilangan vakolatlari doirasi, vakolat.

2) Shaxsning biror-bir sohadan xabardorlik, shu sohani bilish darajasi.<sup>4</sup>

**Kompetensiya** shaxsning biror- bir sohadan xabardorlik, shu sohani bilish darajasi. Demak, kompetensiya fan bo'yicha egallangan nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni shaxsiy, kasbiy, ijtimoiy faoliyatlarda duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanib, amaliyotda qo'llay olishdir.

<sup>3</sup> O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil. 530-bet

<sup>4</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. Toshkent, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. 2000-yil. 396-bet. www.ziyouz.com

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni amaliy faoliyatda yuqori darajada qo‘llay olinishi.

Tarbiyachining kasbiy kompetensiyasi turlari quyidagilardan iborat:

1. Kasbiy kompetensiya
2. Shaxsiy kompetensiya
3. Umuminsoniy kompetensiya
4. Madaniy kompetensiya
5. Maxsus kompetensiya

**Ijtimoiy kompetentlik** – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko‘rsatish, ko‘nikma, malakalarga egalik, kasbiy faoliyatda subyektlar bilan muloqotga kirisha olish.

**Maxsus kompetentlik** – kasbiy pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyatni natijalarini real baholash, bilimni izchil rivojlantirib borish bo‘lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, infarmatsion, kreativ, innavatsion va kommunikativ kompetentlik ko‘zga tashlanadi.

**Psixologik kompetentlik** – pedagogik jarayonda sog‘lom psixologik muhitni yarata olish, talabalar va ta‘lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o‘z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish.

**Shaxsiy kompetentlik** – izchil ravishda kasbiy o‘shishga erishish, malaka va darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o‘z ichki imkoniyatlarini namoyon qilib borish.

**Texnologik kompetentlik** – kasbiy pedagogik BKMni boyitadigan ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.

**Ekstremal kompetentlik** – favqulodda vaziyatlarda pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to‘g‘ri harakatlanish malakasiga egalik.

Kasbiy pedagogik kompetentlik pedagogik voqealikni izchil idrok eta bilish va unda izchil harakat qila olish malakasini qamrab oladi. “Kompetentlik” va “kompetensiya” o‘zgaruvchan vaziyat va holatlarda barqaror natijaga erishishdir. Maktabgacha ta‘lim

tashkilotida ta'limga kompetentlik bilan yondashish, tarbiyalanuvchilarni turli ko'nikmalarni egallash, kelajakda ijtimoiy, kasbiy va shaxsiy hayotlarida samarali harakat qilishga yo'naltiradi. Kompetentlik tarbiyachining mavzuni mazmun jihatidan to'la o'zlashtirish, o'rganish, mustahkamlash, qaytarish hamda mustaqil ish uchun materialni tanlashida, o'zining dunyoqarashini kengaytirish uchun o'zlashtiradigan bilimlar negizida ham namoyon bo'ladi.

Kompetentlik tarbiyachi uchun o'ta muhim bo'lgan uchta holat bilan bog'langan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni egallashni taqazo etadi:

-odamlar bilan o'zaro aloqada bo'lishda, madaniy muloqotda bo'lish;

-fan sohasi bo'yicha axborotlarni qabul qila bilish va uni o'qitish mazmuniga moslab qayta ishlash va undan mustaqil tahsil olishda foydalana olish;

-o'quv axborotlarini boshqalarga bera olish.

Kasbiy-pedagogik kompetentlik asosan to'rtta komponenti bilan asoslanadi:

-shaxsga, insonga yo'nalganlik;

-pedagogik voqealikni izchil idrok etish;

-fan sohasiga yo'nalganlik

-pedagogik texnologiyalarni egallash.

Pedagogning kasbiy kompetentligi kreativlik bilan xarakterlanadi. Kreativlik-bu kasbiy hayot usuli, ko'p qirrali ta'lim jarayoni va tizimining maqsadlari, mazmuni, texnologiyalari sathida yangi pedagogik yangilikni yaratish istagi va malakasidir. Kreativlik tarbiyachini innovatsion o'zgarishlar oqimiga moslashib olishiga yordam beradi.

Zamonaviy tarbiyachida kasbiy kompetentlikni shakllantirishda bilim manbai sanalgan amaliyotning ahamiyati haqida so'z yuritganda bilish jarayonining mohiyatini ham ta'kidlab o'tish joiz.

Bilish-murakkab dialektik jarayon bo'lib, jonli mushohadadan abstrakt tafakkurga, so'ngra amaliyotga o'tish yo'lidir. Obyektiv borliqni bilish uni sezishdan boshlanadi.

Sezish-ongning tashqi olam bilan bo'ladigan aloqasidir. Sezish tevarak atrofdagi voqealik, narsa va hodisalarning sezgi organlariga ta'sir etuvchi ayrim sifat belgilarning ongda aks etishidir.

Idrok-sezish a'zolari orqali ongga ta'sir etib turgan narsa va hodisalarning unda yaxlit aks etishidir. Sezish va idrok asosida bilish jarayonida tasavvur ro'y beradi. Tasavvur inson ongida uzoq muddat saqlanib qoladigan sezishlar va idrokning izidir. Bilish jarayonining eng yuqori bosqichida bilish muammosini to'la hal etish uchun tafakkur yuzaga keladi.

Demak, bizga bilim amaliyotdan sezgi idrok, tasavvur va tafakkur asosida hosil bo'lishi va yana amaliyotga qaytib borishida namoyon bo'ladi.

Kasbiy kompetentlikni shakllantirishda tarbiyachining o'quv adabiyotining shakllari va turlari haqida tasavvurlarga ega bo'lishlari ham talab etiladi.

O'quv adabiyotlari-muayyan ta'lim turi o'quv rejasida qayd etilgan fanlar bo'yicha tegishli o'quv dasturlari asosida zarur bilimlar majmuasi keltirilgan, o'zlashtirish uslublari va didaktikasi yoritilgan manba.

Kasbiy kompetentlikka ega bo'lishda o'z ustida ishlash va o'z o'zini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O'z o'zini rivojlantirish vazifalari o'z-o'zini tahlil qilish va o'z o'zini baholash orqali aniqlanadi. Tarbiyachi o'z ustida ishlashi bir necha bosqichda kechadi. Ular:

1.O'z faoliyatini tahlil qilish asosida yutuq va kamchiliklarni aniqlash;

2.Yutuqlarini boyitish va kamchiliklarini bartaraf etish;

3.Amaliy harakatlarni samarali tashkil etish yo'llarini izlash;

4.Xato va kamchiliklarni takrorlamaslikka intilish;

5.Qabul qilingan qarorning izchil bajarilishini doimiy nazorat qilib borish.

Ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilsak, "maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyachilarining kasbiy kompetentsiyasi" ning yetarli darajada rivojlanmaganligi ni aytib o'tishimiz mumkin. So'nggi yillarda "kompetensiya", "kompetentlik" tushunchalari faol o'zlashtirilmoqda (V.I.Baydenko, A.S.Belkin, S.A.Drujilov, E.F.Zeer, O.E.Lebedev, V.G.Pishchulin, I.P.Smirnov, E.V.Tkachenko, S.B.Shishov va boshqalar).

"Kasbiy kompetensiya" tushunchasining mohiyatini tahlil qilish, uni tarbiyachining kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirish



va maktabgacha ta'lim tizimida shaxsni rivojlantirish bilan bog'liq maqsadlarga erishish qobiliyatini aks ettiradigan bilim, tajriba va kasbiy ahamiyatga ega shaxsiy fazilatlar integratsiyasi sifatida taqdim etishga imkon beradi va bu kasbiy faoliyat sub'ekti ma'lum darajadagi professionallikka erishgan taqdirda mumkin. Psixologiya va akmeologiyadagi kasbiylik – bu kasbiy faoliyat vazifalarini bajarishga tayyorlikning yuqori darajasi, mehnat predmetining sifat xarakteristikasi, yuqori kasbiy malakalar va malakalarni, turli xil samarali kasbiy mahorat va ko'nikmalarni aks ettiruvchi, shu jumladan ijodiy yechimlar, zamonaviy algoritmlar va yechimlarga egalik qobiliyatlarini aks ettiradigan yuqori va barqaror mahsuldorlikka ega faoliyatni amalga oshirishga imkon beradigan professional vazifalar.

Shu bilan birga, shaxsning kasbiy mahorati ham ajralib turadi, bu shuningdek mehnat predmetining yuqori darajadagi kasbiy muhim yoki shaxsiy va ishbilarmonlik fazilatlarini, kasbiy mahoratini, ijodkorligini, intilishning yetarli darajasini, shaxsning progressiv rivojlanishiga qaratilgan motivatsion sohasini va qiymat yo'nalishlarini aks ettiruvchi sifat ko'rsatkichi sifatida tushuniladi.

Ma'lumki, mutaxassisning faoliyati va shaxsiyatining kasbiy mahorati muntazam ravishda malaka oshirish, ijodiy faollikni namoyon etish, ijtimoiy ishlab chiqarish va madaniyatning o'sib borayotgan talablariga unumli javob berish, o'z ishi va o'z shaxsiyati natijalarini yaxshilashga bo'lgan ehtiyoj va istakda namoyon bo'ladi. Bunday holda, biz nafaqat kasbiy faoliyat sub'ektining kasbiy kompetensiyasi, balki umuman uning shaxsdan kompetensiyasi haqida ham gaplashishimiz mumkin, bu umuman olganda "insondan shaxsga" kasblar tizimi va, xususan, o'qitish uchun muhimdir.

Maktabgacha ta'lim tizimidagi doimiy yangilanishlar jamiyat va umuman ta'lim tizimining rivojlanishiga mos keladigan o'zgarishlarning ob'ektiv ehtiyojidan kelib chiqadi. Bunday o'zgarishlarning asosiy mexanizmi – bu maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatidagi sifatli o'zgarishlarga hissa qo'shadigan, kasbiy vakolatlarni oshirish uchun yangi texnologiyalarni izlash va rivojlantirishdir.

Shunday qilib, biz quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin:

1. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachining kasbiy kompetensiyasini fundamental ilmiy ta'lim va o'qitishga hissiy-qiyamat munosabati asosida ish talablari bilan belgilanadigan kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirish qobiliyati deb ta'riflash mumkin. Bu kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan munosabat va shaxsiy fazilatlarni, nazariy bilimlarni, kasbiy mahorat va ko'nikmalarni egallashni o'z ichiga oladi.

2. Kasbiy vakolatlarni rivojlantirish bo'yicha tarbiyachilar bilan ishlash pedagogik xodimlarning barqaror ishlashini, bolalarni har tomonlama rivojlantirish va tarbiyalashni, dasturiy materialni yosh va individual xususiyatlariga mos ravishda sifatli o'zlashtirishni, shuningdek, maktabgacha ta'lim muassasalarining o'quv jarayoni samaradorligini oshirishni ta'minlaydi. Bundan tashqari, maktabgacha ta'lim muassasalari metodik birlashmalarda faol ishtirok etadilar, har bir tarbiyachi bolalar bilan ishlashda o'zlarining ijodiy qobiliyatlarini amalga oshirishi mumkin.

#### **Mavzu yuzasidan nazorat savollari.**

1. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisining kasbiy kompetensiyasi qanday talablar asosida belgilanadi?

2. Kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy fazilatlarni yozing.

3. Pedagog olimlarning tarbiyachi shaxsi to'g'risida qanday fikrlari mavjud?

4. Tarbiyachi kompetensiyasi piramidasi deganda nimani tushunasiz?

5. Kompetensiyaning qanday turlari bor?

6. "Kasbiy kompetensiya" tushunchasini izohlang.

7. Kasbiy-pedagogik kompetentlikni to'rtta komponentini tushuntiring.

8. "Kasbiy mas'uliyat" tushunchasini izohlang.

9. Pedagog olimlarning tarbiyachi shaxsi haqidagi qanday fikrlarini bilasiz?

10. Buyuk allomalardan Abdurahmon Jomiy o'z asarlarida tarbiyachi-muallim faoliyatiga doir qanday ta'rif bergan?

#### **Mustaqil ish uchun mavzular.**

1. Zamonaviy pedagog-tarbiyachining funksional vazifalari.

2. Pedagogning kompetensiya tarkibiga kiruvchi turlari



## **2-mavzu: Tarbiyachining pedagogik mahorati.**

### **Reja:**

**1. Pedagogik mahoratning ta'lim-tarbiya jarayonida vujudga kelishi.**

**2. Pedagogik mahoratning komponentlari.**

**3. Qobiliyatning pedagogik va psixologik xarakteristikasi.**

**Tayanch so'z va iboralar:** tarbiyachi, komponent, pedagogik vazifa, kasbiy bilim, pedagogik va psixologik xarakteristika, kasbiy mahorat, didaktik qobiliyat, ta'lim-tarbiya jarayoni, shaxsiy tayyorgarlik.

### **1. Pedagogik mahoratning ta'lim-tarbiya jarayonida vujudga kelishi.**

Pedagogik mahorat asoslari fanining paydo bo'lishi buyuk pedagog A.S.Makarenko (1889-1939) nomi bilan bevosita bog'liq. U bolalar kalonnasidagi faoliyatida, ya'ni faqat tarbiyasini emas, ma'naviy qiyofasini ham yo'qotgan bolalar bilan ishlab, ularning benihoya hurmati va ishonchiga sazovor bo'ldi. Shaxsiy tarbiyaviy usuli bilan butun olamga mashhur bo'lganligining o'zi ham A.S.Makarenkoning yuksak pedagogik mahorat cho'qqisiga erishganligining yaqqol dalilidir. Tarbiyachi mahorati – tarbichining samarali rivojlanishiga ta'sir etuvchi pedagogik holatlarni yarata bilishida namoyon bo'ladi. Pedagogik mahoratning asosi pedagogik bilimdonlikdir. Pedagogik bilimdonlik, deganda konkret tarixiy davrda qabul qilingan me'yorlar (normalar), standartlar va talablarga muvofiq pedagogik vazifani bajarishga qobillik va tayyorlik bilan belgilanadigan integral kasbiy-shaxsiy tavsifnoma tushuniladi.

Pedagogik mahorat kasbiy faoliyatdagi individuallikning yorqin ko'inishi sifatida tushuniladi. Pedagogik mahorat kategoriyasi kasbiy faoliyat nuqtai nazardan kishining individualligini xarakterlaydi. Pedagogik mahorat asoslariga: kasbiy pedagogik bilimlar, insonparvarlikka yo'nalganlik, pedagogik texnika, kasbiy pedagogik faoliyatni amalga oshirish tajribasi, pedagog shaxsi taalluqlidir.

A.S.Makarenko tarbiyachi ishlarini ko'rib chiqib aytadiki, "Tarbiyachi faoliyati aslida, mohiyat bilan tashkilotchilik faoliyati

ham hisoblanadi.<sup>5</sup> Demak tarbiyachi mahorati, tarbiyachi faoliyati aslida, mohiyat bilan tashkilotchilik faoliyati ham hisoblanadi. Demak tarbiyachi mahorati, boshqa narsa emas, balki bolalar hayotini tashkil etuvchi mahoratdir.

Tarbiyachi mahorati – bu faqat yetarli nazariy bilimlarni egallashgina emas, balki tarbiya qonuniyatlari, bolalar jamoalari hayotini tashkil etish qonuniyatlaridan kelib chiqadigan barcha vosita, sul va metodlarni hayotga ijodiy tadbiiq eta bilish hamdir.

Tarbiyachi mahoratining mazmunining asosi bilim va unga asoslangan ko'nikmalardir. Tarbiyachi maktabgacha yoshdagi bolalarga tabiat, jamiyat hodisalari, kattalarning mehnati haqida boshlang'ich bilim va tushunchalar beradi, ularga madaniy axloq, o'z tengdoshlari va kattalar bilan madaniyatli munosabatda bo'lish odatlarini singdiradi, yaxshilik, haqiqatgo'ylik, adolat, jasurlik, kamtarinlik, o'simlik va hayvonlarga g'amxo'rlk bilan qarash, mehnatsevarlik, kattalar mehnati natijalarini asrab – avaylash kabi axloqiy sifatlarni tarbiyalaydi. Xalq san'ati, musiqa, ashula, adabiyot, tasviriy san'atni bilish, san'atga muhabbat tarbiyachini madaniyatli qiladi, bolalar bilan olib boradigan ishda yordam beradi. Yosh avlodni kerakli bilim, malaka, ko'nikmalardan xabardor qilishi uchun pedagogning nutqi ravon, aniq, mantiqiy, ixcham bo'lishi lozim. Ta'lim berishda texnikaviy vositalardan samarali foydalana olishi kerak. Bolalar bilim va malaka, ko'nikmalarni yaxsi o'zlashtirib olishlari uchun ularni faollashtirib savollardan foydalanishi;

Tarbiyachi o'ziga yuklangan vazifani bajarish uchun bolalarda o'sha faoliyatiga nisbatan qiziqish uyg'ota olishi, ularning diqqatini jalb qilib, faolligini o'stirish muhim sanaladi. Pedagogikada tarbiyachi mahorati yaxlit tizim sifatida uchta o'zaro bog'langan tizimchalarga bog'lanadi: ijtmoy psixologik, axloqiy. Texnologik tizimcha yoki texnologiya pedagog uchun o'zining kuchini rejalashtirish va kerakli natijaga erishishga yordam beradigan shaxs va jamoaga ta'sir etadigan aniq vositalar hisoblanadi. Tarbiyachi tomonidan tarbiyalanuvchilar amaliy faoliyatini tshkil etish, ularni ma'lum pedagogik vazifalarni bajarishga jalb etishdan iborat.


---

<sup>5</sup> <sup>1</sup>Sultonova G.A. Pedagogik mahorat. - T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005, - 149

Shunday qilib, pedagogik mahorat egasi bo'lish uchun tarbiyachi o'z o'quv predmetini davr talablari asosida bilishi pedagogik va psixologik bilimlarga ega bo'lishi, hamda insoniylik, izlanuvchanlik va fidoyilikni o'zi da tarkib toptirishi lozim.

## 2. Pedagogik mahoratning komponentlari.

Pedagogik mahorat komponentlari kasbiy faoliyatga kasbiy vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan malaka nuqtai nazardagi qarashlarni aks ettiradi. Tadqiqotchilar malaka deganda xatti-harakatlar tizimini uni amalga oshirish maqsadi va shart-sharoiti bilan muvofiq ravishda samarali bajarish imkoniyatini tushunadilar. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, quyidagi to'rtta komponent pedagogik mahoratning asosiy tasbkil etuvchilari hisoblanadi:



Pedagogik mahorat komponentlarini hosil qiladigan quyidagi malaka guruhlarini farqlanadi:

- loyihalash;
- konstruksiyalash;
- tashkilotchilik;
- muloqot;
- bilish va reflektivlik.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov tarbiyachilik qobiliyatining asosiy mohiyatini shunday ta'riflaydi: «Tarbiyachi – ustoz bo'lish uchun, boshqalarning aql-idrokini o'stirish, ma'rifat ziyosidan bahramand qilish, haqiqiy vatanparvar, haqiqiy fuqaro etib yetishtirish uchun, eng avvalo, tarbiyachining o'zi ana shunday

yuksak talablarga javob berishi. ana shunday buyuk fazilatlarga ega bo'lishi kerak»<sup>61</sup>

Har bir tarbiyachi o'z kasbiga oid quyidagi bilim, ko'nikma, malakalarga ega bo'lishi kerak:

- har qanday pedagogik vaziyatlarda tarbiyalanuvchining ichki va tashqi dunyosini to'g'ri tushunish malakasi;

- pedagogik vaziyatlarni to'g'ri idrok qilish uchun diqqatni jamlash;

- tarbiyalanuvchilarga ishonch va talabchanlik;

- tarbiyaviy vaziyatni har tomonlama puxta baholay olish qobiliyati;

- xilma-xil pedagogik taktlardan o'zi uchun eng muhimini ajrata olish qobiliyati;

- ziddiyatli tasodifiy holatlarda ikkilanmasdan to'g'ri qaror qabul qilish;

- tarbiyada ta'sir etishning turli usullaridan foydalana olish qobiliyati;

- fikr va mulohazalarini so'z bilan, mimika va pantomimik harakatlar bilan o'quvchi ongiga aniq yetkaza olish;

- dars va darsdan tashqari faoliyatda o'quvchilar bilan kommunikativ aloqa o'rnatish qobiliyati;

- tarbiyalanuvchilar ongida erkinlik va tashabbuskorlikni, o'z fikr mulohazalarini qo'rqmasdan bayon qilish ko'nikmalarini tarbiyalash;

- qiyin holatlarda o'quvchilarga yordam bera olish;

- o'z-o'zini boshqarishning turli shakllaridan unumli foydalanish;

- har bir tarbiyalanuvchining yashirin ijobiy fazilatlarni ko'ra olish va takomillashtirish;

- tarbiyalanuvchining ijtimoiy kelib chiqishiga qarab toifalarga ajratmaslik, bir xil munosabatda bo'lish.

---

<sup>2</sup>Karimov I.I. O'qituvchi, ustoz, murabbiy. ...//Talabalar va yosh o'qituvchilar uchun. Risola. - Qo'qon DPI, 2009. - 99 b.

### **3.Qobilyatning pedagogik va psixologik xarakteristikasi.**

Pedagogik qobiliyat tarixidan ma'lumki, pedagogik qobiliyat adabiyotda birinchi bo'lib, 19-asr o'rtalarida paydo bo'lgan. Pedagogika nazariyasida o'qituvchilar tayyorlash va pedagogik perseptiv qobiliyatga A.Disterverg diqqat-e'tibor berdi. Shunday qilib, A.Disterverg pedagogik qobiliyatning kuchiga, pedagogik taktga va qat'iy erkinlikka ahamiyat berdi. U o'qituvchining bilim orttirishlik qobiliyatini ilgari surdi. So'ngra 19- asrning ikkinchi yarmida P.G.Redkin "Axloqiy qobiliyat" tushunchasini ilgari surdi. A.Disterverg, P.G.Redkin fikrlarini K.D.Ushinskiy davom ettirdi. K.D.Ushinskiy "Odamni tarbiyalashning eng asosiy yo'li ishontirish, odam e'tiqodiga esa faqat ishontirish bilan ta'sir qilish mumkin" – deydi. A.S.Makarenko fikricha, tasodifiy ravishda o'qituvchi bo'lib qolgan, lekin u bu ishga qiziqib ketib badiiy adabiyotni ko'p o'qigan M.Gorkiyni o'zining ustozlari deb uni asarlarini o'rganishga kirishgan. A.S.Makarenko o'z tajribasiga asoslanib, agar har bir kishi qunt bilan mehnat qilsa, u o'ziga nisbatan talabchan bo'lsa, u yaxshi pedagog bo'lishi mumkin – deydi.

Qobiliyat hamma insonlarda mavjud bo'lib, bir tekisda bo'lmay biri yuqori, biri o'rta va biri quyi darajada bo'ladi. Faqat aqli zaif insonda qobiliyatni uchrata olmaymiz. Maktab o'qituvchisining faoliyati inson shakllanishiga qaratilgan. Muvafaqqiyatli ishlash uchun har bir tarbiyachi pedagogik mahoratga ega bo'lishi zarur. Pedagogik mahorat egasi o'zi mehnat qilib katta natijaga erishadi. Qobiliyat faoliyat jarayonida paydo bo'ladi, qobiliyatni rivojlantirish uchun esa layoqat, zehn, iste'dod inson asab tizimida anatomik – fiziologik xususiyat bo'lishi zarur. Tarbiyachining ba'zi psixik jarayonlari unda shaxsga xos sifatlarni shunday tashkil qiladiki, buni pedagogik qobiliyat deb atash mumkin. Bu qobiliyatni ayrim psixik xususiyatlardan iborat qilib qo'yish mumkin emas. Ta'lim ishlarining muvafaqqiyatli bo'lishini pedagog shaxsiga xos bo'lgan bir qancha sifatlari, jumladan, uning irodasi, hissiyotlari, xarakteriga xos bo'lgan bir qancha xususiyatlarni ham ta'minlab beradi. K.D.Ushinskiy "Faqat shaxs rivojlanishiga va tarkib topishiga ta'sir qilishi mumkin, xarakter ta'siri bilan xarakterni vujudga keltirish mumkin" – deb yozgan edi.

Qobiliyat – shaxsning muayyan faoliyati yuzasidan layoqati va uning kasbini muvafaqqiyatli bajarishdagi subyektiv shart – sharoitni ifodalovchi individual psixik xususiyatlari.

Pedagogik qobiliyatlar –bu bolalar bilan ishlash, bolalarga muhabbat, bolalar bilan muloqotdan zavqlana olish kabilarni ifodalovchi layoqat bo‘lib, tarbiyachi shaxsining kasbiy sifatlaridir. . Qobiliyat faoliyat jarayonida paydo bo‘ladi va rivojlanadi. Qobiliyat malaka va uddaburonlikdan farq qiladi. Malaka va uddaburonlik mashq, o‘qish natijasi hisoblansa, qobiliyatning rivojlanishi uchun esa yana iste’dod layoqat va zehn, ya’ni inson asab tizimida anatomik – fiziologik xususiyat bo‘lishi zarur.

Ko‘p sonli o‘qituvchi, tarbiyachi, maktab direktori, o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari va internat xodimlaridan qobiliyat haqida: “Shaxsning qaysi sifatlarini siz pedagogik qobiliyat deb hisoblaysiz?” – deb berilgan savolga 82 ta yozma javob olingan.

V.A.Slastenin ta’rificha pedagogik qobiliyat shaxsning kasbiy yo‘nalishdagi yuqori ko‘rinishidir, har qanday faoliyat qobiliyatining asosiy ko‘rsatgichi uning fikricha, maxsus umumlashgan malakalarni egallaganligidir. Keyingi yillarda olib borilgan ilmiy ma’lumotlar shuni ko‘rsatmoqdaki , pedagogik qobiliyatlar tarkibida quyidagi elementlar o‘zaro uzviy bog‘langan bo‘lishi zarur.

- pedagogik layoqat;
- kasbiy bilim;
- pedagogik faoliyatga tegishli qobiliyatlar;
- pedagogik texnikani egallanganlik.

#### Qobiliyat turkumlari.

Tashkiotchilik  
qobiliyat

Kommunikativ  
qobiliyat

Perseptiv  
qobiliyat

Didaktik  
qobiliyatlar

Obro‘-e’tibor  
qozonish qobiliyati

Tushuntira olish  
qobiliyati

Tadqiqiy  
qobiliyat

Obro‘-e’tibor  
qozonish qobiliyati

Diqqatni taqsimlash  
qobiliyati



### **Mavzu yuzasidan nazorat savollari.**

1. Tarbiyachi mahorati deganda nima tushuniladi?
- 2-Pedagogik qobiliyatlarning turlari qanday?
- 3.Kasbiy qobiliyat deganda nimani tushunasiz?
- 4.Tarbiyachining bilish qobiliyatini Markova g'oyasiga ko'ra nechta guruhga bo'lish mumkin?
- 5.Pedagogik mahoratning ahamiyati nimadan iborat?
- 6.Pedagogik faoliyatning o'ziga xosligi nimadan iborat?
- 7.Pedagogik mahoratning tashkil etuvchi komponentlari nechta?
8. Pedagogik mahorat komponentlarini hosil qiladigan qanday malaka guruhlari farqlanadi?
- 9.Nutq madaniyati deganda nimani tushunasiz?
10. Zamonaviy tarbiyachining kasbiy mahorati nimalardan iborat deb o'ylaysiz?

### **Mustaqil ish uchun mavzu.**

1. Kreativ pedagogning fikrlashi ana'naviy pedagog fikrlashidan farqli tomonini tahlili.

### **3-mavzu:Pedagogik qobiliyat va uning va asosiy turlari.**

#### **Reja:**

- 1.Qobiliyat turlari. Tarbiyachining bilish, kuzatuvchanlik, nutq qobiliyatlari.
2. MTT tarbiyachilarining bolalar hayotidagi aktyorlik , kelajakni ko'ra olish qobiliyati.
3. Muammoli vaziyatlarni hal etishda tarbiyachining pedagogik qobiliyati.

**Tayanch so'z va iboralar:** Tashkilotchilik, obro' orrtira olish, to'g'ri muomala qilish, kelajakni ko'ra bilish, aktyorlik, pedagogik qobiliyat. bilish,kuzatuvchanlik,nutq qobiliyatlari

#### **1.Qobiliyat turlari. Tarbiyachining bilish, kuzatuvchanlik, nutq qobiliyatlari.**

Quyidagi pedagogik qobiliyat turlari aniqlangan.

1. Tashkilotchilik qobiliyati – bu tarbiyachining bolalarlarni jipslashtirish, band qilish, vazifalarni oqilona taqsimlash, ishni

rejalashtirish, bajarilganlarga yakun yasash, mehnat qilishga ilhomlashtirish kabilarda o'z ifodasini topadi.

2. Didaktik qobiliyatlar –o'quv materialni tanlash va tayyorlashdagi aniq ma'lumotlar mavjudligi, mashg'ulot mohiyatini ko'rgazmali, jihozlangan bolalar yoshiga mos ravishda aniq, ifodali, ishonarli va izchillikda yetkazib berishda bolalarlarni qiziqitira olish va boshqalarda namoyon bo'ladigan qobiliyatdir.

3. Perseptiv kuzatuvchanlik qobiliyati –bu qobiliyatlar bolalarlar ichki dunyosiga kira olish, ularning hissiy holatlarini obyektiv baholashi qiziquvchanlik, parishonxotirlik, faollik yoki passivliklarni ko'ra bilish, seza bilish bilan xarakterlanadi.

4. Kommunikativ qobiliyat –bu qobiliyatlar pedagogik nuqtayi nazarda maqsadga muvofiq bolalarlar, ularning ota-onalari, hamkasblar, ta'lim muassasi rahbariyati bilan aloqa o'rnatishda namoyon bo'ladi.

5. Obro'–e'tibor qozonish qobiliyati –bu bolalarlarga bevosita emotsional –irodaviy ta'sir ko'rsatish va shu asnoda obro' qozonishdir. Tarbiyachi obro' –e'tiborga did bilan kiyinishi va chiroyli gapirishi bilan erishmaydi, balki tarbiyachi haqiqiy hurmatga o'z fanini yaxshi bilishi, mehribonligi, samimiyligi, mehnatsevarligi pedagogik takt va nazokatga ega ekanligi bilan erishadi. Bolalarlar o'z ustozlarini dildan yaxshi ko'rishadi.

6. Tadqiqotchilik qobiliyati – bu qobiliyatlar tarbiyachining pedagogik vaziyat va turli xil jarayonlarni anglab yetishi va to'g'ri baholay bilishlarida namoyon bo'ladi.

7. Diqqatni taqsimlay olish qobiliyati. Bu qobiliyat tarbiyachi uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Qobiliyatli tarbiyachi darsini bayon qilish mazmunini va shaklini diqqat bilan nazorat qiladi. Shu bilan birga u barcha bolalarlarni kuzatadi. Tashxis zo'riqish xushyorlik alomatlarini sezib turadi.

8. Nutq qobiliyati. Bu tarbiyachining nutq yordamida imo ishora vositasida o'z fikr va tuyg'ularini aniq, ravon ifodalash qobiliyatlaridir. Tarbiyachining nutqi darsda hamma bolalarlarga qaratilgan bo'ladi. Tarbiyachi yangi saboqni tushuntirayotgan, bolalar javobini tahlil qilayotgan bo'lsa ham uning nutqi hamisha o'zining ishonch kuchi, o'zi gapirayotgan narsaga qiziqqarligi bilan, hissiyotlilik bilan ajratib turadi. Fikrning irodasi bolalarlar uchun

aniq, sodda tushunarli bo'ladi. Bolalarlarning yaxshi o'zlashtirishlari uchun o'rtacha tezlikdagi nutq yaxshi samara beradi. Bolalarning zaif ovozi yomon eshitiladi. Ortiqcha takrorlanadigan fikr va imo – ishoralar kishining g'ashini keltiradi. Bularning barchasi nutq etikasi e'tiborini qaratishni talab etadi.

9. Tushuntira olish qobiliyati –bu o'quv materialini bolalarlarga tushunarli qilib bayon etish, tinglovchilarga mustaqil ravishda faol fikrlashga qiziqish uyg'otish qobiliyatidir. Tarbiyachi zarur hollarda o'quv materialini o'zgartira olish, qiyin narsalarni oson, murakkab narsalarni oddiy, noaniq narsani aniq tushunarli qilib bolalarlarga yetkaza olishi zarur.

Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi tarbiyachining faoliyati inson shakllanishiga qaratilgan. Muvafaqqiyatli ishlash uchun har bir tarbiyachi pedagogik mahoratga ega bo'lishi zarur. Pedagogik mahorat egasi o'zi mehnati bilan kata natijaga erishadi. Qobilyat faoliyat jarayonida namoyon bo'ladi. Qobilyatni rivojlantirish uchun esa layoqat, zehn, iste'dod inson asab tizimida anatomik-fiziologik xususiyati bo'lishi zarur. Tarbiyachining bazi psixik jarayonlari unda shaxsga xos sifatlarni shunday tashkil qiladiki buni pedagogik qobilyat deb atash mumkin. Bu qobilyatni ayrim psixik xususiyatlardan iborat qilib qo'yish mumkin emas. Ta'lim ishlarining muvafaqqiyatli bo'lishini pedagog shaxsi xos bo'lgan bir qancha sifatlar jumladan, uning irodasi, hissiyotlari, xarakteriga xos bo'lgan bir qancha xususiyatlarni ham ta'minlab beradi.

Qobilyat- shaxsning muayyan faoliyati yuzasidan layoqati yuzasidan kasbini muvafaqqiyatli bajarishdagi sub'ektiv shart-sharoitni ifodalovchi individual psixik xususiyatlari. Qobilyatni rivojlantiruvchi anatomik-fiziologik xususiyatlar tug'ma bo'ladi. Empatiya boshqa odamlarning psixik holatlarini tushinishni va ularga hamdardlik qilish qobilyati.

**Pedagogik bilish qobiliyati:** Tarbiyachiga xos bo'lgan bilimlarni o'qitish va tarbiya uslublarini yangi pedagogik sharoitda ham o'tkaza olish. Har bir pedagogik holat uchun yangi yechimlarni topa bilish.

Aniq pedagogik vaziyatlarda yangi pedagogik yechimlarni va ideallarni taklif eta olish hamda yangisini yecha olish uslublarini topaolish.

Tarbiyachining bilish qobiliyatini Markova g'oyasiga ko'ra 7guruhga bo'lish mumkin:

1-guruh: pedagogik vaziyatdagi muommoni ko'ra bilish va uni pedagogik masalaga aylantira olishi, pedagogik holatni o'zgarishiga qarab maqsadni zudlik bilan vaziyatga tomon yo'naltira bilish.

2-guruh: a) nimani o'rgatish;

b) kimni o'qitish;

c) qanday o'qitish;

3-guruh: pedagogik bilimdonlikning talabalar pedagogik, psixologik bilimlarini, yangi pedagogik tajribalarni bilish-bilmasligini bilgan holda tinglovchilar va o'zmehnatini, o'zining tajribalarini baholab dars o'tish.

4-guruh: yuqori darajadagi muloqot uslublaridan foydalanish. Unga boshqaning dunyoqarashini bilish, uning shahsiga to'g'ri munosabatda bo'lish va boshqalar kiradi.

5-guruh: bu asosan pedagogikning o'z o'rnini bilgan holda o'zining kasbiy o'rnini saqlay bilish, o'zining pedagogik qobiliyatini ishga solish va o'stirish, o'zining emotsional holatlarini saqlay bilishi va hakoza.

6-guruh: o'z kasbi rivojlanish holatini bila olish, o'z individual stillini yaratish.

7-guruh: o'z tarbiyalanuvchisining yil boshida va yil oxiridagi bilimlarini aniqlay olishi, o'qitilganlikning alohida ko'rsatkichlarini topa bilish, o'qitilganlik va o'qitishning barcha tashkil etuvchilarini o'z vaqtida ishlab chiqa bilish.

Bilish qobiliyati - fanning tegishli sohalariga oid qobiliyatlar. Bunday qobiliyatga ega bo'lgan o'qituvchi fanni o'quv kursi hajmidagina emas, balki ancha keng va chuqurroq biladi. O'z fani sohasidagi kashfiyotlarni hamisha kuzatib boradi.

**Kuzatuvchanlik qobiliyati** – tarbiyachining, tarbiyalanuvchining ichki dunyosiga kira bilish qobiliyati, o'quvchi shaxsini va uning vaqtinchalik ruhiy xolatini juda yaxshi tushuna bilish bilan bog'liq bo'lgan psixologik kuzatuvchanlikdir.

Kuzatuvchanlik qobiliyati yoki Makarenko aytganidek, "Yuzaga qarab o'qish qobiliyati"<sup>23</sup>, ya'ni ta'lim oluvchining ichki dunyosiga kira olish, ziyraklik, talaba shaxsini tushunish va uning vaqtinchalik ruhiy holatlarini anglash. Bularga, albatta, tashqi

omillar, talabaning xulq-atvori hamda pedagogik tajriba ham ta'sir ko'rsatadi.

**Nutq qobiliyati** – nutq yordamida, shuningdek, imo – ishora vositasida o'z fikr va tuygularini aniq ifodalash qobiliyati. Bu tarbiyachilik kasbi uchun juda muhim.

Nutq madaniyati-ijtimoiy madaniy, kishilik jamiyati madaniyatini aks ettiruvchi bir ko'zgudir. Nutq adabiy tilning har ikki shakli-yozma va og'zaki shakli uchun zarurdir.

## TARBIYACHI NUTQINING ASOSIY XUSUSIYATLARI

Nutqning tog'riligi va ravonligi.

Nutqning aniqligi va ta'sirchanligi.

Nutqning tozaligi va ifodaliligi.

Nutqning mantiqiyliigi.

Quyida tarbiyachining nutq madniyatiga xos bo'lgan vositalarni pedagog-tarbiyachi unutmashligi kerak.

1.Nutq madaniyati tarbiyachining ma'naviy-axloqiy kamoloti tarkibiy qismidir.O'z ona tilimizga e'tiqodni namoyish etuvchi yorqin dalildir.

2.Nutq madaniyati o'qituvchilarni ma'naviy va madaniy saviyasi bilan,hamda adabiy tilni mukammal bilishi bilan boshqa kasb egalaridan ma'lum ma'noda ajratib turadi.

3.Nutq madaniyatining maqsadi erkin fikr egasi bo'lgan barkmol avlodni qanday

kasb egasi b'olib yetishishidan qat'iy nazar ma'naviy jihatdan tarbiyalash.

4.Nutq madaniyati-bu nutqiy ko'nikma va malakalarni hosil qilish, bu ko'nikma pedagog faoliyatida takomillashib boradi.

5.Nutq madaniyatida o'zbek adabiy tilini mukammal egallash asosida erishiladi.Buning uchun adabiy til qonuniyatlarini

bilishi, badiiy adabiyotlar o'qishi, she'r yodlashi, radio, televideniye eshittirilishlari doimiy kuzatib borishi kerak.

6. Nutq madaniyatini egallashning yana bir korinishi taqliddir, yosh tarbiyachilar katta tajribaga ega bolgan, ma'noli va ta'sirchan sozlaydigan murabbiylar nutqiga taqlid qilishi kerak.

## **2 MTT tarbiyachilarining bolalar hayotidagi aktyorlik, kelajakni ko'ra olish qobiliyati.**

Pedagogning amaliy faoliyatida barcha qobiliyatlar bir xil muhimlikka egamikan? Ma'lum bo'lishicha, unday emas. So'nggi yillarda o'tkazilgan tadqiqotlar "yetakchi" va "yordamchi" qobiliyatlarni ma'lum qiladi. Yetakchi qobiliyatlar – pedagoglar orasida o'tkazilgan ko'p sonli so'roqlarga ko'ra, pedagogik ziyraklik (kuzatuvchanlik), didaktik, tashkiliy, ekspressiv qobiliyatlardan iborat. Qolgan qobiliyatlar yordamchi qobiliyatlar qatoriga kiradi. Pedagog yuqorida ko'rsatilgan qobiliyatlardan tashqari, bir qancha kasbiy sifatlarga – aniq maqsadni ko'zlash, qat'iylik, mehnatsevarlik, kamtarlik kabi sifatlarga ega bo'lishi kerak. Bunday xususiyatlar bo'lmasa, o'rta pedagogik darajasidan yuqoriga ko'tarila olmaydi. Buyuk rus tarbiyachi K.D.Ushinskiy tarbiyachini "yosh qalb uchun yoqimli quyosh nuri"ga qiyoslagan. Olim tarbiyachilikni chuqur va keng qamrovli bilimsiz tasavvur eta olmagan. Ammo birgina bilim ozlik qiladi. Mustahkam e'tiqod, ham tarbiyachi uchun zarur fazilat. Usiz haqiqiy tarbiyachi bo'lish mumkin emas. Har qanday dastur, har qanaqangi metodlar, qanchalik ular yaxshi bo'lishidan qat'iy nazar tarbiyachi e'tiqodiga aylanmasa haqiqatda hech qanday kuchga ega bo'lmagan o'lik harflar kabidir. Tarbiyachi shaxsiga qo'yiladigan talablar –bu pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshiruvchi kasbiy sifatlarning tizimidir. Avvalambor shuni e'tiborga olish kerakki, amaliy pedagogik faoliyatning teng yarmi mavjud texnologiyalardan oqilona foydalanishdir. Uning ikkinchi yarmi esa san'atdir. Shuning uchun mutaxassis tarbiyachiga qo'yiladigan birinchi talab pedagogik qobiliyatlarning mavjudligidir. Bu o'rinda savol tug'iladi –maxsus pedagogik qobiliyatlar mavjudmi? Tadqiqot olib borayotgan olimlar bularning mavjudligini e'tirof etishmoqda. Tarbiyachi qobiliyatiga ta'sir etuvchi omillar Tarbiyachi ning kasbiy salohiyatiga jiddiyroq qaraydigan bo'lsak, tarbiyachi qobiliyati

birinchi rejada turganligining guvohi bo‘lamiz. Tarbiyachi qobiliyatiga juda ko‘plab ta‘riflar berilgan. Qiziqarlisi shundaki, ularning hech birini inkor etib bo‘lmaydi. Ularning har bir boshqa ta‘rifda uchramaydigan qobiliyat qirrasini ifodalaganligi bilan ham qadrlidir. Shu bilan birgalikda ularning hech birini ideal deb qabul qilish ham og‘ir. Masalan: “Pedagogik ensiklopediya”da quyidagicha izoh berilgan. “Pedagogik qobiliyat –bu yuqori darajadagi va doimiy takomillashib boruvchi ta‘lim –tarbiya san‘atidir. Bu san‘atga shu sohada ishlayotgan va bolalarni sevgan har bir pedagog erishishi mumkin. Mohir tarbiyachi –bu yuqori madaniyatli, o‘z fanini chuqur biluvchi, turdosh fan va san‘at saholaridan xabardor, umumiy va xususan bolalar psixologiyasini yaxshi o‘zlashtirgan, ta‘lim –tarbiya metodikasini to‘liq egallagan mutaxassisdir”.

Pedagogika tarixida tarbiyachi qobiliyatga 2 xil yondashuv mavjud.

1. Pedagogik mehnat metodlari tushunilsa.

2. Tarbiyachi shaxsi bilan bog‘liq deb tushuniladi. Amalda esa metod tarbiyachi shaxsi bilan ajralmas tushunchadir. Shuning uchun bu yerda hech qanday tafovut mavjud emas. Faqat farq bu yerda shundaki, qobiliyatga qaysi nuqtai nazar bilan baho berishda, ya‘ni shaxs tufayli amalga oshiriluvchi metod yoki metod tufayli tarbiyachi shaxsining namoyon bo‘lishi. Tarbiyachilik qobiliyatini egallash uchun ko‘p o‘qish va bilish zarur. Tarbiya qonun va qoidalarini aniq bilish kerak. Bundan tashqari ta‘lim – tarbiya samaradorligini oshiruvchi texnologiyalarni to‘liq egallagan bo‘lishi, ularning har biridan aniq vaziyatlarda o‘rinli foydalana bilish, tashxis qo‘ya bilish zarur. “Bizning pedagogik mehnatimizda hamma narsani - deydi professor Yu.P.Ikara “Qobiliyat hal qiladi” ammo tarbiyachilar uchun qobiliyatga yo‘l odatda qanchalar murakkab va qanchalar uzoq”.

Makarenko tarbiyachiga mehnat kishisiga qaraganlik qarashni talab etadi. U pedagogik qobiliyat masalasini tarbiyachi mehnatini oqilona boshqarish muammosi bilan uyg‘unlikda tushunadi. “Bizning asablarimiz pedagogik instrument emas bunga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Biz bolalarni yuragimizni ezib asablarimizni qiynab, tarbiyalamasligimiz lozim.” A.S.Makarenkoning ta‘kidlashicha pedagogik qobiliyat quyidagilarda o‘z aksini topadi:

- ovoz ohanglarini boshqara bilishda;
- o'z yuziga zarur ma'noni bera bilishda;
- mimika va pantomimikadan o'rinli foydalana bilishda;
- o'z hissiyatini boshqara bilishda.

### **3. Muammoli vaziyatlarni hal etishda tarbiyachining pedagogik qobiliyati.**

Tarbiyachi qobiliyati avvalambor o'quv jarayonini tashkil etishda o'z ifodasini topadi. U bu jarayonni shunday tashkil etish kerakki, hatto zarur sharoit yetarli bo'lmagan joyda ham bolalarlarni tarbiyalashda va bilim berishda yuqori darajaga erishsin. Haqiqiy tarbiyachi har qanday sharoitda bolalarlarning har qanday savoliga javob topa oladi. Bunday tarbiyachi o'z fanini chuqur biladi. Fan – texnika yutuqlaridan xabardor, u zamonaviy adabiyotni madaniyat yangiliklarini, sport olamini yaxshi biladi. Demak mohir tarbiyachi –bu o'qitishning zamonaviy metodlarini a'lo darajada o'zlashtirib olgan mutaxassisdir. Ammo bunga o'rganish mumkinmi? Ko'pgina mohir va tajribali tarbiyachilarning guvohlik berishicha mumkin. Buning uchun xohish intilish va zarur sharoit bo'lishi lozim. Bu oson yo'l emas. Bu tizimli va doimiy ishni talab qiladi. Bu yo'l quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- mohir tarbiyachi larning ishlarini kuzatish;
- doimiy o'z bilimini oshirib borish;
- maxsus adabiyotlarni o'rganish;
- o'qitishning yangi usullarini o'z amaliyotiga kiritish;
- o'z ishini tahlil qila bilish.

A.S.Makarenko bo'lajak pedagog talabalik davridayoq pedagogik mahorat sirlarini o'rganishi zarurligini ta'kidlab, shunday deydi: «Tarbiyachi tashkil etishni, yurishni, hazillashishni, quvnoq, jahldor bo'lishni bilishi lozim, u o'zini shunday tutishi lozimki, uning har bir harakati tarbiyalasin.»<sup>1</sup> Tarbiyachi san'ati asosan darsda o'qitish malakasini egallaganlikda namoyon bo'ladi. Tajribali tarbiyachilar xususan darsda bolalarlarning dastur materialini o'zlashtirib olishga erishadilar. Mohir tarbiyachi go'yo ta'lim jarayoniga drijyorlik qiladi, bolalarlar faoliyatini boshqaradi, mustaqil ishlashga va fikrlashga yo'naltirib boradi. Tajribali tarbiyachilar muvaffaqiyatining siri bolalarlar faoliyatini boshqara bilish ko'nikmasining mavjudligidadir. Pedagogik qobiliyatning



navbatdagi tarkibiy qismi –bu ta’lim jarayonida tarbiyaviy ishlarni samarali o‘tkazish malakasiga ega bo‘lganlik. Tarbiyachi bu malaka bilan bolalarda yuqorida rejadagi axloqiylikni, vatanparvarlik hissini, mehnatsevarlikni tarbiyalash imkoniyatiga erishadi. Sharoitga ega bo‘lmagan tarbiyachi fikrlashga da’vat qilmasdan majburlab bilim berishga harakat qiladi. Mohir tarbiyachi esa bilim asoslarini bolalarga achchiq qilib emas, balki shirin qilib yetkazib beradi. Tarbiyachining vazifasi –ta’lim jarayonining o‘zidayoq ijobiy his – tuyg‘ularni vujudga keltirib ishlashi lozim. Bunga oddiy vositalar bilan erishish mumkin: ish usulini o‘zgartirish hissiyotlilik, tarbiyachining faolligi, qiziqarli misollar va hokazo. Pedagogik qobiliyat mohiyati –bu tarbiyachi shaxsiy madaniyati, bilimi, dunyoqarashining o‘ziga xos namoyon bo‘lishidir, uning har tomonlama nazariy tayyor ekanligini, ta’lim tarbiya metodlarini hamda pedagogik texnika va ilg‘or tajribalarni yetarli darajada egallaganligini belgilovchi omildir. Pedagogik qobiliyatning muhim monumentlaridan biri –bu tarbiyachi pedagogik texnikasining yuqori darajada rivojlanganligi va shakllanganligidir.

Pedagogik texnika –“Pedagogik ensiklopediya” da berilgan ta’rifda tarbiyachi uchun zarur bo‘lgan bilim, malaka ko‘nikmalar majmuasi bo‘lib, alohida bolalarga yoki butun sinf jamoasiga pedagogik ta’sir etish metodlarini amaliyotda tanlay bilishni ta’minlaydi. Pedagogik texnikani qo‘llay bilish pedagogik qobiliyatning tarkibiy qismi bo‘lib, tarbiyachi dan pedagogika va psixologiya keng qamrovli maxsus bilimlarni va amaliy tayyorgarlikni talab etadi. Tarbiyachi avvalambor bolalar bilan muloqot qilish sanati ega bo‘lishi zarur. U muloqotda kerakli ovoz balandligi, jiddiyligi va samimiyligiga ega bo‘lishi kerak, har bir bolaga alohida yondashish ko‘nikmasiga ham ega bo‘lishi zarur. Ular bilan muloqotda nazariy o‘rgatuvchi va intizomga chaqiruvchi sun’iy ovoz balandligida gapirish zarurdir. Pedagogik texnikaning tarkibiy qismlaridan biri –tarbiyachining o‘z diqqatini va bolalarlar diqqatini boshqara olishdir.

Tarbiyachi doim ko‘p sonli bolalar jamoasi bilan ishlaydi, shunday bo‘lsa-da u bularning birontasini ham nazardan chetda qoldirmasligi zarur. Bolalarlar ruhiy holatni har doim e’tiborga olish pedagogik fakt asosini tashkil etadi va u pedagogik faoliyatda muhim


ahamiyat kasb etadi. Pedagogik faoliyat tezligi pedagogik texnikaning tarkibiy qismlaridan biridir. Ko'pgina xatolarning asosiy sababi tarbiyachi va faoliyati tezligini to'g'ri taqsimlay olmasligidir, u yoki bu ishlarda shoshadi yoki kechikadi. Pedagogik texnikaning ko'rsatkichlardan biri tarbiyachining ma'lum his tuyg'ularini ifodali namoyon qilish ko'nikma va malakalarining mavjudligidir. Tarbiyachi befarq turishi mumkin emas.

Pedagog, – deydi Al Forobiy, - aql-farosatga, chiroylik nutqqa ega bo'lishi va tarbiyalanuvchilarga aytmoqchi bo'lgan fikrlarini to'la va aniq ifodalay olishni bilmog'i zarur." U o'z fikrini davom ettirib: "Pedagog va rahbarning vazifasi dono davlat rahbari vazifasiga o'xshaydi, shu sababli pedagog eshitgan va ko'rganlarining barchasini eslab qolishi, aql-farosatga, chiroyli nutqqa ega bo'lishi, pedagoglarga aytmoqchi bo'lgan fikrlarini to'la va aniq ifodalab berishni bilmog'i lozim. Shu bilan birga o'z ornomusini qadrlashi, adolatli bo'lmog'i lozim. Ana shundagina u insoniylikning yuksak darajasiga ega bo'ladi va baxt cho'qqisiga erishadi" , - deb ta'kidlaydi.

Abu Ali ibn Sinoning fikricha "...Pedagog matonatli, sof vijdonli, rostgo'y va bolani tarbiyalash metodlarini, axloq qoidalarini yaxshi biladigan odam bo'lmog'i lozim. Pedagog tarbiyalanuvchining butun ichki va tashqi dunyosini o'rganib, uning aql qatlamlariga kira olmog'i lozim"

Nosiriddin Tusiy o'zining "Pedagoglarni tarbiyalash to'g'risida" degan asarida shunday deydi: "...O'qituvchi munozaralarni olib borishni, rad etib bo'lmaydigan darajadagi isbot qilishni bilishi, o'z fikrlarining to'g'riligiga ishonishi, nutqi esa mutlaqo toza, jumalari mantiqiy ifodalanadigan bo'lishi lozim... O'qituvchi nutqi hech qachon va hech qayerda zaharxandali, qo'pol yoki qattiq bo'lishi mumkin emas. Dars paytida o'qituvchining o'zini tuta olmasligi ishni buzishi mumkin.

Qoshg'ariy: "...Men a'zolar kasalligini davolashdan oldin odamlarning ruhiyatini davolashni zarur deb topdim. Bunga men pedagoglik yo'li bilan erishaman, bunga mening ishonchim komil. Chunki a'zolar kasalligi bilan yuzlarcha, minglarcha odamlar halok bo'lsalar, nodonlik, bilimsizlik tufayli o'n ming va yuz minglarcha odamlar halok bo'ladilar..."



Ulug' shoirimiz Alisher Navoiy ham pedagog mehnatini holisona baholab: "Agar shogird podsholikka erishsa ham, unga (muallimga) qulluq qilsa arziydi", "Haq yo'lida kim senga bir harf o'rgatmish ranj ila" kabi satrlar bitgan.

Pedagog o'z faoliyati maqsadini va unga erishish yo'llarini aniq tasavvur qilishi va bu maqsadga erishish tarbiyalanuvchilar uchun ham ahamiyatli ekanligini ularga anglata olishi zarur. Gyote ta'kidlaganidek: «Ishonch bilan gapir, ana shunda so'z ham, tinglovchilarni mahliyo qilish ham o'z-o'zidan kelaveradi»<sup>2</sup>

### **Mavzu yuzasidan nazorat savollari.**

1. Pedagogik qobilyat deganda nimani tushunasiz?
2. Pedagogik qobilyatning turlarini sanab bering?
3. K.D. Ushiniskiyning tarbiyachi haqidagi fikrlarini ayting?
4. Didaktik qobilyat va kommunikativ qobilyat haqida ma'lumot bering?
5. A.S. Makarenkoning qobilyat haqidagi fikrlarini ayting?
6. Perseptiv qobilyat bilan nutqiy qobilyat haqida ma'lumot bering?
7. Pedagoglik kasbi haqida qaysi allomalar o'z fikrlarini aytib o'tgan?
8. Pedagogik qobiliyatlar tarkibi qaysi elementlardan tashkil topgan bo'ladi?
9. Diqqatni taqsimlash qobilyati deganda nimani tushunasiz?
10. Tadqiqiy bilish qobilyati va tushuntira olish qobilyati haqida ma'lumot bering?

### **Mustaqil ish uchun mavzu**

**I.** Pedagoglik kasbining ijtimoiy ahamiyati, pedagogik nazokat, samimiylilik va insonparvarlik

## 4-mavzu: Zamonaviy tarbiyachining imidji

REJA:

1. Zamonaviy tarbiyachining pedagogik odobi.
2. Pedagogik nazokat-tarbiyachi imidjida muhim jihat.
3. Pedagogik mahoratning tarbiyachi imidjida ahamiyati.
4. Tarbiyachining nutq texnikasi va madaniyati

*Tayanch soʻz va iboralar: imidj, pedagogik odob, pedagogik nazokat, nutq texnikasi, pedagogik mahorat, konsepsiya, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, 30-modda, shaxs, nutq madaniyati, nutq texnikasi, ritmika, tezligi, notiqlik mahorati, nafas, ovoz, talaffuz, zararli odatlar, pedagogik muloqot, muloqotdagi uslubi va pozitsiyalari.*

### 1. Zamonaviy tarbiyachining pedagogik odobi.

Imij (ing. image, lot. imago – timsol, koʻrinish) – shaxs, hodisa, narsani ommalashtirish, reklama qilish va h. k. maqsadlarda odamlarga hissiy, ruhiy taʼsir koʻrsatishni koʻzlab shakllantiriladigan qiyofasi; targʻib qilish vositalaridan biri (mas, siyosiy arbob I.i)...<sup>7</sup>. Zamonaviy tarbiyachi imidjida muhim jihatlar uning tashqi koʻrinishi, qiyofasi, pedagogik odob va nazokati hamda nutq texnikasi, madaniyatidir.

Odob deganda, rasm taomil, xulq odatlar majmui, ijtimoiy-iqtisodiy tuzum taqazosi bilan turmush sharoitining alohida tarzi, anʼanalari negizida odamlar oʻrtasida paydo boʻlgan muomala-munosabatlarning xususiyatlari tushiniladi. Odob kishilarning amaliy hatti-xarakatlari, muomala-munosabatlari ham deb qaraladi. Pedagog odobi umuminsoniy va milliy axloqning qonuniyatlari, vazifalari, tamoyillari, tushunchalari, talablari, mezonlarini taʼlim-tarbiya jarayonida oydinlashtirib, pedagogning taʼlim oluvchilar, kasbdoshlari, ota-onalar, taʼlim muassasasi rahbarlari bilan munosabatlarida namoyon boʻladigan kasbiy-axloqiy xususiyatlari yigʻindisidir.

Pedagogik odob, eng avvalo, tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning oʻzaro munosabatlarida namoyon boʻladi. Biroq bunday yondashuv

<sup>7</sup>Oʻzbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil. 132-bet.<sup>7</sup>

bir qadar cheklangan nuqtai nazar ekanligini ta'kidlash joiz. Zero, tarbiyachining kasbiy axloqi faqat tarbiyalanuvchilar bilan muloqot jarayonidagina namoyon bo'lmaydi, balki uning butun faoliyati davomida birinchi darajali ehtiyoj sifatida ifodalanadi. Boshqacha aytganda, pedagog odobi tushunchasi tarbiyachi dunyoqarashining hayotiy tizimini anglatadi. Pedagog odobi tushunchasining mazmuni axloqiylik bilan birga iqtisodiy, siyosiy, huquqiy jihatlarini ham o'z ichiga qamrab oladi.

### **BUYUK MUTAFAKKIRLAR O'QITUVCHI VA TARBIYACHI AXLOQ-ODOBI HAQIDA**

- O'rta Osiyoda yashagan allomalar yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash, shuningdek tarbiyachi faoliyati va odobiga doir ta'limotlarni ham yaratdilar.

- Abu Nasr Forobiy o'z asarlarida, har bir kishi jamiyatga, davlatga munosib inson bo'lishi uchun ta'lim va tarbiya olishi lozim deb hisoblaydi. Yoshlarga ta'lim va tarbiya beradigan ustoz shogirdiga nisbatan juda qattiq zug'um qilishga intilmasligi, shuningdek, haddan tashqari ko'p yon berishga ham intilmasligi lozim. Chunki ortiqcha zug'um shogirdga ustozga nisbatan nafrat uyg'otadi, bordi – yu, shogird ustozning juda yumshoqligini payqab qolsa, bu hol ustozni mensimaslikka va u beradigan bilimdan sovishga olib keladi.

Axloqiy ta'lim-tarbiyaning tarkibiy qismi sifatida pedagog odobi fazilatlarini shakllantirishda ikki yo'nalishdagi aloqador tushunchalarni tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Birinchi- jamiyatning  
tarbiyachi shaxsiga  
munosabati

Ikkinchi- tarbiyachi  
shaxsining jamiyatga  
munosabati

Tarbiyachi odobining mohiyati, asosiy mazmuni pedagogik faoliyat uchun muhim bo'lgan axloqiy sifatlarda ifodalanadi. Umuminsoniy va milliy axloqiy fazilatlar barcha kishilar, hamma kasb egalari, jumladan, tarbiyachilar uchun juda zarurdir.

Axloqiy fazilatlar mehnat jarayonida kishining xulqi, fe'l-atvorini tartibga solib turuvchi axloqiy qoidalar, normalar, talablar, mezonlar shaklida ifodalanadi.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, «Yosh avlodimizning qalbi va ongini asrash, ularni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, farzandlarimizning dunyoda ro'y berayotgan siyosiy jarayonlarning ma'no-mazmuni va asl sabablarini chuqur anglashi, o'z atrofida sodir bo'layotgan voqealar haqida haqqoniy ma'lumotlarga, eng muhimi, o'z mustaqil fikriga ega, sodda qilib aytganda, oqni qoradan ajratishga qodir bo'lishiga erishish ta'lim-tarbiya va ma'naviy-ma'rifiy ishlarimizning asosiy sharti va mezoni bo'lishi kerak. Bugungi vaziyatda mustaqil ong va mustaqil fikrga ega bo'lgan shaxsni tarbiyalash masalasi nafaqat ma'naviy, kerak bo'lsa, muhim siyosiy ahamiyat kasb etadi». Bu vazifalarning bajarilishiga, ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlarning asosiy amalga oshiruvchisi bo'lgan o'qituvchi-tarbiyachining bolalar bilan o'zaro muomalaga kirishish madaniyati orqali erishiladi. Bolalar ma'naviy muhitining shakllanishi tarbiyachilarning yuksak axloq namunasi orqali namoyon bo'ladi. Bu o'rinda tarbiyachining shaxsiy va ijtimoiy harakati pedagogik muloqot madaniyati zamirida shakllanib, takomillashadi.

## **2. Pedagogik nazokat-tarbiyachi imidjida muhim jihat.**

Tarbiyachining bolalar muhitiga uzviy ravishda qo'shilib keta olishi nihoyatda qiyin jarayon. Lekin uning pedagogik faoliyati bevosita tarbiyalanuvchilar orasida olib boriladi. O'zaro munosabatlarni ishonch va do'stlik tuyg'ulari bilan mustahkamlab borish tarbiyachidan jiddiy psixologik tayyorgarlikni talab qiladi. Buning uchun tarbiyachi avvalo, turli xarakterdagi tarbiyalanuvchilardan iborat bo'lgan, guruh jamoasida tez-tez o'zgarib turadigan pedagogik vaziyatlarga darhol o'z munosabatini bildirishi va unga odilona baho berishi kerak. U tarbiyalanuvchilar hatti-harakatini to'g'ri idrok etishi, vaziyatlarni oldindan ko'ra

bilishi, tarbiyaviy metodlarni o'z o'rnida qo'llashi, tarbiyalanuvchilar bilan muomalada bosiqlik, sabr, milliy an'ana va turmush tarzimizdan kelib chiqqan muruvvat va himmat, odamiylik va mehr-oqibat tuyg'ularini ko'rsata olishi shart. Bu vazifalar tarbiyachining zimmasiga yuklanadigan va u rioya qilishi lozim bo'lgan pedagogik nazokat deb atalmish faoliyatning zarur shartidir.

Pedagogik nazokat – tarbiyachining axloqiy-ma'naviy qiyofasini namoyon etuvchi me'yor tuyg'usi yoki xulq va odob qoidalariga rioya qilishi demakdir. Pedagogik nazokat tarbiyachining tarbiyalanuvchilar bilan o'zaro munosabatini tashkil qilish vositasi. Psixologik til bilan aytilganda, nazokat insonning bir qolipdagi barqaror tasavvurlarida mujassamlashgan shaxsiy insoniy hislatlarining yig'indisidir.

- Abu Ali ibn Sinoning fikricha, tarbiya yagona jarayon bo'lib, yoshlarga aqliy, jismoniy, nafosat, axloqiy tarbiya berishni, xunar o'rgatishni nazarda tutadi.

- Bolaga ta'lim – tarbiya berish uchun saxovatli, dono, iymonli, axloqiy va aqliy tarbiya usullarini yaxshi biladigan, irodasi kuchli muallim – tarbiyachini tanlash zarur. Muallim sog'lom, pok, xalol, xushmuomala kishi bo'lmog'i lozim, deydi.

Pedagogik nazokat me'yorlari tarbiyachidan avvalo yuksak insoniy fazilatlariga ega bo'lishni talab qiladi. Zero, ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilishning asosiy maqsadlaridan biri komil inson tarbiyasi bo'lib, u davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi deb e'lon qilingan. Ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, ma'rifatli yoshlarni tarbiyalab voyaga yetkazish tarbiyachi zimmasida. Shunday ekan, hozirgi demokratik jamiyat tarbiyachisining o'zi avvalo, barkamol inson bo'lishi, mukammal bilimlar sohibi, o'z kasbining yetuk egasi bo'lishi zarur. Tarbiyachi xulq-atvorida pedagogik nazokat ma'lum bir muddatda shakllanib tugaydigan jarayon emas, uning omillari ham jamiyat taraqqiyoti natijasida uzluksiz sayqallanib boradi.

Tarbiyachi pedagogik nazokatga ta'lim va tarbiya jarayonidagi har bir vaziyatga adolatli baho berishi, bolalarning hatti-harakatini to'g'ri idrok etishi, sabot va matonat, o'zini tuta bilish, sabr-toqat,

sezgirlik kabi xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirishi bilan erishadi. Pedagogik faoliyatda o'z kasbini sevgan tarbiyachigina butun kuch g'ayratini, qalb nuri va dil haroratini shu ishga bag'ishlaydi va o'z faoliyatida yaxshi natijalarga erishadi. Bolalarni sevish, ularga mehr-muhabbatli bo'lish tarbiyachi axloqiy qiyofasini namoyon etuvchi muhim fazilatlaridir. Tarbiyachi deyarli har kuni bolalar bilan uchrashadi, savol-javob qiladi, ularning yaxshi xulq va ezgu ishlarini ma'qullaydi, ilimlarini baholaydi, nojo'ya hattiharakatlari uchun tanbeh berib, lozim bo'lganda tarbiyaviy metodlarni qo'llaydi.

### **Pedagogik nazokatning uzluksizligini ta'minlovchi omillar**

- pedagogik nazokat tarbiyachining butun pedagogik faoliyatida sayqallanib takomillashib boruvchi jarayon;
- pedagogik nazokat odatda tugallangan shaklga ega bo'lmay, insoniy fazilatlar evaziga uzluksiz boyib boradi;
- tarbiyachi pedagogik nazokatning tarkibiy qismlarini ijtimoiy muhitga va odamlarning yashash tarziga, urf-odatiga qarab o'zgartirishi mumkin;
- tarbiyachi pedagogik nazokatning nozik qirralarini chuqur egallashga doimo intilishi talab etiladi
- pedagogik nazokatni tarbiyachi har bir tarbiyalanuvchi bilan o'zaro munosabatda o'zi uchun eng qulay shaklga keltirib, ma'lum bir muvozanatda saqlaydi.
- o'z kasbini sidqidildan sevishi, halolligi, rostgo'yliги, axloqiy pokligi, odamiyligi, kamtarligi, samimiy muomalasi pedagogik nazokatning zarur talablaridir.
- pedagogik nazokat asosida tarbiyachining mehribonligida tarbiyada talabchanlik va qattiqqo'llik hislatlari mujassamlashgan bo'ladi.
- pedagogik nazokat asosida tarbiyachi pedagogik odob va axloq normalarini o'zining dunyoqarashi va axloqiy tajribasi bilan boyitib boradi.



Pedagogik nazokat doimiy izlanishni, ijodkorlikni talab qiladi. Doimiy ijodiy izlanishda bo'lgan tarbiyachi tadqiqotchilik ko'nikma va malakalariga ega bo'ladi, ilm-fan muammolari, tarbiya etikasi va psixologiyasi yuzasidan erkin fikr yurita oladi.


Axloq asoslarini bilish, hatti-harakatlarda axloqi ma'noni kasb ettirish ham katta ahamiyatga ega. Shu bilan birga tarbiyalanuvchi ruhiyatiga ijobiy-tarbiyaviy ta'sir etish yo'llarini bilish tarbiyachining kundalik faoliyatiga aylanishi lozim:

- tarbiyalanuvchilarning chin ko'ngildan sevish, o'z muhabbatini o'zaro munosabatda ko'rsata olish;
- tarbiyalanuvchilar xulqi va ruhiyatidagi yashirin ichki tuyg'ularni anglashga harakat qilish, ko'rish va kuzatish;
- guruhdagi har qanday sharoit va muhitga moslashish;
- guruh bilan o'zaro hamkorlikni ta'lim-tarbiyaviy maqsadga muvofiq yo'lini tanlash;
- tarbiyalanuvchilar bilan norasmiy suhbatlarda o'z ichki hissiyotini sezdirmaslik, aksincha ular ishonchini qozonish.

Tarbiyalanuvchilar bilan munosabatlarda pedagogik nazokatni qo'llash natijasida:

- Tarbiyachi bolalarning xarakterini, ichki dunyosini yaxshi bilib oladi, bolalar bilan munosabatda do'stona muloqot qilish imkoniyatlari paydo bo'ladi;
- Tarbiyachi bolalar bilan chin ko'ngildan bir-biriga yaqin bo'ladi.

Pedagogik nazokatning asosiy xususiyati shundan iboratki, tarbiyachiga muloqotni ijobiy hissiyotlar asosida qurishga, tarbiyalanuvchilar bilan psixologik kontaktga kirishish uslublarini saqlashga yordam beradi. Pedagogik nazokatning quyidagi xususiyatlari hozirgi kunda muvaffaqiyat poydevori hisoblanadi:



### **3. Pedagogik mahoratning tarbiyachi imidjida ahamiyati**

**Nutq texnikasi.** Tilni, uning qonun-qoidalarini yaxshi tushunish, aniq, ravshan ifodali nutq tuza olish, tilning ifodaviy vositalaridan mazmuniga, uslubiga ko'ra nutqiy vaziyatga qarab o'rinli foydalana olish mahoratidir.

Nutqiy savodxonlik mustaqil fikrlash, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash san'atidir. Bu ko'nikmalarni shakllantirish, avvalombor, o'zbek tilining so'z boyligini o'rganish, so'zlarning ma'nodosh shakllarini va ularning zid ma'nolarini tuza olish, yozma matn mazmuni, ma'no qirralari, sintaktik va grammatik munosabatlarni aniqlashda tinish belgilarining ahamiyatini o'rganish, ma'nodosh so'zlarni nutq uslublari maqsadidan kelib chiqib tanlash, gaplarning, matnlarning, asosiy va yordamchi bo'laklarini aniq ajrata olish malakasiga bog'liq.

O'zbekistonda maktabgacha ta'limga doir fikrlar Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan, senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma'qullangan, 2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637-son Qarorida, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi" qonunining 8-moddasida keltirib o'tilgan.

## **8-modda. Maktabgacha ta'lim va tarbiya**

Maktabgacha ta'lim va tarbiya bolalarni o'qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, yetik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan ta'lim turidir.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni boshlang'ich ta'limga bir yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutadi.

Maktabgacha ta'lim va tarbiyani tashkil etish tartibi ushbu Qonun, shuningdek "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan belgilanadi.<sup>8</sup>

Alisher Navoiyning fikricha, tarbiyachi jamiyatda obro'li va xurmatga loyiq insondir. Shogirdlar muallimni xurmat qilishlarini, e'zozlashlarini uqtiradi. Navoiyning fikricha, ba'zan bir kishi bitta bolaga tarbiya berishga ojizlik qiladi. Muallim esa bir qancha bolalarga ilmu adab o'rgatadi. Bu jarayonda muallim ko'p aziyat chekadi, mashaqqatlarni boshidan kechiradi. Shuning uchun shogirdlar ustozlari oldida umrbod qarzdor ekanliklarini xis etishlari lozim, deb:

Haq yo'lida kim senga bir harf o'qitmiş ranj ila,

Aylamak bo'lmas ado oning xaqin yuz ganj ila.

**Pedagogik mahorat.** Pedagogik kasb o'z mohiyatiga ko'ra individualdir. Har bir pedagogning hayotiy o'rni o'z ishining ustasi bo'lishi, usta (master) juda ilg'or, bilimdon yoki o'z ishini mohirlik bilan bajaruvchi deb ifodalanadi. Pedagogik mahorat uning faoliyatida ko'rinadi. Pedagog eng, avvalo, pedagogik jarayon qonuniyatlari va mexanizmlarini yaxshi egallagan bo'lishi lozim. Shu ma'noda pedagogning umumlashgan malakalari, uning pedagogik texnikasi katta ahamiyatga ega.

**Mahorat — bu alohida qudrat.**

Pedagogik mahoratga erishish pedagogning muayyan shaxsiy sifatleri bilan amalga oshadi. Pedagogik mahorat yuksak darajada pedagogik faoliyatning taraqqiy etishini, pedagogik texnikani egallashni, shuningdek, pedagog shaxsi, uning tajribasi, fuqarolik va kasbiy mavqeini ifodalaydi. Pedagogik mahorat bu — tarbiyachining

---

<sup>8</sup> O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni ((Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020-y., 03/20/637/1313-son) <https://lex.uz/docs/> - 5013007

shunday shaxsiy (bolajonligi, xayrixohligi, insonparvarligi, mehribonligi, samimiyligi, nazokati va h.k) va kasbiy (bilimdonligi, zukkoligi, fidoiyligi, ijodkorligi va h.k) fazilatlarini belgilaydigan xususiyatki, u o'z o'quv fanini chuqur va atroflicha bilishida, pedagogik-psixologik va metodik tayyorgarligida, yoshlarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishning optimal yo'llarini izlab topib, amaliy faoliyatda qo'llashda namoyon bo'ladi.

Mamlakatimiz birinchi Prezidenti I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida tarbiyachining kasbiy faoliyatiga shunday ta'rif beradi: "Barchamizga ayonki, inson qalbiga yo'l, avvalo ta'lim-tarbiyadan boshlanadi. Shuning uchun qachonki bu haqda gap ketsa, ajdodlarimiz qoldirgan bebaho merosni eslash bilan birga, ota-onalarimiz qatori biz uchun eng yaqin bo'lgan yana bir buyuk zot – o'qituvchi va murabbiylarning oliyjanob mehnatini hurmat bilan tilga olamiz. Muxtasar qilib aytganda, maktab degan ulug' dargohning inson va jamiyat taraqqiyotidagi hissasi va ta'sirini, nafaqat yoshlarimiz, balki butun xalqimiz kelajagini hal qiladigan o'qituvchi va murabbiylar mehnatini hech narsa bilan o'lchab, qiyoslab bo'lmaydi" degan edi.<sup>9</sup>

"Pedagogik mahorat» fani kasbga oid bilim va qobiliyatlarni tarbiyachilarda shakllantirish, ijodkorlikni tarbiyalash, mahorat, ko'nikma va malakalarni egallashlari uchun, pedagogik texnika, pedagogik hamkorlik, pedagogik nazokat, nutq madaniyati to'g'risida ma'lumotlar berib boradi".<sup>10</sup>

Darhaqiqat, o'qituvchilarning obro'-e'tiborini ta'minlaydigan ilk vosita uning tarbiyalanganlik darajasidir. Birinchidan, o'qituvchi ma'naviy jihatdan sog'lom va keng fikrlay oladigan bo'lishi, o'z milliy qadriyatlari, urf-odatlar va millatimizning buyuk siymolari ijodiy merosini teran bilishlari kerak. Binobarin, o'zi tanlagan mutaxassislik va fan sohasida izlanishlar olib borgan, allomalarning hayoti va ijodini yaxshi bilishi hamda mantiqiy tafakkurga ega bo'lishi lozim Bu o'qituvchi pedagogik mahoratining shakllanib borishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, milliy

---

<sup>9</sup> Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" IV bob. Toshkent "Ma'naviyat" 2008-yil. 81,82 –betlar.

<sup>10</sup> Xoliqov A. "Pedagogik mahorat". Toshkent "Iqtisod-Moliya" 2011-yil, 13-bet

an'analarimiz, urf-odatlarimiz, qadriyatlarimiz asosida davlatmizning buyuk kelajagi bo'lmish yosh avlodga chuqur bilim berish o'qituvchilardan yuksak qobiliyatni va ishchanlikni talab qiladi.<sup>11</sup>

#### **4. Tarbiyachining nutq texnikasi va madaniyati**

*“Tarbiyachining nutqi hech qachon va hech qayerda zaharxandali, qo‘pol yoki qattiq bo‘lishi mumkin emas»*

Nosiriddin Tusiy

O'rta Osiyo madaniyati tarixida ham nutq madaniyati o'ziga xos mavqega ega bo'lgan va hozir ham shunday. Sharqda, jumladan, Movarounnahrda notiqlik, voizlik, ya'ni va'zxonlik yo'llari bilan so'zning ahamiyati, ma'nosi va undan o'rinli foydalanish borasida ko'pgina fikrlar bayon etilgan. Ana shu nuqtai-nazardan qaralganda, «Nutq odobi», «Muomala madaniyati» nomlari bilan yuritilib kelingan nutq madaniyati tushunchasi juda qadimdan olimlar, ziyolilarning diqqatini tortgan. Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Abdulloh Al Xorazmiy, Mahmud Koshg'ariy, Nosiriddin Tusiy, Zamaxshariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, So'fi Olloyor, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va boshqa qator ulug' siymolar murabbiylarning nutq odobi masalalariga, umuman nutqqa jiddiy e'tibor berishga da'vat etganlar. Shu bilan birga ular tilga, lug'atga, grammatikaga va mantiqshunoslikka oid o'zlarining durdona asarlarini qoldirganlar. Buyuk qomusiy olim Beruniy (973-1048) o'zining «Geodeziya» deb nomlangan asarida har bir fanning paydo bo'lishi va taraqqiy etishi inson hayotidagi zaruriy ehtiyojlar talabi bilan yuzaga kelishini aytadi. Uning fikricha, grammatika, aruz va mantiq fanlari ham shu ehtiyojning hosilasi ekan.

Ulug' vatandoshimiz Abu Nasr Farobiy to'g'ri so'zlash, to'g'ri mantiqiy xulosalar chiqarish, mazmundor va go'zal nutq tuzishda, uni ifoda qilishda leksikologiya, grammatika va mantiqning naqadar ahamiyati borligi haqida quyidagi fikrlarni bildiradi: «Qanday qilib ta'lim berish va ta'lim olish, fikrni qanday ifodalash, bayon etish, qanday so'rash va qanday javob berish masalasiga kelganimizda, bu

---

<sup>11</sup> Xoliqov A. "Pedagogik mahorat" Toshkent "Iqtisod-Moliya" 2011-yil, 19-bet.

haqda bilimlarning eng birinchisi jismlarga va hodisalarga ism beruvchi til haqidagi ilmlar deb tasdiqlayman...».

Kaykovus tomonidan 1082-1083 yillarda yaratilgan, qadimgi Sharq pedagogikasining ajoyib durdona asarlardan biri hisoblangan «Qobusnoma»da ham nutq odobi va madaniyati haqida fikrlar bayon etilgan. Ushbu asar 44 bobdan iborat bo'lib, uning 6-7 boblari so'z odobi haqidadir. Alloma o'z farzandiga qilgan nasihatlari orqali tarbiyalanuvchini yoqimli, muloyim, o'rinli so'zlashga, behuda gapirmaslikka undaydi. So'zlaganda o'ylab, har bir fikrdan keyin qilinishi kerak bo'lgan xulosani ko'z oldiga keltirib gapirish kerakligini eslatib, ko'p gapirish donolik belgisi emasligini aytadi. «Ey farzand, agar sen har qanday notiq bo'lsang ham, o'zingni bilganlardan pastroq tutgil, toki so'z bilimdonligi vaqtida bekor bo'lib qolmagaysan. Ko'p bilu, oz so'zla, kam bilsang, ko'p so'zlama, chunki aqlsiz kishi ko'p so'zlaydi, deganlarki, jim o'tirish salomatlik sababidir. Ko'p so'zlovchi aqlli odam bo'lsa ham, xalq uni aqlsiz deydi...», deb ta'kidlaydi, allomamiz.

Ulug' mutafakkir shoir Yusuf Xos Hojib o'zining «Qutadg'u bilig» nomli asarida so'zlarni to'g'ri tanlash va to'g'ri qo'llash haqida «Bilib so'zlasa, so'z bilig sanalur» degan edi. Qisqacha so'zlash, so'zlarga iloji boricha ko'p ma'no yuklash haqida quyidagi fikrlarni beradi:

Ugush so'zlama so'z biror so'zla oz,

Tuman so'z tugunini bu bir so'zla yoz.

deydi. Buning ma'nosi quyidagicha: So'zni ko'p so'zlama, kamroq so'zla. Tuman (ming) tugunini shu bir so'z bilan yech.

Gapirishdan maqsad so'zlovchi ko'zda tutgan narsa, hodisa, voqealarni tinglovchiga to'g'ri ta'sirchan yetkazishdan iborat. Shunday ekan, nutqning to'g'riligi, ravonligi va mantiqiyiligi erishish muhim ahamiyat kasb etadi. Mutafakkir so'zlovchini tilning ahamiyatini tushungan holda, shoshmasdan, so'zning ma'nolarini yaxshi anglab, nutqni ravon qilib tuzishga chaqiradi.

Adib Ahmad Yugnakiy ham so'zlaganda nutqni o'ylab, shoshmasdan tuzishga, keraksiz so'zlarni ishlatmaslikka, mazmundor so'zlashga chaqirgan. Noto'g'ri tuzilgan nutq tufayli keyin xijolat chekib yurmagin, deb so'zlovchini ogohlantiradi, alloma.

Uquv so‘zla so‘zni eva so‘zlama,  
So‘zing kizla, kedin, boshing kizlama.

Buning ma‘nosi quyidagicha: So‘zni uqib so‘zla, shoshib gapirma, keraksiz, yaramas so‘zlarni yashir, qisqa va mazmundor so‘zlash, ezmalik, laqmalikni qoralash, keksalar, ustozlar oldida nutq odobini saqlash, to‘g‘ri, rost va dadil gapirish lozim.<sup>12</sup>

Yuqoridagi barcha fikrlar asosida shunday mantiqiy xulosa chiqarish kerakki, o‘tmishi ulug‘ va kelajagi buyuk bo‘lgan yurtni yaratadiganlar har taraflama komil bo‘lmoqlari zarur. Aks holda, ko‘p narsalar orzuligicha qolib ketish ehtimoli mavjud.

Endilikda pedagogik atamalar tarkibiga “texnika”, “texnologiya”, “amal”, “ishlab” qator tushunchalarni kiritish, ularning pedagogik talqinini yaratish va bevosita o‘qitish jarayonida qo‘llash kundalik zaruratga aylanmog‘i darkor. Zamonaviy tarbiyachi faoliyati bilimlarni uzatuvchi oddiy metodist sifatida emas, balki “Tarbiyachi-texnolog” nuqtai nazaridan bog‘lanishi kerak.

“Texnika” (xunar san‘at-grekcha) - usul va vosita elementlarning yig‘indisi, uning tarkibi - muloqot va munosabatdan iborat. Pedagogik texnika quyidagi elementlardan iborat: Tarbiyachini aql bilan o‘zini xulqini boshqarish, yuz harakati (mimika), qo‘l harakati (jest), imo ishara, pantomimika, o‘z emotsiyalarni boshqarish va b.

Buyuk pedagog A.S.Makarenko aytganidek, “Yuz harakatlarini yaxshi egallamagan, o‘z yuziga zarur ma‘nolarni bera bilmaydigan yoki o‘z kayfiyatini ushlab turolmaydigan kishi yaxshi tarbiyachi bo‘lishi mumkin emas. Pedagog tashkil qila bilishi, yura bilishi, xazillasha bilishi, quvnoq jahldor bo‘la olishi lozim. Tarbiyachi o‘zini shunday tutishi lozimki, uning har bir harakati tarbiyalansin. U ayni vaqtda nimani istashini va nimani istamasligini har doim bilishi kerak. Agar pedagog buni bilmasa, u kimni tarbiyalashi mumkin?”.

“Texnologiya” so‘zi (“texnos” - xunar va “logos” - fan) xunar, san‘at fani ma‘nosini anglatadi. Bu ma‘nosini ta‘lim-tarbiya jarayoniga ko‘chirib, pedagog tomonidan o‘qitish va tarbiyalash usul, vosita shu jumladan, texnika yordamida bolalarga tasir

---

<sup>12</sup> Aleyov O. “Ahmad Yugnakiy me‘rosi- ma‘naviyatimiz sarchashmasi”. T., 2002-yil, 148-bet.

ko'rsatish va bu faoliyat ma'suli sifatida ularda oldindan belgilay olingan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayonidir.

Bu ikkala tushunchalari bir biri bilan o'zaro bog'liqdir, chunki texnologiya-jarayon, texnika - bu jarayonda samarli natijalarga erishish vositasidir.

“Texnologiya” tushunchasi o'z ichiga “metodika” tushunchasini ham oladi, faqat “texnologiya” aniq amaliy masalalarga bog'lanadi. Misol uchun: individual suhbat o'tkazish texnologiya, yangi o'quv mavzuni tushuntirish texnologiyasi va hakozi. Metodika esa keng ma'noli masalalarga bog'lanadi. Misol uchun: suhbat tayyorlash va o'tkazish metodikasi.

Pedtexnika pedagogik mahoratining muxim tarkibiy qismi sifatida qaratiladi, lekin u o'z navbatida, ko'pgina elementlardan iborat bo'ladi. Uning elementari tarbiyachining aktyorlik (artistik) mahorat, nutq madaniyati va texnikasi, notiqlik mahorati, muloqotdagi mahorati, o'z-o'zini boshqarish mahorati va boshqalar.

### **Pedagog faoliyatida aktyorlik mahorati, uning elementlari.**

Pedagogik harakat dramaturgiyasi va rejissurasi tarbiyaviy harakat ijodkorlikdan iboratdir, lekin u pedagogik vaziyatni tahlil qilish mahoratida ham, bolalar bilan bevosita o'zaro hamkorlik qilish mahoratida ham namoyon bo'ladi. Pedagogikada ijodkorning shaxsi bilan ijodkorlik ko'rish bir-biriga mos keladi, bunda tarbiyachi o'z-o'zini namoyon qilishi katta rol o'ynaydi. Bu jihatgan tarbiyachining faoliyati bir qator xususiyatlari bo'yicha aktyor, rejissyorning badiiy - ijodiy faoliyatiga yaqindir. Teatr faoliyati va pedagogik faoliyatni maqsadni o'xshashligi ham yaqinlashtiradi. Teatr va pedagogik faoliyat bir xilda ekanligining yana bir ko'rsatgichi ta'sir ko'rsatish ko'rsatish qurolining umumiyligidir. Har ikkala xolda ham pedagog bilan aktyorning o'z psixofizik tabiyati ana shunday qurol vazifasini bajaradi. Ayni bir qobiliyatlar aktyor ijodi uchun ham, shunindek, pedagogning ijodiy faoliyati uchun ham zarurdir.

O'quv-tarbiyaviy jarayonda, uni rejalashtirishda kishining o'zaro hamkorlik qonunlari xisobga olinishi lozim. Pedagogik dars va har qanday tarbiyaviy tadbir tizimida uni ta'sir ko'rsatishni rejalashtirar ekan, uni aniq odamlarga yo'naltiradi, demak, umuman



jamoatga, xususan har bir jamoaga nisbatan bo'lajak pedagogik harakat uchun zarur tarbiyaviy-syujetli vaziyat yaratadi.

Ma'lum ma'noda mashg'ulot - bu o'ziga xos pedagogik reja bo'lib, unda tarbiyachi ssenariy muallifi sifatida, munosabatlar dramaturgiyasini barpo etadigan va uni boshqaradigan kishi sifatida maydonga chiqadi. Tarbiyaviy jarayon har bir qatnashchisining harakatdagi o'rmini belgilab beradi, aniq ilmiy-pedagogik maqsad asosida vujudga kelgan pesa keyin pedagogik qonunlari bo'yicha rivojlana boshlaydi, chunki haqiqiy tarbiyaviy jarayon doimo pedagogik harakat kechishi lozim bo'lgan yangidan yangi pedagogik vaziyatlarni paydo qilib turadi. Shunday qilib, pedagogik harakat – bu tarbiyachining pedagogik jihatdan oqlangan, rejalashtirilgan yoki tayyorgarlik ko'rilmagan xatti-harakati bo'lib, u vaziyatni yoki bola shaxsini o'zgartirishga olib keladi. Pedagogik harakat aniq maqsadga qaratilganligi ayni vaqtdan polifonizm, vaziyat va tarbiyalanuvchi shaxsining o'xshashligi farq qilishi, jo'shqin, samarali o'zgarishlar kiritishga tayyor bo'lishi, shaxslararo munosabatlar tizimiga muvofiq kelishi kerak.

Tarbiyachi faoliyatining tuzilishi bo'lajak pedagogning tashkilotchilik, boshqaruv ko'nikmalari va malakalariga talablar qo'yadi. Shu munosabatlar bilan uni aktyorlik va rejissyorlik mahorati, tarkibiy qismlariga o'rgatib borish zarurati ortadi.

Harakat, diqqat, organika, mushaklar erkinligi, hayol, muomala qurish, tag-ma'no, vazifasidan tashqari buyuk teatr pedagogi **K.S.Stanislovskiy** tizimining asosiy tushunchalari bo'lib, ularni bo'lajak tarbiyachi ham o'zlashtirib olishi foydalidir. K.S.Stanislovskiy rejissurasining nasihatlaridan biri ishlab chiqarishga doir harakat har qanday majburiylikni tashabbusga aylantirishdir. Bu usul tarbiyachi o'zining jiddiy xissiy faoliyatiga va bolalarga nisbatan jaxldorlikdan, asabiylikdan, salbiy xissiyotlardan qutqaradi. Biroq ijodiy ruhlanishning jazavadan, iborat qo'pol hazil bilan chegaralanuvchi ortiqcha hissiyotdan saqlanishga, ortiqcha xissiyotga berilishidan farq qilish kerak. Tarbiyachining bunday yonishi bekorga ketadi. Bolalarni yondirmaydi, chunki tomoshabinning idroq etishi oshirilgan tonusga, hissiyotlarning qiziqishga nisbatan teskari mutanosibligi qonuniga egadir.

**E.Vaxtanganovning** maslahat berishiga ko‘ra, masalan aktyor bilan rejissyor, tarbiyachi bilan tarbiyalanuvchi o‘rtasida munosabatlar boshlanishi uchun tarbiyachi mashg‘ulotni eng qizg‘in sahnalardan boshlash kerakligini bilgani foydalidir.

Eng yaxshi harakat - bu hamrox qilingan harakatdir. **Gordon Kreg** aytgan: teatr rejissurasi tarbiyachining xonadagi tejamli va betaraddud hulq atvorini hammadan yaxshiroq tushunishi uchun kalit bo‘ladi. Bolalar bilan birinchi uchrashuv muxim psixologik marra xisoblanadi, xonaga kirish pedagogik inoqligini ayni vaqtda teatr erkinligini talab qiladi. Aktyor bilan pedagogning ko‘pchilik oldidagi hissiyotlari bolalarga ham (pedagogning o‘ziga ham agar u o‘zining ijodiy mehnatiga nisbatan ijodiy yo‘l tutsa) ulkan quvvat bag‘ishlovchi omil bo‘ladi.

Rejani to‘liq yoritish uchun biz psixologik faniga asoslanib ish olib boramiz. Xotira, diqqat, hayol jarayonlari xaqida ozgina to‘xtalib o‘tmoqchimiz.

Avvalo xotira nima? - degan savolga javob topishimiz kerak.

**Xotira** - bu o‘tmish tajribalarimizning ongimizda iz qoldirish, saqlanishi, uni keyinchalik qayta tiklanishdan iborat bo‘lgan jarayon. Xotira murakkab psixik faoliyat bo‘lib, o‘z ichiga 3 ta asosiy jarayonlarni qamrab oladi: 1-esda olib qolish, 2-esda saqlash, 3-esidan tushirish va unitish. Xotira - aktyorlik psixotexnikasining asosidir.

Faraz qilaylik, tarbiyachi yoki aktyorni misol qilib oladigan bo‘lsak, agar ularda xotira bo‘lmasa, ular o‘qigan, ko‘rgan narsalarini eslay olmasa ijtimoiy hayotdagi rollarini bajara olmaydilar. Tarbiyachilar o‘zi mashg‘ulot jarayonida aktyor bo‘lishi kerak deyiladi. Rostdan ham shunday, agar u mavzuni bolalar ongiga singdirmoqchi bo‘lsa, albatta, bor kuchini mahoratini, hayotiy misollarini keltirgan, holda, xotirasini ishga solib ishni amalga oshirishi kerak.

Agar aktyor sahnaga chiqqanda xotirasi bo‘lmasa, u ham rolini yaxshi ijro etolmaydi. Shu bilan birga bu xolatga bir qancha misollar keltirishi mumkin. Hayotda xotirasidan ayrilib o‘tmishini eslay olmay qolganlarni ko‘plab uchratganmiz. Mana shu shaxslar shu bitta protsess buzilishi bilan jamiyatda o‘z o‘rinlarini

yo'qotishadi, shu bilan birga ular o'z rollarini ijro eta olmaydilar. Shunday ekan, demak xotira - aktyorlik psixotexnikasining asosidir.

**Diqqat** ham shu jarayonlarga ya'ni bu ham aktyorlik psixotexnikasining asosidir. Chunki agar biror narsani o'rganmoqchi bo'lsak, unga diqqat bilan e'tibor bermasak, unda hech narsaga, ya'ni ko'zlagan maqsadimizga erisha olmaymiz. Agar diqqat bilan ko'rmasak, unda xotirlab qolishimiz ham qiyin bo'ladi. Bunday ko'rinib turibdiki, diqqat xotira bilan uzviy bog'liqdir. Faraz qilaylik, agar sahnada aktyor o'z rolini diqqatini jamlagan holda bajarmasa, unda har yerda bo'lib nima gapirayotganini ham bilmay qoladi. Tarbiyachida ham shunday bo'lishi mumkin. Agar hayoli boshqa joyda tursa, maqsadiga erisha olmaydi. Diqqat o'zi ongimizning torayib ma'lum bir ob'ektga yo'naltirishdir. U ob'ekt real yoki ideal bo'lishi kerak.

Endi hayol haqida gapirsak hayol ham yuqoridagi protsesslar singari aktyorlik psixotexnikasiga ega.

**Hayol** o'zi- ilgari idrok etilgan materiallar va o'zlashtirilgan bilimlar asosida yangi obrazlar va g'oyalar yaratishdir, bunga bir necha misollar keltirish mumkin: kitob o'qir ekansiz uning qahramonlari dunyosiga kirib boramiz. Bunda bizning ongimizda uzoq o'tmish yoki bo'lajak davr manzaralari paydo bo'lishi mumkin, yoki rassom o'z umrida hech ko'rmagan manzaralar rasmini chizib bera oladi. Bularning asosida esa hayol va tasavvur yotadi.

Demak, xulosa qilib aytganda, xotira, xayol, diqqat va psixik protsesslar ham aktyorlik psixotexnikasining asosidir. Agar inson biron narsani diqqat bilan hayol orqali xotirlab esga tushirmasa yoki tinglamasa, unda shu narsani mohiyatini anglolmaydi. Sodda misol bilan tushuntiradigan bo'lsak, har soxaning o'z qurollari bo'lganidek, bu protsesslar ham teatr pedagogikasining qurolidir. Agar ulardan birontasi insonda bo'lmasa unda u inson jamiyatdan ortda qolishi yoki butunlay ajrab qolishi mumkin.

### **Nutq madaniyati va texnikasi.**

Moxir pedagog A.S.Makarenko yozganidek: Men bolalarga qarata yaxshilab qat'iy aytilgan so'z zo'r ahamiyatga ega bo'lishiga, ko'pchilik hollarda bolalar bilan xanuzgacha yaxshilab gaplasha olmasligiga ko'pgina xatolarimiz sababligiga aminman. Shunday

gapira olish kerakki, bolalar sizning gapingizdan irodangizni, madaniyatingizni, sizning shaxsingizni sezsinlar. Ana shunday gapirishni o'rganib olish lozim.

Demak, ta'lim jarayonini tashkil etishda muloqotning barcha vositalariga, ayniqsa nutqqa e'tibor berish kerak. Bolalarni ilk yoshlik chog'laridanoq nutq madaniyatiga o'rgatish, nutqlarini o'stirish choralari ko'rish zarur. Pedagog esa shunday nutq madaniyatiga ega bo'lishi kerakki, u avvalo, uning faoliyatini to'g'ri tashkil etishni taminlasin, bolalarda nutqning o'sishiga imkon bersin. Demak, ta'lim-tarbiyaning asosi bu muloqot hisoblanadi. Lekin bu muloqot kundalik turmushimizda ishlayotgan muloqotdan farq qilib, pedagog va bolalar orasidagi muloqotni anglatadi. Pedagogika fan sifatida juda murakkabdir. Chunki uning zaminida bo'lg'usi inson, kelajak turadi. Pedagogning asl maqsadi kelajakka jismonan sog'lom, aqlan yetuk va ma'naviy barkamol insonlarni yetkazib berishdan iborat. Tarbiyachi o'quvchisini o'z farzandiday sevishi, uning kelajagi uchun qayg'urishi kerak.

Tarbiyachi o'zining nutqiy qobiliyati bilan boshqa kasb egalardan ajralib turadi va shu aloqa quroli orqali shaxsni shakllantiradi, unga bilim, ko'nikma beradi hamda ijtimoiy turmushda ishtirok qiladi. Ijtimoiy taraqqiyot uchun o'z xissasini qo'shadi, avlodlar vorisligiga uyg'unlik baxsh etadi:

- nutqning mazmundorligi, teranligi, izchilligi, xaqqoniyligi, ta'sirchanligi, mantiqiyliqi, ravonligi, ixchamligi;

- ovozning sur'ati, tarqalish, uzatilishi, shiradorligi, akustik texnologiyaga rioya qilishlik;

- nutqning kommunikativ, interaktiv va perseptiv tarkiblari o'rtasida mustahkam aloqaning mavjudligi;

- to'g'ri va teskari aloqani vujudga keltirishda o'quvchanlik;

- nutqda qanotli iboralar, xissiy kechinmalar, jonli mushohadalar, umumlashgan fikrlar, umumlashmalar, mavxumliklar ishtirok etishi;

- guruh bolalarini faollashtirishda nutq imkoniyatlaridan, muammoli vaziyatlardan, maroqli o'yinlardan foydalanish;

- fikrni uzatish va qabul qilish jarayonida psixolingvistik qonuniyatlarni, modelp tizimini qo'llash muxim ahamiyat kasb etadi.

Shirinsoʻzlik tarbiyachining asosiy xislatlaridan biridir. U shirinsoʻz boʻlsagina, bolalar bilan til topishadi va ular qalbiga yoʻl topa oladi.

Ayniqsa, maktabgacha taʼlim tarbiyachilarining talab va topshiriqlari ham muloyimlik bilan berilishi kerak. Oʻzining soʻzlarida “Yasha”, “Barakalla”, “Yaxshi”, “Raxmat” kabi iboralardan koʻproq foydalanishi kerak.

Tarbiyachi oʻzining yurish turishi, odobi, tashqi koʻrinishi, kiyinishi, nutq ohangi, nutq madaniyati bilan barchaga namuna boʻlishi kerak.

Tarbiyachi dars jarayonida adabiy tilning fonetik talaffuz, lugʻaviy soʻz yasalishi, grammatik va uslubiy meʼyorlarga oʻz nutqini moslashi zarur. Bularning birortasidan biroz chetlashgan nutq ham toʻgʻri nutq boʻla olmaydi. Insonning nutqiy faoliyati 3 koʻrinishda boʻladi.

1. Soʻzlash.

2. Mutolaa.

3. Eshitish.

Nutq qobiliyati - nutq yordamida, shuningdek, imo-ishora vositasida oʻz fikr va tuygʻularini aniq va ravshan ifodalash qobiliyatidir. Bu tarbiyachilik kasbi uchun juda muximdir.

Tarbiyachining nutqi darsda hamisha bolalarga qaratilgan boʻladi. Tarbiyachi yangi saboqni tushuntirayotgan, bolaning javobini tahlil qilayotgan yoki tanqid qilayotgan boʻlsa ham, uning nutqi hamisha oʻzining ichki kuchi, ishonchi, oʻzi gapirayotgan narsaga qiziqqanligi bilan ajralib turadi. Fikrning ifodasi bolalar uchun aniq sodda, tushunarli boʻladi.

Tarbiyachining bayoni bolalar fikri va diqqatini maksimal darajada faollashtirishga qaratiladi. Tarbiyachi bolalar oldiga savollar qoʻyib, ularni asta-sekin toʻgʻri javob berishga undaydi, oʻquvchining diqqatini kuchaytiradi hamda fikrlarini faollashtiradi. Masalan, “Mana bu yerga alohida eʼtibor bering”, “Oʻylab koʻring” kabi. Shuningdek, oʻrinli qochiriq, hazil, engilgina istehzo nutqni jonlantirib yuboradi va uni bolalar tez oʻzlashtiradilar.

Tarbiyachining nutqi aniq, jonli, obrazli, talaffuzi jihatdan yorqin, ifodali, xis-hayajonli boʻlib, unda stilistik, grammatik, fonetik nuqsonlar uchramasligi lozim. Bir hildagi choʻziq, zeriktiradigan nutq bolalarni juda tez charchatadi, ularni lanj, loqayd qilib qoʻyadi. Ayrim tarbiyachilar tez gapirishga, boshqalari sekin

gapirishga moyil bo'ladilar. Biroq bolalarning o'zlashtirishlari uchun o'rtacha, jonli nutq yaxshi natija berishini esdan chiqarmaslik lozim. Shoshqoloqlik saboqni o'zlashtirishga xalaqit beradi va bolalarni tez charchatib qo'yadi. Xaddan tashqari sekin nutq lanjlik va zerikishga sabab bo'ladi. Xaddan tashqari keskin va baqiroq nutq esa bolalarning asabini buzadi va toliqtirib qo'yadi. Tarbiyachining zaif ovozi yomon eshitiladi. Nihoyatda ko'p takrorlanadigan bir xildagi imo-ishoralar va harakatlar kishining g'ashini keltiradi. Xulosa chiqarib aytish kerakki, tarbiyachining nutqi shirali, mazmunli va bolalarga ta'siri kuchli bo'lishi kerak.

Bundan tashqari, pedagog o'z faoliyatida nutqidan foydalanib, bolalarning ota-onalari bilan uchrashuvlarda o'z notiqlik qobiliyatidan foydalanadi. Notiqlik ota-onalarning yig'ilishlarda, turli xil kechalarda, ommaviy tadbirlarda (ko'rik-tanlov majlis, anjuman, seminar, saylov tadbirlari va b.) juda o'rinli bo'ladi. Bunday ommaviy tadbirlar muvaffaqiyatli bo'lishi uchun tarbiyachining nutqi faqat madaniyatli emas, ma'noli, mantiqiy qiziqarli va mazmuni bo'lishi shart.

### **Pedagogik muloqotni boshqarish mahorati**

Muloqot bu avvalo, o'zaro fikr almashinuvdir. Inson kishilik jamiyatida yashar ekan, u albatta kim bilandir muloqotga extiyoj sezadi. Bunga biz kundalik turmushimizdan misollar keltirishimiz mumkin. Muloqotni har xil vositalari bor:

a) og'zaki nutq orqali muloqot qilish, ya'ni o'z fikrishimizni nutq orqali yetkazamiz;

b) yozma nutq, ya'ni yozma tarzdagi suhbatlar;

v) mimika va pantomimikalar orqali.

Bundan tashqari muloqot funksiyalari mavjud:

- O'zaro axborot almashinish;

- tarbiya (bir-biriga o'zaro ta'sir ko'rsatish);

- bir-biriga hamdardlik bildirish;

- tashkiliy, ya'ni bu tarbiyachining tashkilotchiligi, bolalarni uyushtira olishi kabilarda ko'rinadi.

Endi pedagogik muloqot nima? Muloqotning pedagogik jarayondagi roli qanday? Degan savollarga javob bersak.

O'zaro muloqot jarayonida bir odam ikkinchi odamga psixologik ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'sir ikkala tomondan ham

anglanishi va anglanmasligi mumkin. Ya'ni, ba'zan bir nima uchun bir shaxsning bizga naqadar kuchli ta'sirga ega ekanligini, boshqa biri esa, aksincha xech qanday ta'sir kuchiga ega emasligini tushinib yetamiz. Bu esa pedagogikada muxim muammodir. Har bir pedagogning o'z ta'sir uslublari va ta'sir kuchi bo'ladi. Tarbiyachi shaxsning bolalarga ta'siri quyidagi eksperimentda juda yaqqol kuzatilgan. Katta guruh bolalariga anchagina o'yinchoqlar berib, bularni ichida qizil o'yinchoqqa tegmaslik aytilgan. Bolalar yolg'iz qoldirilib harakatlari pinxona kuzatilgan. Juda ko'p bolalar bari bir taqiqlangan o'yinchoqqa tegishgan. Pedagogik muloqotni mashq qilish pedagog muallimlar uchun juda va zarurdir. Bu mavzuga yondashishdan oldin muloqot haqida fikr yuritish o'rinlidir. Muloqot odamlar amalga oshiradigan faoliyatlar ichida yetakchi o'rinni egallab, u insondagi eng muxim ehtiyojni jamiyatda yashash va o'zini shaxs deb bilish bilan bog'liq ehtiyojni qoldiradi. Shuning uchun ham uning xar bir inson uchun ahamiyati katta. Muloqot-odamlarning birgalikdagi faoliyati ehtiyojlaridan kelib chiqadigan turli faolliklari mobaynida bir-birlari bilan o'zaro munosabatlariga kirishish jarayonidir. Ya'ni har bir shaxsning jamiyatda ado etadigan ishlari (mehnat, o'qish, o'yin, ijod qilish, va boshqalar) o'zaro munosabat va o'zaro ta'sir shakllarini o'z ichiga oladi. Chunki har qanday shu odamlarning bir-biri bilan til topishlarini, bir-birlariga turli ma'lumotlar uzatishini, fikrlar almashinuvini va shular kabi murakkab hamkorlikni talab qiladi. Shuning uchun ham xar bir shaxsning jamiyatda tutgan o'rni, ishlarining muvaffaqiyati obro'si uning muloqotga kirisha olish qobiliyati bilan bevosita bog'liqdir. Bir qarashda osonga o'xshagan shaxslararo muloqot jarayoni aslida juda murakkab jarayon bo'lib, unga odam hayoti davomida o'rganib boradi. Muloqotning psixologik tomondan murakkab ekanligi haqida B.F.Parigin shunday yozadi: Muloqot shunchalik ko'p qirrali jarayonki, unga bir vaqtning o'zida quyidagilar kiradi:

- a) individlarning o'zaro ta'sir jarayoni;
- b) individlar o'rtasidagi axborot almashinuvi jarayoni;
- v) bir shaxsning boshqa munosabati jarayoni;
- g) bir kishining boshqalarga ta'sir ko'rsatish jarayoni;
- d) bir birlariga hamdardlik bildirish jarayoni;

e) shaxslarning bir-birlarini tushunish jarayoni.

Muloqotning turli shakllari yoki bosqichlari mavjud bo'lib dastlabki bosqich - odamning o'z-o'zini muloqoti bosqichidir.

**T. Shibusani** "Ijtimoiy psixologiya" darsligida: «Agar odam ozgina bo'lsa ham o'zini anglasa, demak, u o'z-o'ziga ko'rsatmalar bera oladi» - deb to'g'ri yozgan edi. Odamning o'z-o'zini bilan muloqoti aslida uning boshqalar bilan muloqoti xarakterini va hajmini belgilaydi. Agar odam o'z-o'zini bilan muloqot qilishni odat qilib olib, doimo jamiyatdan o'zini chetga tortib, tortinib yursa, u boshqalar bilan suhbatlashishda, til topishishda jiddiy qiyinchiliklarni boshidan kechiradi, deyish mumkin. Demak, boshqalar bilan muloqot-muloqotning ikkinchi bosqichidir.

**A.N. Leontpev** o'zining "Psixiko taraqqiyotidan ocherklar" kitobida muloqotning uchinchi shakli avlodlar o'rtasidagi muloqotning ahamiyati to'g'risida shunday deb yozadi: "Agar barcha katta avlod o'sib ketganda insoniyat turi yo'q bo'lib ketmasligi, lekin jamiyatning taraqqiyoti ancha orqaga surilibgina emas, balki yo'qolib ham ketishi mumkin edi". Xaqiqatdan ham avlodlararo muloqot tufayli har bir jamiyatning o'z madaniyati, madaniy boyliklari bo'ladi, buning ahamiyatini tushungan insoniyat eng ilg'or vakillarining uni doimo keyingi avlodlar uchun saqlab keladilar.

Tarbiyachi pedagogik muloqotni mashq qilish jarayonida quyidagi funksiyalarga e'tibor berishi lozim:

- a) ma'lumotlar almashinuvi funksiyasi;
- b) hulq-atvorni boshqaruv funksiyasi;
- v) xissiyotlar almashinuvi funksiyasi.

Pedagogik muloqot - pedagogik jarayonda ishtirok etuvchilar o'rtasida amalga oshiriladiga murakkab o'zaro tavsiya jarayoni. Bu muloqot jarayonida ishtirokchilarni hamkorlikda ishlashi, bir-birlariga yordam berishi, harakatlarni o'zaro muvofiqligiga erishish kabilar samarali natijalarga olib keladi..

Xullas, pedagogik muloqotning unumli o'tishi pedagogik-psixologik mahoratga bog'liqdir.

Pedagogik muloqotni boshqarish mahorati quyidagilardan iborat:

- muloqotdagi funksiyalarni to'g'ri bajarish;



- muloqot jarayonida o'z uslubini (ota-onalar, kattalar yoki bolalar pozitsiyalardan) pedagogik va psixologik nuqtai nazardan to'g'ri tanlash;

- kelishmovchilikni oldini olish yoki o'z vaqtida kelishmovchilikni yechish;

- bolalarni to'g'ri muomala qilishiga o'rgatish.

**XULOSA:** Pedagogik texnika ko'p ma'noli va keng mazmunda bo'lib, pedagogik faoliyatda muxim o'ringa ega. Tarbiyachi o'zini kasb mahoratini oshirish maqsadida doim o'z ustida ishlashi, o'z uslubi va o'z texnikasini takomillashtirishi zarur. Bunda u psixolog yordamida hamda mustaqil ravishda yoki murabbiy rahbarlikda turli hil maxsus mashqlar va psixotrening, rolli o'yinlar va tajriba almashish usullaridan foydalanadi.

Muammoli vaziyat. Kelishmovchiliklarni oldini olish yoki ulardan muvaffaqiyatli chiqish uchun siz qanday pedagogik texnikaviy elementlardan foydalanasiz?

### **Yodda tuting**

Pedagogik jarayon murakkab bo'lib, tarbiyachidan aktyorlik mahoratini, nutq madaniyatini, muloqotdagi qobiliyatini talab qiladi.

### **Mavzu yuzasidan nazorat savollari.**

1. Pedagogik odob qaysi jihatlarni o'z ichiga qamrab oladi?
2. Odob nima? Uning xususiyatlari qanday?
3. Tarbiyachi odobining mohiyati nimada?
4. Pedagogik nazokat nima?
5. Pedagogik nazokat me'yorlari tarbiyachidan avvalo nimani talab qiladi?
6. Pedagogik nazokat odatda qanday shaklda bo'ladi?
7. Pedagog-tarbiyachi bolalar bilan ishlash jarayonida qanday xususiyatlarga ega bo'lishi kerak ?
8. Pedagog eng avvalo, qanday mexanizmlarni yaxshi egallagan bo'lishi lozim?
9. Pedagogik mahorat nima?
10. Pedagogik mahoratga erishish qanday amalga oshadi?
11. "Pedagogik texnika" tushunchasi nimani bildiradi? Uning elementlari (tarkibiy qismlari) qanday?
12. "Pedagogik texnika" va "texnologiya" tushunchalarining farqi va o'xshashligi.

13. «Teatr pedagogikasi» tushunchasi, uning elementlari nimadan iborat, ulardan tarbiyachi qanday foydalanishi mumkin?

14. Aktyorlik mahoratidan pedagogik faoliyatida foydalanish maqsadlari...

15. Nutq madaniyati deganimizda nimani tushunamiz? Uning elementlarini nomlab bering.

16. Yuz harakati (mimika) nima ekan? Tarbiyachi undan qanday foydalanish mumkin?

17. Qo‘l harakati (jest) nima? Undan qanday foydalanish mumkin?

18. Diksiya - nima ekan? Pedagogik faoliyatida uning roli qanday?

19. Notiqlik (oratorlik) mahorati qanday elementlardan iborat?

20. Notiqlik mahoratini o‘stirish mashqlardan qaysilarni bilasiz?

### **Mustaqil ish uchun mavzular.**

1. Pedagogik ta’sir etishda tashqi ko‘rinishning roli.

2. Zamonaviy tarbiyachi imidji.

## **5-mavzu: Tarbiyachi-pedagogning faoliyatiga kreativ yondashuv. Kreativ yondashuv asosida mashg‘ulotlarni tashkil etish**

### **Reja:**

**1. “Kreativlik” tushunchasiga turli xil yondashuvlar**

**2. Tarbiyachining ijodkorlik sifatleri**

**3. Bo‘lajak pedagoglarda kreativlik sifatlarini rivojlantirish**

**4. Kreativ yondashuv asosida mashg‘ulotlarni tashkil etish**

**Tayanch so‘z va iboralar:** kreativlik, g‘arb kishilarining fikrlari, sharq kishilarining fikrlari, Patti Drapeau, multimedia, elektron albom, elektron atlas, raqamli video lavhalar, o‘zini o‘zi ijodiy faollashtirish, kreativ, kreativ fikrlash, kreativlik — g‘ayriixtiyoriy jarayon, kreativ mashg‘ulotlar, kontseptuallik, izchillik, boshqarish qobiliyati

### **1. “Kreativlik” tushunchasiga turli xil yondashuvlar**

“Kreativlik” tushunchasi o‘zida madaniy xilma-xillikni aks ettiradi. G‘arb kishilari uchun kreativlik, umuman olganda, yangilik

sanaladi. Ularkreativlik negizida noan'anaviylik, qiziquvchanlik, tasavvur, hazil-mutoyiba tuyg'usi va erkinlik mavjud bo'lishiga e'tiborni qaratadilar (Myordok, Ganim, 1993 y.; SHternberg, 1985 y.). SHarqliklar esa, aksincha, kreativlikni ezgulikning qayta tug'ilish jarayoni, deb tushunadilar (Xui, Sternberg, 2002 y.; Rudovich, Xui, 1997 y.; Rudovich, Yue, 2000 y.). Garchi g'arblik va sharqliklarning kreativlik borasidagi qarashlari turlicha bo'lsa-da, biroq, har ikki madaniyat vakillari ham mazkur sifat va unga egalikni yuqori baholaydilar (Kaufman, Lan, 2012 y.). Ko'pgina pedagog-tarbiyachilar o'zlarida kreativlik qobiliyatini mavjud emas, deb hisoblaydilar. Buni ikki xil sabab bilan asoslash mumkin: birinchidan, aksariyat pedagog-tarbiyachilar ham aslida "kreativlik" tushunchasi qanday ma'noni anglatishini etarlicha izohlay olmaydilar; ikkinchidan, kreativlik negizida bevosita qanday sifatlar aks etishidan bexabarlar.

*Ayni o'rinda shuni alohida qayd etib o'tish joizki, har bir shaxs tabiatan kreativlik qobiliyatiga ega. Xo'sh, ular o'zlarida kreativlik qobiliyati mavjudligini qanday namoyon eta olishlari mumkin. Bu o'rinda Patti Drapeau shunday maslahat beradi: Agarchi o'zingizni kreativ emasman deb hisoblasangizda, hozirdanoq kreativ tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan darslarni tashkil eta boshlashingizni maslahat beraman. Aslida, gap sizning ijodkor va kreativ bo'lganingiz yoki bo'lmaganingizda emas, balki darslarni kreativlik ruhida tashkil etishingiz va yangi g'oyalarni amalda sinashga intilishingizdir.*

Patti Drapeau nuqtai nazariga ko'ra kreativ fikrlash, eng avvalo, muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash sanaladi. **Har tomonlama fikrlash** ta'lim oluvchilardan o'quv topshirig'i, masalasi va vazifalarini bajarishda ko'plab g'oyalarga tayanishni talab etadi. Bundan farqli ravishda **bir tomonlama fikrlash** esa birgina to'g'ri g'oyaga asoslanishni ifodalaydi. Kasbiy faoliyatda pedagogning kreativligi turli shakllarda namoyon bo'ladi. Ular quyidagilardir: axborot, shu jumladan, kompyuter texnologiyasi yordamida pedagog - tarbiyachi tomonidan kreativ yondashuv asosida tayyorlanib, ta'lim jarayonida samarali foydalanish mumkin bo'lgan ijod mahsulotlari sanab o'tiladi.

**Multimedia** – bir necha ko‘rinishdagi: elektron shakldagi grafik, matnli, raqamli, ovozli, musiqali, video, audio, fotografiya, harakatlanuvchi obrazlar(animatsiyalar) va boshqa axborotlarni uzatuvchi kompyuter texnologiyalari uchun taalluqli umumiy tushuncha

**Elektron albom** – rasmlar, suratlar, chizmalar va boshqar grafik tasvirlar hamda ularning izohlarini o‘zida aks ettiruvchi elektron shakldagi to‘plam

**Elektron atlas** (yun. “Atlas” – birinchi bo‘lib, osmon globusini yaratgan afsonaviy Liviya podshosining nomidan) – muayyan o‘quv moduli (o‘quv fani) bo‘yicha tavsiya etilgan va o‘ziga xos grafik tasvirlarga ega bo‘lib, o‘quv maqsadlariga ko‘ra foydalaniladi

**Raqamli video lavhalar** – o‘quv moduli (o‘quv fani) bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishga yordam beradigan ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan 3D o‘lchamdagi zamonaviy o‘quv manbai

## 1. PEDAGOG-TARBIYACHINING IJODKORLIK SIFATLARI.

Pedagog-tarbiyachi o‘z-o‘zidan ijodkor bo‘lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma’lum vaqt ichida izchil o‘qib-o‘rganish, o‘z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda bo‘lgani kabi bo‘lajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo‘lishlari uchun talabalik yillarida poydevor qo‘yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda pedagogning o‘zini o‘zi ijodiy faoliyatga yo‘naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega. Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e’tibor qaratishi zarur.

**O‘zini o‘zi ijodiy faollashtirish** – shaxsning ijodiy faoliyatda o‘z imkoniyatlarini to‘laqonli namoyon qilishi va rivojlantirishining ijodkor va kreativ bo‘lishi yoki bo‘lmasligi emas, balki mashg‘ulotlarni ijodkorlik, kreativlik ruhida tashkil etishi, yangi g‘oyalarni ta’lim jarayonida sinab ko‘rishga intilishi zarur.

**O‘zini o‘zi ijodiy faollashtirish** – shaxsning ijodiy faoliyatda o‘z imkoniyatlarini to‘laqonli namoyon qilishi va rivojlantirishining ijodkor va kreativ bo‘lishi yoki bo‘lmasligi emas, balki

mashg'ulotlarni ijodkorlik, kreativlik ruhida tashkil etishi, yangi g'oyalarni ta'lim jarayonida sinab ko'rishga intilishi zarur.

Mashg'ulotlarda "kreativlik yo'l haritasi"ga ko'ra quyidagi 4 ta yo'nalish bo'yicha harakatlanadi va ulardagi harakatlar pedagoglarning kreativligini ifodalovchi belgilar (Patti Drapeau) sanaladi:

- 1) ijodiy fikrlash ko'nikmalarini namoyon etish;
- 2) mashg'ulotlarni qiziqish bilan o'zlashtirishga rag'batlantiruvchi strategiyalardan foydalana olish;
- 3) innovatsion yondashuv va pedagogik masalalarning yechimini topishga kreativ yondashish;
- 4) kutiladigan natija

Hozirgi zamon pedagogikasi yuqori malakali pedagogik kadrlarga ehtiyoj

sezadi. Ushbu loyihani amalga oshirish quyidagilarni amalga oshiriladi:

1. O'qituvchilarni ma'naviy va moddiy rag'batlantirish sistemalarini tadbiq etish;
2. Pedagogik kadrlarni attestatsiyadan o'tkazishda qo'yiladigan talablarni yangilash;
3. Ularning malakasini oshirish;
4. Eng yaxshi o'qituvchilarning tajribalarni keng ommalashtirish.

Yangi, hozirgi zamon standartlarini amalga tadbiq etish o'qituvchidan nafaqat yuqori malakani va doimiy kasbiy rivojlanishni, balki o'z ishiga ijodiy yondashishni talab qiladi. O'qituvchining kreativligi o'z tajribasini qayta ko'rib chiqishi va yaxshilash hammaga ma'lum narsalarni o'zgartira olishi va ijodiy foydalana bilish, sifat jihatdan yangiliklarni yaratish juda katta ahamiyatga ega bo'lib bormoqda.

Kreativlik tushunchasi (lot., ing. "create" – yaratish, "creative" yaratuvchi,

ijodkor) ingliz tilidan tarjima qilganda ijod ma'nosini anglatadi. Haqiqattan esa

yangi, original (o'ziga xos) yanada sayqallangan moddiy va ma'naviy bog'liqliklarni yaratishdir.

Kreativlikni: ijodga intilish, hayotga ijodiy yondashish, o'ziga doimiy tanqidiy nazar solish va tahlil etish deyish mumkin. Hozirgi zamon psixologiya va pedagogika lug'atlariga asosanib o'qituvchining kreativligi deb uning fikrlaridagi

sezgilaridagi, muloqotdagi, alohida faoliyat turidagi, ijodiy yondashish, bilish

darajasi deb ta'riflash mumkin.

*Tarbiyachining kreativligi, bu uning qat'iy, chegaralangan yoki sust chegaralangan sharoitlarda har xil original g'oyalarni izlab topish laoyiqatidir.*

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish quyidagi o'zaro bir-biriga bog'liq kreativlik 9 tarkibiy komponentlarini ajratish imkoni beradi:

1. Intellektual (aqliy);
2. Ahloqiy (o'z-o'zini boshqarish);
3. Motevatsion (maqsadiy);
4. Emotsional (his hayajonli).

Kreativ layoqat quyudagi o'zaro bir-biriga bog'liq bo'lgan qismlardan iborat bo'ladi:

1. Kreativlik maqsad;
2. Ijodiy intilish;
3. Kreativ (ustanovka) qurish,
4. Kreativ yo'nalish;
5. Kreativ ifodali akt;
6. Kreativ o'z-o'zini boshqarish;
7. Kreativ faollik;
8. Kreativ intilishlar darajasi.

O'qituvchining kreativligi uning ijodiy faoliyatida paydo bo'ladi va rivojlanadi. K.Rodgers "Ijod-o'z o'zini kuchaytirish demakdir" degan asarida ijodiy shaxs uchun eng asosiy savollardan birini beradi: "Meni meni hayot tarzim qoniqtiradimi yoki to'g'ri talqin etadimi. O'qituvchining ushbu savolga javobi uning kasbiy va ijodiy cho'qqilarga intilishi yuqori ijodiy malakali va o'zini ijodiy tomondan to'la namoish etishga intilishi kreativ shaxs bo'lishi".

Shunday qilib kreativlik o'qituvchining ijodiy faoliyatida ijodiy intilishi, ijodiy qobiliyati, kreativ maqsadi, yo'nalishi va o'zini

boshqara olishida ko‘rinadi va uni o‘zini faolligi, o‘zini-o‘zi boshqara olishi bilan yetuk rivojlanayotgan, o‘sayotgan shaxsga aylanayotganini bildiradi.

### **3.Bo‘lajak pedagoglarda kreativlik sifatlarini rivojlantirish**

Pedagogning **kreativlik potentsiali** uning umumiy xususiyati sifatida aks etadi. U ijodiy faoliyatning dastlabki sharti va natijasi sanaladi. Mazkur sifat shaxsning o‘z-o‘zini namoyon qilish layoqatiga egalikni va tayyorlikni ifodalaydi. Qolaversa, kreativ potentsial negizida har bir mutaxassisning shaxsiy 10 qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvati yaxlit holda namoyon bo‘ladi.

Kreativ potentsial bilish jarayoniga yo‘naltirilgan ijodkorlik bilan chambarchas bog‘liq. Pedagogning kreativ potentsiali an’anaviy tafakkur yuritishdan farqli ravishda quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- tafakkurning tezkorligi va egiluvchanligi;
- yangi g‘oyalarni yaratish qobiliyati;
- bir qolipda fikrlamaslik;
- o‘ziga xoslik;
- tashabbuskorlik;
- noaniqlikka toqat qilish;

Pedagog kreativlik potentsialiga ega bo‘lishi uchun kasbiy faoliyatida quyidagilarga e‘tiborini qaratishi zarur:

- kasbiy faoliyatiga ijodiy yondashish;
- yangi-yangi g‘oyalarni yaratishda faollik ko‘rsatish;
- ilg‘or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o‘rganish;
- hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida fikr almashish.

Har bir pedagogning o‘zini- o‘zi rivojlantirishi va o‘zini- o‘zi namoyon eta

olishi bevosita uning kreativlik qobiliyatiga egaligi bilan bog‘liq. Odatda pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo‘lishlari pedagogik muammolarni hal qilishga intilish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o‘zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta‘minlanadi.

Pedagog o‘z-o‘zidan ijodkor bo‘lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati

ma‘lum vaqt ichida izchil o‘qib-o‘rganish, o‘z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib

boradi. Har qanday mutaxassisda bo'lgani kabi bo'lajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari uchun talabalik yillarida poydevor qo'yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda pedagogning o'zini-o'zi ijodiy faoliyatga yo'naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega.

Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni echish,

muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijodi mahsulotlarini yaratishga alohida e'tibor qaratishi zarur.

Muammoli masala va vaziyatlarni hal qilar ekan, pedagogning masala yechimini topishga ijodiy yondashishi unda hissiy-irodaviy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Pedagog o'z oldiga muammoli masalalarni qo'yish orqali mavjud bilimlari va hayotiy tajribalariga zid bo'lgan dalillar bilan to'qnash keladi. Buning natijasida o'z ustida ishlash, mustaqil o'qib o'rganishga nisbatan ehtiyoj sezadi.

O'qituvchilar darslarda bo'lajak pedagoglarning erkin fikr yuritishlarini ta'minlay olishlari kerak. Xuddi shu holatdagina ularning fikrlari kreativlik kasb etadi. Kreativlik darslarida bo'lajak pedagoglar birgina tog'ri javobni izlash o'rniga o'zlarini erkin va xotirjam sezishlari va yuzaga kelgan muammolarga turli yechimlarni izlab topishlari maqsadga muvofiqdir. Qancha ko'p g'oya va fikrlarni o'rta tashlasalar, shuncha ko'p g'oyalar kreativ bo'ladi (Simonton, 1999). O'quvchilar "Aqliy hujum" metodidan foydalanganlarida noaniqlikka duch kelishlari mumkin. Bo'lajak pedagoglarni to'g'ri yo'lga yo'naltirish va keyinchalik ularni mustaqil "sayohatga" qo'yib yuborish ularda kreativ va hattoki noaniq bo'lsada, turli g'oyalarni o'ylab topishga bo'lgan intilishni kuchaytiradi.

Chak Djons aytganiday "Qo'rquv hissining yuzaga kelishi kreativlikka asoslangan har qanday ishda mavjud; havotir kreativlikning xizmatkoridir" (Goleman, Kaufman, & Ray, 1992). Bo'lajak pedagoglarni yo'naltirish, o'qituvchiga bog'liq bo'lib qolmay, ularda avtomatik ravishda harakat qilish ko'nikmasini shakllantiradi. Yuqori sinf o'quvchilari yoki yuqori kurslarning



malakali bo'lajak pedagoglari jarayonni kichik alohida qism va bosqichlarga bo'lib, yosh va tajribasiz bo'lajak pedagoglarni ruhlantirib, bu esa o'z o'rniida kreativlik ko'nikmasining shakllanishiga o'z ta'siri o'tkazadi (Amabile, 1998). O'qituvchilar bo'lajak pedagoglarni manbalar bilan ta'minlash, maslahat berish, yo'l-yo'riq ko'rsatish, ularning progress va muvafaqqiyatini aniqlashda mezonlarni ishlab chiqishda murabbiy sifatida xizmat qiladilar.

Shuningdek, yuqori kurs bo'lajak pedagoglari nafaqat ichki kreativlikni shakllantirish, balki kichik guruhlarda ishlash, kreativlik va sharhlar berishga qiziqтира oladilar ham (ong 12 sayohati, tasavvur chegarasi, kelajakdagi muammolarni echish, yangilik ochmoq va kashf etmoq)".

Kreativlik potentsialiga ega pedagog o'zida quyidagi malakalarni namoyon

eta oladi:

- bajariladigan vazifaning mohiyati va ahamiyatini belgilay bilish;

- masalaning qo'yilishini tahlil qila olish;

- masalani hal qilish rejasini tuzish;

- masalani hal qilishda samarali metodlar (analiz, sintez, induksiya, deduktsiya, taqqoslash va b.)larni qo'llash;

- masalani hal qilish usullarini tanlay olish;

- qabul qilingan qarorning to'g'riligini asoslash va qayta tekshirish;

- masalani hal qilishda kichik tadqiqot (izlanish)ni olib borish;

- masalani hal qilish sharoiti, jarayonning borishi va masala echimi yakunlarini umumlashtirishga oid dalillarni rasmiylashtirish.

Pedagogning kreativ potentsiali quyidagi tarkibiy asoslarni o'z ichiga oladi:

**Maqsadli-motivli yondashuv** (ijodiy faoliyat qadriyat sanaladi va u pedagogning qiziqishlari, motivlari, faoliyatni tashkil etishga intilishida ko'zga tashlanadi);

**Mazmunli yondashuv** (o'zida pedagogik, psixologik, maxsus va innovatsion xarakterdagi BKMni aks ettiradi);

**Tezkor-faoliyatli yondashuv** (o'zida ma'lum fikriy-mantiqiy fikrlashga doir harakatlar, shuningdek, amaliy (maxsus, texnik, texnologik) faoliyat usullarini ifodalaydi);

**Refleksiv-baholash** (bunda shaxsiy ijodiy faoliyat mohiyatini anglash, o'z o'zini tahlil qilish va o'z-o'zini baholash ko'zga tashlanadi); Pedagogning ilmiy-tadqiqot ishlari va ilmiy yoki ijodiy loyihalarni amalga oshirishi unda kreativlik potentsialini yanada rivojlantiradi. Natijada pedagog:

- ijodiy fikrlashga odatlanadi;

- ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib borish ko'nikmalarini puxta o'zlashtiradi; pedagogika yoki mutaxassislik fani yutuqlari hamda ilg'or tajribalardan foydalanish imkoniyatlarini mustaqil tahlil qiladi;

- pedagogik jamoa tomonidan olib borilayotgan ilmiy tadqiqot va ijodiy loyihalarni bajarishda faol ishtirok etadi.

#### **4. Kreativ yondashuv asosida mashg'ulotlarni tashkil etish.**

***MTT tarbiyachilarida kreativlikni shakllantirish- zamon talabi***

Kreativlik (lot., ing. "create" - yaratish, "creative" - yaratuvchi, ijodkor) - "faol", "ijodkor", "yaratuvchan" manolarini anglatadi

Mutaffakir Jalolidin Davoniy "Axloqi Jaloliy" nomli asarida insoniy fazilatlarda aqliy qobiliyat va aqliy iste'dodni tarbiyalash uchun zukko, zehni, fahm-farosatli, ijodkor bo'lishi va bilimlarni tez eslab qolishi, ularni anglab yetish lozimligini ta'kidlagan.

Mutafakkir Zahiriddin Muhammad Bobur qarashlarida ham kreativlikni ko'rishimiz mumkin: U inson shaxsining taraqqiy ettirishning asosiy yo'llaridan biri deb muammoli vaziyatni, ijodkorlikni tushunadi va undan o'z faoliyatida unumli foydalangan. individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma'nosini ifodalaydi. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini, zehni o'tkirlikni tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida

aks etadi. Amerikalik psixolog P. Torrens fikricha, kreativlik muammo yoki ilmiy farazlarni ilgari surish, farazni tekshirish va o'zgartirish, qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash; muammo echimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o'zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta'sirchanlikni ifodalaydi.

Atrofga boqsangiz, har tomonda inson ijodkorligining beqiyos va hayratlanarli namunalariga duch kelasiz: elektron xizmatlar, virtual reallik, to'rtburchak tarvuzlar, tuproqsiz hosil olish... Bularning barchasi inson tasavvuri, tafakkuri mahsuli. Bugun biz uchun odatiy tuyulgan kitob, musiqa, bino, samolyot, hatto lampalar ham qachonlar orzu va tasavvurda bo'lgan, keyinchalik aql-idrok samarasi o'laroq yaratilgan. G'ildirakning kashf etilishidan boshlangan yaratuvchanlik namunalari bugun koinotda kezib yuribdi. Innovatsiyalar kundalik turmushimizda qulayliklar yaratadi, og'irimizni yengil, uzog'imizni yaqin qiladi. Shu tarzda kreativlik taraqqiyotning ajralmas bo'lagiga aylangan. Barcha sohada ijodiy fikrlovchi mutaxassislariga talab katta. Dunyoga mashhur dasturiy mahsulotlar, mobil telefonlar ishlab chiqaruvchi kompaniyalar mutaxassislaridan har kuni yangi g'oya so'raladi. Mehnat bozorida kreativ fikrlovchi mutaxassislariga talab oshib borayotgan ekan, ta'lim jarayonida o'quvchi-talabalarning noodatiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish, rivojlantirish dolzarb vazifadir. Haligacha ta'lim tizimida ko'plab yondashuv va metodlar ijodiy fikrlash emas, talqin va tahlilga, ya'ni berilgan ma'lumotni tushunib, to'g'ri yetkazishga, nari borsa, bir necha axborotni umumiy lashtirib, xulosa chiqara olishga yo'naltirilgan.

### **Tasavvur bilimdan muhim(mi?)**

Shuning uchun kreativ fikrlash jarayonida tasavvur muhim rol o'ynaydi. Albert Eynshteyn "Tasavvur — bilimdan muhim" deganida aynan mana shu jihatni nazarda tutgan. Ko'pincha noodatiy fikrlar, yechimlar kutilmaganda inson hayoliga keladi. Buning uchun, avvalo, fikrlash jarayonidagi bir xillikka, odatiylikka barham berilishi lozim.

### **Qoliplardan voz kechamiz**

Inson miyasi o'z ishini "yengillashtirish", "qulaylashtirish" uchun shablon va stereotiplardan foydalanadi. Stereotiplar shu

paytgacha ma'lum bo'lgan va umumqabul qilingan fikrlardir. Ular asosida fikrlash bizga hech qanday yangi g'oya bermaydi. Qoliplarning yuzaga kelishida jamiyatda ustuvor bo'lgan ijtimoiy fikr, mediamahsulotlarda taqdim etilayotgan shakl va ko'rinishlar ham yetakchi o'rin tutadi. Inson ommadan ajrab qolmaslik nuqtayi nazaridan hammaning fikriga qo'shiladi. Qolaversa, "oqim bo'ylab suzish" mustaqil fikrlashdan ko'ra oson tuyuladi. Stereotiplar orqali fikrlaganda muayyan mavzu bo'yicha inson ongiga "so'rov" berilganida odatiy ma'lumot va mulohazalar yuzaga keladi. Masalan, "yangi yil" deganda to'kin dasturxon, reklamadan tushmaydigan gazli ichimliklar, archa va hokazolarni tasavvur qilish, bobo obrazida qo'lida hassa tutgan, ko'zoynakli cholni ko'rish qolip asosida fikrlashning ko'rinishi. Kreativ fikrlovchi insonlar odatiy manzaralardan o'zgacharoq tasvirlarni ham tasavvur qilib, hech kim ilg'amagan jihatlarni payqaydi, yangilik yaratoladi.

### **Mashqlar**

Tomas Edison "Kreativlik — g'ayriixtiyoriy jarayon", deydi. Lekin har kuni ko'plab mutaxassislar muammolarga noodatiy yechim topishga zaruriyat sezadi. Ular mana shu g'ayriixtiyoriy jarayonni ixtiyoriylashtirishi mumkinmi? Tabiatda yangi fikrlarni yuzaga keltiruvchi "sehrli tayoqcha" yo'q, biroq har qanday mutaxassisning kreativ o'ylashiga ko'maklashadigan ko'plab usullar mavjud. Buning uchun ijodiy fikrlashga vaqt ajratish, ijodiy salohiyatni anglash lozim. Jorj Bernard Shou hazillashib shunday deydi: "Ko'pchilik yiliga ikki-uch marta o'ylaydi. Mening butun dunyoga mashhurligim sababi — haftada bir yoki ikki marta o'ylaganim". Demak, xayolga kelgan yangi fikrlarni e'tiborsiz qoldirmaslik, o'ylash uchun imkon yaratish muhim.

### ***Kreativ yondashuv asosida mashg'ulotlarni tashkil etishning ahamiyati***

Hozirgi vaqtda Prezidentimizning oqilona siyosati davlat va jamiyat e'tiborini maktabgacha ta'lim kabi muhim quyi tizimga kuchaytirish zarurligini ko'rsatmoqda. Maktabgacha ta'lim sifatini yangilash va yaxshilash, bolalarning ijodiy va kognitiv qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirishga qaratilgan maktabgacha ta'limning yangi avlodini dasturiy va uslubiy ta'minotini joriy etish, shuningdek maktabda tizimli ta'limning yangi asr bosqichiga

o'tishda maktabgacha ta'lim tashkilotlari qobiliyatlarini muvofiqlashtirish zarurati tug'ildi. Zamonaviy maktabgacha ta'lim muassasasida innovatsiyalarni tashkil etish va mazmunining dolzarbligi shubhali emas. Innovatsion jarayonlar maktabgacha ta'limning rivojlanishidagi muntazamlilik va muassasaning ishidagi bunday o'zgarishlarga tegishli bo'lib, uning xodimlarining faoliyati va fikrlash tarzining o'zgarishi bilan birga keladi. Bugungi kunda ta'lim sohasida ko'plab yangiliklar mavjud. O'qitish usullari va texnologiyalari ilmga yangiliklar kiritilmoqda. Innovatsion faoliyat muammosini nazariy o'rganish ta'limni yangilash, uni tushunish va yangilash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Bizning pedagogik tizimimizdagi inqiroz davri nafaqat "yuqoridan o'zgarishlarni" kutish, balki o'zimizdagi o'zgarishlarga ehtiyojni his qilish uchun ham sabab bo'ladi.

Ta'lim sohasiga kelsak, kreativlik jarayonini tashkil etish shakli yoki ta'lim sohasidagi ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatishga yangi yondashuv zarur, ota-onalarning maktabgacha ta'limning yangi shakllari innovatsion faoliyatni muvaffaqiyatli tashkil etish va amalga oshirish tarbiyachilarning innovatsion g'oyadan xabardorligiga bog'liq, chunki innovatsion rejim sharoitida o'qituvchining shaxsini o'zi belgilashning faol jarayoni mavjud bo'lib, maktabgacha tarbiya muassasasi xodimlari o'rtasidagi munosabatlar tabiatida o'zgarishlar mavjud. Bu jarayon uzoq davom etadi va o'z-o'zidan bunday bo'lmaydi.

Maktabgacha ta'lim muassasasida interaktiv doskadan foydalanish amaliyoti alohida e'tiborga loyiqdir - bu noyob ta'lim vositasi, afsuski, uning narxi yuqori bo'lganligi sababli mavjud emas. Shu bilan bir qatorda, hayajonli o'quv vazifalarini o'yin uslubida hal qilishga imkon beradigan va doimo bolalarning diqqatini kuchaytiradigan kompyuterdan foydalanish mumkin. Shaxsiy kompyuterga qisqa muddatli kirish imkoniyati va kichik tayyorgarlik ishlari olib borilishi sharti bilan an'anaviy hayotiy vaziyatlarni simulyatsiya qiladigan va alohida ob'ektlar va hodisalarning xususiyatlarini o'rganishga, musiqiy asarlarni tinglashga imkon beradigan o'quv videofilmlarini, animatsiyani jamoaviy ko'rishni tashkil etish orqali an'anaviy ta'lim jarayoniga innovatsion komponentni kiritish maqsadga muvofiqdir. Bolalar

bog'chasida AKTni joriy etishning asosiy sharti bu kompyuter xavfsizligi rejimiga rioya qilish, uning asoslarini ommalashtirish ota-onalar bilan o'zaro munosabatlarning yana bir yo'nalishi hisoblanadi.

Bolalar bilan ishlashning asosiy vositasi bu pedagogik izlanish. Bolalar pedagogi Mariya Montessori g'oyalaridagi asosiy nuqta - bu o'quv faoliyatini maksimal darajada individuallashtirish, aniq o'ylangan va mohirona dasturlangan dasturdan foydalanish. har bir bolaning rivojlanishi uchun poydevor bo'ladi.

Montessori atrof-muhitni tartibga solish, guruh jihozlarini tashkil qilish, mustaqillikni rivojlantirish, bolani to'g'ri ovqatlantirish, gimnastika, hissiyotlarni tarbiyalash va ularni rivojlantirishni ilgari surgan. Tarbiyachi mashg'ulotlarni kreativ, yangicha usulda bolalar ongiga ta'sir qilib, ularni xotirasini mustahkamlaydi.

Shu bilan birga maktabgacha ta'lim tashkilotlariga kreativ mashg'ulotlarni joriy etish quyidagilar zarurati bilan bog'liq:

*innovatsion komponentni kiritishni talab qiladigan ta'lim faoliyatining asosiy yo'nalishlarini aniqlash;*

*kreativ jarayonlarni texnologik qo'llab-quvvatlashning mohiyatini aniqlash va uni maktabgacha ta'lim muassasasining moddiy-texnika jihozlariga kiritish;*

*sifat jihatidan yangi tashkiliy va boshqaruv yechimlarini muntazam ravishda loyihalashtirish va izchil amalga oshirish;*

Maktabgacha ta'lim muassasasida yuqori sifatli yangiliklar quyidagilar bilan ajralib turadi.

**Kontseptuallik** - mazmunli usullarni amaliy amalga oshirish xususiyatlarini aniqlaydigan asosli uslubiy kontseptsianing mavjudligi.

**Izchillik** - yangilikning yaxlitligi, uning elementlarining izchilligi va o'zaro bog'liqligi. Umumiy nomga keltirilgan mehmonxonalarining innovatsion yechimlarini yangi avlodning shakllangan ta'lim texnologiyasi deb hisoblash mumkin emas.

**Boshqarish qobiliyati** - qiyinchiliklar yuzaga kelganda va sharoit o'zgarganda texnologiyaning tarkibiy qismlarini o'zgartirish qobiliyati. Innovatsiyalarning ushbu talabga muvofiqligi o'qituvchilar uchun individual komponentni hisobga olgan holda

maqsadlar qo'yish, vazifalarni ishlab chiqish va strategiyani izchil amalga oshirish imkoniyatini kafolatlaydi.

**Reproduktivlik** - innovatsion ta'lim yechimi o'qituvchining shaxsiy xususiyatlaridan va guruhdagi ta'lim sharoitidagi o'zgarishlardan qat'i nazar, uni kerakli darajada takrorlash imkoniyati bilan ajralib turadi.

**Kreativ yondashuv asosida tashkil etilgan mashg'ulot bolalarni barkamol bo'lishida muhim omil.**

Maktabgacha ta'lim muassasalarida mashg'ulotlar jarayonida kompyuter slaydlaridan foydalanishda kreativlikni qo'llash MTTlarining maktabga tayyorlov guruhlari ta'lim-tarbiya jarayoniga multimedia texnologiyasidan foydalanishning ilmiy-metodik jihatlari asoslandi. Mavzuga tegishli bo'lgan mulgimedia texnologiyasi tadqiqot obyekti sifatida tadqiq qilindi va uning matn, audio, video, animatsiya samarasi, kompakt disklarning yaratilishi va boshqa tashkil etuvchilari, shuningdek, multimedia atamasi, tushunchasi, mazmuni, texnologik jarayoni hamda uning shakllanishi analogiya metodidan foydalanib asoslab berildi.

1. Ta'lim-tarbiya jarayonida multimedia texnologiyasidan foydalanishda elektron darsliklar, qo'llanmalar va metodik ishlanmalar, taqdimotlardan foydalanish unumli natija beradi. Shular qatorida, Internet ashyolaridan va masofali ta'limdan ham MTTlarining ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish maqsadga muvofiqligi ko'rsatildi.

2. Multimedia vositalari psixologik jihatdan bolalarning faollashuvi, diqqatining barqarorlashishi, bola miyasining ikkala yarim sharining bir vaqtda ishlashi, o'rganiladigan materialga qiziqishlari va ishtiyoqining ortishi kabi psixologik jihatlarni tashkil etadi. Kompyuterli ta'limiy va rivojlantiruvchi o'yinlaridan foydalanishning nazariy masalalari va pedagogik-psixologik jihatlari yangicha texnologik yondoshuvda asoslab berildi.

3. Maktabgacha ta'lim muassasalarida multimedia texnologiyasidan foydalanishning metodik asoslari ishlab chiqildi. MTTlari uchun ko'plab multimedia vositalari ishlab chiqilgan, ammo ulardan foydalanish metodikasi ishlab chiqilmaganligini hisobga olgan holda, multimedia texnologiyasi asosida mashg'ulotlarni o'tkazish metodikasi yaratildi, tarbiyalanuvchilarning bilimini

baholash mezonini ishlab chiqildi. Multimedia texnologiyasi asosida tashkil etilgan.

MTT bolalarining yoshiga va ta'lim dasturiga mosligi e'tiborga olingan holda MTtlarining maktabga tayyorlov guruhlarini o'quv rejasiga —Informatika fanidan elementar tasavvurlarni berishni yo'nalishini kiritish va tarbiyalanuvchilarning boshlag'ich kompyuter savodxonligini shakllantirish taklif etiladi.

Pedagog o'z-o'zidan ijodkor bo'lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati

Ma'lum vaqt ichida izchil o'qib-o'rganish, o'z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda bo'lgani kabi bo'lajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari uchun talabalik yillarida poydevor qo'yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda pedagogning o'zini o'zi ijodiy faoliyatga yo'naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil etishi muhim ahamiyatga ega.

Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni echish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e'tibor qaratishi zarur.

Muammoli masala va vaziyatlarni hal qilar ekan, pedagogning masala yechimini topishga ijodiy yondashishi unda hissiy-irodaviy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi.

### **1-savol**

Kreativlik so'zining ma'nosi va mohiyati haqida qisqacha yoriting

Kreativlikni rivojlantirish qanday yo'llar bilan amalga oshiriladi?

### **2-savol**

Kreativlik haqida mutafakirlarning fikrlarini qisqacha yoriting?

Kreativlikni rivojlantirish qanday yo'llar bilan amalga oshiriladi?

### **3-savol**

Kreativ tarbiyachi qanday xususiyatlarga ega bo'lishi kerak ?

Davlatimizning Maktabgacha ta'lim yo'nalishiga e'tiborini qisqacha so'zlar bilan ifodalang .



#### **4-savol**

Kreativlik soʻzining maʼnosi va mohiyati haqida qisqacha yoriting

Bolalar pedagogi Mariya Montessori gʻoyalari haqida

#### **5-savol**

Kreativlikni rivojlantirishda “Qoliplardan voz kechamiz” usuli qanday amalga oshiriladi

Davlatimizning Maktabgacha taʼlim yoʻnalishiga eʼtiborini qisqacha soʻzlar bilan ifodalang .

#### **6-savol**

Bolalar pedagogi Mariya Montessori gʻoyalari haqida.

Maktabgacha taʼlim tashkilotlariga kreativ mashgʻulotlarni joriy etish zarurlari ifodalang.

#### **7-savol**

Maktabgacha taʼlim muassasasida yuqori sifatli yangiliklar nimalar bilan ajralib turadi?

Kontseptuallik tushunchasini qisqacha yoriting

#### **8-savol**

Izchillik va reproduktivlik tushunchasini qisqacha yoriting

Boshqarish qobiliyati tushunchasini qisqacha yoriting

**9-savol** Maktabgacha taʼlim muassasalarida mashgʻulotlar jarayonida kompyuter slaydlaridan foydalanishda kreativlikni izohlang .

Maktabgacha taʼlim tashkilotlariga kreativ mashgʻulotlarni joriy etish zarurlarini ifodalang

#### **10-savol**

Maktabgacha taʼlim tashkilotlarida multimedia texnologiyasidan foydalanishning afzalliklarini ifodalang

Bolalar pedagogi Mariya Montessori gʻoyalari haqida

#### **Mavzu yuzasidan nazorat savollari.**

1. “Kreativlik” tushunchasiga izoh bering.

2. Kreativlik haqida gʻarb adiblarning fikrlari...

3. Kreativlik haqida sharqliklarning fikrlari...

4. Patti Drapeau nuqtai nazariga koʻra kreativlik nima?

5. Tarbiyachining ijodkorlik sifatleri

6. Oʻzini oʻzi ijodiy faollashtirish deganda nimani tushunasiz?

7. Mashgʻulotlarda “kreativlik yoʻl haritasi”.

8. Pedagogning kreativlik potentsiali haqida nimalarni bilasiz?
9. Maqsadli-motivli yondashuv nima?
10. Refleksiv-baholashda nima tushuniladi?

### Mustaqil ish uchun mavzular

1. Pedagogning kreativ sifatlari.
2. Kasbiy faoliyatda pedagogning kreativlikning turli shakllari.

## **6-mavzu. Tarbiyachining innovatsion faoliyati**

### **Reja:**

1. Innovatsiyani pedagogik jarayonga tadbiq etish bosqichlari. Tarbiyachining asosiy strukturaviy komponentlari.
2. Innovatsion pedagogikaning tushunchalari.
3. Innovatsiyaning rivojlanishi. Innovatsion yondashuv.

**Tayanch tushunchalar:** *innovatsiya, pedagogik texnologiyalar, innovatsion yondashuv, innovatsion faoliyat, innovatsion pedagogik g'oyalar.*

**1. Innovatsiyani pedagogik jarayonga tadbiq etish bosqichlari. Tarbiyachining asosiy strukturaviy komponentlari.**

O'zbekistonimizda mustaqillik sharofati bilan barcha sohalarda tub islohotlar amalga oshirildi, iqtisodiy rivojlantirishning o'zbek modeli, kadrlar tayyorlashning milliy dasturi ishlab chiqildi va bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda ta'lim sohasiga alohida e'tibor qaratilib, kelajak avlodni tarbiyalash borasida zarur shart-sharoitlar, imkoniyatlar yaratilmoqda.

Bugungi kunda dunyo miqiyosida axborot kommunikatsiya tizimining yuksak darajada rivoj topib borayotganligi va bu boshqa sohalar qatorida ta'lim jarayoniga ham kirib kelib, uni yanada sifatli tashkil etishga o'z ta'sirini ko'rsatayotganligi barchamizga ma'lum. Bunday sharoitda inson faoliyatining nazariy va amaliy qirralari ham uzluksiz yangilanib turishi tabiiydir. Pedagogik faoliyat ham alohida va murakkab mehnat turi sifatida bundan mustasno emas. Pedagoglar o'z faoliyatlarida kafolatlangan natijalarni qo'lga kiritishga urinmoqdalar.

XXI asrni olimlarimiz tomonidan axborot texnologiyalari asri deb tan olinganligi pedagogik va axborot texnologiyalari kun sayin

barcha sohalarda rivojlanayotgani, jumladan, ta'lim sohasida ham yangi axborot texnologiyalaridan keng foydalanish an'anaviy o'qitish usullaridan ko'ra samarali va yuqori natijalarga olib kelmoqda. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ko'zda tutilganidek, pedagogik va taxborot texnologiyalari, kompyuterlashtirish va kompyuter tarmoqlari negizida ta'lim jarayonini yangi axborotlar bilan ta'minlash rivojlanib bormoqda.

Shuning uchun ham pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish, ta'lim samaradorligini oshirish uchun tinimsiz izlanish bugungi kunning ehtiyojiga aylandi.

Barkamol avlodni tarbiyalash – "Ta'lim to'g'risidagi" Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da Respublika ta'lim xodimlari zimmasiga o'ta ma'suliyatli vazifalar yuklangan. Bu vazifani amalga oshirish jarayoni boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qishiga yangicha yondashish, o'qituvchilarni o'z kasbiga va tarbiyalanuvchilarga o'ta ma'suliyatli munosabatda bo'lishni taqozo etadi. Bu dastur yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy, ijtimoiy faollikka, siyosiy hamda ijtimoiy hayotda to'g'ri yo'l topa olish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirish, shuningdek, har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan, ta'lim va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda tanlash va keyinchalik puxta o'zlashtirish uchun ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, psixologik-pedagogik va boshqa tarzdagi sharoitlarni yaratishni jamiyat, davlat va oila oldida o'z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutgan pedagogik g'oyani ilgari suradi.

Mamlakatning ertangi kuni esa, dunyoqarashi keng maktab bolalari va zamonaviy, salohiyatli o'qituvchi-murabbiylarga ko'p jihatdan bog'liqdir.

O'quv-tarbiya ishlari jarayonida o'quvchilarni ijodiy fikrlashga, o'zgaruvchan vaziyatlarga o'rgatish, erkin raqobat asosida faoliyatni tashkil etish hamda ularning amaliy mashg'ulotlarda pedagogik texnologiyalar, axborot texnologiyalari,

Elektron darsliklar, versiyalar va multimedialardan foydalana olishi muhimdir. Bu esa o'quvchilarda mutsaqillik, erkin fikrlashni tarbiyalash, o'quv faoliyatini tahlil qilish, itsiqbolda kasbiy mahorat

va kompyuter savodxonligini orttirish ularning ichki ehtiyojiga aylantirilishini talab etadi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachisining innovatsion madaniyatining asosiy strukturaviy komponentlariga pedagogning metodologik madaniyati, uning axborot madaniyati, innovatsion faoliyatini kiritish mumkin, zero mazkur tushunchalar va mazmuni strukturasi taxlili ularning o'zaro aloqadorligini ko'rsatadi. Bu aloqadorlik ularning pedagogik kasbiy amaliyotining motivatsion, intellektual va faoliyatli-amaliy soxalarini tavsiflashi; tarbiyachi o'z kasbiy faoliyati asosi va uni amalga oshirish darajasi sifatida innovatsiyalarning ahamiyatini anglab etishning ko'rsatkichi sanalishida namoyon bo'ladi.

«Pedagogning metodologik madaniyati», «pedagogning axborotli madaniyati» va «pedagogning innovatsion faoliyati» ta'riflarini taxlil qilish ularning innovatsion madaniyatning umumiy strukturasiidagi vazifalarini sxema ko'rinishida taqdim qilish imkonini beradi:

Pedagogning metodologik madaniyati (kasbiy faoliyat strategiyasi tanlovini asoslash). Pedagogning axborotli madaniyati (axborotga extiyoj, axborotni samarali izlash, to'plash, baholash, saqlash, o'zgartirish, taqdim qilishga oid bilim va ko'nikmalar), pedagogning innovatsion faoliyati (zamonaviy g'oyalarni yaratish, o'zlashtirish, foydalanish va tarqatish jarayoni).

Innovatsion madaniyatga ega bo'lgan MTT tarbiyachisi, avvalo, kasbiy faoliyatda yangiliklarni amalga oshirishga ongli munosabati bilan ajralib turadi; uning uchun rivojlangan kasbiy-refleksiv tafakkur (bu pedagogik amaliyotda yuzaga keladigan qarama-qarshiliklarning sabablari va yakuniy munosabatlarini tushunishga imkon beradi), pedagogik innovatika soxasida keng bilimlar; gnostik, loyihalashtirish va kommunikativ malakalar xosdir.

Demak, MTT tarbiyachisining innovatsion madaniyati darajasi qator mezonlar: innovatsion motivlar, innovatsion bilimlar va innovatsion malakalarning yigindisi bilan belgilanadi.

Innovatsion motivlar pedagogning bilimlar tizimini boyitish, kasbiy faoliyatda pedagogik innovatsiyalarni tizimli amalga oshirish orkali uz faoliyatini takomillashtirish extiyojida namoyon bo'ladi.

Innovatsion malakalarga gnostik malakalar, pedagogik loyixalash malakalari, axborot malakalari kiradi.

Innovatsion bilimlarga quyidagilar kiradi: pedagogik innovatika soxasida tushunchalarni izoxlovchi atamalarni egallash; zamonaviy pedagogika fani va ilgor pedagogik tajriba yutuqlari hakida ma'lumotga ega bo'lish; ta'limda pedagogik innovatsiya moxiyati va innovatsion jarayonlari, ularning kechishi konuniyatlarini tushunish, bu jarayonlarni boshqarish zaruriyatini anglash; pedagog innovatsion faoliyati metodologik asoslari va tuzilmasi haqida; psixologik-pedagogik tadqiqot metodlari va mazmuni va maktabgacha ta'lim muassasa shart-sharoitida tajriba-eksperimental tashkili haqida; pedagogik faoliyatda axborotni olish va ishlatish usullari haqida; innovatsion malakalaga gnostik malakalar, pedagogik loyixalashtirish malakalari, axborot malakalari kiradi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi innovatsion madaniyatining barcha tuzilmaviy tarkibiy qismlari ko'pgina tarbiyachilarda yetarli darajada berilmaganligi quyidagilarda asoslanadi:

-kasbiy faoliyatda pedagogik innovatsiyalardan foydalanishga yetarli bo'lmagan motivatsiya;

-tushunchalarni izohlovchi atamalarning egallanishi quyi darajasi; pedagogik innovatsiyalar moxiyati, innovatsion faoliyat tuzilmasi va psixologik-pedagogik tadqiqotning nazariy asoslarini yaxlit tushunishning mavjud emasligi;

-gnostik va kommunikativ malakalar, pedagogik loyixalashtirish malakalari shakllanganligining yetarli bo'lmagan darajasi.

Tarbiyachilarda innovatsion madaniyatni shakllantirishga nisbatan bir kator asoslar shunda ifodalanadiki, innovatsiyalarning qo'llanilishi kasbiy amaliyotning asosiy qismi hisoblanadi. Pedagoglarda innovatsion faoliyatni amalga oshirishga kasbiy faoliyatda pedagogik innovatsiyalarni o'zlashtirish va qo'llash tajribasiga ega bo'lishlari zarur.

Innovatsion madaniyatning tuzilmaviy tarkibiy qismlari mazmuni va ularning shakllanganligi yetarli bo'lmagan darajasini hisobga olish orqali tarbiyachilarda ish mazmuni:

-tarbiyachilarda kasbiy faoliyatda pedagogik innovatsiyalardan foydalanishga qiziqishni oshirish;

-pedagogik innovatika soxasida tushunchalarni izohlovchi atamalarning tarbiyachilar tomonidan egallanishi darajasini oshirish;

- MTT pedagogi zamonaviy pedagogik g'oyalar va innovatsion faoliyati ehtimol yo'nalishlari haqida bilishi darajasini oshirish;

- psixologik-pedagogik tadkikotning nazariy asoslari bilan tanishtirish;

- maktabgacha ta'lim muassasasi shart-sharoitida tajriba-eksperimental ishini tashkil qilish va o'tkazish bilan tanishtirish;

- tarbiyachilarda kasbiy faoliyatni muammoli-yo'naltirilgan taxlil qilish, rejalashtirish, oldindan ayta olish, loyihalashtirish va refleksiya malakalari;

- tarbiyachilarning axborot savodxonligini oshirish, pedagogik faoliyatni amalga oshirish uchun zaruriy bo'lgan turli manbalardan axborotni olish usullari bilan tanishtirish; axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish;

-tarbiyachilarda boshqa tarbiyachilar (pedagoglari guruhi va b.) ishida foydalanish uchun mos bo'lgan algoritmi shaklida o'z ijobiy pedagogik tajribasini (ehtimol, ilgor) aniqlash va umumlashtirish malakasini shakllantirish lozim.

Innovatsion madaniyatni shakllantirish jarayonini ta'minlash uchun shakllantiruvchi ko'lam modeli ishlab chiqilgan. Ko'pgina tadqiqotlarda shakllantiruvchi ko'lam deganda ko'pgina ob'ektlar tushuniladi, ularning o'rtasida maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilarida barcha innovatsion madaniyat tarkibiy qismlarini shakllantirish maqsadida munosabatlar o'rnatilgan.

Shakllantiruvchi ko'lam to'rtta darajasidan har biri (maktabgacha ta'lim muassasasi innovatsion muhiti, nazariy-metodologik tayyorgarlik, nazariy- amaliy tayyorgarlik, innovatsion amaliy tayyorgarlik) boshqa darajalar bilan mazmuniy va operatsional uzaro bog'liklikda bo'lgan. Darajalardan har birida pedagoglarda barcha innovatsion madaniyatning bosqichma-bosqich shakllanishini ta'minlovchi tadbirlar yigindisini qo'llash orqali bir qator o'ziga xos masalalar hal etildi.

Shakllantiruvchi ko'lam doirasida o'tkazilgan o'qitish innovatsion motivlar, bilimlar va malakalarni shakllantirish va faollashtirish orqali pedagoglarning kasbiy amaliyoti motivatsion, intellektual va faoliyatli sohalarini rivojlantirishga qaratilgan edi.

Faol o'qitish metodlaridan foydalanish orqali pedagoglarning fikrlash va xulk-atvor faolligini ta'minlovchi innovatsion madaniyatni shakllantirish ishlab chiqilgan texnologiyalari orqali o'qitish amalga oshirildi. (ma'ruzalar, muzokaralar, ish o'yinlari, taqdimotlar, ijodiy pedagogik vazifalarni hal etish va b).

Ishlab chiqilgan texnologiyalar tarbiyachini o'qitish jarayonini to'rtta izchil bosqichlar ko'rinishida berishga imkon beradi.

Birinchi bosqich - yangi bilimlarni olish orqali innovatsiyalarni qabul qilish yoki yaratish, o'zlashtirish va qo'llashga tarbiyachilar motivatsiyasini oshirish; pedagoglar tomonidan uning aksiologik funksiyasi tushunish, pedagogik hodisalarga tanqidiy munosabatda bo'lish, hozirgi maktabgacha ta'limni qadriyatlar asosida yo'nalganliklariga ko'ra o'quv-tarbiyaviy jarayonni qayta hosil qilishga ko'rsatmada namoyon bo'ladigan kasbiy faoliyat strategiyasini anglangan holda tanlanishining shakllanishini ta'minlaydi.

Ikkinchi bosqich - pedagogika metodologiyasi va pedagogik innovatika sohasida bilimlarni aniqlashtirish, to'ldirish va faollashtirish, pedagogik faoliyat jarayonida axborotni yigish, baholash, saqlash, qayta hosil qilish va uzatish usullari bilan tanishish orqali tarbiyachilarning nazariy-metodologik tayyorgarligini amalga oshiradi.

Uchinchi bosqich - pedagoglarda ijodiy xususiyatdagi amaliy yo'naltirilgan topshiriqlarni bajarish orqali gnostik malakalar va pedagogik loyihalashtirish malakalari; kasbiy faoliyatda zamonaviy axborot- kommunikatsion texnologiyalaridan muntazam va okilona foydalanish orkali axborotni topish va idrok qilish, ko'rish uchun vosita sifatida kasbiy faoliyatda personal kompyuterdan foydalanish malakasini shakllantirish va faollashtirishni ta'minlaydi.

To'rtinchi bosqich - umumlashtiruvchi hisoblanadi va ilgari olingan innovatsion bilimlar va malakalarni (2 va 3 o'qitish bosqichi) kasbiy faoliyat jarayonida qo'llashga imkon beradi. Maktabgacha ta'lim muassasasi pedagoglari kasbiy faoliyati bilan o'qitish mazmuni va jarayonining chambarchas o'zaro bog'liqligini shakllantiruvchi ko'lam doirasida nazariy va amaliy birikma orqali ta'minlash innovatsiyalar qo'llanilishi va tarbiyasi kasbiy faoliyati

samaradorligi o'rtasida bevosita o'zaro bog'liqlikni ko'rgazmali tasavvur qilishga imkon berdi.

Tadqiqot ishlarida ko'rinishicha nazorat bosqichlarida eksperimental guruh tarbiyachilarida motivlar, bilimlar va malakalar tuzilmasida miqdoriy va sifatiy o'zgarishlar belgilangan edi. Eksperimental guruh tarbiyachilarida innovatsion madaniyatning tarkibiy kislmlari shakllanganligi ko'rsatkichlari bo'lib quyidagilar ilgari surildi: eksperimental guruhning ko'pgina tarbiyachilari tomonidan nazorat guruh i tarbiyachilariga solishtirganda topshiriqlarning sifatlil bajarilishi, nazorat guruhiga qaraganda ancha yuqori foizda bajarilishi.

Tarbiyachining innovatsion faoliyati asosida kasbiy kompetentlikni shakllantirish. Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilarida namoyon bo'lgan metodologik madaniyat va innovatsion faoliyatning ko'rinishlariga quyidagilar kiradi:

-kasbiy amaliyotda yangiliklarni o'zlashtirish va qo'llashga motivatsiyaning kuchayishi, innovatsion faoliyatni tashkil qilish bo'yicha qo'shimcha materialni o'rganishga intilish;

-pedagogik innovatsiyalarni o'zlashtirish va qo'llash zaruriyati haqida baholanuvchi fikrlarning yuzaga kelishi;

innovatsion faoliyatni nafaqat ta'lim sifatini oshirish vositasi, balki uning kasbiy rivojlanishini tashkil qiluvchi pedagogning o'z-o'zini qo'llash vositasi sifatida innovatsion faoliyatning namoyon qilinishi. Tarbiyachilarda bilimlarning boyitilishi va faollashuvi, pedagoglar tomonidan atamalarning keng egallanganligi, ular tomonidan pedagogik innovatsiyalar mohiyati, innovatsion faoliyat tuzilmasi va psixologik-pedagogik tadqiqotning nazariy asoslarining tushunilishi qayd etildi. Ko'pgina pedagog tarbiyachilarni gnostik malakalar va pedagogik loyihalashtirish shakllanganligining yanada yuqori darajasi farqlanib turadi.

Eksperimental guruh tarbiyachilarida innovatsion madaniyatning shakllanishi haqida turli manbalardan axborotni olish, uni taxlil qilish, yangi bilimlarni pedagogik faoliyatda faol qo'llashga intilish dalolat beradi, ko'pgina pedagoglarda personal kompyuterda ishlash malakasi yetarli darajada shakllangan.



Yuqorida bayon etilganlarning barchasi shuni isbotlaydiki, maktabgacha ta'lim muassasasi pedagogi innovatsion madaniyati shakllanishi yetarli darajada shakllangan shartlari ishlab chiqilgan.

Eksperiment taxlilida aniqlangan dalillar maktabgacha ta'lim muassasasi pedagoglari innovatsion madaniyati shakllanishi quyidagi shartlarni bajarishda ko'p darajali shakllantiruvchi ko'lam doirasida amalga oshiriladi degan taxmini tasdiqlashga imkon berdi:

-innovatsion motivlar, innovatsion bilimlar va inovatsion malakalarning rivojlanishi orqali barcha innovatsion madaniyatning tarkibiy qismlarini izchil shakllantirishni o'z ichiga oladigan o'qitishni olib borish;

-faol o'qitish metodlari orqali pedagoglarning fikrlash va hulk-atvor faolligini ta'minlovchi inovatsion madaniyat texnologiyalarini yaratish va amaliyotga joriy etish;

-nazariy va amaliy tayyorgarlik birikmasi orqali maktabgacha ta'lim muassasasi pedagoglari kasbiy faoliyatining o'qitish mazmuni va jarayoni bilan bevosita o'zaro bog'likligini ta'minlash.

Maktabgacha ta'lim tizimi pedagoglarida innovatsion madaniyatni shakllantirish ta'lim muassasasida pedagogi uchun innovatsion muxitni, shart- sharoitlarini yaratish barkamol shaxsni tarbiyalashda dolzarb ahamiyatga ega hisoblanadi.

Bulg'usi tarbiyachilarni pedagogik faoliyatga tayyorlashdan asosiy maqsad - har tomonlama barkamol, yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalash, ta'lim muassasalarining asosiy vazifasi esa, o'quvchilarning aqliy, ma'naviy, emotsional, mehnat va jismoniy rivojlanishiga k o'maklashish, umuminsoniy qadriyatlarga oshno bo'lishi uchun zamin xozirlash, o'z- o'zini rivojlantirish, ichki imkoniyatlari va ijodiy qobiliyatlarini namoyon qilishi, muvaffaqiyatlarga erishishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdan iborat.

Tarbiyachi - boshqalarning aql idrokini o'stirish, ma'rifat ziyosidan baxramand qilish, hakikiy vatanparvar, hakikiy fuqaro etib yetishtirish uchun, eng avvalo, tarbiyachining pedagogik texnologiyalar hakida ma'lumotlarga ega bo'lishi zarur. Demak, o'z faoliyatini endigina boshlayotgan pedagog va doimiy izlanishda

bo'lgan tajribali pedagog ham tarbiyachilik mahoratiga zamin yaratuvchi quyidagi jarayonlarni bilishi kerak:

-har qanday pedagogik vaziyatlarda tarbiyalanuvchining ichki va tashqi dunyosini to'g'ri tushunish malakasi;

-pedagogik vaziyatlarni to'g'ri idrok qilish uchun diqqatni jamlash;

- tarbiyalanuvchilarga ishonch va talabchanlik;

- tarbiyaviy vaziyatni har tomonlama puxta baholay olish qobiliyati;

-xilma-xil pedagogik takqtlardan o'zi uchun eng muhimini ajrata olish qobiliyati;

-ziddiyatli tasodifiy holatlarda ikkilanmasdan to'g'ri qaror qabul qilish;

-tarbiyada ta'sir etishning turli usullaridan foydalana olish qobiliyati;

-fikir va mulohazalarini so'z bilan, mimika va pantomimik harakatlar bilan tarbiyalanuvchi ongiga aniq yetkaza olish;

- dars va darsdan tashqari faoliyatda tarbiyalanuvchilar bilan kommunikativ aloqa o'rnatish qobiliyati;

-tarbiyalanuvchilar ongida erkinlik va tashabbuskorlikni, o'z fikr mulohazalarini qo'rqmasdan bayon qilish ko'nikmalarini tarbiyalash;

-qiyin holatlarda tarbiyalanuvchilarga yordam bera olish;

- o'z- o'zini boshqarishning turli shakllaridan unumli foydalanish;

- har bir tarbiyalanuvchilarning yashirin ijobiy fazilatlarni ko'ra olish va takomillashtirish;

- tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy kelib chiqishiga qarab toifalarga ajratmaslik, bir xil munosabatda bo'lish.

Rus pedagog olimi A.S.Makarenko «o'quvchilar o'qituvchining tarbiyachi sifatidagi ta'sirini, uning tashqi ko'rinishidan, boy ma'naviyatidan, notiqlik san'atidan, so'z intonatsiyasini mukammal o'z o'rnida qo'llay olishidan, yuz ifodasidan o'zlariga qabul qiladilar» deb ta'kidlab o'tganlar. Maktabgacha ta'lim tizimi o'quv-tarbiyaviy jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali mantiqiy fikrlash qobiliyati, o'z mustaqil fikrlarini savodli bayon

etish, muloqot madaniyati shakllantirishda ijobiy ta'sir etadi.  
Masalan:

### **«Yelpig'ich»**

Treningning maqsadi: Tarbiyalanuvchilarda mantiqiy fikrlash qobiliyati, o'z fikrlarini himoya qilishni rivojlantiradi.

O'tkazilish tartibi: Mashgulot mavzu yuzasidan ayrim tushunchalar tanlab tarbiyalanuvchilarga tushunchalarni afzallik yoki kamchilik, ijobiy, salbiy tomonlari tahlil etiladi. Guruh lardan saylangan a'zo guruh xulosasini himoya qiladi.

Kutiladigan natija: Tarbiyalanuvchilarda mustakil fikrlash, muloqotchanlik qobiliyatlari rivojlantiriladi.

### **«Galereya»**

Texnologiyaning maqsadi: Tarbiyalanuvchilarni erkin, mustaqil fikrlashga, jamoa bo'lib ishlashga o'rgatish, sharkona odob qoidalari haqida tushunchalarini kengaytirish, yaxshi insoniy fazilatlarni shakllantirish.

O'tkazilish tartibi: Tarbiyalanuvchilar guruh larga ajratiladi, har bir kichik guruh ga kartochkalar tarqatiladi. Tarbiyalanuvchilar navbati bilan o'zlari tayyorlagan ma'lumotni badiiy, musiqiy, she'riy qilib taqdim qilishlari mumkin.

Odob. Axloq. O'yin. Ibrat.

Kutiladigan natijalar: Tarbiyalanuvchilar yakka va jamoaviy, guruh bilan ishlash, ijodiy va tashkilotchilik faoliyati ko'nikmalarini, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdan iborat.

### **«Intervyu»**

Treningning maqsadi: har bir muammo bo'yicha ma'lum axborotga ega b'lish, xozir javoblikka o'rgatish, mavzuni mustahkamlash.

Treningning o'tkazilish tartibi: Ishtirokchilar 3 ta guruh va 1 ta ekspert, 3 ta jurnalistga bo'linadilar.

Har bir guruh oldindan tayyorlab qo'yilgan film namoyishini o'tkazadi. (Bu pantamima shaklidagi klip ham bo'lishi mumkin). So'ngra ular oldiga guruhga birlashtirilgan jurnalist kelib, intervyu oladi va sharxlab beradi.

Guruh dagi eng faol ishtirokchi savol-javobda katnashadi.

Guruh larga tayyorgarlik uchun 15 daqiqa vaqt beriladi.

Masalan: 1-film - «Mustaqillik» film - «Barkamol avlod» film - «ma'naviyat»

Maktabgacha ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiyaviy jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish, madaniyat odobi, jamoasidagi madaniyat odobi, so'zlashish madaniyati, an'analar va madaniyat, salomlashish odobi kabi shaxs shakllanishiga ijobiy ta'sir etadi.

Innovatsion madaniyatning tuzilmaviy tarkibiy qismlari mazmuni va ularning shakllanganligi yetarli bo'lmagan darajasini hisobga olish orqali tarbiyachilarda shakllanuvchi eksperiment doirasida ish mazmuni aniqlangan edi:

- Maktabgacha ta'lim muassasasi shart-sharoitida tajriba-eksperimental ishni tashkil qilish va o'tkazish bilan tanishtirish.

-Tarbiyachilarda kasbiy faoliyatda pedagogik innovatsiyalardan foydalanishga qiziqishni oshirish.

- Pedagogik innovatika soxasida tushunchalarni izohlovchi atamalarning tarbiyachilar tomonidan egallanishi darajasini oshirish. Guruh larda ishlash.

Guruh jamoalari «aylana» stolga joylashib muhokama uchun berilgan muammo bilan tanishadilar. Har bir stolga muammo yozilgan tablichkalar qo'yilgan, har bir pedagog hodima uchun A4 formatdagi qog'oz berilib muammo yechimni individual o'ylab topish kerakligi taklif etiladi.

Vazifa haqida tushuntirish. Har bir guruh ga, mavzu yuzasidan pedagogik jamoani innovatsion jarayonini rivojlantirish maksadlarini belgilash taklif etiladi.

Birinchi guruh «Kasbiy tayyorgarlik».

Savol: Tarbiyachi ish jarayonida, innovatsion faoliyatni kun tartibida qo'llash uchun qanday bilim, malaka va qobiliyatlar zarur hisoblanadi?

Ikkinchi guruh »Innovatsion faoliyat natijalariga samarali erishishning shartlari».

Savol: MTTda innovatsion vaziyatni rivojlantirish uchun qanday shart- sharoitlarni yaratish zarur?

Uchinchi guruh » Innovatsion faoliyat natijalari».

Savol: MTT ta'lim -tarbiya jarayonida uchraydigan muammolarini hal etishda-innovatsion faoliyat roli?

Guruhlarda ishlash.

Guruh sardorining namoyishi. Har bir guruh dan pedagogik kengash a'zolarini berilgan muammo mavzusi bilan tanishtiradi va yechimi haqida guruh fikrini bayon etadi. Pedagogik kengash a'zolari ushbu muammo yechimi haqidagi fikrlarni muhokama etib o'z fikrlarini bildiradilar.

Uslubchi pedkengash a'zolariga muxokama uchun savol beradi»MTTga innovatsion jarayonni kiritish muammolari?».

Innovatsiyani kiritish muammolari:

-resurslarning ta'milanganlik darajasi konikarsizligi (didaktik, uslubiy qo'llanmalar, texnika vositalari, informatsion);

-tarbiyachilarni MTTda o'quv jarayonini tashkil etishda, innovatsiyaga negativ munosabatlari;

-innovatsion shart-sharoitlarda jamoaviy ishlash malakasining yetishmasligi;

-innovatsion jarayonni joriy etish va tashkil etishda bilimlarni sustligi;

-MTT tizimini rivojlanishida pedagogik maxoratni qo'loqligi;

-innovatsion jarayonning natijalariga erishishda aniq metodik bilimlarni yetarli darajada emasligi.

## **2. Innovatsion pedagogikaning tushunchalari**

Hozirgi taraqqiyotimizning talablari asosida ta'lim standartlari takomillashtirilib, dasturlar modernizatsiya qilinib, ta'lim muassasalariga yetkazilib berilmoqda. Ta'lim muassasalarining moddiy bazalari jadallik bilan mustahkamlanmoqda.

Yangi turdagi kasb-hunar kollejlari, universitetlar va institutlar qoshida akademik litseylar, maktablarni qurish, rekonstruksiya qilish, joriy va kapital ta'mirlash, yangi zamonaviy asbob-uskunalarini, o'quv qurollari, texnika vositalari va kompyuterlashtirish ishlari aniq davlat rejalari asosida amalga oshirilmoqda.

### ***Innovatikaning asosiy tushunchalari***

Yangilik: g'oya, aniq bir shaxs uchun yangilik, vosita (yangi metod).

#### **Innovatsiya:**

- 1) yangilanish, o'zgarish;
- 2) biror-bir yangilikni kiritish;
- 3) yangilikni o'zlashtirish jarayoni.

Innovatsiya (inglizcha Innovation - yangilik kiritish) – tizim ichki tuzilishini o‘zgartirish, amaliyot va nazariyaning muhim qismi. Innovatsion jarayonning mazmuniy tomonini o‘z ichiga oladi (ilmiy g‘oyalar va ularning texnologiyalarini amaliyotga kiritish).

**Pedagogik yangilik**– pedagogik faoliyatda ilgari ta‘lim jarayonida noma‘lum bo‘lgan o‘zgarishlarni kiritish orqali ta‘lim va tarbiyaning nazariya va amaliyotini boyitish va uni rivojlantiruvchi vositasidir.

**Innovatika** – yangilikni yaratilish qonuniyatlarini o‘zlashtirishni va targ‘ib-targ‘ibotini o‘rganadigan fan.

**Innovatsion jarayon** – yangilikning kiritilishi va shart-sharoitlari, tizimni yangi ko‘rsatgichlarga muvaffaqiyatli o‘tishini ta‘minlovchi o‘zgarishdir. Innovatsion o‘zgarishlarga tayyorgarlik ko‘rish va uni amaliyotga kiritish jarayonidir.

**Innovatsion pedagogik g‘oya**– tizimlashtirilgan pedagogik g‘oyalar; o‘quv jarayoni bashorat etilishi, ma‘lumotlar to‘plami.

**Innovatsion ta‘lim** - 1) ta‘lim sohasiga kiritilgan va kiritilayotgan yangiliklar; 2) yangilangan yangi texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta‘lim jarayoni.

**Innovatsion ta‘lim muassasasi** – yangi tipdagi ta‘lim muassasalari:

akademik litseylar, maktabgacha ta‘lim kompleksi, shaxsiy maktabgacha ta‘lim muassasalari, ixtisoslashgan sinf va maktablar, gimnaziya, turli yo‘nalishli, predmetlari chuqur o‘rgatiladigan maktablar va h.k.

**Innovatsion texnologiya**– pedagogik taraqqiyotni ta‘minlashga qaratilgan tashkiliy faollik jarayoni (faollik, didaktik o‘yinlar, evristik, kreativ, muammoli, loyihlashtirilgan, AKT texnologiyalari).

**Innovatsion o‘qitish** – 1) yangicha o‘qitish tizimi, 2) va ta‘lim oluvchilarni yangi kiritilgan texnologiyalar asosida o‘qitish jarayoni (algoritmash, loyihali, modulli va b.).

Lug‘aviy jihatdan **“innovatsiya”** tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda (**“innovation”**) **“yangilik kiritish”** degan ma‘noni anglatadi.

**“Innovatsiya”** tushunchasi mazmunan aniq holatni ifodalaydi.

**Innovatsiya** – muayyan tizimning ichki tuzilishini o‘zgartirishga qaratilgan faoliyat “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”da ko‘rsatilishicha, innovatsiya quyidagicha mazmun va tushunchalarga ega:

**“Innovatsiya (ingl. “innovationas” – kiritilgan yangilik, ixtiro)**

1) texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta‘minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag‘lar;

2) ilmiy-texnika yutuqlari va ilg‘or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalaridagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo‘llanishi”.

Innovatsion ta‘lim (ingl. “innovation” – yangilik kiritish, *ixtiro*) ta‘lim oluvchida yangi g‘oya, me‘yor, qoidalarni yaratish, o‘zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg‘or g‘oyalar, me‘yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta‘lim.

Innovatsion ta‘lim jarayonida qo‘llaniladigan texnologiyalar innovatsion ta‘lim texnologiyalari yoki ta‘lim innovatsiyalari deb nomlanadi.

**Ta‘lim innovatsiyalari** – ta‘lim sohasi yoki o‘quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo‘llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar.

Ta‘lim innovatsiyalari “innovatsion ta‘lim” deb ham nomlanadi. “**Innovatsion ta‘lim**” tushunchasi birinchi bor 1979 yilda “**Rim klubi**”da qo‘llanilgan.

**Ta‘lim innovatsiyalari bir necha turga ajratiladi.**

Pedagogik jarayonda Ta‘lim tizimini boshqo‘llaniladigan qarishda

**Innovatsiyalar turli ko‘rinishga ega. Quyidagilar innovatsiyalarning asosiy ko‘rinishlari sanaladi.**

- yangi g‘oyalar;

- tizim yoki faoliyat yo‘nalishini o‘zgartirishga qaratilgan aniq maqsadlar;

- noan‘anaviy yondashuvlar;

- odatiy bo‘lmagan tashabbuslar;

- ilg'or ish uslublari

Ta'lim tizimida yoki o'quv faoliyatida innovatsiyalarni qo'llashda sarflangan mablag' va kuchdan imkon qadar eng yuqori natijani olish maqsadi ko'zlanadi. Innovatsiyalarning har qanday yangilikdan farqi shundaki, u boshqarish va nazorat qilishga imkon beradigan o'zgaruvchan mexanizmga ega bo'lishi zarur.

Barcha sohalarida bo'lgani kabi ta'limda ham "novatsiya", "innovatsiya" hamda ularning mohiyatini ifodalovchi faoliyat to'g'risida so'z yuritiladi.

Agar faoliyat qisqa muddatli, yaxlit tizim xususiyatiga ega bo'lib, faqatgina tizimdagi ayrim elementlarni o'zgartirishga xizmat qilsa u **novatsiya (yangilanish) deb yuritiladi.**

Bordi-yu, faoliyat ma'lum konseptual yondashuv asosida amalga oshirilib, uning natijasi muayyan tizimning rivojlanishiga yoki uni tubdan o'zgartirishga xizmat qilsa, u **innovatsiya (yangilik kiritish)** deb ataladi.

Ilmiy adabiyotlarda "**novatsiya**" (**yangilanish, yangilik**) hamda "innovatsiya" (yangilik kiritish) tushunchalarining bir-biridan farqlanishiga alohida e'tibor qaratiladi. Misol uchun, V.I. Zagvyazinskiyning e'tirof etishicha, "**yangi**", "**yangilik**" tushunchasi nafaqat muayyan g'oyani, balki hali amaliyotda foydalanilmagan yondashuv, metod hamda texnologiyalarni ifodalaydi. Ammo bunda jarayon elementlari yaxlit yoki alohida olingan elementlaran iborat bo'lib, o'zgarib turuvchi sharoit va vaziyatda ta'lim va tarbiya vazifalarini samarali hal etish g'oyalari o'zida aks ettiradi.

Darhaqiqat, yangilik – vosita sanalib, u aksariyat holatlarda yangi metod, metodika, texnologiya va b. ko'rinishida namoyon bo'ladi.

**Mohiyatiga ko'ra novatsiya va innovatsiya o'rtasida muayyan farqlar mavjud.**

Zamonaviy ta'limga xos muhim jihatlardan biri – pedagog faoliyatining innovatsion xarakter kasb etishiga erishish sanaladi. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda pedagog faoliyatining innovatsion xarakter kasb etishiga erishish masalasi o'tgan asrning 60-yillaridan boshlab jiddiy o'rganila boshlagan. Xususan, X.Barnet, J.Basset, D.Gamilton, N.Gross, R.Karlson, M. Maylz,



A.Xeyvlok, D.Chen, R.Edem, F.N. Gonobolin, S.M. Godnin, V.I.Zagvyazinskiy, V.A.Kan-Kalik, N.V.Ko‘zmina hamda V.A.Slastenin kabi tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ishlarda innovatsion faoliyat, pedagogik faoliyatga innovatsion yondashish, innovatsion g‘oyalarni asoslash va ularni amaliyotga samarali tadbiq etish, xorijiy mamlakatlar hamda respublikada yaratilgan pedagogik innovatsiyalardan xabaror bilish orqali pedagog faoliyatida ulardan faol foydalanish borasidagi amaliy harakatlar mazmunini yoritilgan. Mohiyatiga ko‘ra innovatsiyalar munosabat yoki jarayonga yangilik kiritishning dinamik tizimi sanaladi. O‘z-o‘zidan tizim sifatida yangilik kiritirish munosabat yoki jarayonning, birinchidan, ichki mantig‘ini, ikkinchidan, kiritilayotgan yangilikning muayyan vaqt oralg‘ida izchil rivojlanishi va atrof-muhitga ko‘rsatadigan o‘zaro ta’sirini ifodalaydi.

V.A.Slastenin innovatsiyani yangilik yaratish, keng yoyish va foydalanishga qaratilgan maqsadga muvofiq, yo‘naltirilgan jarayoni majmui deb biladi. Muallifning fikriga ko‘ra har qanday innovatsiya yangi vositalar yordamida ijtimoiy subyektlarning ehtiyojini qondirish va intilishlarini rag‘batlantirish maqsadini ko‘zlaydi.

Har qanday innovatsiyada “yangi”, “yangilik” tushunchalari muhim ahamiyatga ega. Turli munosabat va jarayonlarga kiritilayotgan yangilik mazmunan xususiy, subyektiv, mahalliy va shartli g‘oyalar tarzida namoyon bo‘ladi. Xususiy yangilik munosabat, obyekt yoki jarayonga tegishli elementlardan birini o‘zgartirish, yangilashni nazarida tutadi. Subyektiv yangilik ma’lum obyektning o‘zini yangilash zaruriyatni ifodalaydi.

Mahalliy yangilik alohida olingan obyekt uchun kiritilayotgan yangilikning amaliy ahamiyatini tavsiflash uchun xizmat qiladi.

Shartli yangilik esa munosabat, obyekt yoki jarayonda murakkab, progressiv yangilanishning sodir etilishini ta’minlovchi ma’lum elementlarning yig‘indisini yoritishga xizmat qiladi.

R.N.Yusufbekova innovatsiyalarni pedagogik nuqtai nazardan ko‘rib chiqishga e’tiborni qaratadi. Xususan, pedagogik innovatsiyalar muallif tomonidan ta’lim va tarbiya jarayonida avval ma’lum bo‘lmagan, qayd qilinmagan holat yoki natijaga olib boruvchi pedagogik hodisaning o‘zgarib turishi mumkin bo‘lgan mazmuni ekanligi ta’kidlanadi. Rossiyalik olimlar. A.I.Prigojin,

B.V.Sazonov, V.S.Tolstoy, N.P.Stepanov va b. esa innovatsion jarayon hamda uning tarkibiy qismlarini o'rganishga e'tiborni qaratgan.

**Bu o'rinda ular innovatsion jarayonning tashkil etilishiga nisbatan quyidagi ikki yondashuv mavjud ekanligini e'tirof etadi:**

*1) yangilikning individual mikro darajasi (unga ko'ra qandayir yangi g'oyaga amaliyotga joriy etiladi);*

*2) alohida-alohida kiritilgan yangiliklarning o'zaro ta'sirini ifodalovchi mikro daraja (bu o'rinda alohida-alohida kiritilgan yangiliklarning o'zaro ta'sirlanishi, birligi, raqobati va birining o'rnini ikkinchisi tomonidan egallanishi ahamiyatli sanaladi).*

A.I.Prigojinning fikriga ko'ra, innovatsiya maqsadga muvofiq ravishda muayyan ijtimoiy birlik – tashkilot, aholi, jamiyat, guruhga nisbatan munosabatga yangicha yondashish, bu munosabatni bir qadar turg'un elementlar bilan boytib borish tushunilishi lozim. Bu o'rinda anglanadiki, muallifning qarashlari bevosita ijtimoiy munosabatlar, ularga nisbatan innovatsion yondashish mohiyatini ifodalaydi. Shundan kelib chiqqan holda har bir shaxs fuqaro, mutaxassis, rahbar, xodim, qolaversa, turli ijtimoiy munosabatlar jarayonining ishtirokchisi sifatida o'ziga xos innovator faoliyatni tashkil etadi.

Ta'lim tizimini texnologiyalashtirish g'oyasi o'tgan asrning boshlarida G'arbiy Yevropa va AQShda ta'lim tizimini isloh qilish, ta'lim samaradorligini oshirish, shaxsning ijtimoiylashuvini ta'minlash uchun muayyan shartsharoitni yaratish borasidagi ijtimoiy harakat yuzaga kelgan davrda ilk bora o'rtaga tashlandi. Mazkur g'oya 30-yillarda ta'lim jarayoniga "pedagogik texnika" ("ta'lim texnikasi") tushunchasining olib kirilishi bilan asoslandi. Ushbu davrlarda yaratilgan maxsus adabiyotlarda "pedagogik (ta'lim) texnika(si)" tushunchasi "o'quv mashg'ulotlarini aniq va samarali tashkil etishga ko'maklashuvchi usul va vositalar yig'indisi" tarzida talqin etildi hamda o'quv jarayoniga o'quv va laboratoriya jihozlarining olib kirilishi, ulardan samarali, unumli foydalanish, material mazmunini ko'rsatmali qurollar yordamida tushuntirish kabi holatlar ta'lim samaradorligini oshirishga yordam beruvchi yetakchi omillardir deya baholandi.

XX asrning 50-yillarida ta'lim jarayonida texnik vositalarni qo'llash *"ta'lim texnologiyasi"* yo'nalishini belgilab beruvchi omil deya e'tirof etildi, asosiy e'tibor talabalar auditoriyasini kengaytirish texnik vositalardan foydalanish evaziga amalga oshirilishi, texnik vositalarning imkoniyatlarini yanada takomillashtirish, ularning axborot sig'imini kengaytirish, axborotlarni o'zlash xizmatini sifatli tashkil etish, ta'lim olishni individuallashtirish kabi masalalarga qaratildi. Bu borada olib borilgan tadqiqotlarning obyekti, tayanch nuqtasi sifatida texnik vositalar imkoniyatlari, ularni takomillashtirish jarayoni qabul qilindi, shuningdek, o'quv jarayonini *"texnologiyalashtirish"*ning tashkiliy jihatlari o'rganishga alohida urg'u berildi.

60-yillarning boshlarida ta'limni dasturlash asosida ta'lim jarayonini tashkil etish *"texnologiya"* tushunchasining mohiyatini ochib beruvchi omil sifatida ko'rila boshlandi. Dasturiy ta'lim ta'lim oluvchilarga muayyan bilimlarni alohida qism hoida emas, balki izchil, yaxlit tarzda berilishini nazarda tutadi. Ta'lim jarayonini yaxlit, maqbul dasturga muvofiq tashkil etish taklifi ilk bora AQShda faoliyat yurita boshlagan *"Dasturiy ta'lim va o'rgatuvchi mashinalar bo'yicha birlashgan Qo'mita"* tomonidan ilgari surilgan. Dasturiy ta'lim o'zida ta'lim maqsadlari, ularni o'zgartirish va baholashning mos ravishdagi mezonlari hamda ta'lim muhitining aniq tavsifini qamrab oladi. Bu esa o'zgartirish majmuasini to'raligicha qayta tashkil etish tushunchasi mazmuniga mos keladi. Pedagogik tizim elementlarning juda chidamli va mustahkam majmuidir.

***V.P.Bespalkoning fikriga ko'ra qaysi davr pedagogik sistemasi bo'lmasin u o'zaro bog'langan quyidagi elementlardan iboratdir:***

- 1) ta'lim (tarbiya) maqsadi (umumiy va xususiy);
- 2) ta'lim (tarbiya) mazmuni;
- 3) ta'lim (tarbiya) jarayoni (xususiy tarbiya va ta'lim);
- 4) lar (o'qitishning texnika vositalari);
- 5) tarbiyaviy ishlarni tashkiliy shakllari.

Innovatsiya chuqurroq bilim olish, o'rganish, o'zlashtirish, keng hajmdagi bilimlarni olishga qaratilmog'i yaxshi natijalar berishi mumkin.

Bular doimiy pedagogik muammo bo'lib kelayotgan: o'quv-tarbiyaviy faoliyat motivatsiyasini oshirish, dars jarayonlarida o'quv materialni hajmini oshirish, o'quv jarayonini jadallashtirish, vaqtni tejash, ko'proq ilg'or metodlardan foydalanish, o'quv-tarbiyaviy ishlarda interfaol usullardan foydalanish, ilg'or texnologiyalarni qo'llash, axborotkommunikatsiya texnologiyalarni joriy qilishdan iborat. Yuqori natijalar beradigan yangi g'oyalar, yangi nazariy bilimlar beruvchi, shaxsni rivojlanishiga olib keluvchi, tom ma'nodagi innovatsiyalarni yaratish, izlash, joriy etish talab etiladi.

Ko'plab umumiy va xususiy loyihalarni tahlil etib, pedagogik nazariya va amaliyotga tadbiiq etilish xususiyat va holatlarini o'rganish asosida umumpedagogik innovatsiyalarni quyidagi ko'rinishlarini belgilash mumkin:

1. Juda yangi bo'lmasa-da, doimiy faol bo'lgan, o'zining g'oyasi, ahamiyati jihatdan eskirmagan, o'quv jarayonini optimallashtirishga xizmat qiladigan o'quv-tarbiya texnologiyalari.

2. Gumanistik pedagogika mohiyatini ifodalovchi texnologiyalar.

3. Pedagogik tizim jarayonidagi boshqaruvlarni yangi g'oya, yondashuvlar asosida tashkil etilishini ta'minlovchi texnologiyalar.

4. Yangi g'oyalar, axborot vositalari va ommaviy kommunikatsiyalarga asoslangan texnologiyalar.

**Innovatsion texnologiyalarda yangiliklarni asosiy yo'nalishlari sifatida:**

- pedagogik tizimning bir butunligi;

- o'quv muassasalari;

- pedagogik nazariya;

- ta'lim oluvchilar;

- pedagogik texnologiya;

- ta'lim (tarbiya) mazmuni;

- ta'lim (tarbiya)ning shakl, metod va vositalar;

- ta'lim (tarbiya) jarayonini boshqarish;

- ta'lim (tarbiya) maqsadi;

- ta'lim (tarbiya) natijalarini ko'rsatib o'tish mumkin.

**Innovatsion faoliyat**

Innovatsion faoliyat – yangi ijtimoiy talablarning an'anaviy me'yorlarga mos kelmasligi yoki yangi shakllanayotgan g'oyalarning

mavjud g'oyalarni inkor etishi natijasida vujudga keladigan majmualari muammolarni yechishga qaratilgan faoliyat.

Mohiyatiga ko'ra innovatsion faoliyat ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba-sinov ishlari olib borish, fan-texnika yutuqlaridan foydalanish asosida yangi takomillashtirilgan mahsulotni yaratishdan iborat.

- yangilikni qo'llashga tayyorgarligi;*
- pedagogik yangiliklarni qabul qilishi;*
- novatorlik darajasi;*
- kommunikativ qobiliyatning rivojlanganligi;*
- ijodkorligi*

Innovatsion jarayonni tashkil etuvchi yangilik yaratish, o'zlashtirish, yangilikni qo'llash—hamkorlikda innovatika obyekti hisoblanadi. Pedagogik didaktikada esa o'qish jarayoni ilmiy tadqiqot obyekti bo'lib hisoblanadi. Ana shu bilan ular bir-biridan farqlanadi.

**Innovatsion faoliyat**— ta'limning u yoki bu bosqichida innovatsion jarayonni amalga oshirishga yordam beruvchi kompleks choralar bo'lib, u jarayon ichida kechadi.

Innovatsion faoliyatning asosiy funksiyasi pedagogik jarayonni komponentlarini, ya'ni ma'no, maqsad, ta'lim mazmuni, shakli, metodi, texnologiyasi, ta'lim vositalari, uni boshqaruvlarini o'zgartirishdan iborat.

Innovatsion jarayonning o'ziga xosligi shundaki, u siklik xarakterli bo'lib, quyidagi bosqichli tarkibiy tuzilmada, yangilikning vujudga kelishi, opponentlar bilan kurashdagi tezkorlik, g'oyaning yetilishi, o'zlashtirilishi, tarqalishi yoki krizis, yoki finalga borishidan iborat.

Innovatsion faoliyat shunday vositalar yordamida kechadigan holatki, bunda pedagogik yangilanish g'oyasi paydo bo'ladi. U sotsial holatga undan ta'limdagi yangilikni tug'ilishi, paydo bo'lishiga olib keladi.

Innovatsion jarayonning ba'zi yangiliklari lokal tadqiqotlar o'tkazish va tajriba-sinovlar orqali tadbiiq qilishdan farqlash kerak. Masalan, maktabda qo'shimcha kursni innovatsion deb bo'lmaydi.

Shunday qilib biror g'oyani yangilik darajasida yaratib, faoliyatga olib kirib, u jarayonni boshqarib borish mumkin bo'lsa, innovatsion faoliyat hisoblanadi.

**Innovatsion muhit**– pedagogik yangilikning vujudga kelishi, ularning jadal o'zlashtirilishi va amaliyotga tadbiiq etilishi.

**Innovatsion ta'lim** - 1) ta'lim sohasiga kiritilgan va kiritilayotgan yangiliklar;

2) yangilangan yangi texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni.

**Innovatsion ta'lim muassasasi**– yangi tipdagi ta'lim muassasalari:

akademik litseylar, maktabgacha ta'lim kompleksi, shaxsiy maktabgacha ta'lim muassasalari, ixtisoslashgan sinf va maktablar, gimnaziya, turli yo'nalishli, predmetlari chuqur o'rgatiladigan maktablar va h.k.

**Innovatsion texnologiya**– pedagogik taraqqiyotni ta'minlashga qaratilgan tashkiliy faollik jarayoni (faollik, didaktik o'yinlar, evristik, kreativ, muammoli, loyihastirilgan, AKT texnologiyalari).

**Innovatsion o'qitish**–1) yangicha o'qitish tizimi,

2) va talabalarni yangi kiritilgan texnologiyalar asosida o'qitish jarayoni (algoritmash, loyihali, modulli va b.).

Innovatsion faoliyatining umumiy jihatlarini K. Angelovskiy, G.I. Gorskaya, V.A. Kan-Kalik, S.L. Kuzmina, V.A. Slastyonin, L.M. Fridman kabi olimlar o'zlarining ilmiy tadqiqot ishlarida yaratib berdilar. I. Shumpater va N. Kondratevlar esa innovatsiya tushunchasining ilk va ulkan nazariyotchilari hisoblanadilar. K. Angelovskiy V.A. Slastyonin va V.I. Slobotnikovlar o'z ilmiy tadqiqotlarida innovatsion faoliyat, pedagogik faoliyatning alohida shakli ekanligini isbotlashga harakat qiladilar hamda bu borada muayyan natijalarga erishgan olimlar deb tan olinadilar.

**Innovatsion faoliyat**– pedagogik jamoani harakatga keltiruvchi, olg'a boshlovchi, taraqqiyettiruvchi, zamon bilan birga qadam tashlashga yordam beruvchi kuch sanaladi.

**Innovatsion faoliyat**– bu ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba-sinov ishlarini olib borish yoki boshqa fan-texnika yutuqlaridan foydalangan holda yangi texnologik jarayon yoki yangi takomillashtirilgan sharoitda yangi mahsulot yaratish bilan

yakunlanadi. Innovatsion faoliyatning asl mazmuni amalda yangi texnologiyaning shakllanishi bo'lib, uning natijasi innovatsiya sifatida yuzaga kelgan ixtironi loyihaga, loyihani texnologiyaga aylantirishga yo'nattirilgan faoliyatdir

**M. Jumaniyozovanning e'tirof etishicha, tarbiyachining innovatsion faoliyati quyidagi belgilar asosida namoyon bo'ladi:**

- ijodiy faoliyat falsafasini egallashga intilish;
- pedagogik tadqiqot metodlarini egallash;
- mualliflik konsepsiyalarini yaratish qobiliyati;
- tajriba-sinov ishlarini rejalashtirish va amalga oshira olish;
- o'zidan boshqa tadqiqotchi-pedagoglar tajribalarini qo'llay olish;

- hamkasblar bilan hamkorlik;
- fikr almashish va metodik yordam ko'rsata olishlik;
- ziddiyatlarning oldini olish va bartaraf etish;
- yangiliklarni izlab topish va ularni o'z sharoitiga moslashtirib

borishni innovatsion faoliyatga tayyorlashda pedagogik jamoadagi psixologik muhit, jamoa a'zolarining qay darajada dunyo ta'limi bozorida yangiliklardan xabardor ekanligi asosiy harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi. Innovatsion faoliyatining shakllanishida pedagogik jamoada ijodiy muhitning alohida o'rni borligini ko'pchilik olimlar ta'kidlab o'tadilar. Ta'lim oluvchilarning novatorlik xususiyatlari va ta'lim jarayonidagi yangiliklarga bo'lgan ijobiy munosabatlariga qarab, K.Rodgers va K.Angelovskiy pedagogik jamoa a'zolarini beshta guruhga ajratishni taklif etadilar.

1. Novatorlar.

2. Eski g'oyalarni amalga oshiruvchilar.

3. Eski g'oyalarni amalga oshirishni ma'qul ko'ruvchilar (ular aksariyat holatlarda ko'pchilikni tashkil etadilar).

4. Yangi g'oyalarni amalga oshirishni ma'qul ko'ruvchilar (bugungi kunda ularning soni ham ortib bormoqda).

5. Ikkilanuvchilar.

Ta'lim sifatini oshirish jamiyatning barcha jabhalarida hayotni yaxshilash va farovon turmush kechirishga olib keladi. Yangilikni kiritish ta'lim sifatini oshirishning samarali vositasi bo'lganligi uchun ham rivojlangan davlatlar ta'lim jarayoniga uzluksiz yangilik kiritishga harakat qiladilar.

Ko'pgina taraqqiy etgan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, innovatsion jarayonlarda ta'lim tizimidagi barcha bo'g'inlarning faol ishtirok etishlari ko'zga tashlanadi. Shuning uchun mamlakatimizda pedagogik innovatsiyalarni rivojlantirish muammolari ustida ilmiy- tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ulardan pedagog olimlardan N.Azizxo'jayeva, B.Farbermon, N.Sayidiahmedov, K.Zaripov, M.Ochilov, O'.Tolipov, M.Usmonboyeva, M.Jumaniyozova va boshqalarni keltirish mumkin.

Ammo ko'pgina mamlakatlar tajribalari shuni ko'rsatadiki, innovatsion jarayonlarda yuqoridan pastga qarab harakatlansa va bunda bo'ysunuvchi ijrochisi, ya'ni yangilikning faqat iste'molchisi bo'lib qolsa, u holda bu jarayon ma'muriy xarakterga ega bo'ladi.

Demak, innovatsion faoliyatga tayyor bo'lib, darsga eng so'nggi yangiliklarni olib kirib, ta'lim oluvchiga qiziqarli va uning ehtiyojiga mos ravishda tashkil etsagina, sifat va samaradorlikni kafolatlash mumkin.

### **3.Innovatsiyaning rivojlanishi. Innovatsion yondashuv.**

Tarbiyachining innovatsion faoliyatiga yaratuvchilik jarayoni va ijodiy faoliyat natijasi sifatida qaraladi. V.A.Slastenin pedagogning innovatsion faoliyatini tuzishda unga akmeologik jihatdan yondashadi.

Akmeologiya (akme) - yunoncha oliy nuqta, o'tkir, gullagan, yetuk, eng yaxshi davr degan ma'nolarni bildiradi. V.A.Slastenin akmeologiyaning yuksak professionalizmga, mutaxassisning uzoq ijodiy umr ko'rishiga olib keladigan sub'ektiv va ob'ektiv omillarini asoslab berdi. Ob'ektiv omillarga olingan ta'limning sifatini, sub'ektiv omillari esa insonning iste'dodi va qobiliyatini, ishlab chiqarish vazifalarini samarali hal qila olishidagi mas'uliyati, mutaxassislarga yondashuvini kiritadi.Yuksak professionalizmga erishishning omillari sifatida quyidagilar ko'rsatiladi:

- iste'dod nishonalari;
- uquvlilik;
- qobiliyat;
- iste'dod;
- oila tarbiyasi sharoiti;
- o'quv yurti;



o'z xatti-harakati.

Pedagogning innovatsion faoliyati:

- yangilikni qo'llashga tayyorgarligi;
- pedagogik yangiliklarni qabul qilishi;
- novatorlik darajasi;
- kommunikativ qobiliyatning rivojlanganligi;
- ijodkorligi bilan belgilanadi.

Innovatsion faoliyat pedagogning ruhiy, aqliy, jismoniy kuchini ma'lum maqsadga yo'naltirish asosida nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni egallash, amaliy faoliyatni nazariy bilimlar bilan to'ldirib borish, bilish, loyihalash, kommunikativ nutq va tashkilotchilik mahoratini rivojlantirishni talab etadi. Tarbiyachining ijodiy individualligi quyidagilardan iborat:

- intellektual
- ijodiy tashabbus;
- bilimlar kengligi va chuqurligi intellektual qobiliyati;
- ziddiyatlarga nisbatan xushyorlik, ijodga tanqidiy yondashuv,
- vujudan yaratuvchilikka kurashchanlik qobiliyati;
- axborotlarga tashnalik, muammolardagi g'ayri odatiylikka va yangilikka bo'lgan his-tuyg'u, professionalizm, bilishga bo'lgan chanqoqlik;

Shu tariqa tarbiyachining ijodiy individualligini shakllantirish shaxs rivojlanishi va yangilanishining dinamik innovatsion jarayoni sifatida tushuniladi. Tarbiyachi innovatsion faoliyatining eng muhim tavsifi kreativlikdir. Innovatsionlik pedagogik jarayonni ifodalab, nafaqat uning didaktik qurilmasiga, balki o'qituvchining ijtimoiy mohiyatli natijalari va ruhiy qiyofasiga ham taalluqlidir.

Innovatsionlik ochiqlikni, boshqalar fikrining tan olinishini bildiradi. Yangilik kiritishning muhim sharti muloqotning yangi vaziyatini tug'dirishdir. Muloqotning yangi vaziyati - bu o'qituvchining o'z mustaqillik mavqeini, dunyoga, pedagogik fan, o'ziga bo'lgan yangi munosabatni yarata olish qobiliyatidir. O'qituvchi va talaba o'rtasidagi muloqot namunasining o'zgarishi innovatsion faoliyat shartlaridan biridir.

**Pedagoglarda innovatsion yondashuvning qaror topishi ham murakab jarayon bo'lib, u bir necha bosqichda kechadi. Ya'ni:**

1-bosqich: tayyor metodik tavsiyanoma (mavjud innovatsiya)lardan foydalaniladi.

2-bosqich: mavjud tizimga yangi g'oyalarni, metodlarni kiritadi.

3-bosqich: yangi g'oyani amalga oshirish mazmuni, shakl va metodlarini

tizimlashtiradi.

4-bosqich: pedagog o'qitish va tarbiyalashga oid o'z konsepsiyasi yoki metodikasini yaratadi.

Demak, tarbiyachi yangi pedagogik texnologiyalar, nazariyalar, kontsepsiyalarning muallifi, ishlab chiqaruvchisi, tadqiqotchisi, foydalanuvchisi va targ'ibotchisi sifatida namoyon bo'ladi. Hozirgi jamiyat, madaniyat va ta'lim taraqqiyoti sharoitida

tarbiyachi innovatsiya faoliyatiga bo'lgan zaruriyat quyidagilar bilan o'lchanadi:

-ijtimoiy-iqtisodiy yangilanish ta'lim tizimi, metodologiya va o'quv jarayoni texnologiyasining tubdan yangilashni talab qiladi. Bunday sharoitda tarbiyachining innovatsiya faoliyati pedagogik yangiliklarni yaratish, o'zlashtirish va foydalanishdan iborat bo'ladi;

-ta'lim mazmunini insonparvarlashtirish doimo o'qitishning yangi tashkiliy shakllarini, texnologiyalarini qidirishni taqozo qiladi;

-pedagogik yangilikni o'zlashtirish va uni tatbiq etishga nisbatan o'qituvchining munosabati xarakteri o'zgarishi.

Tarbiyachi-novator sermahsul ijodiy shaxs bo'lishi, kreativlikni, keng qamrovli qiziqish va mashg'ullikni, ichki dunyosi boy, pedagogik yangiliklarga o'ch bo'lishi lozim. Tarbiyachini innovatsion faoliyatga tayyorlash ikki yo'nalishda amalga oshirilishi lozim:

-yangilikni idrok qilishga innovatsion shaylikni shakllantirish;

-yangicha harakat qila olishga o'rgatish.

Tarbiyachining innovatsion faoliyati o'z ichiga yangilikni tahlil qilish va unga baho berish, kelgusidagi harakatlarning maqsadi va kontsepsiyasini shakllantirish, ushbu rejani amalga oshirish va tahrir qilish, samaradorlikka baho berishni qamrab oladi.

### **Mavzu yuzasidan nazorat savollari.**

1. Eslash, fikrlash qobiliyatini o‘stirish hamda mashg‘ulotni mustahkamlash uchun qanday metoddan foydalanish maqsadga muvofiq.

2. Innovatsion strukturaviy komponentlarini ifodalab bering.

3. Ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogning mahorati qanday o‘rin tutadi?

4. MTTda tarbiyachi pedagogik texnologiyalardan foydalanish ahamiyatini izohlang.

5. MTT da tarbiyachilarning innovatsion faoliyatlarini shakllantirishning muhim belgilarini aytib bering.

6. Ushbu kunda ish jarayoningizda metodlarga yangilikni kiritishda qanday yondashasiz?

7. MTT tarbiyachisining innovatsion madaniyatining qanday mezonlarga ajratish mumkin?

8. Maktabgacha ta'lim muassasasida pedagogik texnologiyalardan foydalanishning zaruriy shartlari nimalardan iborat?

9. Maktabgacha ta'lim tizimi o‘quv-tarbiyaviy jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo‘llash orqali shaxsda qanday fazilatlar shakllanadi?

10. Qanday tarbiyaviy treninglar asosida MTTda pedagogik jarayonni tashkil etish mumkin?

11. MTT tarbiyachisining innovatsion faoliyatini tashkil etish yo‘llari.

#### **Mustaqil ish uchun mavzular**

1. Innovatsion jarayon: pedagog va uning faoliyatdagi roli

2. Pedagogning ijodkorlik sifatleri.

## **7-mavzu: Innovatsion faoliyatni tashkil etishga ta'sir etuvchi omillar.**

**Reja:**

**1. Innovatsion faoliyat ta'lim –tarbiya jarayonini yuksaltirish omili sifatida.**

**2. Innovatsion faoliyatga pedagogning shaxsiy bilimlari va pedagogik muhitning ta'siri.**

**3. Innovatsion faoliyat yaratishning moddiy ta'minot bilan bog'liqligi.**

**4. Ta'lim muassasalarida innovatsiya strategiyasini shakllantirish.**

**Tayanch so'z va iboralar:**

Investitsiya, moddiy ta'minot, raqobatli muhit, tarbiyalanuvchilardagi qiziquvchanlik, pedagog shaxsiy bilimi, rahbar talabi, ijtimoiy munosabat, strategik omil, samaradorlik, yangi pedagogik texnologiyalarni.

### **1. Innovatsion faoliyat ta'lim –tarbiya jarayonini yuksaltirish omili sifatida.**

Innovatsiya tushunchasi yangilikka investitsiya kiritish ma'nosida ishlatiladi. Avstraliyalik olim Y. Shumpeter birinchi marotaba innovatsiyalarga oid masalalarni ko'rib chiqqan va innovatsion faoliyatga to'liq ta'rif bergan. Innovatsion faoliyat nafaqat ta'lim –tarbiya jarayonida, balki har qanday sohada yangi pedagogik texnologiyalarni tashkil etish yoki oldindan mavjud bo'lganlarini noan'anaviy holda yangicha ko'rinishda tadbiiq etishni ko'zda tutadi. R.Fatxutdinovning fikriga ko'ra, innovatsiya yangilikni tadbiiq etishning yakuniy natijasi bo'lib, obyekt boshqaruvini o'zgartirish ijtimoiy, iqtisodiy, ilmiy, texnikaviy, ekologik va boshqa ko'rinishdagi samaradorlikdir. Yuqorida ta'riflaganimizdek innovatsiya har bir sohada bo'lishi mumkin. Masalan, fanda, uning bir yo'nalishida yirik yangiliklarga erishish, kashfiyotlar yaratish, izlanishlarda, ilm sohasida yangi ilm va bilimlarni ochish, taxnika va texnologiyalarning yangi avlodini yaratish, ishlab chiqarish sohaslarida, xizmat ko'rsatishda yangi usullarni kiritish va boshqalar shular jumlasidandir. Innovatsion faoliyat qaysi sohada bo'lmasin, kashfiyotlar, e'lon qilingan

yangiliklar, texnika va texnologiya yutuqlari va texnologik jarayonlarni yaxshilash, mahsulot bilan ta'minlash va boshqa yo'nalishlardagi barcha yangiliklarni tizimli ravishda uzukliksiz joriy etib borishni ta'minlash jarayonidir.

Ta'lim tizimini tuzilish va mazmun jihatdan isloh qilish uchun o'qituvchi va murabbiylarni qayta tayyorlash yuqori malakali va raqobatga qodir mutaxassislar tayyorlash bo'yicha ta'lim muassasalarining faoliyatini uyg'unlashtirish ilg'or pedagogik texnologiyalarni, pedagogik innovatsiyalarni ta'lim jarayoniga kiritish hisoblanadi. Ammo ilg'or pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar o'z-o'zidan ta'lim jarayoniga kirib kelmaydi. Bu pedagoglarning faoliyati va uning motivatsiyasiga bog'liq. Pedagog faoliyatini o'zgartirmay turib, uning mas'uliyati va faolligini oshirmasdan turib ta'lim tarbiya jarayonida oldinga siljib bo'lmaydi. Akademik A.N.Leontev "Dunyoni idrok qilishning birinchi sharti – faoliyat, ikkinchi sharti- tarbiyadir. Faoliyat jarayonida kishilarning qobilyati, bilim, va malakalari shakllanadi, demak, faoliyat ijtimoiy hodisa bo'lib, hayotiy kurashning asosiy shartidir", - deb ta'kidlaydi. Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida e'tirof etilgan. Bugungi kunda ta'lim – tarbiya jarayoni samarasi eng avvalo zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash masalasiga borib taqaladi. Ta'lim-tarbiya sifatini yaxshilash maqsadida davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning uzluksiz ta'limning boshlang'ich bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta'lim sohasiga juda katta e'tibor qaratdi. Shu sababdan maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagog va tarbiyachilarining ilmiy savodxonligiga, bilim darajasiga doir zamonaviy talablar belgilandi. Ta'lim tarbiya muassasalarida tarbiyalanayotgan har bir yosh avlodning bilish faoliyatini shakllantirish uchun rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar ta'lim jarayonlaridan andoza olish, shu bilan bir qatorda, pedagogning shaxsiy bilimi, ongi, tafakkuri, zamonaviyligi, yangi pedagogik texnologiyalardan foydalana olishi va shu bilan birga yangiliklar yarata olishi ya'ni innovatsion faoliyat yaratishi lozimligi raqobatli davrning dolzarb masalalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

## **2. Innovatsion faoiyatga pedagogning shaxsiy bilimlari va pedagogik muhitning ta'siri.**

Bugungi kunda pedagogika sohasida yangi ilmiy yo'nalish – pedagogik innovatsiya va ta'lim jarayonini yangilash g'oyalarining paydo bo'lishi natijasida pedagog faoliyatida ham “ o'qituvchi va tarbiyachi faoliyatida innovatsiya” tushunchasi paydo bo'ldi. “ Innovatsion faoliyat tushunchasi” haqidagi qarashlarda G.A.Mikritichyanning fikri diqqatga sazovordir: -“Pedagogik tajriba- sinov faoliyatining 3 ta asosiy shaklini ajratish mumkin : xususiy tajriba, tajriba-sinov ishi, pedagogning innovatsion faoliyati. Pedagogik jarayonda innovatsiyalar qancha ko'p bo'lsa, tarbiyachi va o'qituvchilar xususiy eksperimentni shuncha yaxshi tushunadi. Innovatsion faoliyat – pedagogning o'z kasbini takomillashtirishdagi mavjud shakl va vositalarni egallashga ijodiy yondashuvini nazarda tutadi. Ta'limdagi innovatsiyalar va innovatsion pedagogik faoliyat – pedagogik faoliyat haqida barqaror va hammaga maqul bo'lgan ilmiy tasavvurlar va tasniflar shu paytgacha mukammal tarkib topgan emasligini ham e'tirof etish lozim. Bunday holatning asosiy sabablaridan biri ta'limga yo'naltirilgan ilmiy bilimlar tizimlari o'rtasidagi qiyinchilik bilan yengib o'tiladigan uzilishlardir. O'qituvchi hamda tarbiyachi-pedagoglarning innovatsion faoliyatning subyekti va tashkilotchisi sifatida yangilik yaratish, qo'llash va ommalashtirishda ishtirok etadi. U fandagi bilim an'analardagi o'zgarishlar mazmuni va mohiyatini tahlil eta bilishi kerak. Bu albatta pedagogning shaxsiy bilimlari, tafakkuri va o'zgarish, yangiliklarga bo'lgan qiziqishiga bog'liq bo'lib, ushbu jarayonda pedagogik muhit va shu muhitning tarkibiy qismlari ya'ni tarbiyalanuvchilar, rahbariyat talabi, ta'lim muassasasi moddiy ta'minotining yetarli darajada bo'lishi ko'p tomonlama ijodiy ta'sir manbayiga ega. Innovatsion faoliyat yaratishidan oldin pedagoglar, albatta yaratayotgan yangilik yoki o'zgartirishlarni har tomonlama chuqur va puhta o'rganib, so'ng faoliyat jarayoniga tayyor holda tadbiq etishi joiz. Har qanday reja asosida qilingan, oldindan puhta o'ylangan, yuzaga kelishi sodir bo'lgan turli kamchiliklarning oldi olingan ish samarasi ta'lim va tarbiya jarayoni rivojiga salmoqli ta'sir ko'rsatishi shubhasizdir. Innovatsion faoliyat tushunchasi innovatsiya, innovatsion jarayon

kabi tushunchalar bilan chambarchas bog'liq. Shu sababdan bu tushunchalar mazmunini izohlamasdan turib innovatsion faoliyat mazmunini anglash mumkin emas. Innovatsion amaliyot nazariyaning bir qismi bo'lib, ijtimoiy-madaniy obyekt sifflarini yaxshilashga yo'naltirilgan ijtimoiy subyektlarning harakat tizimidir. Bu g'oya nazariyasi mohiyatining yaratilishiga nisbatan turli yondashuv va fikrlar mavjud bo'lib, uning mohiyati borasida fanda yagona fikr mavjud emas. Innovatsiyalar dolzarb muhim ahamiyatga ega bo'lib, bir tizimda shakllangan yangicha yondashuvlardir. Ular yangiliklar tashabbuslar asosida tug'ilib, ta'lim mazmunini rivojlantirish uchun istiqbolli bo'ladi, shuningdek ta'lim- tarbiya tizimi rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Innovatsiya ma'lum bir faoliyat maydonidagi yoki ishlab chiqarishdagi texnologiya shakl va metodlar, muammoni yechish uchun yangicha yondashuv yoki yangi texnologik jarayonni qo'llash, oldingidan ancha muvaffaqiyatga erishishga olib kelishi ma'lum bo'lgan oxirgi natijadir. Bugungi kunda ta'lim tizimidagi innovatsiyalarni quyidagicha tasniflash maqullanmoqda:

- Faoliyat yo'nalishiga qarab (pedagogik jarayondagi, boshqaruvdagi);

- Kiritilgan o'zgarishlarning tasnifiga ko'ra (radikal, modifikatsiyalangan, kombinatsiyalangan);

- O'zgarishlar ko'lamiga ko'ra (local, modulli, tizimli);

- Kelib chiqish manbaiga ko'ra.

### **3. Innovatsion faoliyat yaratishning moddiy ta'minot bilan bog'liqligi.**

Innovatsiyalarning maqsadi sarflangan mablag' yoki kuchdan eng yuqori natija olishdan iborat. Boshqa turli-tuman o'z-o'zidan paydo bo'ladigan yangiliklardan farqli o'laroq, innovatsiya boshqariluvchi va nazorat qilinuvchi o'zgarishlar mehanizmini tashkil etadi. Ta'lim tizimidagi har qanday yangilik innovatsiya bo'la olmaydi. Shu sababli, "novatsiya" va "innovatsiya" tushunchalari o'rtasidagi asosiy farqlarni ko'rsatib o'tish zarur. Buning uchun islohot faoliyatining aniq shakli, mazmuni va ko'lami asos bo'lib hizmat qiladi. Agar faoliyat qisqa muddatli bo'lsa va yaxlit tizim xususiyatiga ega bo'lmasa, o'z oldiga muayyan tizimdagi faqat ba'zi elementlarini o'zgartirishni vazifa qilib qo'ygan bo'lsa u

holda biz novatsiya bilan muloqot qilayotgan bo‘lamiz. Agar faoliyat ma’lum konseptual yondashuv asosida amalga oshirilayotgan bo‘lsa va uning natijasi o‘sha tizim rivojlanishiga yoki uning printsiplial o‘zgarishiga olib kelsagina innovatsiya deya olamiz. Har ikkala tushunchaning ham mezonlari quyidagicha: innovatsiya amaldagi nazariya doirasida amalga oshiriladi, ko‘lam va vaqt bo‘yicha chegaralanadi, metodlar yangilanadi va natijasi avvalgi tizimni takomillashtiradi. Innovatsiya esa tizimli, yaxlit va davomli bo‘ladi, ma’lum amaliyotda yangi faoliyat tizimini loyihalaydi, amaliyot subyekti pozitsiyalarini to‘la yangilaydi. Bunda faoliyatning yangi yo‘nalishlari ochiladi, yangi texnologiyalar yaratiladi, faoliyatning yangi sifat natijalariga erishiladi, natijada amaliyotning o‘zi ham yangilanadi. Innovatsiyaning amaliyotga kiritilishi innovatsion jarayonlarda amalga oshiriladi. Innovatsion jarayon – innovatsion o‘zgarishlarga tayyorgarlik ko‘rish va uni amalga oshirish jarayoni. Ta’lim jarayonidagi innovatsion o‘zgarishlar, ta’lim tizimiga har qanday yangilikning kiritilishi bevosita o‘qituvchi faoliyatini yangilash va o‘zgartirish orqali amalga oshirilishi ham muallif tomonidan qayd etilgan. Ta’lim tizimidagi innovatsiyalar, ularni amaliyotga kiritish innovatsion jarayonlarni boshqarishni tahlil qilish orqali innovatsion faoliyat tushunchasini ta’riflash imkoniyati paydo bo‘ladi. Innovatsion faoliyat pedagogik jamoani harakatga keltiruvchi, olg‘a boshlovchi, taraqqiy ettiruvchi kuchdir. “Innovatsion faoliyat – yangi ijtimoiy talablar bilan an’anaviy me’yorlarning mos kelmasligi, yoxud amaliyotning yangi shakllanayotgan me’yorining mavjud me’yor bilan to‘qnashuvi natijasida yuzaga kelgan majmual muammolarni yechishga qaratilgan faoliyatdir” - deb ta’kidlaydi V.I.Slobadchikov. Innovatsion faoliyat amaliyot va nazariyaning bir qismi bo‘lib, ijtimoiy – madaniy obyekt sifatlarini yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy subyektlarning harakat tizimi bo‘lib, u ma’lum doiradagi muammolarni yechish qobiliyatigina emas, balki har qanday vaziyatdagi muammolarni yechish uchun motivatsion tayyorgarlikka ega bo‘lishdir. O‘qituvchi va tarbiyachi pedagoglarni innovatsion faoliyatining markaziy masalasi o‘quv jarayonini samarali tashkil qilishdan iborat. Innovatsion faoliyat uzluksiz ravishda yangiliklar asosida ishlash bo‘lib, u uzoq vaqt davomida



shakllanadi. O'qituvchi innovatsion faoliyati xususiyatlarini o'rganib chiqqan olimlar fikriga tayangan holda quyidagilarni innovatsion faoliyatning asosiy belgilari deb hisoblash mumkin: - ijodiy faoliyat falsafasini egallashga intilish; -pedagogik tadqiqot metodlarini egallash; -mualliflik konseptsiyalarini egallash; -tajriba sinov ishlarini rejalashtirish va amalga oshirish; -o'zidan boshqa tadqiqotchi pedagoglar tajribalarini qo'llay olish; -hamkasblar bilan hamkorlik; -fikir almashish va metodik yordam ko'rsata olishlik, - ziddiyatlarning oldini olish va bartaraf etish; - yangiliklarni izlab topish va ularni o'z sharoitiga moslab boorish. Pedagoglarni innovatsion faoliyatga tayyorlash muammosiga murojat etish jamiyatda innovatsion jarayonlar dinamikasining o'sib borayotganligini tushunish natijasida vujudga keladi. Uning tahlili faqat fan va texnikada erishgan zamonaviy yutuqlardan foydalanishni o'z ichiga olmasdan, balki yangiliklarni izlash, yaratish, moslash, tadbiq qilish va olingan natijalarni qayta tekshirish kabi jarayonlarni qamrab oladi. Innovatsion faoliyatning darajaviy tuzilishini o'rganib chiqqan olimlardan biri V.Slastenin uni quyidagicha tuzilishga ega deb ko'rsatib o'tadi. "Innovatsion faoliyatning tuzilishi ijodiy yondashuv, ijodiy faollik, yangilikni kiritishga texnologik va metodologik tayyorgarlik yangicha fikrlash hamda muomala madaniyatidir. Innovatsion faoliyatning darajalari: - reproduktiv, - evristik, -kreativ bo'lishi mumkin.

#### **4. Ta'lim muassasalarida innovatsiya strategiyasini shakllantirish .**

Innovatsion faoliyat davrida yangiliklar, innovatsiyalar, tom ma'noda ta'lim jarayoniga kirib keladi. Shu sababli ta'lim jarayonidagi innovatsiyalarni pedagogik jarayonga kiritish 4 bosqichda amalga oshiriladi:

1. Muammoni tahlil asosida aniqlash.
2. Mo'ljallanayotgan ta'lim tizimini loyihalash.
3. O'zgarishlar va yangiliklarni rejalashtirish.
4. O'zgarishlarni amalga oshirish.

Innovatsion faoliyatga tayyorlashdan asosiy maqsad – pedagoglarni yangilikka intiluvchanligini , mustaqil o'z ustida ishlash ko'nikmasi va malakasini shakllantirish, yangi pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlardan foydalanib, dars va darsdan

tashqari mashg'ulotlarni o'tkazish masalasini takomillashtirishdan iborat. Innovatsion faoliyat o'qituvchining o'z faoliyati qoniqmasligidan kelib chiqadi. U o'qituvchi tomonidan u yoki bu vaziyatni hal qilishda qandaydir to'siqqa uchrab, uni muvaffaqiyatli hal etishga intilish asosida yuzaga keladi. Innovatsion faoliyat yangi g'oyani izlashdan boshlanadi. Pedagogik innovatsiya ta'lim tarbiya jarayonidagi muhim va murakkab masala yechimiga yo'naltirilganligi sababli o'qituvchidan yangicha yondashuvni talab qiladi. Pedagogning innovatsion foyiati tuzilishini tahlil qilishga doir turli xil yondashuvlar mavjud. Masalan, A.Nikolskayaning fikricha, faoliyatni yangilash 3 bosqichda, ya'ni tayyorgarlik, rejalashtirish va joriy etish bosqichlarida amalga oshiriladi. Tarbiyachi pedagog hamda o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda bir qator psixologik to'siqlar mavjud. Bularning birinchisi, o'qituvchining o'zi ko'nikkan faoliyati chegarasidan tashqariga chiqishi juda qiyinligi, ya'ni pedagoglarda ijodkorlikning yetishmasligi bo'lsa, yana bir sabab yangi va noma'lum narsalar har doim odamlarda cho'chih va xavfsirashni keltirib chiqarishidir. Yuqorida keltirilgan fikrlarga tayangan holda shunday xulosaga kelish mumkinki, o'rganib chiqilgan ishlarning aksariyatida "innovatsion faoliyat" ga ta'rif berilgan bo'lsada, bu sohada hammaga ma'qul keladigan va innovatsion faoliyatning to'liq mazmunini, innovatsion faoliyat yaratishga ta'sir qiluvchi ijobiy va salbiy omillarni va ularning mohiyatini ochib beruvchi yagona ta'rif hali yaratilmagan. Shuningdek, bu faoliyatni shakllantirish jarayoniga nisbatan yagona yondashuv mavjud emas. Innovatsiyaning asl mazmuni amalda yangi texnologiyaning shakllanishi bo'lib, uning natijasi innovatsiya sifatida yuzaga kelgan ixtironi-loyihaga, loyihani- texnologiyaga yo'naltirish faoliyati hisoblanadi.

### **Savollar.**

1. Innovatsion faoliyat ta'lim – tarbiya jarayoniga qanday ta'sir ko'rsatishi mumkinligini tushuntirib bering?
2. Innovatsion faoliyatga muhit qanday ta'sir ko'rsatishi mumkinligini izohlang?
3. Pedagog faoliyatida innovatsiyalar yaratishga nimalar to'siqlik qilishi mumkin?

4. Ta'lim tizimi sifatini yaxshilashda innovatsiyaning o'ri qandayligi haqida gapirib bering?

5. Innovatsion faoliyat yaratishni afzalliklari nimalardan iborat?

### Mustaqil ish uchun mavzu

1. Ijodkorlik, ijodkor shaxs, kreativ shaxs tushunchalari.

## **8-mavzu: Maktabgacha ta'lim tizimini texnologiyalashtirish.**

**Reja:**

**1. Maktabgacha ta'lim tizimini texnologiyalashtirish - zamon talabi.**

**2. Bolalarni axloqiy rivojlantirishda didaktik o'yinlardan foydalanish. Axloqiy –rivojlanishda didaktik o'yin turlari.**

**3. Maktabgacha ta'lim tizimida turli shakl, usul va vositalarning o'ziga xos xususiyatlari.**

**Tayanch so'z va iboralar:** Texnologiya, didaktik o'yin, axloqiy tarbiya, axloq, axloqiy tamoyil, axloqiy kategoriya, tarbiya usullari, tarbiya shakllari, tarbiya vositalari, o'yin texnologiyasi, innovatsiya, interaktiv metod.

**1. Maktabgacha ta'lim tizimini texnologiyalashtirish - zamon talabi.**

1.O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.A. Karimovning «Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch» asarida haqli ravishda ta'kidlanganidek, «Agarki dunyo imoratlari ichida eng ulugi maktab bo'lsa, kasblarning ichida eng sharafli o'qituvchilik va murabbiylikdir, desak o'ylaymanki, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz»

Ta'lim sohasida zamonaviy axborat va kompyuter texnologiyalari, internet tizimi, raqamli va keng formatli telekommunikatsiyalarning zamonaviy usullarini o'zlashtirish, bugungi taraqqiyot darajasini belgilab beradigan bunday ilg'or yutuqlar nafaqat ta'lim tizimiga har qaysi oila hayotiga kirib borishi lozim «Abdulla Avloniy bobomizning dono fikrlarini takror-takror aytishga to'g'ri keladi: ta'lim-tarbiya-biz uchun hayot-momot

masalasi. Qaysi sohani olmaylik, biz zamonaviy yetuk kadrlarni tarbiyalamasdan turib biron-bir o'zgarishga, farovon hayotga erisha olmaymiz, bunday kadrlarni, millatning sog'lom genofondini tayyorlash, avvalo, maktabgacha ta'lim tizimidan boshlanadi. Mutaxassis va pedagoglarning ilmiy xulosalariga ko'ra, inson o'z umri davomida oladigan barcha axborot va ma'lumotning 70 foizini 5 yoshgacha bo'lgan davrda oladi. Ana shu dalilning o'zi bolalarimizning yetuk va barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishida bog'cha tarbiyasi qanchalik katta ahamiyatga ega ekanini yaqqol ko'rsatib turibdi<sup>13</sup>.

Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan isloh qilib, zamon talablariga javob beradiga darajasiga ko'tarishimiz lozim. Bu esa butun ta'lim tizimini sifat o'zgarishiga erishamiz» deya takidladi.

### **Shavkat Mirziyoyev**

2018-yil takomillashtirilgan davlat talablari qabul qilindi. Davlat talablari tug'ilgandan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar 5ta asosiy rivojlanish sohalariga bo'lingan. Har bir yosh guruhiga mos bir nechta talablardan va kutilayotgan rivojlanish ko'rsatkichlarini belgilab qo'ygan.

Maktabgacha ta'lim muassasasining davlat o'quv dasturi ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlantirish borasidagi Davlat talablariga muvofiq ishlab chiqilgan me'yoriy-huquqiy hujjat bo'lib, bu hujjatda maktabgacha ta'lim muassasasining maqsad va vazifalari, o'quv-tarbiyaviy faoliyatning asosiy g'oyalari, maktabgacha yoshdagi bolalarni ta'limning keying bosqichga o'tishidagi asosiy kompetensiyalari belgilab berilgan.

Bu hujjatlarning hammasi Maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomanlama rivojlanishi uchun qaratilgan. Bundan tashqari bu hujjatlarda maktabgacha ta'lim tizimini, yanada rivojlantirish, ruvojlangan mamlakatlarining maktabgacha ta'lim tizimiga mos rivojlantirish uchun yo'naltirilgan. Shu hujjatlardan kelib chiqib maktabgacha ta'lim muassasalarida mashg'ulotlar olib boriladi. Mashg'ulotlarda turli xil metodlardan, usullardan, o'quv texnologiyalarga qo'llagan holda olib boriladi.

---

<sup>13</sup> «O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2017-yil 19 avgustda Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilish nutqidan.»

Texnologiya tushunchasi texnikaviy taraqqiyot bilan bog'liq holda 1872-yilda kirib kelgan. Texnologiya so'zi yunonchada «Texnos»-san'at, hunar va «logos» fan so'zlaridan tashkil topib «hunar fani» degan ma'noni anglatadi.

«Texnologiya- bu san'at, mahorat, moxirlik, ishlab chiqish metodlari to'plami, holatni o'zgartirishdir » ta'rif bergan. V.M.Shepel<sup>14</sup>

Pedagogik texnologiya deb odatda maqsadi ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, ta'limda ko'zlangan narijalarga erishishga bo'lgan chet el pedagogikasining yo'nalishiga aytiladi. Pedagogik texnologiya- bu o'quv jarayonini amalga oshirish mazmunli texnikasidir.

Chex pedagogi **Yan Amos Komenskiy** ta'limni texnologiyalashtirish g'oyasini ilgari surgan. U ta'limni texnikaviy qilishga undagan, ya'ni hamma narsa, nimaga o'qitilsa, muvaffaqiyatga ega bo'lsin. Natijaga olib keluvchi o'quv jarayonini u didaktik mashina deb atagan.

**Innovatsiya-** ( **inglizcha innovation**)- yangilik kiritish, yangilikdir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi. Interaktiv metod- bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchi-talaba, tarbiyalanuvchilarning birgalikda faoliyat ko'rsatish orqali amalga oshiriladi.

**2. Bolalarni axloqiy rivojlantirishda didaktik o'yinlardan foydalanish. Axloqiy –rivojlanishda didaktik o'yin turlari.**

**Maktabgacha ta'lim tizimida o'yin texnologiyasi.**

Bugungi kunda ta'lim tizimida, shu jumladan maktabgacha ta'lim tizimida ham yangi pedagogik texnologiyalar, interfaol usullardan keng foydalanilmoqda. Bu texnologiyalarning mazmun-mohiyatini, asosiy tamoyillarini, qonuniyatlarini, ulardan samarali foydalanish yo'llarini amaliyotchi-tarbiyachi va o'qituvchilarga

---

<sup>14</sup> Djamilova N.N «Maktabgacha ta'limda metodika fanlari o'qitish texnologiyasi » o'quv qo'llanma 51- bet.

yetkazib berish pedagogika fani oldida turgan dolzarb muammolardan biridir. Texnologiya soʻzi zamirida jarayonlarni amalga oshirish usullari va vositalari haqidagi bilimlar yigʻindisi, shuningdek, obyektida sodir boʻladigan sifat oʻzgarishlari tushuniladi. Texnologiya soʻzi yunoncha “techne”- mahorat, sanat va “logo”- tushuncha, oʻrganish.

Taʼlim texnologiyasi tushunchasi taʼlim maqsadiga erishish quroli, yaʼni oldindan loyihalashtirilgan taʼlim jarayonini yaxlit tizim asosida bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish va shu maqsadga erishishning metod, usul va vositalari tizimini, taʼlim jarayonini boshqarishni ifodalaydi. Pedagogik texnologiyaning tamoyillari quyidagilar:

- kafolatlangan yakuniy natija;
- taʼlimning samaradorligi;
- qaytuvchan aloqaning mavjudligi;
- taʼlim maqsadining aniq shakllanganligi.

Oʻyin texnologiyasi ham oʻyin metodidan oʻzining aniq maqsadi, amalga oshirish kerak boʻlgan jarayonlarning mantiqiy ketma-ketligi va oʻzaro bogʻliqligi, oldindan belgilangan natijalarga erishish kafolati bilan farq qiladi.

L.s. Vigodskiy oʻyinni bolaning ichki ijtimoiy dunyosi, ijtimoiy buyurtmalarni oʻzlashtirish vositasi sifatida taʼriflaydi.

S.A. Shmakovning taʼkidlashicha, oʻyinlar quyidagi toʻrt asosiy xususiyatga ega:

-Erkin rivojlatiruvchi faoliyat, bola oʻyinni oʻzi tanlaydi va faol ishtirok etadi;

- ijodiy xarakter, oʻyin jarayonida bolalar uchun ijod qilishga katta imkoniyat mavjud;

- emotsional taʼsir-bola oʻyinda markaziy oʻrin egallashni xohlaydi, gʻolib boʻlishga intiladi, bu bolaning faolligini oshirishga yordam beradi;

- asosiy va qoʻshimcha qoidalar oʻyin mazmuni, uning mantiqiy ketma-ketligini belgilaydi.

Oʻyin strukturasi-maqsad, rejalashtirish, maqsadga erishish, natijalarni tahlil qilish kabi komponentlar kiradi. Oʻyin texnologiyalari ( ayniqsa, bogʻcha bolalari uchun ) rivojlatiruvchi maqsadlarni ( bolaning idrok, xotira, diqqat, tafakkurini

rivojlantirish) amalga oshirish ham mumkin .Bunda o‘yin jarayonida yakuniy natija muhimroq bo‘ladi

2. Axloq (arabcha-xulq atvor ma’nosini bildiradi) ijtimoiy ong shakllaridan biri bo‘lib, ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatlari tartibga soladigan qonun-qoidalar majmuidir.

Axloq-ma’naviyatning tarkibiy qismi sifatida shaxs kamolotining yuqori bosqichi hisoblanadi. Axloq-shaxs yoki guruh faoliyatini baholash orqali jamiyatdagi munosabatlarni boshqarish mexanizmi.

Axloq tushunchalari umumiy xarakterga ega, ular alohida munosabatlarni emas, hamma sohadagi munosabatlarni qamrab oladi.

Bunday tushunchalar axloqiy kategoriya deb ataladi. Ezgulik, tartiblilik, haqqoniylik, rostgo‘ylik, mehnatsevarlik, jamoalilik kabi sifatlar va xususiyatlari o‘zida birlashtirgan shaxs tavsifi **axloqiy tamoyillar** deb ataladi. Hayotda qoida sifatida qabul qilingan talablardan kishilar o‘zlariga odamlar orasidan namuna tanlaydi. Bu axloqiy ideal deyiladi. Axloqiy meyorlar har bir inson va jamiyat uyg‘unlikda mavjud bo‘la olishiga intilgan kishilik jamiyatining ko‘p asrlik tajribasi majmuidir. Axloq meyor va qadriyatlardan iborat. Axloqning uchinchi elementi ideallarning esa shaxs o‘zida tarkib toptirishni xohlagan mayor va sifatlar tarzida ajratib ko‘rsatish mumkin. Axloqiy tarbiya yagona ijtimoiy tarbiya jarayonining tarkibiy qismi. Jamiyat tomonidan insonlar xulqining boshqarilishiga zarura ikki o‘zaro bog‘liq vazifani shart qilib qoyadi:

birinchidan, jamiyat ongida meyorlar tamoillar, ideallar, ezgulik va yovuzlik kabi tushunchalar ko‘rinishida aks etadigan va asoslanadigan axloqiy talablarning ishlab chiqish ;

ikkinchidan, inson o‘z xatti-harakatlarini yo‘naltirilishi va nazorat qila olishi,

ijtimoiy xulqni boshqarishda ishtirok eta olishi, ya’ni boshqa kishilar talab

qo‘ya olishi va ularning xatti-harakatlarini baholay olishi uchun bu talablarni hamda ular bilan bog‘liq tasavvurlarni har bir inson ongiga singdirish.

**Didaktik o‘yinlarning** muhim elementi qoidalar

hisoblanadi. Qoidalarni bajarish o'yini mazmunini amalga oshirishi ta'minlaydi. Didaktik o'yin ta'lim bilan bevosita bog'liq, unga yordam beradi. Didaktik o'yin- maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh va imkoniyatlariga mos keladigan ta'lim berish metodidir. Didaktik o'yin bolalarning amaliy faoliyati hisoblanadi chunki unda bolalar mashg'ulotlarda olgan bilimlardan foydalanadilar.

Bunday o'yinlarga kichik bolalar uchun Rangiga qarab top, Shakliga qarab top, kabi o'yinlarni misol keltirish mumkin. Katta guruhlar uchun Ishchilar nimalar va qanday ishlarni bilishadi?, Dehqonlar nimalarni yetishtiradi?, Kim ko'proq narsalarning nomini ayta oladi?. Didaktik o'yinlar ta'lim jarayonini yengilroq va qiziqarliroq qiladi. Bu esa o'yinda amalga oshiradigan aqliy tarbiya va axloqiy tarbiya vazifasini juda oson va yaxshi o'zlashtiradilar.

O'yin natijasini ikki nuqtayi nazardan: bolalar va tarbiyachi nuqtayi nazardan bahoalsh lozim.

Agar o'yin natijasini bolalar nuqtayi nazardan baholaganda, unda bu o'yindan bolalar bolalar qanday ma'naviy va axloqiy ozuqa olganlarini hisobga olish lozim. Didaktik vazifalarni bajarish bolalardan ma'lum darajada zo'r berishni, ya'ni ularning aqliy faoliyatiga talabni kuchaytiradi. Bolalar fahm-farosatlari, topag'onliklari, diqqat va xotiralarini namoyish qiladilar. Qalbini xursandchilik hissi bilan to'ldiradi, ular bundan ma'naviy qoniqish hosil qiladilar.

O'yin qatnashchilarini rag'batlantirish, maqtash, yaxshi qatnashganlari uchun yetakchi rolni berish, ba'zan esa shu o'yinda foydalanilgan o'yinchoqni o'ynashga berish mumkin.

Didaktik o'yinning mazmuni va turlari. Didaktik o'yinning mazmuni «MTM ta'lim- tarbiya dasturi» da bayon qilingan va quyidagilarni o'z ichiga oladi:

-Buyumlar, ularning nomi, rangi, shakli, hajmi, sifati va ishlatilishi to'g'risida bilimlar berish;


-Mehnatning har xil turi va uning kishilar hayotidagi roli to'g'risidagi bilimlar;

-Tabiat voqe'lari, narsalar, buyumlar, yil fasllari to'g'risidagi bilimlar;

-Dastlabki matematik tushunchalar: son, sanoq, kattalik, shakl vaqt va fazoviy tushunchalar berish.




Didaktik o'yinlar ularning ta'lim-tarbiyaviy vazifasi, mazmuni, turli bolalar bog'chasining ta'lim-tarbiya dasturida har bir yosh guruhlar ajratib berilgan. Didaktik o'yinlarni yosh xususiyatlaridan kelib chiqib belgilab qo'yilgan.



### 3. Maktabgacha ta'lim tizimida turli shakl, usul va vositalarning o'ziga xos xususiyatlari.

Tarbiya- an'anaviy va noan'anaviy shakllarga olib boriladi.





**An'anaviy shakl. Individual-**Bolalar bilan yakka tarbida faoliyat olib borish.

**Guruhiy shakl-** Bolalar jamoasi bilan faoliyat olib borish.

**Frontal shakl-** Umumiy gruppada bo'yicha bolalar jamoasi bilan faoliyat olib borish.

**Noan'anaviy shakllar-** Bu bolalarga turli xil o'yinlar, ko'rgazmali, video roliklar boshqa tarbiya vositalari orqali amalga oshiriladi. Bolalarga har bir mashg'ulotni o'yin orqali tushuntirib o'tkazish samarali natija beradi. O'yinlar bolalarni dunyoqarashini kengaytiradi, eng muhimi bolalar qiziqishini ortiradi.

**Tarbiya usullari.** tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning hamkorlikdagi faoliyat va o'zaro ta'sir ko'rsatish usullaridir. Tarbiya natijasi tarbiya jarayonining usullari, uslubi, vositalari va shakllaridan mohirona foydalanishga bog'liq. Tarbiyachilar ta'sir etishning bola shaxsiyatiga mos usulni eng maqbul usulni tanlab olishi, uning shaxsini o'zgartirishi uchun kerakli shart - sharoit yaratishlari lozim. Tarbiya usullari har bir bolaga har qaysi bolalar jamoasiga alohida munosabatda bo'lishni nazarda tutadi.

Xalq pedagogikasi o'zbekona axloq, odob va tarbiyaning murakkab barcha qirralarini o'zida mujassamlashtiradi. Xalq pedagogikasida turli xil tarbiya usullari va vositalaridan foydalaniladi. Bu usul vositalar nihoyatda rang - barang bo'lib, ko'p tomonlari bilan ilmiy pedagogikaning shakllanishida ham o'z ta'sirini ko'rsatgan.

Xalq pedagogikasida qo'llanilgan juda xilma-xil tarbiya usullari quyidagi tarzda umumlashtirilgan.

1. Tushuntirish (maslahat berish, uzr so'rash, yaxshiliklar haqida so'zlash, o'rnak bo'lish).

2. Nasihat berish (o'git, undash, ko'ndirish, iltimos qilish, oq yo'l tilash, yaxshiliklar haqida so'zlash, rahmat aytish, duo qilish).

3. Namuna bo'lish (maslahat so'rash, o'rnak bo'lish).

4. Jazo (ta'kidlash, ta'na - gina, tanbeh berish va h.k)

**Tarbiya usullarini o'rganish, tahlil qilish** bu usullardan pedagogik jarayonda foydalanish ko'nikma va malakalarni egallashni osonlashtiradi. Ularni shartli ravishda quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin.

1) ijtimoiy ongni shakllantiruvchi usullar, 2) faoliyat j arayonida ijtimoiy xulq va tajribalarni shakllantirish usullari, 3) o'z – o'zini tarbiyalash usullari, 4) rag'batlantirish usuli va jazolash usullari 1.

**1.Ijtimoiy ongni shakllantiruvchi usullar.** Bu guruhga o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash, e'tiqodni ma'naviy va siyosiy g'oyalarni shakllantirish maqsadida ularni ongi, hislari, irodasiga ta'sir ko'rsatish usullari kiradi.

**Suhbat va hikoya.** O'quvchi shaxsini g'oyaviy – axloqiy shakllantirishda o'qituvchining jonli so'zi eng ta'sirli usul hisoblanadi. Suhbat turli mavzularda uyushtirilishi mumkin.

**Hikoya.** O'quvchilar, odatda hayotdan va boy badiiy adabiyotdan olingan aniq misol bilan to'liq hikoyalarni tinglaydilar. Ularga axloq mezonlari, tarix qoidalari, Vatanimizning tarixiy, tabiiy boyliklari, san'at haqida hikoya qilib berish mumkin.

Badiiy adabiyot, radio, televideniye, Internet tarmoqlaridagi, gazeta va jurnallardagi maqolalar ham qimmatli material bo'ladi.

**Namuna.** O'quvchilar o'z atrofidagi kishilarda hamma yaqin axloqiy sifatlarni ko'rishlari va namuna olishlari nihoyatda muhimdir. O'qituvchining shaxsan o'zi namuna bo'lishi ayniqsa yoshlarga katta ta'sir ko'rsatadi.<sup>15</sup>

Ular o'qituvchining darsida va hayotda o'zini qanday tutishini, muomala qilishini, o'z vazifalarini qanday bajarishini kuzatib

---

<sup>15</sup> «Pedagogika.O'quv qo'llanma.A.Munavvarov tahririda «O'qituvchi», 1996.129-bet»

yuradilar.

## **2. Faoliyat jarayonida ijtimoiy xulq tajribalarini shakllantirish usullari.**

Bola rivojlanishining o'zligini bilishning asosiy omili bu faoliyatdir. Faoliyat nuqtai nazaridan yondoshilgan qoida maktab hayotining hamma jabhalarida ta'lim - tarbiya jarayonlariga singib ketadi. Faoliyat o'quvchilar bilimlarini mustaqil egallashga undaydi, ularni qay ixtisosga moyilliklarini aniqlashga ijodiy faoliyat tajribasini hissiy qadriyat munosabatlarini o'zlashtirishlariga yordam beradi.

**Mashq va o'rgatish usullari.** Bolalar faoliyatini oqilona maqsadga muvofiq ravishda va har tomonlama tashkil qilish mumkin. Mashq- bolalarni axloq mezonlari va xulq- atvor qoidalarini bajarishga odatlantirishdir.

Mashq - muayyan hatti- harkatlarni ko'p marotaba takrorlashni o'z ichiga oladi. Mashq natijasida ko'nikma, odat, yangi bilimlar hosil qilinadi. Mashq va odatlantirish o'quvchi uchun ongli ijodiy jarayondir.

**O'rgatish.** Ijodiy xulq- atvorning odatiy shakliga aylantirish maqsadida o'quvchilarning bajarishlari uchun rejali izchil tarzda tashkil qilinadigan turli harakatlar amaliyot ishlaridir. O'rgatish bir necha izchil harakatlar yig'indisidir.

**Topshiriq.** O'quvchilarning mehnat topshiriqlarini jamoa bo'lib bajarishlari ularda ijtimoiy xulq tajribalarini shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

**Pedagogik talab** - bu usul tarbiyaning eng muhim usullaridan biridir. Talab - bu o'quvchining turli vazifalarni bajarishi; ijtimoiy xulq atvor mezonlarini ifodalashi; u yoki bu faoliyatla qatnashib bajarilishi zarur bo'lgan aniq bir vazifa sifatida namoyon bo'lishi; u yoki bu haraktda rag'batlantiruvchi yoki uni to'xtatuvchi bo'lishi; oqilona harakatlarga undovchi bo'lishi mumkin.

**3.O'z – o'zini tarbiyalash usullari**<sup>16</sup>. O'quvchida o'z – o'zini tarbiyalashga, ya'ni o'z ustida ongli batartib ishlashga ehtiyoj paydo bo'lgandagina tarbiya jarayonini samarali deb hisoblasa bo'ladi. O'z


---

<sup>16</sup> «Pedagogika.O'quv qo'llanma.A.Munavvarov tahririda «O'qituvchi», 1996.129-bet»

– o‘zini tarbiyalash o‘quvchilarning o‘zini – o‘zi idora qilishi organlari faoliyatida qatnashishlari, ularning ijtimoiy faollik mavqeini shakllantirishning ta’sirchan vositasidir.


**O‘z – o‘zini tahlil qilish-** o‘z shaxsini, fazilatlarini tahlil qilishga xatti - harakatlari haqida o‘ylashga o‘rgatadi. O‘z – o‘zini nazorat qilish uchun o‘quvchi o‘zining yurish -turishi, intizomi, ijobiy odatlarining ortib borishi va aksincha salbiy odatlarining kamayib borishi haqida muntazam ravishda kundaligiga yozib boradi.

**O‘z- o‘zini baholash-** o‘quvchining qobiyalitini o‘z kuchi bilan yuzaga chiqishiga yordam beradi. O‘z – o‘zini baholash o‘zining imkoniyatlarini hisob - kitob qilish, baholash, chetdan turib xolisona baho berish, o‘zidan qoniqish hosil qilishda yordam beradi.



**Jazolash** - tarbiyalanuvchining xatti - harakati va faoliyatiga salbiy baho berishdir.

Jazo - bu tarbiyalanuvchi manfaati uchun qo‘llaniladigan tarbiya usuli.



Hozirgi vaqtda maktabgacha yoshdagi bolalarni turli vaziyatlarda harakatlana olishga, kutilmagan muammolarni hal qilishga, nafaqat an'anaviy, balki noan'anaviy ijodiy yechimlar topa bilishga va ularni joriy etishga o'rgatish kerak. Buning yordamida bolalar yangi sharoitlarga moslashish va maktabga tayyorlanish, hayotda yutuqqa erishish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ta'limning tahlili shuni ta'kidlash imkonini beradiki, zamonaviy ta'lim kompetentlik yondashuviga asoslanadi. O'zbekistonning maktabgacha ta'lim muassasalarida o'quv-ta'lim ishlari «O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan

Davlat talablari va "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim muassasasining Davlat o'quv dasturi » asosida olib borilmoqda.

"Ilk qadam" MTMsining Davlat o'quv dasturiga muvofiq turli yosh guruhlarida quyidagi rivojlantiruvchi markazlarida ish olib borilishi belgilangan: «Til va nutq», «Ilm-fan va tabiat», «Qurish-yashash, konstruksiyalash va matematika», «San'at markazi», «Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish». Guruh bolalari o'z

istagiga binoan xohlagan mazkur markazlardan birini tanlab, faoliyat olib borishi mumkin.

Taqqoslash asosida, maktabgacha ta'limning tarixi bilan hozirgi holati o'rtasida qiziq bir o'xshashlikni qayd qilishimiz mumkin. Aynan F. Frebelning "bolalar bog'chasi" da ta'limga nisbatan yuqorida tilga olingan yondashuvlarga asos solingan. Jumladan, bu jihat bolalar bog'chasida bolalar faoliyatini tashkillashtirishda namoyon bo'ladi. Masalan, xonaning bir burchagida bolalar guruhi yog'och kublardan minora yasaydi, boshqa burchagida esa- ikkinchi guruh barmoqlari bilan chizish orqali katta rasmni chizadi. Bunday faoliyat davomida ular quyidagi turdagi masalarni hal qiladi: «Qanday qilib qursak, minora yiqilmaydi? Minora nima bo'ladi-yiqiladimi yoki turib qoladimi? Yana qanday ranglar qo'shish mumkin? Qanday geometrik shakllarni qo'shish mumkin?» Hozirgi bosqichda bularning barchasi jiddiy ravishda boyitilgan va takomillashtirilgan. Butun o'quv yili davomida mavzu belgilangan va har bir oy uchun mavzuning nomi ko'zda tutilgan.

Har bir oying nomi o'z nomiga ega mavzuli to'rtta haftaga bo'lingan.

Bolaning faoliyatida uning xatti-harakatlari rivojlantirishning asosi hisoblanadi. Masalan, kubiklardan, geometrik shakllardan uy quradimi, ertak, hikoya to'qiydimi. Muhimi bola izlanishda bo'ladi, o'ylaydi, individual ravishda va hamkorlikka qarorlarni qabul qiladi. Bu esa bolaga o'zining ijodiy faolligini namoyish etishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Maktabgacha pedagogika sohasi bo'yicha olib borilgan ilmiy-tadqiqotlar natijasida ushbu fanning metodologik asoslari yaratiladi.

### **Tarbiya vositalari.**

**Tarbiya vositalari-** biron - bir tarbiyaviy masalani maqsadga muvofiq yo'l bilan hal qilishni tashkil etish uchun ishlatiladi. (Ko'rsatmali ko'nikmalar, video ro'liklar, turli xil ko'rgazmali qurollar, jonli tabiat, o'quv qo'llanmalar, kitoblar, radio, televideniye). Bundan tashqari o'quvchilar jalb qilingan faoliyat turlari kinofilmlar, san'at asarlari, o'quvchining jonli so'zi, bolalar o'yini, sport, badiiy havaskorlik to'garaklari va boshqa faoliyat turlari tarbiya vositalari bo'lishi mumkin.

Tarbiya vositalari tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish uchun o'qituvchi – tarbiyachining tarbiya tizimiga kiritilishi lozim. Masalan, maktab kutubxonasi tarbiya vositasi bo'lishi uchun o'qituvchi va kutubxonachi yozuvchilar bilan uchrashuv, o'qilgan va yangi kitoblarning muhokamasini, taqdimotini uyushtirishi lozim. Bolalar eshitgandan ko'proq ko'rgan narsalarini tezroq eslab qoladilar. Tarbiya vositalari orqali ta'lim-tarbiya jarayonini qiziqarli va aniq bo'lishini ta'minlaydi.

**Mavzu yuzasidan nazorat uchun savollar :**

1. Texnologiya tushunchasiga ta'rif bering?
2. Texnologiya so'zining ma'nosi nimani anglatadi?
3. Maktabgacha ta'lim tizimida qanday texnologiyadan foydalaniladi?
4. Axloqiy tarbiyaga ta'rif bering?
5. Didaktik o'yinlar va ularning o'ziga xos xususiyatlari haqida ayting?
6. Xalq pedagogikasida tarbiya usullari haqida aytib bering?
7. Didaktik o'yinning mazmuni..... bayon qilingan?
8. Tarbiya usullari haqida so'zlab bering ?
9. Tarbiya vositalari haqida nimalarni bilasiz?
10. Tarbiya shakllarini aytib bering?

**Mustaqil ish uchun mavzu**

1. Pedagoglik kasbining ijtimoiy ahamiyati, pedagogik nazokat, samimiylik va insonparvarlik



**9-mavzu: Sahnalashtirish o‘yinlarining ahamiyati va o‘ziga xos xususiyatlari.**

**Reja:**

- 1.O‘yin bolalar faoliyatining asosiy turi.**
- 2. Sahnalashtirish o‘yinlarining o‘ziga xos xususiyatlari.**
- 3. MTT larda sahnalashtirilgan o‘yinlardan foydalanish.**

**Tayanch so‘z va iboralar:** o‘yin, qobiliyat, ijodiy o‘yinlar, qoidali o‘yinlar, sahna, personaj, ijodiy o‘yinlar, sahnalashtirilgan o‘yinlar.

### **1. O‘yin bolalar faoliyatining asosiy turi.**

O‘yin - buyumli-predmetli va ijtimoiy voqeqlikda harakat qilish va uni anglashga yo‘naltirilgan jarayondir. O‘yin maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati bo‘lib, u orqali bola shaxs sifatida shakllanadi. U o‘zining kelib chiqishi, yo‘nalish va mazmuniga ko‘ra ijtimoiy voqelik hisoblanadi. O‘yin, bu bola faoliyatining yorqin turi. O‘yin jarayonida bolaning psixik bilish jarayoni, irodasi, hissiyoti, ehtiyoji va qiziqishlari, ta‘sirchanligi – uning butun shaxsiyati shakllanadi. O‘yin bolalar hayotini tashkil etish sifatida kichik guruhdan boshlanadi. O‘yin ertalab nonushtagacha (15-20 daqiqa) boshlanadi va nonushtadan keyin, mashg‘ulotlar o‘rtasida, ochiq havoda, uyqudan keyin o‘tkaziladi. Ertalab rolli o‘yinlar, qurish-yasash, harakatli o‘yinlarni tashkil etish tavsiya etiladi. Mashg‘ulot o‘rtasida harakatli, qoidali o‘yinlar o‘tkaziladi. Ular asosan, mashg‘ulotning mazmuniga bog‘liq bo‘ladi. Sayr vaqtida ochiq havodagi o‘yinlardan foydalaniladi. Kunduzgi uyqudan keyingi o‘yinlarga qurilish o‘yinlari ertak bo‘yicha qo‘yiladigan o‘yin, rolli, didaktik o‘yinlar kiradi.

Y.A.A Komeniskiy, K.D Ushiniskiy, A.S. Makarenko, P.F. Lestgaflarning g‘oyalari hozirgi zamon bolalar o‘yinlari nazariyasi uchun ham ahamiyatlidir. “Bolalar o‘yini ko‘p asrlik tarixga ega, - deb yozgan edi K.D.Ushiniskiy,-U insonning o‘zi tomonidan ishlab chiqilgan qudratli tabiiy vosita va shuning uchun ham unda inson tabiatining haqiqiy ehtiyoji ifodalangan”.<sup>17</sup>

---

<sup>17</sup> F.R Qodirova, Sh.Q Toshpo‘latova, N.M Kayumova, M.N. A‘zamova Maktabgacha pedagogika «Tafakkur» nashriyoti Toshkent-2019

O'yin o'z mohiyati jihatidan katta kishilarning xatti – harakatlari va xulq-

atvorlariga faol taqlid qilishdan iborat bo'lishi tufayli bolalarda ma'naviy

sifatlarning mustahkamlanishi uchun va odob – axloq qoidalarini bilib olishlari

uchun keng imkoniyatlar beradi. Maktabgacha yoshdagi bola o'yin jarayonida

tabiblik yoki muallimlik rolini bajarayotgan bo'lsa, shu kasbga tegishli barcha

sifatlarni namoyon qilishga intiladi. Ular o'yinga juda berilib ketsalar,

bajarayotgan rollariga xos sifatlar shunchalik samimiy, ijodiy tarzda namoyon

bo'ladi. Bolalar uchun o'yin mazmunining hech bir chegarasi yo'q.

Insonning kelajagi, uning xulq-atvori, qobiliyati, dunyoqarashi bolalik qanday bo'lganligiga, ta'lim qanday bo'lganligiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Bularning hammasi bolalikning almashib bo'lmas ahamiyatini, uning barkamol shaxs sifatida shakllanishidagi alohida rolini belgilaydi va maktabgacha ta'lim yoshidan boshlab ta'lim sifatini ta'minlash muammosini davlat ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylantiradi<sup>18</sup>

Ikki yoshli bolalar o'yin faoliyatining birinchi bosqichi tanishtiruvchi o'yin bo'lib, u narsa-buyum-o'yin faoliyatidir. Uning mazmuni qo'l ishidagi murakkab va nozik harakatlardir.

Keyingi bosqich aks ettirish o'yini hisoblanadi. Bu ilk yoshli bolalar o'yini psixologik mazmunning rivojlanishida eng yuqori nuqta hisoblanadi.

Bolalar o'yinlarining turkumlari 2 turga bo'linadi:

1. Ijodiy o'yinlar
2. Qoidali o'yinlar

Ijodiy o'yinlarni bolalarning o'zlari o'ylab topishadi. Unda oldindan belgilangan qoidalar bo'lmaydi. O'yin qoidasini bolalar o'zlari o'yin jarayonida belgilashadi. Qoidali o'yinlarning mazmuni

---

<sup>18</sup> Леонтьев А.Н. Деятелност. Сознание. Личност. – М.: Политиздат, 1975.- 304 с.

va qoidasi kattalar tamonidan belgilanadi. Qoidali o'yinlarga quyidagilar kiradi: didaktik o'yinlar, harakatli o'yinlar, musiqiy o'yinlar, ermak o'yinlar.

Bolani o'yinga undamagan omil uning katta yoshdagi odamlarning borliq to'g'risidagi va shaxslararo munosabati haqidagi tasavvuri va ularni o'z shaxsiy faoliyatida sinab ko'rish istagidir, shuningdek, jamoa bo'lib o'ynayotgan tengqurlari bilan bevosita muloqotga kirishish ishtiyoqidir. Bolalar psixologiyasi fanida to'plangan ma'lumotlar tahliliga asoslanib, mazkur yosh davri bo'yicha quyidagi xulosani chiqarish mumkin: 1) o'yin faoliyatida bola turli harakatlarni to'laligicha namoyish etishga, ularni bajarish usullarini ko'rsatishga ishtiyoqmand bo'ladi; 2) keyinchalik esa barcha xatti-harakatlarni umumlashtirib aks ettirishga urinadi.

Bog'cha yoshidagi bola atrofidagi narsalar dunyosini bilish jarayonida shu narsalar bilan bevosita amaliy munosabatda bo'lishga intiladi. Bu o'rinda shu narsa xarakterliki, bola bilishga tashnaligidan atrofidagi o'zining haddi sig'adigan narsalari bilangina emas, balki kattalar uchun mansub bo'lgan, o'zining kuchi ham etmaydigan, haddi sig'maydigan narsalar bilan ham amaliy munosabatda bo'lishga intiladi. Masalan: bola avtomashinani yoki tramvayni o'zi haydagisi, rostakam otga minib yurgisi, uchuvchi bo'lib, samolyotda uchgisi va rostakam harbiy bo'lgisi keladi. Tabiiyki, bola o'zidagi bunday ehtiyojlarning birontasini ham haqiqiy yo'l bilan qondira olmaydi. Bu o'rinda savol tug'iladi: bolalarning tobora ortib borayotgan turli ehtiyojlari bilan ularning tor imkoniyatlari o'rtasidagi qarama-qarshilik qanday yo'l bilan hal qilinadi? Bu qarama-qarshilik faqatgina birgina faoliyat orqali, ya'ni, bolaning o'yin faoliyati orqaligina hal qilinishi mumkin. Buni quyidagicha izohlab berish mumkin:<sup>19</sup>

- birinchidan, bolalarning o'yin faoliyati qandaydir moddiy mahsulot ishlab chiqarishga qaratilgan faoliyat emas. Shuning uchun bolalarni o'yinga undovchi sabab (motiv) kelib chiqadigan natija bilan emas, balki shu o'yin jarayonidagi turli harakatlarning mazmuniga bog'liqdir;

- ikkinchidan esa, bolalar o'yin jarayonida o'z ixtiyorlaridagi

---

<sup>19</sup> Davletshin M.G., Sh.Do'stmuhamedova, M.Mavlonov, S.To'ychiyeva "Yosh davrlari va pedagogik psixologiya" o'quv metodik qo'llanma. T.:2004. 118- b

narsalarni, o'zlarini qiziqtirgan, ammo kattalargagina mansub bo'lgan narsalarga aylantirib, xohlaganlaricha erkin faoliyatda bo'ladilar.

O'yin faoliyati bolalarni insoniyatning ijtimoiy tajribasini egallashning faol shakli bo'lgan ta'lim faoliyatiga tayyorlaydi. Odam birdaniga ijtimoiy tajribani o'zlashtirishga kirisha olmaydi. Ijtimoiy tajribalarni faol egallashi uchun odam, avvalo, yetarli darajada nutqni egallagan bo'lishi, ma'lum malakalar, uquvlar va sodda tushunchalarga ega bo'lishi kerak bo'ladi. Bularga bola yuqorida ko'rsatib o'tganimizdek, o'yin faoliyati orqali erishadi.

## **2.Sahnalashtirish o'yinlarining o'ziga xos xususiyatlari.**

Sahnalashtirish o'yinlari, bu bolalarning mustaqil ijodiy o'yin turi bo'lib, unda badiiy asar va hikoyalar bolalar tomonidan rollarga bo'lib ijro etiladi. Bu o'yinlar bolalarda iroda, intizom va o'z xatti-harakatlarini boshqara olish, boshqalarning harakatlari bilan hisoblashish kabi ijobiy ma'naviy xislatlarni shakllantiradi.

Sahnalashtirish o'yinlarida bolalar o'yin jarayoniga kirib boradilar, voqea va ertak qahramonlarining ichki hayotiga bevosita aloqador bo'lgan qahramonlik, jasurlik, mehribonlik, jonbozlik, jonkuyarlik kabi ijobiy fazilatlarni o'zlarida yaqqol namoyon qiladilar. Bu jarayonda bolalarning nutq faolligi, lug'at boyligi, dunyoqarashi kengayib boradi.

Sahnalashtirish o'yinlari qiziqarli o'tishi va uzoq vaqt davom etishi uchun kerakli jihozlar tayyorlanishi va unga to'g'ri rahbarlik qilinishi kerak. Kattalar o'yin rejissyori rolini amalga oshira borib, bolalarning xatti-harakatlari, qobiliyatlari, intilishlarini hisobga olib boradilar. O'yinda faol ishtirok etgan bolalarni alohida rag'batlantirilib, kelgusida qaysi asarlarni sahnalashtirish kerakligini aniqlaydilar.

Sahnalashtirish-tarbiyachidan juda katta mashaqqatli mehnat, ijodkorlik va fidoiylikni talab qiladi.

1)Sahnalashtirishda avvalo sahna ko'rinishini, ertak yoki hikoyani bolalarning yosh xususiyatlariga mos kelishini hisobga olish kerak.

Chunki, sahna ko'rinishi bolalar yoshiga mos kelmasa, bolalarda charchoq yoki zerikish holatlari yuzaga keladi (Masalan:

sahna ko‘rinishi katta guruh yoshidagi bolalarga mo‘ljallangan bo‘lib, uni kichik guruh yoshli bolalar bilan sahnalashtirilsa:

1) yod olishi qiyinlashadi

2) hikoyaning mazmuniga tushunishi qiyin,

3) sahna ko‘rinishining hajmi kattaligi bolalarni charchatadi.

Yoki sahna ko‘rinishi kichik yosh guruh bolalariga mo‘ljallangan bo‘lib, uni Katta yoshli bolalar bilan sahnalashtirish bu-yangiliklarga o‘ch bolalarda zerikish va qiziqishini yo‘qotadi.)

2) Ikkinchidan: Biron-bir ertak yoki hikoyani sahnalashtirayotganda bolalarning qaysi (rolga) obrazga mos kelishi hisobga olinishi, bolalar qaysi hikoya yoki ertakni sahnalashtirishga qiziqishayotganini hisobga olinishi muhimdir.

Tarbiyachi har bir mashg‘ulotda, sayrda, kun davomida bolalarni sinchiklab kuzatishi zarur. Kuzatganda bolaning xarakter xususiyatlari, mimikasi, nutqini ham hisobga olmoq kerak. Agarda obraz bola xarakteriga mos tushmasa, bolaga ham bu qiziqarli emas, tomoshabinga ham.

3) Yana bir muhim jihat-bolalar bog‘chasining biror-bir guruhida sahnalashtirishda har bir bola nazardan chetda qolishi mumkin emas.

Chunki, guruhingizdagi (sizning nazaringizdagi) eng passiv bolada ham kuchli aktyorlik qobiliyati bo‘lishi, bu o‘ziga xos qobiliyatni yuzaga chiqarish uchun unda imkon, vaziyat bo‘lmayotgan bo‘lishi mumkin.

a) Bolalarning aktyorlik qobiliyatlarini ochishda va ularni sinab ko‘rishda ayniqsa, ertaklarni qayta hikoya qildirish, she‘rlarni ifodali yod oldirish yaxshi natija beradi.

b) Keyingi bosqich: guruh bolalarining har qaysisi bilan alohida Biron-bir hayvonning xarakterini, mimikasini, ovozini o‘xshatishni mashq qilish.

v) Yana bir muhim tomoni guruhdagi passiv bolalarga avval kichik obrazlarni berib, sahnaga qatnashtirish lozim. (mayli o‘sha obrazda u shunchaki daraxt bo‘lsin, gapirmasin ham). Muhimi ishtiroki.

Bola sahnaga chiqib, tengdoshlari, o‘zidan katta tomoshabinlar oldida o‘zini tuta bilish qobiliyatini o‘zlashtiradi. Va keyinchalik

O'sha (passiv) bola ham o'z tengdoshlaridek, hattoki ulardan ham qoyilmaqom tarzda aktyorlik qobiliyatlarini namoyon eta boshlaydi.

Sahnalashtirish o'yinlari orqali bolalarda mehnatsevarlik hissini kamol toptirish mumkin. Sahnaviy asarlar bolalarning yoshiga mos bo'lishi bilan birga ma'lum maqsadni ko'zda tutgan bo'lmog'i lozim. Bu maqsad ko'plagan maqsadlar majmuidan iborat bo'ladi. Shularning ichida mehnatga bo'lgan munosabatni shakllantirish ishidir. "Sovg'a" hikoyasida bollarning mehnati tasvirlanadi. Bu asarni sahnada qo'yish bilan biz bolalarda mehnatga bo'lgan ishtiyoqni uyg'otishimiz mumkin bo'ladi.

Sahnalashtirish uchun badiiy asar, ertaklar tanlash katta yoshdagilardan bolalarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari, istaklarini hisobga olishni talab etadi.

Adabiy asarlarni tanlashda quyidagi talablar qo'yiladi:

1. Mazmunining g'oyaviy-ma'naviy barkamolligi.
2. Badiiy jihatdan mazmundorligi.
3. Asardagi qatnashchi va rollarning soni (qancha ko'p bo'lsa, asar shuncha ahamiyatlidir).
4. Mazmuni yaxshi bo'lishi bilan birga, unda harakat turlarining ham ko'p bo'lishi.
5. Ifodali o'qishga mos bo'lishi.

6. Mazmuni qiziqarli, hayot bilan bog'langan bo'lmog'i zarur.

### **3.MTT larda sahnalashtirilgan o'yinlardan foydalanish.**

Sahnalashtirilgan o'yinlar ijodiy o'yinlar sarasiga kiradi. Unga ijodiy o'yinning quyidagi asosiy: niyatning mavjudligi, roli va mavjud harakatlar, hayol qilingan vaziyatning va boshqa elementlarning uyg'unligi, bolalarning mustaqillik va o'z-o'zini uyushtira olish jihatlari xos. Sahnalashtirilgan o'yin badiiy asar asosida ko'riladi: o'yin syujeti, rollar, qahramonlarning xatti-harakatlari, ularning nutqi asar matniga ko'ra belgilanadi.

Sahnalashtirilgan o'yin bolalarning eshitgan asar yoki ertagidan olgan tasavvurlarini mustaqil ifodalash hamda mashq qilish imkonini beradi. Bu o'yinlar bolalarda iroda, intizom, o'z harakatlarini boshqalarning harakatiga muvofiq amalga oshirish kabi sifatlarni tarbiyalashda samarali vosita hisoblanadi. Sahnalashtirish bolalarni qayta so'zlashga o'rgatish usullaridan biridir. Ba'zi bir bolalarda badiiy asardan olingan parchani qayta

soʻzlab berishga xohish ham qiziqish ham boʻlmaydi, ammo unga oʻyin usuli kiritilishi bilan bola asardagi rolga kirib, oʻsha asar mazmunini juda yaxshi aytib berishga harakat qiladi.

Bunday oʻyinda bola oʻzini oʻsha asardagi qahramon oʻrnida his etib, uning sezgi, kechinmalari dunyosiga chuqurroq kirib boradi. Badiiy asarlarni qahramonlar tilida soʻzlab berish boladagi hayolni rivojlantirishga yordam beradi va asar qahramonida mavjud boʻlgan ijobiy sifatlarni egallashga intiladi. Sahnalashtirilgan oʻyinda badiiy asarning gʻoyaviy mazmuni bolalar tomonidan chuqurroq anglab olinadi.

Sahnalashtirilgan oʻyinlar bolalar biror ertak yoki hikoya syujeti asosida maʼlum bir rolni bajarishiga, oʻyin jarayonidagi personajlarning aytadigan soʻzlarining yod olinishiga asoslangan boʻlib, bolalarda iroda, intizom, oʻz harakatlarini boshqalarning harakatiga muvofiq amalga oshirish kabi sifatlarni tarbiyalashda samarali vosita sanaladi. Sahnalashtirilgan oʻyinlarni tashkil etish quyidagi bosqichlarni oʻz ichiga qamrab oladi:

*I bosqich.* Sahnalashtirish uchun badiiy asarni tanlash. Badiiy asarni tanlashda quyidagi talablarga rioya qilish kerak: 1) ertak yoki hikoyada qatnashuvchilar soni koʻp boʻlishi kerak; 2) asarning nafaqat mazmuni, balki unda harakatlarning ham turfa xil boʻlishiga eʼtibor qaratish lozim; 3) asar ifodali oʻqishga mos boʻlishi kerak; 4) asar mazmuni qiziqarli va emotsional boʻlishi zarur; 5) asar bolalarning yoshiga mos kelishi lozim.

*II bosqich.* Sahnalashtirish uchun tanlangan ertak yoki hikoyaning mazmunini oʻqib berish.

*III bosqich.* Asarni bolalar tomonidan eslab qolinishiga erishish: qayta oʻqib berish, har bir bolaning aytadigan gaplari ustida individual ish olib borish, rasmlar namoyish etish.

*IV bosqich.* Oʻyin qiziqarli oʻtishi va uzoq davom etishi uchun oʻyinga kerakli materiallar, kiyimlar tayyorlash hamda rahbarlikni toʻgʻri amalga oshirish.

Sahnalashtirilgan oʻyinlar bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda oddiydan murakkabga qarab yoʻnaltirib borilishi maqsadga muvofiq. Masalan, oʻrta guruh uchun asosan harakatni aks ettiruvchi asarlar tanlansa, katta guruh bolalari uchun

esa asar qahramonlarining ancha murakkab munosabatlari, ularning kechinmalari, qayg'ulari aks ettirilgan asarlar tanlanadi.<sup>20</sup>

Ertak va hikoyalarni bolalar ko'pincha o'zlarining ijodiy rolli o'yinlarida sahnalashtiradilar, bu o'yinlarda tulki, sichqon, xo'roz, quyon kabi personajlarni o'yinlarda aks ettiradilar. Yozuvchilarning badiiy asarlarini ham bolalar sevib sahnalashtiradilar. Bolalar bilan suhbatlasha turib, tarbiyachi hikoya yoki ertak qahramonlarining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga harakat qiladi. Har xil she'r, ertak qahramonlarining o'ziga xos xususiyatlari mana shunday o'rganiladi.

Guruhda shu yoshli bolalarga xos bo'lgan ertaklar, hikoyalar ularga tanish bo'lib qolgandan keyingina sahnalashtirish boshlanadi. «Sholg'om», «Bo'g'irsoq» kabi ertaklar sahnalashtiriladi. Tayyorlov guruhida bu ish davom ettiriladi. Sahnalashtirish uchun ertaklarga olinmasdan, badiiy asarlar, xususan, she'rlar ham olinadi. Masalan, tarbiyachi o'rta guruh uchun asosan harakatni aks ettiruvchi asarlar tanlaydi, katta guruh bolalari uchun esa asar qahramonlarining ancha murakkab munosabatlari, ularning kechinmalari, qayg'ulari aks ettirilgan asarlar tanlanadi.

#### **Mavzu yuzasidan nazorat savollari:**

1. O'yin faoliyatiga ta'rif bering?
2. O'yin turlari va ularning o'ziga xos xususiyatlarini yoritib bering?
3. Badiiy asarni sahnalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari nimalarlan iborat?
4. Sahnalashtirilgan o'yinlar bolalarda qaysi sifatlarni tarbiyalashda yordam beradi?
5. Sahnalashtirish ishini qanday bosqichlar bo'yicha o'tkazish mumkin?

#### **Mustaqil ish uchun mavzu**

- I.** Ijodkorlik, ijodkor shaxs, kreativ shaxs tushunchalari.

---

<sup>20</sup> N.Kayumova. Maktabgacha pedagogika. T.: TDPU 2013.



## **10- mavzu: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mashg'ulotlarini tashkil etish yo'llari.**

### **Reja:**

- 1. Mashg'ulotlarni tashkil etishga tayyorgarlik.**
- 2. Mashg'ulotlarni tashkil etish va amalga oshirish .**
- 3. Mashg'ulotlarni «Ilk qadam» o'quv dasturi asosida, tarbiyachining ish jurnali (05-02) da tashkillashtirish va faoliyat markazlarini jihozlash.**
- 4. Mashg'ulotlarda tarbiyachining yetakchilik roli va uni o'tkazishga tayyorgarligi**
- 5. MTT larda ta'limiy faoliyat turlarini o'tkazishda ta'lim dasturi va davlat talablarining bajarilishi. Ta'limiy faoliyat turlarini o'tkazishning frontal va individual shakllari**

**Tayanch so'z va iboralar:** Bolalarni uyushtirish, asosiy qism, yakunlovchi qism, faoliyatlar, 5 markaz, didaktik materiallar, individual, frontal mashg'ulotlar, Ilk qadam, tarbiyachining ish hujjatlari, tarbiyalanuvchilar hujjatlari, faoliyatlar, faoliyat markazlari.

### **1. Mashg'ulotlarni tashkil etishga tayyorgarlik.**

Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga har tomonlama puxta tayyorlash dolzarb masaladir. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturida ta'lim-tarbiya vazifalarini amalga oshirishda tarbiyachi bolalarning oson o'zlashtirishlariga yordam beruvchi usullardan foydalansa yaxshi samara beradi. Bolani majburlamasdan qiziqish, erkin harakat qilish, mustaqil fikrlash orqali materialni o'zlashtirishiga erishish tarbiyachidan ko'p mehnat, katta mahoratni talab qiladi. Mavzuga mos ta'limiy o'yinlar yaratish, usullarni to'g'ri tanlash va tegishli ko'rgazma, tarqatma materiallardan o'rinli foydalanish bolalarda bilishga nisbatan ishtiyoqni uyg'otadi. Tarbiyachining mashg'ulotda ko'zlaydigan maqsadining uch qirradi (ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi) mavjud. Rivojlantiruvchi maqsadda bolalarning fikrlash qobiliyati, nutqi, xotirasi, barqaror diqqatini rivojlantirishga muntazam e'tibor qaratiladi. Nafaqat tarbiyachi balki, ushbu dolzarb masala ota-onaning ham nazaridan chetda qolmasligi lozim.

Bolalarda erkin, hur fikrlilikni tarbiyalash istagi xalqimizda qadimdan mavjudligini ta'kidlash uchun Xo'ja Nasriddin haqidagi rivoyatlaridan birida mazkur mavzuga dahldor bo'lgan kichik bir ko'rinish saqlanib qolganligi quyidagicha hikoya qilinadi. Xo'ja Nasriddinning qo'shnisi uning o'z farzandini kaltaklayotgani ustidan chiqib qoladi. Qo'shni hayron bo'ladi. Chunki bola tartibli, doimo ota-onasining aytganini qilardi. Qo'shnisi Xo'ja Nasriddindan kaltaklash sababini so'rganida, u quyidagicha javob beradi:

-To'g'ri, bolam buyurgan ishlarimni bekamu-ko'st bajaradi. Biroq uning aybi shundaki, men buyurmagan ishlarni bajarishni bilmaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni "Ilk qadam" o'quv dasturi asosida har tomonlama komil inson qilib tarbiyalashda tarbiyachining ta'lim-tarbiya jarayonida to'g'ri yondasha olishi muhim o'rin egallaydi. Mashg'ulot paytida bolaning erkin harakat qilishi, mustaqil fikrlashi uchun tarbiyachi tomonidan vaziyat yaratiladi. Guruh xonasida markazlarni to'g'ri joylashtirish, jihozlarning yetarli bo'lishi, mavzuga mos qiziqarli topshiriqlarning, metodlarning to'g'ri tanlanishi tarbiyachidan katta kuch, ko'p mehnat va mahoratni talab qiladi. Bolalarning oson o'zlashtirishlariga imkon berish, o'zaro tengdoshlari bilan muloqotga kirishishlari uchun sharoit yaratish maqsadida tarbiyachi oldindan puxta tayyorgarlik ko'radi. Qaysi bola qayerda kim bilan, nima bilan shug'ullanishini oldindan rejalashtiradi. Faoliyat turi o'zgarib turishini ta'minlaydi. Aks holda mashg'ulot bolalar uchun zerikarli bo'ladi. Bolalar markazlarda ishlashlari uchun tegishli ko'rgazma va tarqatma materiallar tayyorlanadi. "Aqliy hujum", "Kichik guruhlarda ishlash", "Rolli o'yin" metodlarini qo'llash mashg'ulotda barcha bolalar ishtirokini ta'minlaydi. Lekin maktabgacha yoshdagi bolalar mashg'ulot paytida turli xil topshiriq, vazifalarni bajarish jarayonida aqliy jihatdan charchaydi. Bolalar charchab qolmasliklari uchun mashg'ulot oralig'ida quvvat beruvchi o'yinlardan foydalaniladi. O'yin mazmuni mavzuga mos bo'lsa yaxshi samara beradi.

## 2. Mashg'ulotlarni tashkil etish va amalga oshirish .

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mashg'ulotlarini tarbiyachi tomonidan to'g'ri tashkil qilinishi asosan "Ilk qadam" davlat o'quv dasturidagi Yillik mavzuviy (tematik) rejadani kelib chiqqan holda, rejashtiriladi. "Ilk qadam" o'quv dasturida mashg'ulotlar, namunaviy taqvim rejada ko'rsatilgandek oy mavzusi va hafta mavzularidan kelib chiqqan holda, har bir yosh guruhlariga (3-4 yosh kichik guruh, 4-5yosh o'rta guruh. 5-6 yosh katta guruh va 6-7 yosh maktabga tayyorlov guruh) mos holda rejalashtiriladi.

Mashg'ulotlar grafigi har o'quv yili boshida 1-Pedagogik kengashda MTT uslubchisi tomonidan barcha pedagoglar bilan maslahatlashib «Ilk qadam» o'quv dasturi asosida ishlab chiqilib, MTT direktori tomonidan tasdiqlanadi

-----  
**Namunaviy mashg'ulotlar grafigi.**  
**"Tasdiqlayman"**  
-----shahar(tuman)  
-sonli maktabgacha ta'lim tashkiloti  
direktori:-----

(ism va familiyasi)

« \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 20 yil

### -sonli maktabgacha ta'lim tashkiloti kichik guruh uchun 20 - 20 o'quv yili faoliyat grafigi

№	Hafta kunlari	Faoliyat turi	Faoliyat davomiyligi 18-20daqiqa
1	Dushanba	1.Musiqqa 2.Markazdagi faoliyat	9:30-9:50 10:00-10:20
2	Seshanba	1. Nuqt o'stirish (umumiy guruhlarda ishlash) 2. Markazdagi faoliyat	9:30-9:50 10:00-10:20
3	Chorshanba	1.Matematika (Umumiy guruhlarda ishlash) 2. Jismoniy tarbiya	9:30-9:50 10:00-10:20
4	Payshanba	1. Markazdagi faoliyat 2.Musiqqa	9:30-9:50 10:00-10:20
5.	Juma	1. Markazdagi faoliyat	9:30-9:50

	2. Jismoniy tarbiya	10:00-10:20
--	---------------------	-------------

Izoh: Badiiy adabiyot, atrof-olam, tasviriy faoliyat( rasm applikasiya, qurish yasash) ta'lim- tarbiyaviy faoliyatlar va rivojlanish markazlarda tashkillashtirilganda jami haftasiga 12 ta mashg'ulot rejalashtirilgan.

**“Tasdiqlayman”**

-----**shahar(tuman)**

**-sonli maktabgacha ta'lim tashkiloti**

**direktori:-----**

(ism va familiyasi)

« \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 20 yil

**-sonli maktabgacha ta'lim tashkiloti o'rta guruh uchun  
20 - 20 o'quv yili faoliyat grafigi**

<b>№</b>	<b>Hafta kunlari</b>	<b>Faoliyat turi</b>	<b>Faoliyat davomiyligi 20-25 daqiqa</b>
1	Dushanba	1.Nutq o'stirish (umumiy guruhlarda ishlash) 2.Musiqa	9:30-9:55 10:00-10:20
2	Seshanba	1.Matematika (umumiy guruhlarda ishlash) 2. Markazdagi faoliyat	9:30-9:50 10:00-10:20
3	Chorshanba	1. Jismoniy tarbiya 2. Markazdagi faoliyat	9:30-9:50 10:00-10:20
4	Payshanba	1. Nutq o'stirish (umumiy guruhlarda ishlash) 2.Musiqa	9:30-9:50 10:00-10:20
5.	Juma	1. Markazdagi faoliyat 2. Jismoniy tarbiya	9:30-9:50 10:00-10:20

Izoh: Badiiy adabiyot, atrof-olam, tasviriy faoliyat( rasm applikasiya, qurish yasash) ta'lim- tarbiyaviy faoliyatlar va rivojlanish markazlarda tashkillashtirilganda jami haftasiga 14 ta mashg'ulot rejalashtirilgan.

**“Tasdiqlayman”**

-----shahar(tuman)

**-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti  
direktori:-----**

(ism va familiyasi)

«\_\_\_»\_\_\_\_\_20 yil

**-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti katta guruh uchun  
20 - 20 o‘quv yili faoliyat grafi**

<b>№</b>	<b>Hafta kunlari</b>	<b>Faoliyat turi</b>	<b>Faoliyat davomiyligi 25 daqiqa</b>
1	Dushanba	1.Markazlarda faoliyat. 2. Иккинчи тил (Umumiy guruhlarda ishlash)	9:30-9:55 10:00-10:25
2	Seshanba	1.Matematika(Umumiy guruhlarda ishlash) 2.Markazdagi faoliyat. 3.Musiqa.	9:30-9:55 10:00-10:25 10:30-10:55
3	Chorshanba	1. Nutq o‘stirish(Umumiy guruhlarda ishlash) 2. Markazdagi faoliyat 3 Jismoniy tarbiya	9:30-9:55 10:00-10:25 10:30-10:55
4	Payshanba	1. Markazdagi faoliyat. 2. Musiqa.	9:30-9:55 9:55-10:20
5.	Juma	1. Nutq o‘stirish (Umumiy guruhlarda ishlash) 2. Markazdagi faoliyat. 3. Jismoniy tarbiya	9:30-9:55 10:00-10:25 10:30-10:55

Izoh: Badiiy adabiyot, atrof-olam, tasviriy faoliyat( rasm applikasiya, qurish yasash) ta’lim- tarbiyaviy faoliyatlar va rivojlanish markazlarda tashkillashtirilganda jami haftasiga 17 ta mashg‘ulot rejalashtirilgan.

**“Tasdiqlayman”**  
 -----shahar(tuman)  
 -sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti  
 direktori:-----  
 (ism va familiyasi)

« \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 20 yil

**-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti tayyorlov guruh uchun  
 20 - 20 o‘quv yili faoliyat grafigi**

No	Hafta kunlari	Faoliyat turi	Faoliyat davomiyligi 25 daqiqa
1	Dushanba	1.Savodhonlikka o‘rgatish (Umumiy guruhlarda ishlash) 2. Markazdagi faoliyat.	9:30-9:55 10:00-10:25
2	Seshanba	1.Matematika (Umumiy guruhlarda ishlash) 2. Markazdagi faoliyat. 3. Musiqa.	9:30-9:55 10:00-10:25 10:30-10:55
3	Chorshanba	1.Ikkinchi til (Umumiy guruhlarda ishlash) 2. Markazdagi faoliyat. 3. Jismoniy tarbiya	9:30-9:55 10:00-10:25 10:30-10:55
4	Payshanba	1.Matematika (Umumiy guruhlarda ishlash) 2. Markazdagi faoliyat. 3. Musiqa.	9:30-9:55 10:00-10:25 10:30-10:55
5.	Juma	1. Nutq o‘stirish (Umumiy guruhlarda ishlash) 2. Markazdagi faoliyat. 3. Jismoniy tarbiya	9:30-9:55 10:00-10:25 10:30-10:55

Izoh: Badiiy adabiyot, atrof-olam, tasviriy faoliyat( rasm applikasiya, qurish yasash) ta’lim- tarbiyaviy faoliyatlar va rivojlanish markazlarda tashkillashtirilganda jami haftasiga 18 ta mashg‘ulot rejalashtirilgan.

**Mashg‘ulotdan namuna**

**Mashg‘ulot:** Atrof-muhit bilan tanishtirish, qirqib-yopishtirish.

**Mavzu:** O‘zbekiston bayroq‘i bilan tanishtirish va bayroq qirqib-yopishtirish.

**Maqsad:** O‘zbekiston bayrog‘i tasviridagi ranglar, ularning ramziy ma‘nolari haqida tushuncha hosil qilish. Boshqa davlat bayroqlaridan ajratishga o‘rgatish. Rangli qog‘ozlardan bayroq tasvirini tog‘ri qirqish va yelimlash ko‘nikmasini hosil qilish. Hamjihatlikda ishlashga, bir-biriga halaqit bermaslikka, rangli qog‘ozlarni tejab ishlatishga undash. Bolalar lug‘atiga moviy, duldul so‘zlarini kiritish. Bolalarning fikrlash qobiliyatini, mayda qo‘l motorikasini rivojlantirish.

**Kutiladigan natija:** Bolalar O‘zbekiston bayrog‘ini taniydigan, boshqa davlat bayroqlaridan ajratadigan, bayroqdagi ranglar bilan bog‘liq to‘g‘rito‘rtburchak shakldagi qog‘ozlarni, oy va yulduzchalar shaklini qirqish hamda yelimlash ko‘nikmasini hosil qiladilar.

**Jihoz:** Nootbuk, proyektor, O‘zbekiston Respublikasi bayrog‘i, bayroq rangidagi kiyimlar, Turkmaniston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojigiston kabi boshqa davlatlarning bayroqlari., rangli qog‘ozlar, qaychi, yelim, salfetka, yashil va sariq gullar.

**Mashg‘ulotning borishi:** “Bilmasvoy” ning guruh xonasiga kirib kelishi bilan mashg‘ulot boshlanadi. Salomlashishadi. Tarbiyachi “Bilmasvoy” dan kelish sababini so‘raganida qo‘lidagi bayroqlarni ko‘rsatib qaysi biri O‘zbekistonning bayrog‘i ekanligini topaolmayotganligini aytib yordam so‘raydi. Tarbiyachi gilam ustida turli mamlakatning bayroqlarini tarqatib tashlaydi. Bayroqlardan 10 tasi O‘zbekistonniki, qolganlari boshqa davlatlarning bayroqlari. Topshiriq: O‘zbekiston bayrog‘ini topib stol ustiga qo‘yish. Bolalar bilmasliklari, xato bajarishi mumkin. To‘g‘ri bajargan bola bo‘lsa rag‘batlantiradi. Tarbiyachining o‘zi O‘zbekiston bayrog‘ini ko‘rsatib, bayroqda moviy (ko‘k), qizil, oq, yashil rangdagi hoshiyalar, oy va 12 ta yulduz tasvirlanganligini tushuntiradi. Monitorida bayroq tasviri ko‘rsatiladi. Ko‘k, qizil, oq, yashil rangli hoshiyalar, oy, yulduzchalar navbati bilan harakatga keltiriladi va ovoz beriladi:

“Men moviy rang bo‘laman- yurt osmonining bir parchasi. Bu olamda tinchlik bo‘lsin deganimdir. Yana men tip-tiniq suvgayam o‘xshayman. Tilagim - uning bag‘ri hech qachon loyqalanmasin”

“Men qizil rangdurman. Bamisoli tomirlarda oqqan qondurman. Hamma-hammani Vatan bayrog‘i ostida yashashga, mehnat qilishga, kurashishga chaqiraman”

“Men oq rangman. O‘zim ham oq, ko‘nglim ham oq, qilar ishlarim pok. Shuning uchun ham maqtovim ko‘proq, uzoq-uzoqlarni ko‘rayin deb, elga “Oq yo‘l” tilayin deb bayroqdan o‘rin oldim”.

“Men yashil rangdurman. U nima degani? Yashillik yasharish, yashnatish, ertanggi kunga ishonish degani. Non-u nasiba, sof obihavo, sog‘u omonlik degani. Orzularim buyuk, yurt hamisha yashnab tursin. Dulduldek kishnab tursin ”.

“Oymomoman, oymomo. Ertaklarga boy momo. Ko‘rinishim uch yoki to‘rt kunlikdir. Niyatlarim odamlarga to‘kinlikdir. O‘y sursalar o‘ylariga sirdoshman. Yo‘l yursalar yo‘llariga yo‘ldoshman. Tinch kunlarni, tinch tunlarga ulayman O‘zbekiston sharafini olam ar so‘zlayman”.

“12 yulduz, 12 oymiz. Jamlasangiz bir yilga joymiz. Kim qandoq yashadi, yaxshimi-yomon? Hech ikkilanmay baholaymiz. Yana biz 12 yulduz, 12 burjmiz. Oy-u, quyosh bilan harakatdamiz. Fasllar o‘zgaradi. Yangi kun, yangi odamlar tug‘iladi, barida ishtirokimiz bor. Biz aks etgan yurt bayrog‘i ham, o‘zi ham dunyo turguncha tursin, deymiz”.

Tarbiyachi: Mana bolajonlar har qaysi rangning o‘ziga xos ma‘nosi bor ekan.

-Endi O‘zbekistonning bayrog‘ini boshqa bayroqlardan ajratib bilamizmi?

-bayrog‘imizda qanday rangli hoshiyalar bor ekan?

-ko‘k rangli hoshiya qanday ma‘noni anglatar ekan?

-qizil rangli hoshiya-chi?

-oq rangli hoshiya-chi?

-yashil rangli hoshiya-chi?

-oy rasmining ma‘nosi?

-12 ta yulduz qanday ma‘noni anglatar ekan? Kabi savollarga javob olinadi va rag‘batlantiriladi.

Bolajonlar moviy rang degani ko‘k rang ekan. Duldul degani nima? Duldul bu otning nomi.



Bolalar oq va qizil gullarni tanlashlariga qarab ikki guruhga ajratiladi. Har qaysi guruh a'zolari jamoa bo'lib, O'zbekiston bayrog'ini rangli qog'ozlardan to'g'ri foydalangan holda (ko'k, qizil, oq, yana qizil, yashil rangli) hoshiyalarini qirqadilar va yopishtiradilar. Oq rangli qog'ozdan oy va yulduzchalarni ham qirqib ko'k rangli hoshiyaning ustiga yopishtiradilar. Yulduzchalarni bir necha kvadrat shakldagi qog'ozlarni qat-qat qilib qo'yish va yulduzcha holiga keltirib qirqishga o'rgatiladi. Sanab 12 ta yulduzchani tartibli holatda yopishtiradilar (yuqori qismida 3 ta, ikkinchi qatorda 4 ta, uchinchi qatorda 5 ta). Qaysi guruh to'g'ri va tez bajarishiga qarab rag'batlantiriladi. Mashg'ulot yakunida bolalarning rag'bat kartochkalari sanaladi va o'rni aniqlanadi.

### **3 Mashg'ulotlarni «Ilk qadam» o'quv dasturi asosida, tarbiyachining ish jurnali (05-02) da tashkillashtirish va faoliyat markazlarini jihozlash.**

Maktabgash ta'lim tashkilotining ish xujjatlari asosan 155-buyruq

(MTV 30.08.2019y) asosida yuritiladi. Shu jumladan tarbiyachining ish xujjatlari ham 155-buyruq 05 indeksi asosida yuritiladi. Mashg'ulotlar tarbiyachining ish jurnalida (05-02) da rejalashtirilib olib boriladi.

**05-02**

**- SONLI MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI**

**TARBIYACHISI**

**ISH JURNALI**

**TARBIYACHI:**

**TELEFON: uy**

### **O'QUV YILI UCHUN YILLIK VAZIFALARNI REJALASHTIRISH**

<b>1. Guruh da O'zbekiston Respublikasining "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarga qo'yiladigan Davlat talablari" "ILK QADAM" Davlat o'quv dasturi asosida ta'lim tarbiya jarayonini tashkil etish .</b>
--

<b>2. Guruh da qulay muxit yaratish.</b>
--

<b>3. Ta'lim tarbiya jarayonida bolalarga ta'lim berishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish bo'yicha maktabgacha ta'lim tashkilotida tizimli ishlarni amalga oshirish.</b>
---

## GURUH NING KUN TARTIBI

(o'quv yili davrida)

T.r.	TADBIRLARNING NOMI	MUDDAT
Ertalabki doira		
1	Bolalarning salomatligini tekshirib qabul qilish, o'yinlar, bolalar bilan suhbat, ertalabki badan tarbiya	
2	Nonushtaga tayyorgarlik, nonushta	
3	Mustakil faoliyat, o'yinlar	
4	Ta'limiy o'yin faoliyati	
Katta doira		
5	Guruh dagi bolalar bilan ta'limiy faoliyat	
6	Sayrga tayyorgarlik va sayr	
7	Sayrdan kaytish, o'yinlar	
8	Tushlikka tayyorgarlik, tushlik	
9	Kunduzgi uykuqa tayyorgarlik, uyku	
10	Tetiklashtiruvchi mashklar, suv va xavo muolajalari	
11	Uykusiz vakt (mustakil faoliyat)	
12	Kechki choyga tayyorgarlik, kechki choy	
Kunning ikkinchi yarmi		
13	Qo'shimcha ta'lim, yakka ishlash, badiiy adabiyotlarni o'qish, ixtiyoriy o'yinlar	
Kechki sayr		
14	Kuzatish, xarakatli o'yinlar, ixtiyoriy o'yinlar	
15	Ota-onalar bilan suhbat va bolalarni uyga kuzatish.	

## ERTALABKI GIMNASTIKA KOMPLEKSI

OY	HAFTA	ERTALABKI GIMNASTIKA KOMPLEKSI
Sentyabr	1-2	Ertalabki gimnastika kompleksi №
	3-4	Ertalabki gimnastika kompleksi №
Oktyabr	1-2	Ertalabki gimnastika kompleksi №
	3-4	Ertalabki gimnastika kompleksi №

<b>Noyabr</b>	1-2	Ertalabki gimnastika kompleksi №
	3-4	Ertalabki gimnastika kompleksi №
<b>Dekabr</b>	1-2	Ertalabki gimnastika kompleksi №
	3-4	Ertalabki gimnastika kompleksi №
<b>YAnvar</b>	1-2	Ertalabki gimnastika kompleksi №
	3-4	Ertalabki gimnastika kompleksi №
<b>Fevral</b>	1-2	Ertalabki gimnastika kompleksi №
	3-4	Ertalabki gimnastika kompleksi №
<b>Mart</b>	1-2	Ertalabki gimnastika kompleksi №
	3-4	Ertalabki gimnastika kompleksi №
<b>Aprel</b>	1-2	Ertalabki gimnastika kompleksi №
	3-4	Ertalabki gimnastika kompleksi №
<b>May</b>	1-2	Ertalabki gimnastika kompleksi №
	3-4	Ertalabki gimnastika kompleksi №

<b>Mavzu</b>	<b>Men va mening do'stlarim</b>			
<b>Davr</b>	<b>Sentyabr oyining to'rtinchi haftasi</b>			
<b>Sentyabr . 4 hafta</b>	<b>Ertalabki doira</b>	<b>Dushanba</b>		
			Ertalabki qabul	<b>Guruh xonasini kabulga tayyorlash birlamchi tibbiy ko'rik</b>
			Ota-onalar bilan suhbat	<b>Bolalarni sogligi to'g'risida suhbat</b>
			O'yinlar	<b>Soyasidan top o'yini</b>
			Bolalar bilan suhbat ishlash	<b>Dam olish kunlar kandy o'tganligi to'risida suhbat</b>
			Mexnat	<b>Gullarga suv solish</b>
			Mustaqil faoliyat turlari	<b>Markazlardagi faoliyat</b>
YAKka ishlash	<b>Ochilbekov Azizbek</b>			
Ertalabki badan tarbiya	<b>Predmetsiz</b>			

**Qolgan hafta kunlar ham shu tartibda har bir tarbiyachining o'z ijodkorligidan kelib chiqib to'ldiriladi.**

**MARKAZLARDAGI FAOLIYATLARGA KIRITILGAN  
O'ZGARISHLAR**

Hafta kunlari:	Dushanba	Seshanba	Chorshanba	Payshanba	Jumana	RESURSLAR IZOX,
rivojlanish markazlari	MAVZU, O'YIN VA TADBIRLARNING NOMI					
Ilm-fan va tabiat markazi		Havoning ifloslanishi				Tabiat tasvirlangan suratlar
Til va nutq markazi			Yo'l xarakati qoidalari			Mavzu asosida suratlar
				Xaydovchi kasbi haqida suhbat		Mavzu asosida suratlar
Sa'nat markazi	Svetofor va chorraha					Qog'oz va qalamlar
			Loy ishi: sevimli mashina			Plastirin salfetka va mashinalar tasviri
Qurish yasash va matematika markazi						
		Son va sanoq				1 dan 10 gacha bo'lgan sonlar
Sujetli rolli va drammalashtirish	Avtobus sujetli o'yini					Avtobus maketi chiptalar qog'oz

Haftalik mavzuviy rejalashtirish

	<b>markazi</b>					<b>pullar</b>

<b>Sentyabrning 1-haftasi</b>	<b>Umumiy guruh bilan ishlash</b>	<b>Dushunba</b>	Mashg'ulot:	<b>Elementar matematika</b>
			Mavzu:	<b>Geometrik shakllar</b>
			Maqsad:	<b>Bolalarni to'g'ri to'rtburchak bilan tanishtirish</b>
			Resurslar	<b>Doira, uchburchak, kvadra, to'g'ri to'rtburchak shakllari</b>
			Mashg'ulotning borishi	<b>Kirish qismi: bolalarni diqqatini jalb qilish, Asosiy qism: ko'rgazmalardan foydalangan holda yangi bilimlar berish Yakuniy qism: savol javob rag'batlantirish</b>

**Qolgan hafta kunlar ham shu tartibda har bir tarbiyachining o'z ijodkorligidan kelib chiqib to'ldiriladi.**

<b>Sayr</b>	<b>Dushunba</b>	<b>O'YIN VA TADBIRLAR NOMI</b>		<b>RESURSLAR,</b>
		Kuzatish:	Ob-xavoni kuzatish	Ochik xavoda
		Xarakatli o'yin:	Qush kabi uch	Qushlar rasmlari
		Asosiy xarakter turlarini mustahkamlash:	To'pni yuqoriga otib olib olish	koptoklar
		Tinch va ihtiyoriy o'yin:	Paypaslab top	Xaltachada o'yinchoklar
		Mexnat:	Maydondagi o'rindiqlar changini artish	Ochiq xavoda, suv va chelak

Qolgan hafta kunlar ham shu tartibda har bir tarbiyachining o'z ijodkorligidan kelib chiqib to'ldiriladi.

		O'YIN VA TADBIRLAR NOMI		RESURSLAR, IZOX
Kunning ikkinchi qismi	Dushanba	Yakka ishlash:	Muradova Feruza	
		Badiiy adabiyot:	Rasmga karab xikoya tuzish	Rasmlar
		O'yinlar:	Bolalar erkin o'yinar	
	Seshanba	Yakka ishlash:	Muradova SHaxnoza	
		Badiiy adabiyot:	O'zbekiston sherini yod oldirish	kitob
		O'yinlar:	Bolalarni erkin uyinari	
	Chorshanba	Yakka ishlash:	Muradov Islam rasm chizishda	
		Badiiy adabiyot:	Zumrad va Qimmat" ertakini xikoya	
		O'yinlar:	Bolalarning erkin o'yinlari	
	Payshanba	Yakka ishlash:		
		Badiiy adabiyot:		
		O'yinlar:		
Juma	Yakka ishlash:			
	Badiiy adabiyot:			
	O'yinlar:			

**BOLALAR FAOLIYATINI TASHKIL ETISHDAGI O'ZGARISHLAR:**

Bolalar faoliyatini tashkil etishda xech kandy o'zgarish bo'lmadi.

<b><u>Bolalar ilgari nimani bilishar edi?</u></b>	<b><u>Bolalar nimani bilishdi?</u></b> <u>Do'stni xafa qilmaslik haqida xar doim yonida bo'lishligi haqida bilishdi.</u>	<b><u>Bolalar nimani bilishni xoxlaydilar?</u></b>	<b><u>Kelgusi haftaga Foyalar</u></b>
Bolalar do'st haqida bilishadi		<b><u>Do'st haqida sher va ko'shiq bilishni xohlaydilar</u></b>	<b><u>Kelgusi haftaga ko'rgazmalar to'plash</u></b>

		O'YIN VA TADBIRLAR NOMI	RESURSLAR, IZOX
Kechki sayr	Dushunba	Kuzatish:	Uylariga kuzatish
		Ixtiyoriy o'yin:	Ixtiyoriy o'yinlar
		Ota-onalar bilan suhbat	Bolalarni iqtidori haqida
	Seshanba	Kuzatish:	Uylariga kuzatish
		Ixtiyoriy o'yin:	Ixtiyoriy o'yinlar
		Ota-onalar bilan suhbat	Bolalarning salomatligi
	CHorshanba	Kuzatish:	Uylariga kuzatish
		Ixtiyoriy o'yin:	Ixtiyoriy o'yinlar
		Ota-onalar bilan suhbat	Bolalarning tarbiyasi haqida suhbat

<b>Payshanba</b>	Kuzatish:	Uylariga kuzatish	
	Ixtiyoriy o'yin:	Ixtiyoriy o'yinlar	
	Ota-onalar bilan suhbat	Bolalarning iqtidori haqida suhbat	
<b>Juma</b>	Kuzatish:	Uylariga kuzatish	
	Ixtiyoriy o'yin:	Ixtiyoriy o'yinlar	
	Ota-onalar bilan suhbat	Bolaga bo'layotgan munosabat haqida suhbat	

**Hafta yakuni**

**MTT RAXBARIYATI VA TA'LIMiy O'QUV FAOLIYATINI KUZATISH UCHUN KIRGAN MT TIZIMI XODIMINING TAVSIYA HAMDA KO'RSATMALARI**

---



---



---



---



---



---



---



---



---



---



---



---



---



---



---



---



---



---



---



---



---




---



## Markazlarnig jihozlanishi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida mashg'ulotlar umumiy guruhlarda va yakka tartibda faoliyat markazlarida olib boriladi. Buning uchun albatta faoliyat markazlari to'g'ri jihozlanishi, bolalar hayoti uchun xavsiz va gigena talablariga javob bera olishi kerak bo'ladi. Bundan tashqari bolalar faoliyat markazlarida bemalol harakatlana olishlari va o'zlariga kerak bo'ladigan narsalarni bemalol o'la bilishlari uchun qulay bo'lishi kerak.



No	Rivojlantiruvchi markazlar	Kichik va O'rtta guruh	Katta va Maktabga tayyorlov guruhi
1	Qurish-yasash va matematika	1. Yirik yog'ochli va plastmassali pol ustida o'ynaydigan qurish-yasash to'plamlari 2. Turli ko'rinishdagi o'rtta o'lchamdagi qurish-yasash to'plamlari (kubiklar, bruslar va x.k) 3. Stol usti mayda yog'ochli, plastmassali qurish-yasash to'plamlari 4. Mavzuli qurish-yasash to'plamlari	1. Yirik yog'ochli va plastmassali pol ustida o'ynaydigan qurish-yasash to'plamlari 2. Turli ko'rinishdagi o'rtta o'lchamdagi qurish-yasash to'plamlari(kubiklar, bruslar va x.k) 3. Stol usti mayda yog'ochli, plastmassali qurish-yasash to'plamlari 4. Mavzuli qurish-yasash to'plamlari 5. Tayyor qurilish modellari 6. Qurilgan ob'ektlarda

		<p>5. Tayyor qurilish modellari</p> <p>6. Qurilgan ob'ektlarda o'yin tashkil qilish uchun mayda transport vositalari va o'yinchoqlar</p> <p>7. Geometrik shakllar(yog'ochli, plastmassali)</p> <p>8. Pazllar, lego, mozaykalar</p> <p>9. "Naqshlarni topib tuz" didaktik o'yin</p> <p>10. Sanoq cho'plari</p> <p>11. Sanash uchun mayda predmetlar</p> <p>12. 0 dan 9 gacha bo'lgan sonlarning qirqma rasm bo'laklari</p> <p>13. Matematik tasavvurlarini shakllantiruvchi ko'rgazmali materiallar(butun va qismlarni o'rganish uchun, oz va ko'p)</p>	<p>o'yin tashkil qilish uchun mayda transport vositalari va o'yinchoqlar</p> <p>7. Geometrik shakllar(yog'ochli, plastmassali) doira,oval,kvadrat,to'g'ri to'rtburchak, romb, trapetsiya</p> <p>8. Pazllar, lego, mozaykalar</p> <p>9. "Naqshlarni topib tuz" didaktik o'yin</p> <p>10. Sanoq cho'plari</p> <p>11. Sanash uchun mayda predmetlar</p> <p>12. 0 dan 9 gacha bo'lgan sonlarning qirqma rasm bo'laklari</p> <p>13. Matematik tasavvurlarini shakllantiruvchi ko'rgazmali materiallar(butun va qismlarni o'rganish uchun, oz va ko'p)</p> <p>14. "Tagram" didaktik o'yini</p> <p>15. Xona bo'ylab predmetlarni joylashuviga ko'ra sxemalar</p> <p>16. Past va baland, uzun va qisqa, yupqa va qalin predmetlar</p>
2	Nutq va til	<p>1. SHajara daraxti maketi (bobo, buvi,ota-ona, ak-uka, opa-singil, xola, amaki, tog'a, amma va bolalar)</p>	<p>1. SHajara daraxti maketi (bobo, buvi,ota-ona, ak-uka, opa-singil, xola, amaki, tog'a, amma va bolalar)</p>

	<p>2. Fasllar, uy va yovvoyi xayvonlar, suv xayvonlari, o'simliklar, oila, sabzavotlar, mevalar, o'yinchoqlar, idish-tovoqlar, kabi mavzulardagi rangli tasvirlar (tasvirlarni to'rt yoki olti bo'lakka bo'lingan qirqimlaridan ham foydalaniladi )</p> <p>3. Kichik xajmdagi ertaklar to'plami (rasmli)</p> <p>4. Yirik xajmli pazllar</p> <p>5. Milliy kiyimdagi o'g'il bola va qiz bola qo'g'irchoqlar</p> <p>6. Kichik xajmdagi she'rlar, ertak va hikoyalar matnlari</p> <p>7. Tanish bolalar shoir va yozuvchilari suratları</p> <p>8. Alfavit jadvali (rasmli)</p> <p>9. "Quvnoq alfavit", "Ertak so'zlab ber", "So'z tanla", "Hikoyani davom ettir" kabi nutq o'stiruvchi didaktik ta'limiy o'yinlar</p> <p>10. Fe'l va sifatlarni aniqlovchi sur'atlar</p> <p>11. "Mening shahrim/qishlog'im", "Mening mahallam" mavzularida rasmlari va maketlari</p>	<p>2. Fasllar, uy va yovvoyi xayvonlar, suv xayvonlari, o'simliklar, oila, sabzavotlar, mevalar, o'yinchoqlar, idish-tovoqlar, kabi mavzulardagi rangli tasvirlar (tasvirlarni to'rt, olti, sakkiz bo'lakka bo'lingan qirqimlardan ham foydalaniladi )</p> <p>3. Kichik xajmdagi ertaklar to'plami (rasmli)</p> <p>4. Yirik xajmli pazllar</p> <p>5. Milliy kiyimdagi o'g'il bola va qiz bola qo'g'irchoqlar</p> <p>6. Kichik xajmdagi she'rlar, ertak va hikoyalar matnlari</p> <p>7. Tanish bolalar shoir va yozuvchilari suratları</p> <p>8. Alfavit jadvali (rasmli)</p> <p>9. "Quvnoq alfavit", "Ertak so'zlab ber", "So'z tanla", "Hikoyani davom ettir" kabi nutq o'stiruvchi didaktik ta'limiy o'yinlar</p> <p>10. Fe'l va sifatlarni aniqlovchi sur'atlar</p> <p>11. "Mening shahrim/qishlog'im", "Mening mahallam" mavzularida rasmlari va maketlari</p> <p>12. Insonlarni dam olish va turli mehnat holatlarini aks ettiruvchi tasvirlar</p> <p>13. Xayvonlar hayoti, peyzajlar kabi turli rasmlar to'plamlari</p>
--	---	---

			<p>14. Bosma harflar rasmlari</p> <p>15. So‘z turkumlarini aniqlash uchun sur‘atlar</p> <p>16. Kasb-hunarga oid sur‘atlar</p>
3	Ilm va fan	<p>Laboratoriya</p> <p>1. Suv va qum uchun idishlar</p> <p>2. SHaklli qolipchalar</p> <p>3. Qumda o‘ynash uchun leyka, kurakcha, grablich, paqircha</p> <p>4. Rangli qum</p> <p>5. Tabiiy materiallar: o‘rta xajmdagi toshlar, rangli toshlar, suv, kashtanlar (kashtan daraxti mevasi), shishkalar</p> <p>6. Bolalar uchun oq xalat</p> <p>7. Tabiat burchagi uchun xona gullari: Balzamin, koleus, aukuba, kitayskiy rozan, begoniya, geran, agava, asparanus</p> <p>8. Tabiat va ob-havo kalendari (qor, yomg‘ir, shamol, do‘l, quyosh va hokazo)</p> <p>9. Akvarium (baliqlar, suv toshbaqalari)</p> <p>10. Qishki tomorqa : ekilgan piyoz (piyozni o‘shish darajalari aks ettiruvchi rasmlar), no‘xat urug‘larini</p>	<p>Laboratoriya</p> <p>1. Suv va qum uchun idishlar</p> <p>2. SHaklli qolipchalar</p> <p>3. Qumda o‘ynash uchun leyka, kurakcha, grablich, paqircha, tuproqni yumshatuvchi tayoqcha, xokandoz</p> <p>4. Rangli qum</p> <p>5. Tabiiy materiallar: o‘rta xajmdagi toshlar, rangli toshlar, suv, kashtanlar (kashtan daraxti mevasi), shishkalar</p> <p>6. Bolalar uchun oq xalat</p> <p>7. Tabiat burchagi uchun xona gullari: Balzamin, koleus, aukuba, kitayskiy rozan, begoniya, geran, agava, asparanus, tradiskansiya, kliviya, amarilis, plyuss, xona uzumi</p> <p>8. Tabiat va ob-havo kalendari (qor, yomg‘ir, shamol, do‘l, quyosh va hokazo)</p> <p>9. Akvarium (baliqlar, suv toshbaqalari)</p> <p>10. Qishki tomorqa : ekilgan piyoz (piyozni o‘shish darajalari aks</p>

		ekish, kuzgi barglar, erta kurtak chiqaruvchi terak, siren kabi daraxt novdalari(fevral oxirida) 11. Yil fasllari aks ettirgan katta xajmdagi tasvirlar	ettiruvchi rasmlar), no'xat urug'larini ekish, kuzgi barglar, erta kurtak chiqaruvchi terak, siren kabi daraxt novdalari(fevral oxirida) 11. Yil fasllari aks ettirgan katta xajmdagi tasvirlar 12. Xasharotlar tutish uchun setkalar 13. Urug' yig'ish uchun xaltachalar 14. SHishali o'lchov idishlari 15. Tarozu 16. Lupa
4	Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish	1. Shirma 2. Marionetka-qo'g'irchoqlar (ipda o'ynatadigan) 3. Qo'liqopli, barmoqli, tayoqchali, soya teatr ertak kaxramonlari 4. Ertak qaxramonlari liboslari 5. Niqoblari 6. Uycha maketi 7. Mazmunli o'yinchoqlar 8. Rejissyorlik o'yinlari uchun qaxramonlar (odamchalar, askarlar, multfilm personajlari) 9. Sahna uchun jihozlar (turli daraxtlar, tandir maketi va xokazo)	1. SHirma 2. Marionetka-qo'g'irchoqlar (ipda o'ynatadigan) 3. Qo'liqopli, barmoqli, tayoqchali, soya teatr ertak kaxramonlari 4. Ertak qaxramonlari liboslari 5. Niqoblari 6. Uycha maketi 7. Mazmunli o'yinchoqlar 8. Rejissyorlik o'yinlari uchun qaxramonlar (odamchalar, askarlar, multfilm personajlari) 9. Sahna uchun jihozlar (turli daraxtlar, tandir maketi va xokazo)
5	San'at	1. Tasviriy san'at vositalari: rangli qalamlar, rangli	1. Tasviriy san'at vositalari: rangli qalamlar, rangli bo'yoqlar, mumli

	<p>bo'yoqlar, mumli qalamchalar, plastilin, rangli loy, mo'yqalam, suv idishchalari, qalamdonlar, loy ishi uchun taxtacha va yog'ochli yoki plastmassali pichoqchalar</p> <p>2. Bolalarga kleyonkali fartuklar</p> <p>3. Turli xayvon va sabzavotlarning trafaretlari</p> <p>4. Rangli qog'ozlar, raskraskalar</p> <p>5. Noan'aviy usul bilan rasm chizish materiallari: muxrli rasmlar, gubka, paxtali sharikchalar, tayoqchalar</p> <p>6. Tayyor kleyni o'rniga kleyster tayyorlanadi</p> <p>7. Tarbiyachi bilan hamkorlikda qo'l ishlari yasash uchun tashlandiq va tabiiy materiallar, namunalar</p> <p>8. Molbert</p> <p>9. San'at bilan bog'liq kasblar (rassom, bastakor,aktyor) haqida sur'atlar</p> <p>10. Haykaltaroshlik namunalari, rasmlar, me'moriy qurilmalardan namunalar</p>	<p>qalamchalar, plastilin, rangli loy, mo'yqalam, suv idishchalari, qalamdonlar, loy ishi uchun taxtacha va yog'ochli yoki plastmassali pichoqchalar</p> <p>2. Bolalarga kleyonkali fartuklar</p> <p>3. Turli xayvon va sabzavotlarning trafaretlari</p> <p>4. Rangli qog'ozlar, raskraskalar</p> <p>5. Noan'aviy usul bilan rasm chizish materiallari: muxrli rasmlar, gubka, paxtali sharikchalar, tayoqchalar</p> <p>6. Tayyor kleyni o'rniga kleyster tayyorlanadi</p> <p>7. Tarbiyachi bilan hamkorlikda qo'l ishlari yasash uchun tashlandiq va tabiiy materiallar, namunalar</p> <p>8. Molbert</p> <p>9. San'at bilan bog'liq kasblar (rassom, bastakor,aktyor) haqida sur'atlar</p> <p>10. Xaykaltaroshlik namunalari, rasmlar, me'moriy qurilmalardan namunalar</p>
--	---	--

#### 4. Mashg'ulotlarda tarbiyachining yetakchilik roli va uni o'tkazishga tayyorgarligi

1. Mahg'ulot quyidagi tuzilishga ega:

- Bolalarni uyushtirish;
- Asosiy qism;
- Yakunlovchi qism.

Bolalar mashg'ulotga qiziqib qatnashishlari va unda faol ishtirok etishlari uchub uning mazmuni va metodikasi yaxshilab puxta o'ylanin olinishi kerak. Bolalar o'quv faoliyatini qanchalik puxta egallab olsalar, tarbiyachini e'tibor bilan tinglab, o'yindan mashg'ulotga osonlik bilan o'tadilar.

**Bolalarni uyushtirish.** Tarbiyachi bolalarni yig'ib, ularnin g mashg'ulotga tayyorgarligini tekshiradi; tashqi ko'rinishi, joy-joyiga to'g'ri o'tirishganligi, diqqatini to'plaganini sinab ko'radi. Mashg'ulot muvaffaqiyatli o'tishi uchun bolalar oldida turgan faoliyatga qiziqish uyg'otishi, buning uchun bolalarning yoshi , qiziqishi, faoliyatga mos har xil usullarini qo'llashi kerak. Kichik guruh bolalarda mashg'ulotga qiziqish uyg'otish uchun bolalarni qiziqtiradigan mazmundagi, kutilmagan topishmoqli usullardan foydalaniladi. Masalan: "Quloq solinglar-chi, kimdir eshik qoqyapti! Bu qo'g'irchoq biznikiga mehmonga kelibdi",- deb mashg'ulotni boshlash mumkin. Bolalarning narsalar va ularning nimaga ishlatilishi to'g'risidagi tasavvurini tartibga soluvchi mashg'ulot mana shunday boshlanadi.

Katta guruhlarda qanday mashg'ulot bo'lishini tarbiyachi bolalarga oldindan aytib qo'yadi. Bu bolalarning bo'lajak mashg'ulotga qiziqishini orttiradi. Masalan, Mustaqillik maydoniga ekskursiyaga borishni bolalarga bir hafta oldin aytib o'tadi va ularga rasmlarni ko'rishni, ota-onasi bilan sayr qilganda nimalarni ko'rganini eslashni taklif etadi. Bolalar bu kunni zo'r qiziqish bilan kutishadi. Katta va tayyorlov guruhlardagi bolalar mashg'ulotning zarurligi va majburiyligini tushunishlari, unga ongli ravishda tayyorlanishlari zarur.

**Asosiy qism.** Mashg'ulotda bolalarga yangi bilim beriladi, topshiriqni bajarish yuzasidan yo'l-yo'riq, ko'rsatiladi, qiynalgan bolalarga yordam beriladi. Bolalar bilan bo'ladigan jamoatchilik munosabatlarini alohida munosabat bilan qo'shin olib boriladi.

Topshiriqni bajarishni hamma bolalar uddalay olishlari uchun tarbiyachi har xil metod va usullarni qo'llaydi. Mashg'ulotning boshlanishidanoq bolalarning diqqatini tashkil eta bilish kerak. Bu bolalar olodiga qo'yilgan aqliy vazifaga bog'liq. Bolalarga qanday ishlar olib boorish zarurligi ko'rsatiladi va tushun tiriladi, ularni ayrim bolalarga alohida takrorlash shart emas, balki hamma bolalarni e'tibor bilan eshitib o'tirishga o'rgatish kerak, zarurat tug'ilsagina takrorlash mumkin. Bog'chadagi bolalar o'qish, yozishni bilmaganlari uchun o'tilgan materialni qaytarib mustahkamlay olmaydilar, shuning uchun bolalarga berilgan bilimni mustahkamlash uchun tarbiyachi takrorlash va mashq qildirish usullaridan foydalanadi. Mexanik qaytarish, yodlashdan qochish kerak, chunki anglab olinmagan material tezda sedan chiqadi. Qaytarish, mashq qildirishda tarbiyachi fikrlarni to'ldirib, tartibga solib beradi, bu bolalarda bilimga qiziqish uyg'otadi va shu narsa to'g'risidagi tasavvur va tushunchalarni chuqurlashtiradi.

Mashg'ulotni dastur maqsadi va bolalar yoshiga qarab mustahkamlashni har xil usullari qo'llaniladi. Bolalar o'zlashtirib olishi va javob qilishi kerak bo'lgan material so'z orqali amalga oshiriladi. Shuning uchun u yoki bu ishni bajarishda bolalardan uni qanday amalga oshirmoqchi ekanini so'z bilan tushuntirib berish talab etiladi. Masalan, son-sanoqqa o'rgatishda, qurish-yasashda, rasm chizganda qanday qilishni, qanday tartib bilan bajarishi, buning uchun qanday materialdan foydalanishni tushuntirib berishi talab etiladi.

Mustahkamlash jarayonida didaktik material bilan bajariladigan mashq aqliy vazifani o'z ichiga olsa, bolalarda mustaqillikni tarbiyalashda kaata ahamiyatga ega bo'ladi. Masalan, son-sanoq mashg'ulotida bolalar sanash material bilan o'zlari mashqlarni mustaqil bajarishadi, tarbiyachining topshirig'iga qarab narsalar sonini kamaytirishadi yoki ko'paytirishadi. Buning uchun o'yinchoqlardan ham foydalanish mumkin. Mashg'ulotni tugatayotib, tarbiyachi o'tkazilgan mashg'ulotiga yakun yasaydi: bajarilgan ishni bolalar bilan birgalikfa baholaydi, bolalarning mashg'ulotda qatnashganini gapiradi, ba'zan kelgusi mashg'ulotda nimalar o'tishlarini aytadi. Bolalarning o'quv faoliyatini yaxshi egallab olishlari ular bilimini to'g'ri baholashga bog'liq.



Tarbiyachi MTTda asosiy shaxs hisoblanadi. Butun g'oyaviy tarbiyaviy ishlarning sifati va qolaversa, kelajak avlodni tarbiyalaganlik va bilish darajasi tarbiyachining g'oyaviy- siyosiy va ilmiy-pedagogik mahoratiga va ishga bo'lgan ijodiy munosabatiga bog'liq. Bolaning o'quv faoliyatiga bo'lgan munosabatiko'proq uning tarbiyachi shaxsiga munosabati bilan belgilanadi.

Tarbiyachining o'ziga xos xususiyati- uning yuksak kasb mahoratidir. Eng muhimi bolaning ruhiyatini, yosh va o'ziga xos ruhiy-fiziologik xususiyatlarini bilishdir. Tarbiyachi o'z guruhidagi har bir bolaning jismoniy tomondan yaxshi rivojlanishi, uning oily nerv faoliyati yaxshi ishlashi, shuningdek aqliy, axloqiy, mehnat, estetik tomondan normal tarbiyalanishi uchun yaxshi shart- sharoit yaratadi. Tarbiyachi har bira boladagi o'ziga xos xususiyatlarni yo'qota borib ( agar u zararli bo'lsa ) , bolga nisbatan qulay talab qo'yadi.

Tarbiyachi har bir bolaning kelajakda haqiqiy inson bo'lishiga yordam beradigan sifatlarini va imkoniyatini rivojlantirishi lozim. Maktabgacha tarbiya yoshi davrida tarbiyachining bolaga shaxsiy ta'siri juda katta bo'ladi. Chunki bu davrdagi har bir ta'surot bolaning xotirasida bir umr saqlanib qoladi.

Mashg'ilotda tarbiyachi o'z ovozi dan qurol sifatida foydalanishi mumkin. Sekin, tinch ovoz bolaga yaxshiroq ta'sir etishini pedagog bilishi zarur. Bolaga qattiqroq va qat'iy gapirish mumkin, ammo bunda so'z ohango bolaga tinchlantiruvchi ta'sir etishi lozim.

Tarbiyachi asosan bolaning normal ruhiy taraqqiyoti asosi bo'lgan jismoniy alohida e'tibor berishi lozim.

### **5.MTT larda ta'limiy faoliyat turlarini o'tkazishda ta'lim dasturi va davlat talablarining bajarilishi**

Ta'lim dasturi - MTT da Davlat o'quv dasturiga asosan muayyan yosh guruhida tashkil etiladigan ta'lim jarayonini amalga oshirish uchun xizmat qiluvchi muhim hujjat hisoblanib, u qo'yilgan maqsadlarga erishishni ta'minlashi lozim. Dastur majburiy qism va ta'lim jarayoni ishtirokchilari tomonidan shakllantiriladigan qismdan tashkil topgan. Har ikki qism ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablarini amalga oshirish nuqtai nazaridan o'zaro bir-birini to'ldiruvchi hamda majburiy hisoblanadi.

Bugungi kunda har qanday MTT o'zgaruvchanlik prinsipiga muvofiq, o'z ta'lim modelini tanlash va tegishli g'oyalarni va texnologiyalar asosida pedagogik jarayonni loyihalashtirish huquqiga ega. Bu esa har bir tarbiyachi va metodistdan ta'lim jarayonini samarali tashkil etishga yordam beradigan yangi metodlardan foydalanish imkonini beradi. Bolalarni muammoning yechimini izlashga undaydigan "Endi nima bo'ladi?" o'yini nutq o'stirish, atrof olam bilan tanishtirish jarayonida qo'l keladi. Masalan, bolalarga ekologik bilimlar berish jarayonida quyidagi savollarni qo'yib, bolalar bilimlarini rivojlantirish mumkin:

-Sayyorada suv yo'q bo'lsa nima bo'ladi? (Bolalar suvning inson hayoti va tabiatdagi o'rni haqida fikrlarini bildiradi)

-Tasavvur qiling, quyosh chiqmasa nima bo'ladi? (Quyoshning o'simliklar hayoti va insonlar turmush tarzidagi muhim ahamiyati haqida gapirishadi, o'rni kelganda tarbiyachi javoblarni to'ldiradi)

-Tabiatda daraxtlar bo'lmasa nima bo'ladi? (Bolalar daraxtlarning atrof olamda tutgan o'rni, ularning hayoti haqida gapirishadi).

Shu mavzudagi savollarga javob berishadi.

Nutq o'stirish bo'yicha ta'limiy faoliyat jarayonida esa bu o'yindan foydalanib, bolalarga quyidagi savollarni berish mumkin:

-Tasavvur qiling, birona ham bolalar uchun she'r yozilmagan, nima bo'ladi? (Bolalar she'rlarni yodlash orqali xotirasi rivojlanishi, so'z boyligi ortishini aytishadi. Qiziqarli she'rlar bolalar hayotini mazmunli o'tkazishga xizmat qilishini misollar yordamida aytishadi)

-Dunyoda birona ham kitob yo'q bo'lsa, nima bo'ladi? (Tarbiyalanuvchilar kitoblar yordamida qiziqarli ma'lumotlarni, ertak, hikoya, she'r, topishmoqlarni, chet tillarni o'rganishni aytishadi. Kitoblarni avaylab, yirtmasdan ishlatish haqida gapirib, kitob haqida she'r, topishmoq, maqollar aytishadi).

Shu tarzda rivojlantirilib boriladigan ushbu usul bolalarning dunyoqarashini kengaytirishga, mustaqil fikrni erkin bayon etishga o'rgatishga xizmat qiladi. Bu usul katta va maktabga tayyorlov guruhidagi bolalar bilan o'tkazilganda keng qamrovli samara beradi. Shuningdek, bolani maktabga intellektual tayyorlashda eng zaruriy jihat bo'lgan aqliy rivojlanish darajasini ko'taradi.

Ushbu usul bolalarning og‘zaki mantiqiy fikrlashi rivojlanish darajasini ochib beradi. Undan ta‘limiy faoliyatda 5-7 daqiqa davomida bolalar diqqatini jalb qilgan holda samarali foydalanish mumkin. Tasniflash jarayonida vaqti-vaqti bilan xatolar bo‘ladi, ayniqsa, o‘z fikrini erkin bayon etishga qiynaladigan, tortinchoq bolalar bu o‘rinda tarbiyachi diqqat markazida bo‘lishi, ularning fikrlarini bo‘lmasdan to‘liq eshitib, so‘ngra o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritishi maqsadga muvofiqdir.

Bilamizki, bola uchun har qanday yangi bilimni o‘yin shaklida o‘rganish qiziqarli. Aynan mazkur usul bolalarga yangi ma‘lumotlarni ana shu vosita yordamida berish imkonini beradi. Sababi bu usul fonida bola ta‘lim topshiriqlarini o‘yin deb qabul qiladi va bajonidil hech qanday yuklamalarsiz muammolar yechimi ustida bosh qotiradi. Ayniqsa, tarbiyachi muammoli savollarni guruh jamoasiga berishda rasmi, plakatli vositalardan foydalansa, bolalar tushunchalari yanada kengroq va yorqinroq bo‘ladi. Masalan, daraxtlar bilan bog‘liq savolda shahar hayoti, ko‘p qavatli uylar, avtomobillar tasvirlanib, daraxtlar rasmi aks etmasa, bola savol mohiyatini yanada yaxshiroq anglab yetadi.

Muammolarni ixtiro qilish jarayonida bolalarda ko‘rgazmalilik og‘zaki savoldan ko‘ra ustunligi o‘zini isbotlagan.

### **Ta‘limiy faoliyat turlarini o‘tkazishning frontal va individual shakllari**

MTT da ta‘limiy faoliyat turlari 2 xil shaklda olib boriladi:

1. Frontal
2. Individual

Frontal mashg‘ulotlarda tarbiyachi bolalarni umumiy guruh tarzida uyushtiradi va mavzuga doir tushunchalarni barcha bolalarga bir vaqtda yetkazadi. Bunday faoliyat turida bolalar faollik markazlariga ajratilmaydi va mashg‘ulot o‘tkazilish sharoitiga qarab bir joyga uyushtiriladi. Masalan: Guruh honasida tarbiyachi bolalarni o‘z atrofiga aylana tarzda joylashtiradi, tashqarida o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarda kuzatilayotgan predmetning joylashuviga mos tarzda uyushtiriladi. Matematika va atrof-olam bilan tanishtirish mashg‘ulotlari frontal mashg‘ulotlarga misol bo‘ladi.

Individual(yakka) tarzda o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarda bolalar faollik markazlariga ajratiladi. Bolalarni faollik markazlariga

ajratishda turli xil usullardan foydalanish mumkin/ Masalan: shakllar, ranglar, mevalarning rasmlarini tanlash, poyez vagonlari va.....

Bunda mashg'ulot boshida bolalarga mavzu yuzasidan umumiy tushuncha beriladi va bolalar faollik markazlariga joylashgandan so'ng, tarbiyachi barcha bolalar bilan yakka tarzda shug'ullanadi va mavzu mustahkam o'rgatiladi.

Bundan tashqari MTT da psixolog, jismoniy tarbiya yo'riqchisi, musiqa rahbari va xareograf ham o'z yo'nalishi bo'yicha oqsayotgan bolalar bilan yakka tarzda o'tkaziladigan mashg'ulotlarni o'tkazishi mumkin.

### **Mavzu yuzasidan nazorat savollari.**

1. Mashg'ulotlarda tarbiyachining tayyorgarligi qanday bo'lishi kerak?

2. MTT larda ta'limiy faoliyat turlarini o'tkazishda ta'lim dasturini qanday ahamiyati bor?

3. MTT larda davlat talablarining bajarilishiga doir qanday ishlar amalga oshiriladi?

4. Ta'limiy faoliyat turlarini o'tkazishning frontal shakli qanday amalga oshiriladi?

5. Ta'limiy faoliyat turlarini o'tkazishning individual shakllari qanday amalga oshiriladi?

6. Mashg'ulotlarga tayyorgarlik jarayonini izohlang.

7. Maktabgacha ta'lim tashkilotida faoliyat markazlarida mashg'ulotlarni to'g'ri tashkil etish usullari.

8. Ilk qadam o'quv dasturi asosida tarbiyachi ish jurnalida mashg'ulotlarni rejalashtirish.

9. Tarbiyachi hujjatlri haqida ma'lumot bering.

10. Mashg'ulotlarni tashkillashda markazlardagi faoliyatlar haqida nimalarni bilasiz?

### **Mustaqil ish uchun mavzu**

1. Pedagogning nutq madaniyati.

## **11- mavzu: Rivojlangan davlatlarda maktabgacha ta'lim tizimi**

**Reja:**

**1. Rivojlangan davlatlarda maktabgacha ta'limining o'ziga xosligi**

**2. Koreya Respublikasi ta'lim tizimi va rivojlanish bosqichlari.**

**3. Yaponiyada ta'lim-tarbiya jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari.**

**4. Maktabgacha tarbiya – Germaniya ta'lim tizimining muhim bosqichi.**

**5. O'zbekiston va Horijiy davlatlarning maktabgacha ta'lim sohasidagi hamkorliklari va aloqalari.**

**Tayanch so'z va iboralar:** Ta'lim, tarbiya, jahon tajribasi, ta'lim muassasalari, xayriya birlashmalari, ta'lim tizimi, ma'naviy salohiyat, ta'lim sifati. Koreya Respublikasi ta'lim tizimi va rivojlanish bosqichlari, integratsiya, taraqqiyot, metod, rivojlangan davlatlar. ta'lim tizimi taraqqiyotining ayrim masalalari.

**1. Rivojlangan davlatlarda maktabgacha ta'limning o'ziga xosligi**

Har bir mamlakatning iqtisodiy qudrati, ijtimoiy-ma'naviy hayot darajasining yuksalishi ta'lim tizimining raqobatbardoshligi ilm-fan taraqqiyoti bilan belgilanadi. Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlar o'quv dasturiga integratsiyalashtirilgan kurslarni kiritish to'la amalga oshirishdi. Xorijda maktabgacha ta'lim tizimi o'ziga xos shakllarda tashkil etilgan. U yerda ta'lim-tarbiya jarayonining olib borilishi ham, maktabgacha ta'lim muassasalariga bolalarni qabul qilish shakllari ham turlicha. Germaniya – jahon ilm-fani va madaniyati o'choqlaridan biri. Bu mamlakat ildizi asrlarga borib taqaluvchi ilmiy maktablarni, Gyote, Gegel, Betxoven, Nitshe, Eynshteyn singari olim va ijodkorlari bilan dunyoga mashhur. Xalqaro doirada e'tirof etilgan olmon ta'lim dargohlarida mustaqil fikr hamda keng dunyoqarash shakllanishiga alohida e'tibor beriladi. Ta'lim tizimiga tatbiq etilayotgan yangi usullar, so'nggi axborot texnologiyalaridan unumli foydalanmaganlarga esa juda qiyin. Taraqqiyot manzili sari oshiqayotgan jamiyatda bilimsiz o'z o'rniga ega bo'lish amri mahol.

Darvoqe, olmonlarga xos temir intizom, birso'zlik xislatlari ham aynan ta'lim dargohlaridashakllanadi.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida har jihatdan rivojlangan kishini tarbiyalash muammosi hozirgi kunning asosiy talabi bo'lib turibdi. Chunki, jamiyatda yuz berayotgan inqilobiy o'zgarishlarni insonning o'zini o'zgartirmasdan amalga oshirib bo'lmaydi. Ammo, yangi kishini tarbiyalash o'z o'zidan emas, balki ijtimoiy munosabatlar yangilanishi jarayonida amalga oshadi. Bu jarayonda maktablar tizimi muhim ahamiyat kasb etadi. Axborot texnologiyalari yetakchi o'ringa chiqib olgan hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda maktablar tizimni, ta'lim mazmunini yangilashga zaruratga aylandi. Eskicha o'qitish usullari va metodlari ma'nan eskirib, ta'limning ilg'or pedagogik texnologiyalarga asoslangan metodlari shakllariga ehtiyoj kuchayadi. Hozirgi davr rivojlangan mamlakatlarda insonni tabiatning oliy mahsuli sifatida, olamning bir parchasi deb qarashda biryozlamalikka berilib ketish ko'zga tashlanadi. Rivojlangan xorijiy davlatlarda ta'limning mamlakat ichki siyosatiga faol ta'sir etadigan ijtimoiy jarayon ekanligi, e'tirof qilingan haqiqatdir. Shu tufayli ham xorijiy mamlakatlarda maktab ehtiyojini iqtisodiy ta'minlashga ajratilayotgan mablag' miqdori yildan yilga oshib bormoqda. Yaponlarda masalan, "maktab muvaffaqiyatli va farovonlik timsoli" gina bo'lib qolmay, "u insonlarni yaxshilaydi", degan fikr ishonch va e'tiqodga aylangan. Fransiya boshlang'ich maktablarida ta'lim mazmuni ona tili va adabiyoti hamda matematika iborat asosiy ,tarix, geografiya, mehnat ta'limi kabi yordamchi predmetga bo'linadi. Germaniyada ta'lim va jamiyat tomonidan ardoqlagan soha bo'lib , u mamlakatning iqtisodiy- ijtimoiy rivojlantirishga kerakli hissa qo'shib kelmoqda.

### **Rivojlangan davlatlarda ta'lim tizimi taraqqiyotining ayrim masalalari**

Jahonning yuksak darajada taraqqiy etgan davlatlarda ta'lim-tarbiya ishlarining yo'lga qo'yilishi, maktabgacha ta'limda amalga oshirilganini o'rganish orqali biz mustaqil respublikamiz milliy ta'lim tizimlarini yangidan tashkil etishda eskirib, o'z dolzarbligini yo'qotib borayotgan faoliyat shakllari va usullaridan tezroq xolos bo'lish, uni munosib tarzda yangilashda qo'shimcha boy manbalarga

ham ega bo‘lamiz. Bugungi kunda keng ko‘lamdagi islohatlarni o‘z boshidan kechirayotgan ahamiyatga ega. Keyingi yillarda jahon ta‘lim bo‘yicha ko‘pgina maqolalar, broshyuralar, qo‘llanmalar, o‘qishlar o‘tkaziladi. Bu bizning ta‘lim tizimimizda, chet ellarda o‘quv- tarbiya ishlarining yo‘lga qo‘yilishiga e‘tibor va qiziqishning tez sur‘atlar bilan o‘sib borayotganligidan dalolatdir. Xalq ta‘limi tizmlarida jahon ta‘lim tizimini o‘rganish bilan shug‘ullanuvchi muassasalari ham tashkil topmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda pedagogik tadqiqotlarni amalga oshiradigan ko‘p sonli ilmiy muassasalar ishlab turibdi. Germaniyada ularning soni 2mingdan ortiq. Fransiya, AQSH, Yaponiya ta‘lim-tarbiya nazariyasi muammolari bilan yuzlab davlatlar va xususiy tashkilotlar, universitetlar, pedagogik tadqiqot markazlari shug‘ullanmoqda.

### **AQSHda maktabgacha tarbiya**

**AQSH ta‘lim tizimi.** Mamlakat ta‘lim tizimining tuzilishi quyidagicha:

— bolalar 3 yoshdan 5 yoshgacha tarbiyalanadigan maktabgacha tarbiya muassasalari;

— 1-8-sinflargacha bo‘lgan boshlang‘ich maktablar (bunday maktablarda bolalar 6 yoshdan 13 yoshgacha o‘qiydilar);

— 9-12-sinflardan iborat o‘rta maktablar (bu maktablarda 14-17 yoshgacha bo‘lgan bolalar ta‘lim oladilar). U quyi va yuqori bosqichdan iborat.

Amerika Qo‘shma Shtatlarida navbatdagi ta‘lim bosqichi oliy ta‘lim bo‘lib, u 2 yoki 4 yil o‘qitiladigan kollejlar hamda dorilfununlarda amalga oshiriladi.

So‘nggi bosqich, dorilfununlar va boshqa oliy o‘quv yurtlari tarkibida tashkil etilgan aspirantura yoki doktoranturalardir. AQSHda majburiy ta‘lim 16 yoshgacha amal qiladi. Bu mamlakatdagi o‘quv yurtlarida davlat jamoa, xususiy tasarruflarda va diniy muassasalar ixtiyorida bo‘lishi mumkin.

**Maktabgacha tarbiya** Amerika boy mamlakat. Lekin bu mamlakatda bolalar uch yoshga to‘lgunlaricha onalarga turli moddiy imtiyozlar berish ko‘zda tutilmagan.

Farzandlarga qarab uyda o‘tiradimi yoki enaga yollab ishga tushadilarmi, bu onalarning ishi. O‘zbekistondagi kabi keng va shinam, ikki qavatli, o‘ynaydigan, uxlaydigan, ovqatlanadigan

alohida xonalari bo'lgan bog'cha va yaslilar Amerikada odob tusiga kirgan emas. Enaga yollash oila uchun haftasiga 200 dollardan kamga tushmaydi. Bu mamlakatda 30-40 bolaga mo'ljallangan xususiy va davlat tasarrufidagi bog'chalar mavjud. Ular enaga yollashdan bir oz arzonroqqa tushadi. Lekin har ikki holda ham, uydan olib borgan ovqatlarni yedirishadi, krovatchalar, ko'rpa, to'shak, yostiqni ota-onalar olib borishadi. Amerikada bizdagidek taomnomalar, o'quv dasturlari yo'q. Bolalar yozda atrofdagi ko'kalamzorlarda o'ynab dam oladilar. Bu bog'chalarda ham bolalar yoshlariga qarab turli guruhlarda tarbiyalanadilar, ularga tarbiyachimutaxassis qaraydi, ular ovqatni tayyorlab beradi, turli qo'shiqlar, she'rlar o'rgatadi, quvnoq o'yinlar uyushtiradi. Ammo har kim o'z uslubiga muvofiq ishlaydi, umumiy qoidalar, o'quv dasturlari joriy qilinmagan. Lekin bolalar uchun haqiqiy ta'lim-tarbiya jarayoni ular 5 yoshga to'lganlaridan keyin boshlanadi. Ana shu yoshda ular «Kinder garden» deb ataluvchi tayyorlov bog'chalariga jalb etiladilar. Ular hukumat tasarrufida bo'lib, bog'chalar yoki maktablar tarkibida tashkil etiladi. Bolalarni maxsus «maktab avtobusida» uyga olib keladilar va maktabga olib boradilar. Bunday avtobuslar yo'l-transport hodisalaridan to'la muhofaza etilgan: sariq rangga bo'yalgan, uning signallariga barcha transport vositalari itoat etishga majburdirlar. Maktab avtobuslarini boshqa transport vositalari quvib o'tishi mumkin emas, tartibni buzganlar qattiq jazolanadilar.

AQSH televideniya kanalida "Sezam ko'chasi" deb nomlanuvchi ko'rsatuvlar dasturi mavjud, u o'quvchilarga ingliz tili, alifbo, arifmetik amallarni bajarish, sanash, o'qish, koinot, tabiat, jug'rofiya, tarix bo'yicha bilimlarni o'ta qiziqarli tarzda singdirishga harakat qiladi. Yuqorida aytganimizdek, maktabgacha tarbiya muassasalarining xususiylari ham bor. Lekin u Yaponiyadagidek rivojlangan emas. Amerikada xususiy bog'chalar davlat dasturiga kiritilgan. Amerikada o'quvchilarning o'z fikrini so'zda mukammal, aniq ifodalab bera olishiga, o'zligini anglash, o'zining qadr-qimmatini e'zozlash, shaxsiy qobiliyatini ro'yobga chiqarish tuyg'ularini tarbiyalashga katta e'tibor beriladi. Bolalarda ana shu his-tuyg'ularini shakllantira borish ilk yoshdanoq boshlanadi.



## **Germaniyada maktabgacha ta'lim muassasalariga bolalarni qabul qilish shakllari.**

**Tafakkur ustaxonasi.** Germaniyada maktabgacha ta'lim muassasalari davlat tizimiga kirmaydi. Bolalar bog'chasi xayriya jamg'armalari, mahalliy hokimiyat hamda cherkov vasiyligida faoliyat yuritadi. SHu bilan birga korxonalar va tashkilotlar ham o'z bog'chasiga ega bo'lishi mumkin. Maktabgacha ta'lim tizimi 3 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan bolalarni qamrab oladi. Hali aqlini tanib ulgurmagani bolalarda o'z fikrini ifodalash, tengdoshlari va kattalar bilan muloqot qilish qobiliyatini shakllantirish, ularni boshlang'ich ta'limga tayyorlashda bog'chalarning o'rni katta. Shu bois ham olmonlar bog'chalarni "tafakkur ustaxonasi" deb atashadi.

**Bepul va majburiy ta'lim.** Germaniya Konstitutsiyasiga muvofiq, maktab ta'limi davlat nazoratidadir. Mamlakatda 16 ta federal hududlar mavjud bo'lsa, ularning har biri o'zining ta'lim to'g'risidagi qonuniga ega. SHu sababli federal hududlarning maktab ta'lim tizimida ayrim farqlar bor. Masalan, aksariyat hududlarda boshlang'ich ta'lim 4 yil (birinchi sinfdan to'rtinchiga qadar), poytaxt Berlinda esa – 6 yil. Ammo bu kabi farqlarga qaramasdan, barcha hududlar uchun umumiy tartib-qoidalar amal qiladi. Germaniyada maktab ta'limi majburiy va be'ul. 6 yoshdan 18 yoshgacha fuqarolar majburiy tartibda ta'lim olishi shart qilib belgilangan. Maktab ta'lim tizimi esa boshlang'ich, o'rta va yuqori bosqichlarga bo'linadi. Bolalar 5-6 yoshdan boshlang'ich maktabga qatnaydi. Boshlang'ich maktabda o'qish davri to'rt yildan olti yilgacha. Maktablarda birinchi, ikkinchi sinf davomida o'quvchilarga baho qo'yilmaydi. O'qituvchilar baho o'rniga bolaning individual, psixologik rivojlanish holati xususida hisobot tayyorlaydi. O'quvchilarga 3-sinfdan baho qo'yila boshlaydi. Germaniyada 6 ballik baholash tizimi qabul qilingan. Bunga ko'ra, 1 – ahlo 2 – yaxshi 3 – qoniqarli 4 – yetarli, 5 – yetarli emas, 6 – qoniqarsiz. O'quvchilar fanlarni eng kamida "4"ga o'zlashtirishi kerak. Boshlang'ich bosqichda bolalarga matematika, nemis tili, tabiatshunoslik, musiqa, estetika fanlari o'tiladi.

**Yaponiyada maktabgacha ta'limning o'ziga xos xususiyatlari.**

**Yaponiyada ta'lim tizimi va xususiyatlari.** Yaponiya ta'limining shakllanishi 1867-1868 yillarda boshlangan. Yaponiya uz oldiga ikki vazifani: 1 - boyish, 2-garb texnologiyalarini Yaponiya ishlab chikarishiga kiritish masalasini kuydi va bu ishni amalga oshirish uchun birinchi galda ta'lim tizimini tubdan uzgartirish kerakligini angladi.1872 yili «Ta'lim haqida» Qonun kabul kilindi. Bunda Yapon ta'limi garb ta'limi bilan uygunlashtirilgan .1893 yilda kasb ta'limi yunalishidagi birinchi kollej paydo bo'lgan. 1908 yilda Yaponiya boshlangich ta'limni majburiy 6-yillik kilib belgiladi.1946- yili qabul qilingan konstitutsiya fuqarolarning ta'lim soxasidagi huquq va burchlarini belgilab berdi. Unda barcha bolalar bepul umumiy ta'lim olishi shart ekanligi qayd etilgan. Hozirgi zamon Yapon ta'lim tizimining tarkibi quyidagicha: bog'chalar, boshlang'ich maktab, kichik o'rta maktab, yuqori o'rta maktab, oliy ta'lim tizimlariga kiruvchi oliy o'quv yurtlari. Bolalar yoshlariga karab 3,2,1,yillik ta'lim kurslariga jalb qilinadi. Yaponiyada maktabgacha ta'lim muassasalarining 59,9 foizi xususiy, 40,8 foizi davlatnikidir.Maktabgacha ta'limga Yaponiyada katta e'tibor beriladi, chunki psixologlarning takidlashicha 7 yoshgacha inson bilimlarni 70 foizini, kolgan 30 foizini butun qolgan umri davomida o'zlashtirar ekan. Maktabgacha tarbiya odatda oiladan boshlanadi. Yapon ayollari uchun onalik har doimgidek birinchi o'rinda turadi. Ko'pgina Yaponlarning aytishlaricha, bola tarbiyasi-ularning hayotlarining maqsadidir. Yapon tarbiyachilarini bolalarni kichik guruh (xan) larga bo'lib o'qitishlari maktabgacha tarbiyaning asosiy xususiyatlaridan biri bo'lib xisoblanadi. Bu guruhlar o'zlarining stollariga,bolalarning o'zlari tanlagan shaxsiy nomlariga, (bu bolalarda qarorlar qabul kilishda, o'zgalar fikrini hurmat qilish, guruh a'zolarini barchasini tashabbuskor bo'lishga) o'rgatadi. Bunday usul kichik maktablarda ham, o'rta maktablarda ham davom etadi. Bu guruhlar o'rtacha har 5 oyda shakllanib turadi. Yapon bolalariga sinfni boshqarish juda yoqadi. Shuning uchun har kuni bolalarning o'zlari (toban) boshkaruvchi tanlaydilar. Har bir bola bu vazifani bajarib kuradi. Boshlang'ich maktabda o'qituvchilar bolalarni tanqidga, ya'ni o'z xulqlarini yomon tomonlarini, maktabdagi kamchiliklarni tanqid kilishni o'rgatadilar. Bundan ko'rinib turibdiki, o'qituvchi faqat

ta'lim berish bilan cheklanib qolmay, bolaning har tomonlama rivojlanishiga ta'sir etadi. SHuning uchun ham Yaponiyada o'qituvchi kasbiga katta e'tibor beriladi. Yaponiyarivojlangan davlatlar ichida o'qituvchining maoshi davlat rahbarlari maoshidan ham yuqori bo'lgan yagona davlatdir. Majburiy ta'lim. Ta'limning bu pogonasi 6 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalarni o'z ichiga oladi. 6 yillik boshlang'ich ta'lim va 3 yillik o'rta maktab 9 yillik majburiy ta'limni tashkil etadi va u bepuldir. Muhtoj oilalarning bolalari bepul nonushta, o'quv qurollari, tibbiy xizmat bilan ta'minlanadi. Zarur bo'lgan hollarda ularning oilalariga moddiy yordam ko'rsatiladi. Shu bilan birga Yaponiyada xususiy maktablar ham mavjud.

### **Janubiy Koreyada ta'lim tizimi**

Mamlakatda oily o'quv yurtlarining ishlari yaxshi yo'lga qo'yilgan. Koreyada 104ta oliy o'quv yurti bor, ularning 80%i xususiydir. Har yili maktab bitiruvchilarning 40%i o'qishga kiradi. Lekin maktabgacha ta'lim muassasalari ishida muammo bor. Talab ehtiyojini qondira olmayapti. SHuning uchun 1982 yilda maktabgacha tarbiya haqida qonun qabul qilindi. Bu yerda tarbiyaga bolalar bog'chasida asos solinishini yaxshi tushunishadi. SHu tufayli bu tarmoq keying yillarda 60%iga kengaydi. Bunda diniy tashkilotlarning hissasi kattadir.

Boshlang'ich maktab (6 yoshlilar kelishadi) sinflarning tig'izligini kuzatish mumkin. Harsinfda 50 nafargacha bola o'qiydi. Dars qiyinchiliklari ham ko'proq. Lekin o'yinlar dam olish o'quv dasturiga kiritilgan. Shuning uchun ham dam olish imkoniyati bor. Koreyada ham alohida iqtidorli bolalarga e'tibor kuchli. So'nggi yillarda 5ta sport, 6ta ilmiy maktab ochilgan. Jismoniy tarbiyaning rivojlanishiga Seul olimpiadasi katta ta'sir ko'rsatgan.

### **2. Koreya Respublikasi ta'lim tizimi va rivojlanish bosqichlari.**

Janubiy Koreyada Oliy o'quv yurtlarining ishlari yaxshi yo'lga qo'yilgan. Koreyada 104 ta oliy o'quv yurti bor, ularning 80%i xususiydir. Hozirgi paytda mamlakatda oliy o'quv yurtlarida o'qishga qiziqish juda kuchayib ketgan. Har yili maktablarni bitiruvchilarning 40 foizi o'qishga kiradi. Talabalar soni bo'yicha Koreya dunyoda birinchi o'rinda turadi. Lekin maktabgacha ta'lim muassasalari ishida muammolar bor. Talab ehtiyojini qondira

olmayapti. Shuning uchun 1982-yilda maktabgacha tarbiya haqida qonun qabul qilingan. Bu yerda tarbiyaga bolalar bog'chasida asos solinishini yaxshi tushunishadi. Shu tufayli bu tarmoq keying yillarda 60%ga kengaydi. Bunda diniy tashkilotlarning hissasi kattadir. Janubiy Koreyada zamonaviy ta'lim tizimining qaror topishi 1945- yillardan, ya'ni mamlakatning yapon hukmronligidan ozod bo'lgan vaqtdan boshlanadi. 1945-yildan 1970-yilgacha ta'lim tizimi ayniqsa jadal rivojlandi. 1950-1953-yillardagi Koreya urushi natijasida yuzaga kelgan iqtisodiy yo'qotishlar va vayronagarchiliklarga qaramay Janubiy Koreya savodsizlikni tiugatishga qat'iy kirishdi. 1968- yilda qabul qilingan Milliy ta'lim xartiyasi koreys xalqi mentaliteti va vatanparvarligining o'ziga xos tomonlarini ayniqsa yorqinifoda topadi. Xartiyaga muvofiq milliy ta'lim millatni jipslashtirishga, tarix va an'analariга hurmat bilan qarashga, qadriyatlarini ulug'lashga, millatni yanada kuchliroq qaror topishiga va umuman xalqning farovonligini ta'minlashga yaqindan yordam beradi va asos bo'lib xizmat qiladi.

Ta'limga bu kabi munosabatda bo'lish, koreys xalqi uchun tabiiy bir holatdir va aynan mana shu holat mamlakatning muvaffaqiyati uchun kafolat bo'lib xizmat qiladi. Sharqiy Osiyoning boshqa mamlakatlari kabi Janubiy Koreya ham konfutsiylik merosiga ega bo'lgan holda, rasmiy ta'lim tizimining uzoq o'tmishiga ega. Boshlang'ich ta'lim tizimi maktablari Choson sulolasi hukmronlik qilgan davrdayoq tashkil etilgan edi. Bunday maktablar sifati talab darajasida emasligi sababli XVI asrda mavqeyiga ko'ra akademiyalar – "Sovonlar" neokonfutsiylik tiklanish markazlariga aylantirildi.

Koreyada ta'lim jarayoni quyidagicha:

-boshlang'ich maktab talim - 6yil;

-o'rta maktab - 3yil;

-yuqori maktab - 4yil;

-universitet va institut -4 yil;

-boshlang'ich maktab- 6yil;

-o'rta maktab- 3 yil majburiy ta'lim bo'lib, bunda bepul o'qitiladi.

Hunar maktablari Koreyada 600 tani tashkil etadi. Bu mamlakatning 45%i bo'lajak mulkdorlarni tayyorlaydi, 23 foizida

texnik kasb egalari yetishib chiqadi. Qolgan maktablarda dengizchilik, qishloq xo'jalik ixtisoslari o'zlashtiriladi.

Shunisi diqqatga sazovorki, bu maktablarga korxonalar otaliq qiladilar. Ta'lim haqidagi qonun talablaridan biri shudir. Koreyadaham alohida iqtidorli bolalarga e'tabor kuchli. So'nggi yillarda 5ta sport, 6ta ilmiy maktab ochilgan. Jismoniy tarbiyaning rivojlanishiga Seul olimpiadasi katta ta'sir ko'rsatgan.

Janubiy Koreyadagi ta'lim tizimiga davlat tomonidan katta e'tabor qaratilmoqda. Natijada Janubiy Koreya ta'limi dunyoning rivojlangan mamlakatlaridagi ta'lim bilan muvaffaqiyatli raqobatlashmoqda. Osiyoda Koreya respublikasi eng ma'lumotli davlatlardan to'rtinchisi. Mutaxassislar Koreyaning ta'lim tizimiga ijobiy munosabatda bo'lib, uning jadal rivojlanish sur'ati, olingan bilimlarning sifati va mamlakatdagi iqtisodiy vaziyatni yaxshilashdagi o'rni ta'kidlandi. Bugungi kunda aholining savodxonlik darajasi sayyoradagi eng yuqori ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Koreyada bolani 2 yoshdan 3 yoshgacha o'qishga o'rgatish odatiy holdir.

Kareys bolalar bog'chalari 3 ta shaklda:

**Bolalar bog'chalari;**

**O'rta darajadagi bolalar bog'chalari;**

**Katta guruhlar.**

Koreyadagi maktabgacha ta'lim chaqaloqning erta rivojlanishiga qaratilgan. Ikki yoshda uch yoshgacha bolalar nafaqat ona tilida, balki ingliz tilida ham yozishga va o'qishga o'rgatishadi. Xuddi shu yoshda, bolalar matematikaning asoslari bilan tanishadilar. Uyda jismoniy tarbiya va musiqa ta'limiga katta e'tabor berilishi juda katta vazifalarni bajaradi.

**3. Yaponiyada ta'lim-tarbiya jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari.**

Yaponiyaning dunyodagi eng rivojlangan davlatlardan biriga aylanishiga zamin yaratgan noyob kashfiyotchilar va yetuk mutaxassislarning nihoyatda ko'pligi o'z navbatida mamlakatda yo'lga qo'yilgan ta'lim tizimidan ildizlanadi. Xitoy va Yaponiyaning o'z tarixi va an'analariga ega bo'lgan maktabgacha ta'lim tizimlarida katta pedagogik salohiyat mavjud. Masalan,

Yaponiya bolalar bog'chasida maktabgacha yoshdagi bolalarni tashkil etishidan hamma hayratda.

Yaponiya bolalar bog'chasi majburiy ta'lim bosqichi emas. Bolalar bu yerga ota-onalarining iltimosiga binoan kelishadi. Yaponiya maktabgacha ta'lim quyidagicha taqdim etiladi: kreslar, bolalarga xizmat ko'rsatish markazlari, bolalar bog'chalari.

Yaponiyadagi bolalar bog'chalarida ( bolalarni parvarish qilish markazi ) bolani 3 oylikdan va faqat ishlaydigan ota-onalardan joylashtirish mumkin. Ammo bolani bunday muassasalarga joylashtirish uchun ota-onalar maxsus bayonot yozishlari va 3 yoshga qadar bolani uyda boqish mumkin emasligini juda yaxshi sabablar bilan asoslashlari kerak. Gap shundaki, bu Yaponiyaning barcha madaniyati asos bo'lgan oilada tarbiyalash tamoyiliga ziddir. Bolalar bog'chalari bolalarni boqish uchun mo'ljallangan bo'lib, ularda ta'lim dasturlari taqdim etilmaydi va shunga muvofiq ular barcha ta'lim muassasalari singari Ta'lim, madaniyat, sport, fan va texnologiyalar vazirligiga emas, Sog'liqni saqlash, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligiga bo'ysunadilar.

Bolani maktabgacha ta'lim muassasasiga joylashtirish masalasi muassasa turidan (davlat yoki xususiy) qat'iy nazar, munitsipalitet tomonidan hal qilinadi. Hokimlikka murojaat qilish orqali ota-onalar bolalar bog'chalari atlasini, maktabgacha ta'lim muassasalaridagi joylar soni haqida ma'lumotlarni olishadi. Ilgari ota-onalar bolalar bog'chasiga tashrif buyurishlari, xodimlari bilan suhbatlashishlari va o'zlariga yoqadigan bolalar bog'chalarini tanlashlari mumkin edi, ammo oxirgi so'z munitsipalitetda qoladi, agar bo'sh joylar mavjud bo'lsa, ota-onalar bolalar bog'chasiga yozilish uchun ruxsat oladi.

Yaponiyada maktabgacha ta'lim tizimi quyidagi turdagi muassasalarni o'z ichiga oladi: davlat, prefektura, munitsipal, xususiy, maktablar va universitetlardagi bolalar bog'chalari – agar bola bunday bolalar bog'chasiga kirsa, uning kelajagi xavfsiz deb hisoblanishi mumkin: tegishli yoshga yetgach, u universitet maktabiga boradi va u yerdan imtihonlarsiz universitetga kiradi.

Yaponiyada maktabgacha ta'lim tizimining 80% dan ortig'i xususiy bolalar bog'chalari va bolalarga qarashli markazlardan iborat. Yaponiyada davlat va xususiy maktabgacha ta'lim o'rtasida katta farq yo'q. Ta'lim jarayonidagi tizim va yondashuv 2006-yil

‘Ta’lim to‘risida’gi asosiy qonunga muvofiq xuddi shu tamoyillarga asoslanadi. Davlat va xususiy mulkka ega bo‘lgan bolalar bog‘chasida bolani boqish uchun to‘lov faqat ota - onalarning daromatlariga bog‘liq. Oila daromatlari qancha ko‘p bo‘lsa, bolalar bog‘chasi uchun to‘lov shuncha ko‘p bo‘ladi. O‘rtacha ish haqi kam ta‘minlangan oilalar uchun 100 dollardan, badavlar oilalar uchun 500 dollargacha.

Shuningdek, barcha bolalar bog‘chalarida talab qilinadigan shakl uchun siz to‘lashingiz kerak. Har bir bolalar bog‘chalarining o‘ziga xos shakli bor: bir xil shimlar, yubkalar, blyuzkalar, ko‘ylaklar, shlyapalar va maktab sumkalari. Forma kiyish kerak.

Bolalar bog‘chasiga odatda 4 yoshdan boshlab qabul qilinadi. Ba‘zan istisno tariqasida, ota-onalar juda band bo‘lganda, bolani uch yoshdan boshlab bolalar bog‘chasiga olib boorish mumkin. Maktabgacha ta‘lim muddati 3 yil, keyin bola boshlang‘ich maktabga boradi.

#### **4.Maktabgacha tarbiya – Germaniya ta‘lim tizimining muhim bosqichi.**

Germaniyada ta‘lim davlat va jamiyat tomonidan ardoqlanayotgan soha bo‘lib, u mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishoiga samarali hissa qo‘shib kelmoqda. Maktabgacha ta‘rbiya Germaniya ta‘lim tizimida muhim bosqich hisoblanib, uning 100 yildan ortiq tarixi bor. Germaniyada bolalar bog‘chalari ta‘limning quyi bosqichi hisoblansada, lekin u davlat ta‘lim tizimi tarkibiga kirmaydi.

Eski yerlardagi 24 mingdan ortiq bog‘chalarni mablag‘ bilan ta‘minlash turli jamoat tashkilotlari, xayriya birlashmalari, korxonalar, xususiy shaxslar, diniy muassasalar zimmasidadir. Ota onalar ham qisman pul to‘laydilar. 3 yoshda 6 yoshgacha bolalarning 80%i bolalar bog‘chasiga qatnaydilar. Bog‘chalarda ta‘lim tabaqalashtirib olib boriladi. Germaniya bolalar bog‘chalarida odatda bolalar tushgacha tarbiyalanadilar. Kunning ikkinchi yarmida esa uyda, oilada bo‘ladilar. Bundan tashqari kuni uzaytirilgan guruhlar ham mavjud.

Majburiy ta‘lim 6 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan bolalarga tegishli, bu jarayon 12 yildavom etadi. 9 yillik maktabda to‘la haftalik o‘qishni bitiradilar, keyin hunar texnika bilim yurtlarida

to'la bo'lmagan haftalik o'qishda o'qiydilar. O'qish davlat maktablarida bepul. Xususiy maktablar ancha kam. Boshlang'ich maktabda o'qish 6 yoshdan boshlanadi va 4 yil davom etadi (Berlinda 6 yil). Dastlabgi o'qish davomida bolalarga baho qo'yilmaydi. Boshlang'ich maktabda 4 yillik o'qishdan keyin o'quvchilar yo'nalish bosqichidagi maktabga o'tadilar. Bunda bolalarning ota onalari maktab tipini tanlash yoki o'zgartirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Hunar ta'limi Germaniya ta'lim tizimida muhim ahamiyatga ega.

### **5.O'zbekiston va horijiy davlatlarning maktabgacha ta'lim sohasidagi hamkorliklari va aloqalari.**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Koreya respublikasiga davlat tashrifi doirasida Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan 20 ga yaqin uchrashuvlar o'tkazilib, tajriba almashinuvi, O'zbekistonda eksperimental ravishda bolalar bog'chalarini ochish, birgalikda kadrlar tayyorlash va ilmiy izlanishlar olib boorish imkoniyatlarini o'rganib chiqish bo'yicha kelishuvlarga erishildi.

Pedagoglarning faoliyati uchun maksimal qulay sharoitlarning yaratilgani, pedagogning ijodiy erkinligi, katta hajmdagi hisobotlarning yo'qligi, davlat bog'chalari pedagoglari statusining yuqoriligi, bolalar o'zlarini namoyish qilishlari uchun yaratilgan ijodiy muhit, jumladan, xonalarning hatto kichik detallarigacha qulay dizayni va jihozlangani, bolalar uchun boy adabiyotlar va rivojlantiruvchi o'yinlarning mavjudligi, erta bolalikdan jamiyatda o'zini tutish va shaxsiy gigiyena ko'nikmalarini tarbiya qilish kabi alohida jihatlar Koreya maktabgacha ta'lim tizimi muvaffaqiyatining asosini tashkil etadi.

Alohida e'tabor qaratish lozim bo'lgan yana bir jihat, davlat jamiyatning eng himoyalangan qatlamlari, kam ta'minlangan oilalar va nogiron bolalarga, birinchi navbatda g'amxorlik ko'rsastadi. Bog'chalarga qabul jarayonida ularga ustuvorlik prinsipini qo'llaydi va shu sababli ham, Koreya inkluziv ta'lim prinsiplari tahsinga sazovordir. Koreyada ta'lim tizimiga kadrlar tayyorlashga ixtisoslashgan va tasarrufida maktabgacha ta'lim muassasalari bo'lgan Oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni



rivojlantirish maqsadida kelishuvlar va hamkorlik memorandumlari imzolandi.

Kelishuv va memorandum doirasida quyidagi sohalaridagi hamkorlik nazarda tutilgan: talabalar, ilmiy – pedagogik va boshqaruv mutaxassislari o‘rtasida tajriba almashinuvlari, kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishga qaratilgan choralar, jumladan eng yangi dasturlar va uslublarni joriy qilish, hamkorlikda tadqiqotlar, konferensiyalar, ko‘rgazma va seminarlarni amalga oshirish, maktabgacha ta‘lim mutaxassislarini tayyorlash bo‘yicha maxsus qo‘shma magistrlik va doktorlik dasturlarini tashkil etish, shuningdek O‘zbekistonda eksperimental ravishda Koreya tizimiga asoslangan eksperimental bog‘chalarni tashkil etish kabi muhim vazifalar nazarda tutilgan.

Koreya Respublikasining tajribasi albatta e‘tiborga molik va ishonamizki, O‘zbekistonda maktabgacha ta‘lim tizimini isloh qilish jarayonlarida bu boradagi Koreya modeli elementlari albatta o‘z aksini topadi.

#### **Nazorat savollari:**

1. Maktabgacha tarbiya Germaniya ta‘lim tizimida qanday ahamiyatga ega?
2. Germaniyada majburiy ta‘lim qanday shaklga ega?
3. Germaniya bog‘chalari mablag‘lari qanday ta‘minlanadi?
4. Yaponiya ta‘lim shakli qanday?
5. Yaponiya ta‘lim tizimining o‘ziga xos xususiyatlari qanday?
6. Koreyada ta‘lim tizimi haqidagi qonun qachon qabul qilingan?
7. Koreya ta‘limi haqidagi qonun talabi qanday?
8. Koreya ta‘lim tizimi qanday tashkil etilgan?
9. O‘zbekistonda maktabgacha ta‘lim sohasini rivojlantirishda qanday islohotlar qilinmoqda?
10. O‘zbekiston Maktabgacha ta‘lim Vazirligida Koreya modeli qanday qo‘llaniladi?
11. Xorijda maktabgacha ta‘limning tuzilishi qanday?
12. Xorijiy davlatlarda maktabgacha ta‘lim muassasalarining turlari qanday?
13. Maktabgacha ta‘lim muassasalariga bolalarni qabul qilish qanday shakllarda amalga oshiriladi?

14. Germaniya ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari haqida gapiring.

15. Yaponiya maktabgacha ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

**Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

1. Kreativ pedagogning fikrlashi ana'naviy pedagog fikrlashidan farqli tomonini tahlili.
2. Pedagogning kreativ sifatlari.
3. Kasbiy faoliyatda pedagogning kreativlikning turli shakllari.
4. Ijodkorlik, ijodkor shaxs, kreativ shaxs tushunchalari.
5. Pedagogning kompetensiya tarkibiga kiruvchi turlari.
6. Zamonaviy pedagog-tarbiyachining funksional vazifalari.
7. Pedagogning ijodkorlik sifatlari.
8. Innovatsion jarayon: pedagog va uning faoliyatdagi roli.
9. Pedagogning nutq madaniyati.
10. Pedagoglik kasbining ijtimoiy ahamiyati, pedagogik nazokat, samimiylik va insonparvarlik.
11. Pedagogik ta'sir etishda tashqi ko'rinishning roli.
12. Zamonaviy tarbiyachi imidji.

## II BOB. AMALIY MASHG‘ULOTLAR ISHLANMALARI

### 1 – amaliy mashg‘ulot.

**Mavzu: Maktabgacha tarbiya tashkiloti tarbiyachisining kompetensiyasi.**

Reja:

1.“Kompetensiya” tushunchasining mohiyati.

2.Maktabgacha ta’lim tashkilotida ta’lim sifatini oshirishda tarbiyachi kompetensiyasining ahamiyati

3.Bugungi kun tarbiyachilarida kasbiy kompetentlikni shakllantirishning kreativ usullari.

4. O‘z ustida ishlash va o‘z o‘zini rivojlantirish-tarbiyachi kasbiy kompetentligiga erishishning asosi sifatida.

Amaliy mashg‘ulotning maqsadi: Magistrlarga maktabgacha ta’lim tashkilotida ta’lim sifatini oshirishda tarbiyachi kompetensiyasining ahamiyatini, tarkibiy qismlarini, tarbiyachilarda kasbiy kompetentlikni shakllantirishning o‘ziga xos usullarini o‘rgatish

Ta’lim metodlari:Venn diagrammasi, aqliy hujum, klaster, blits so‘rov.

Ta’lim vositalari :tayanch matn , ekspert topshiriqlar .

Kutilayotgan natija: Magistrlar kompetensiya, kasbiy kompetentlik tushunchalarining mazmunini, maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi pedagogik faoliyatida kompetensiyaning ahamiyatini o‘rganishadi.

Kichik ma’ruza: Kompetensiya-(lot.competenre - “layoqatli, munosib bo‘lmoq”) 1.Munosib organ yoki mansabdor shaxsning rasmiy hujjatlarda belgilangan vakolatlar doirasi; vakolat.

2.Shaxsning biror- bir sohadan xabardorlik, shu sohani bilish darajasi. Demak, kompetensiya fan bo‘yicha egallangan nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarni shaxsiy, kasbiy, ijtimoiy faoliyatlarda duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanib, amaliyotda qo‘llay olishdir.

Kasbiy kompetentlik –mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni amaliy faoliyatda yuqori darajada qo‘llay olinishi.

Tarbiyachining kasbiy kompetensiyasi turlari quyidagilardan iborat:

1. Kasbiy kompetensiya
2. Shaxsiy kompetensiya
3. Umuminsoniy kompetensiya
4. Ma'daniy kompetensiya
5. Maxsus kompetensiya

Kasbiy pedagogik komponentlik pedagogik voqealikni izchil idrok eta bilish va unda izchil harakat qila olish malakasini qamrab oladi. "Kompetentlik" va "kompetensiya" o'zgaruvchan vaziyat va holatlarda barqaror natijaga erishishdir. Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'limga kompetentlik bilan yondashish, tarbiyalanuvchilarni turli ko'nikmalarni egallash, kelajakda ijtimoiy, kasbiy va shaxsiy hayotlarida samarali harakat qilishga yo'naltiradi. Kompetentlik tarbiyachining mavzuni mazmun jihatidan to'la o'zlashtirish, o'rganish, mustahkamlash, qaytarish hamda mustaqil ish uchun materialni tanlashida, o'zining dunyoqarashini kengaytirish uchun o'zlashtiradigan bilimlar negizida ham namoyon bo'ladi.

Kompetentlik tarbiyachi uchun o'ta muhim bo'lgan uchta holat bilan bog'langan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni egallashni taqazo etadi:

-odamlar bilan o'zaro aloqada bo'lishda, madaniy muloqotda bo'lish;

-fan sohasi bo'yicha axborotlarni qabul qila bilish va uni o'qitish mazmuniga moslab qayta ishlash va undan mustaqil tahsil olishda foydalana olish;

-o'quv axborotlarini boshqalarga bera olish.

Kasbiy-pedagogik kompetentlik asosan to'rtta komponenti bilan asoslanadi:

-shaxsga, insonga yo'nalganlik;

-pedagogik voqealikni izchil idrok etish;

-fan sohasiga yo'nalganlik

-pedagogik texnologiyalarni egallash.

Pedagogning kasbiy komponentligi kreativlik bilan xarakterlanadi. Kreativlik-bu kasbiy hayot usuli, ko'p qirrali ta'lim jarayoni va tizimining maqsadlari, mazmuni, texnologiyalari sathida

yangi pedagogik yangilikni yaratish istagi va malakasidir. Kreativlik tarbiyachini innovatsion o'zgarishlar oqimiga moslashib olishiga yordam beradi.

Zamonaviy tarbiyachida kasbiy komponentlikni shakllantirishda bilim manbai sanalgan amaliyotning ahamiyati haqida so'z yuritganda bilish jarayonining mohiyatini ham ta'kidlab o'tish joiz.

Bilish-murakkab dialektik jarayon bo'lib, jonli mushohadadan abstrakt tafakkurga, so'ngra amaliyotga o'tish yo'lidir. Obyektiv borliqni bilish uni sezishdan boshlanadi.

Sezish-ongning tashqi olam bilan bo'ladigan aloqasidir. Sezish tevarak atrofdagi voqealik, narsa va hodisalarning sezgi organlariga ta'sir etuvchi ayrim sifat belgilarning ongda aks etishidir.

Idrok-sezish a'zolari orqali ongga ta'sir etib turgan narsa va hodisalarning unda yaxlit aks etishidir. Sezish va idrok asosida bilish jarayonida tasavvur ro'y beradi. Tasavvur inson ongida uzoq muddat saqlanib qoladigan sezishlar va idrokning izidir. Bilish jarayoning eng yuqori bosqichida bilish muammosini to'la hal etish uchun tafakkur yuzaga keladi.

Demak, bizga bilim amaliyotdan sezgi idrok, tasavvur va tafakkur asosida hosil bo'lishi va yana amaliyotga qaytib borishida namoyon bo'ladi.

Kasbiy kompetentlikni shakllantirishda tarbiyachining o'quv adabiyotining shakllari va turlari haqida tasavvurlarga ega bo'lishlari ham talab etiladi.

O'quv adabiyotlari-muayyan ta'lim turi o'quv rejasida qayd etilgan fanlar bo'yicha tegishli o'quv dasturlari asosida zarur bilimlar majmuasi keltirilgan, o'zlashtirish uslublari va didaktikasi yoritilgan manba.

Kasbiy komponentlikka ega bo'lishda o'z ustida ishlash va o'z o'zini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O'z o'zini rivojlantirish vazifalari o'z-o'zini tahlil qilish va o'z o'zini baholash orqali aniqlanadi. Tarbiyachi o'z ustida ishlashi bir necha bosqichda kechadi. Ular:


1. O'z faoliyatini tahlil qilish asosida yutuq va kamchiliklarni aniqlash;
2. Yutuqlarini boyitish va kamchiliklarini bartaraf etish;
3. Amaliy harakatlarni samarali tashkil etish yo'llarini izlash;

4.Xato va kamchiliklarni takrorlamaslikka intilish;

5.Qabul qilingan qarorning izchil bajarilishini doimiy nazorat qilib borish

1-topshiriq. Zamonaviy tarbiyachida bo'lishi lozim bo'lgan eng muhim kasbiy kompetensiyalarini klaster metodi asosida ko'rsatib bering.

2-topshiriq. Pedagogik faoliyat uchun zarur barcha kompetensiya turlariga ega bo'lish uchun tarbiyachining o'z ustida ishlash tartibini noan'anaviy shaklda ko'rsatib bering.



## **2—amaliy mashg‘ulot.**

### **Mavzu: Tarbiyachining pedagogik mahorati.**

Reja:

1. Pedagogik mahorat va uning tarkibiy qismlari.
2. Pedagogik qobiliyat. Qobiliyatning pedagogik- psixologik tavsifi.
3. Tarbiyachining bilish va tushuntira olish qobiliyati.
4. Tarbiyachining kuzatuvchanlik qobiliyati.
5. Nutq qobiliyati - tarbiyachilik kasbining eng muhim qobiliyati.

Amaliy mashg‘ulotning maqsadi: Pedagogik mahorat va pedagogik qobiliyatning mohiyati, tarkibiy qismlari va turlarini o‘rgatish. Magistrarga tarbiyachining bilish, tushuntira olish, kuzatuvchanlik, nutq qobiliyatlari haqida batafsil bilimlar berish.

Ta‘lim metodlari: Aqliy hujum, klaster, blits so‘rov.

Ta‘lim vositalari: Tayanch matnlar, markerlar, plakat, tarqatma materiallar, reja tuzish.

Kutilayotgan natija: Magistrlar pedagogik mahorat va qobiliyatlarning tarbiyachi pedagogik faoliyatidagi o‘rni hamda ahamiyatini bilib oladi. Tarbiyachi qobiliyatlarining muhim jihatlari o‘rganishadi.

Kichik ma‘ruza:

Pedagogik mahorat — o‘qituvchilarning shaxsiy (bolajonligi, xayrixohligi, insonparvarligi, mehribonligi va h.k.) va kasbiy (bilimdonligi, zukkoligi, fidoyiligi, ijodkorligi, qobiliyati va hokazo.) fazilatlarini belgilovchi xususiyat bo‘lib, tarbiyachilarning ta‘lim-tarbiyaviy faoliyatida yuqori darajaga erishishini, kasbiy mahoratini doimiy takomillashtirib borish imkoniyatini ta‘minlovchi faoliyatdir. U o‘z fanini mukammal bilgan, pedagogik-psixologik va metodik tayyorgarlikka ega bo‘lgan, o‘quvchilarni o‘qitish, tarbiyalash va rivojlantirishning optimal yo‘llarini izlab topish uchun, amaliy faoliyat olib boradigan har bir tarbiyachining kasbiy faoliyatida namoyon bo‘ladi.

Pedagogik mahoratga pedagogik bilimlar, fahm-farosat bilan bir qatorda pedagogik texnika sohasidagi malakalar ham kiradi, ular tarbiyaga ozroq kuch sarflab ko‘proq natijalarga erishish imkonini beradi.

Pedagogik mahoratning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

a) tarbiyachi faoliyatining insonparvarlik yo'nalishi;

b) ixtisosga doir bilimlar mutaxassislik fanini, uni o'qitish metodikasini pedagogika va psixologiyani chuqur bilish;

v) pedagogik qobiliyat (bilish, tushuntira olish, kuzatuvchanlik, obro' orttira olish, to'g'ri muomala qila olish, kelajakni ko'ra bilish, diqqatni taqsimlay olish qobiliyatlari va pedagogik nazokat odob-axloq);

g) pedagogik texnika (nutq malakasi, mimik pontamimik ifodaliligi, o'z hissiy holatini boshqarishi.)

"Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir",-degan edi milliy tarbiyamiz daxolaridan biri A.Avloniy. Hayot, najot, saodatga eltuvchi ish, tarbiyani amalga oshiruvchi zot-o'qituvchidir. Pedagogik qobiliyatlar tarbiyasi birinchi bo'lib, XIX asr o'rtalarida paydo bo'ldi. Desterverg 1-chi bo'lib pedagogik qobiliyat, perseptiv qobiliyatlar haqida gapirib bu masalaga e'tiborini qaratdi. U pedagogik qobiliyatning kuchiga, pedagogik taktga va qat'iy erkinlikka e'tibor berdi. Qobiliyatlar faoliyatining muhim komponentlari bo'lishi bilim, malaka, ko'nikmalar bilan aynan bir narsa bo'lmasa-da, ular bir-birlari bilan bog'liqdir. Qobiliyatlar taraqqiyotining yuksak bosqichiga iste'dod deb ataladi.

1. Bilish qobiliyati-fanning tegishli sohalariga oid qobiliyatdir. Bunday qobiliyatga ega bo'lgan tarbiyachi fanni o'quv kursi hajmidagina emas, balki ancha keng chuqurroq biladi, o'z fani sohasidagi kashfiyotlarni hamisha kuzatib boradi.

2. Tushuntira olish qobiliyati-tarbiyachining o'quv materialini bolalarga tushunarli qilib bayon etishi, material yoki muammoni ularga aniq va tushunarli qilib aytib berish, bolalarda mustaqil ravishda faol qiziqish uyg'otish qobiliyatidir.

3. Kuzatuvchanlik qobiliyati tarbiyachi tarbiyalanuvchining ichki dunyosiga kira olish qobiliyati bola shaxsini va uning vaqtinchalik ruhiy holatlarini juda yaxshi tushuna bilish bilan bog'liq bo'lgan psixologik ko'zatuvcchanlikdir. Qobiliyatli tarbiyachi uncha katta bo'lmagan tashqi ko'rinishlar asosida bolaning ichki holatidagi juda arzimagan o'zgarishlarini ham faxmlab oladi.



4. Nutq qobiliyati-nutq yordamida shuningdek imo-ishora vositasida o'z fikr va tuyg'ularini aniq va ravshan ifodalash qobiliyatidir. Bu o'qituvchilik kasbi uchun juda muhimdir. Tarbiyalanuvchilarning o'zlashtirishlari uchun o'rtacha, jonli nutq yaxshi natija beradi. Haddan tashqari keskin va baqiroq nutq bolalar asabini buzadi, toliqtirib qo'yadi.

1-topshiriq. Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim sifatini oshirishda tarbiyachi qobiliyatlarining ahamiyatini tushuntirib bering.

2-topshiriq. Jadvalda berilgan ta'riflarga mos qobiliyat turlarining nomini toping va jadvalni to'ldiring.

№	Ta'riflar.	№	
1	tarbiyachi tarbiyalanuvchining ichki dunyosiga kira olish qobiliyati bola shaxsini va uning vaqtinchalik ruhiy holatlarini juda yaxshi tushuna bilish bilan bog'liq	a	
2	o'z fani sohasidagi kashfiyotlarni hamisha kuzatib boradi	b	
3	material yoki muammoni ularga aniq va tushunarli qilib aytib berish, bolalarda mustaqil ravishda faol qiziqish uyg'otish qobiliyatidir	e	
4	nutq yordamida shuningdek imo-ishora vositasida o'z fikr va tuyg'ularini aniq va ravshan ifodalash	d	

### 3–amaliy mashg'ulot.

**Mavzu: Tarbiyachi uchun muhim pedagogik qobiliyatlar.**

Reja:

1. Tarbiyachining tashkilotchilik va obro' orttira olish qobiliyati.
2. Kommunikativ qobiliyati.
3. Kelajakni ko'ra olish qobiliyati.
4. Diqqatni taqsimlay olish qobiliyati.
5. Tarbiyachi faoliyatida pedagogik qobiliyatlarning o'rni.

Amaliy mashg'ulotning maqsadi: Magistr'larga tarbiyachining pedagogik qobiliyatlari: tashkilotchilik, kommunikativ, kelajakni ko'ra olish, diqqatni taqsimlay olish qobiliyatlari tasnifi haqida, shuningdek, qobiliyatlarning tarbiyachi faoliyatidagi funksiyalari va ahamiyati haqida o'rgatish.

Ta'lim metodlari: Sinkveyn metodi, klaster, blits so'rov

Ta'lim vositalari: tayanch matn, ekspert topshiriqlar.

Kutilayotgan natija: Bolalarga ta'lim berishda tarbiyachi uchun muhim bo'lgan pedagogik qobiliyatlar: tashkilotchilik, kommunikativ, kelajakni ko'ra olish, diqqatni taqsimlay olish qobiliyatlari va ularni rivojlantirish yo'llari haqida bilib oladilar.

Kichik ma'ruza:

Qobiliyatlar murakkab strukturaga ega bo'lgan psixik sifatlar yig'indisidan iboratdir. Pedagogik faoliyatning samarali bo'lishi pedagogik mahoratga erishish uchun tarbiyachida quyidagi qobiliyat turlari mavjud bo'lmog'i va tarbiyalab yetishtirilmog'i lozim. Bilish qobiliyati, kuzatuvchanlik qobiliyati, nutq qobiliyati, tashkilotchilik qobiliyati, obro' orttira olish qobiliyati, to'g'ri muomala qilish qobiliyati, kelajakni ko'ra bilish qobiliyati, diqqatni taqsimlay olish qobiliyati. Bu pedagogik qobiliyatlar shaxsning aqliy tomonini ham, emotsional-irodaviy tomonini ham xarakterlab beradi. Bu sifatlarning hammasi bir-biri bilan o'zaro bog'langan bo'lib, bir-biriga ta'sir etadi va bir butunlikni hosil qiladi.

Tashkilotchilik qobiliyati-birinchi dan bolalar jamoasini uyushtirish muhim vazifalarini hal etishga ruhlantirishni, ikkinchi dan o'z ishini to'g'ri uyushganligini nazarda tutadi, o'z ishini tashkil etish deganda ishni to'g'ri rejalashtira olish va uni nazorat qila bilish nazarda tutiladi. Tajribali tarbiyachilarda vaqtni o'ziga xos his etish ishlanmasini vaqtga qarab to'g'ri taqsimlay olish, belgilangan muddatda ulgurish xususiyati hosil bo'ladi.

Faoliyat davomida, kutilmaganda ortiqcha vaqt sarflash hollari uchrab turadi. Ammo tajribali tarbiyachi zarur hollarda faoliyatning rejasini o'zgartira oladi.

Obro' orttira olish qobiliyati-bolalarga bevosita emotsional irodaviy ta'sir ko'rsatish va shu asosda obro' orttira olishdir. Obro' faqat shu asosdagina emas, balki tarbiyachining fanni yaxshi bilishi, mehribonligi, nazokatligi va hokozolar asosida ham qozoniladi.

Avtoritar qobiliyatlar tarbiyachi shaxsiy sifatlarining butun bir irodaviy sifatlariga shuningdek o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish mas'uliyatini his etishga o'zini haq ekanligiga ishonishga, bu ishonchni bolalarga yetkaza olish kabilarga ham bog'liq. Bolalar qo'pollik qilmaydigan, qo'rqitmaydigan, to'g'ri talab qo'ya oladigan tarbiyachini hurmat qiladilar.

Kommunikativ-to'g'ri muomala qila bilish qobiliyati. Bolalarga yaqinlasha olish, ular bilan pedagogik nuqtai nazardan juda samarali o'zaro munosabat o'rnatish bilish pedagogik nazokatning mavjudligini bildiradi.

Psixologiyaga oid adabiyotlarda kommunikativ qobiliyatlarning bir necha guruhlarini farqlanadi:

1. Kishining boshqa kishini bilishi. Bu qobiliyatlar guruhida kishiga shaxs sifatida, shaxsning alohida qiyofasi, motivi va xatti-harakatlariga baho berishni, kishining tashqi ko'rinishi, xulqi va ichki dunyosi nisbatiga baho berishni; savlati, imo-ishora, mimika, pantomimikasini «o'qiy» olishni qamrab olinadi.

2. Kishining o'z-o'zini bilishi. U o'z bilimlarini, qobiliyatlarini o'z xarakteri va o'z shaxsining boshqa qirralarini hamda tashqaridan va uning atrofidagi kishilar unga nisbatan qanday baho berishi lozim bo'lsa, shunday baho berishni ko'zda tutadi.

3. Muloqot vaziyatini to'g'ri baholay olish. Bu vaziyatni kuzatish, uning ko'proq axborot beradigan belgilarini tanlash va unga diqqatni jalb qilish; yuzaga kelgan vaziyatning sotsial va psixologik mundarijasini to'g'ri idrok etish va baholash qobiliyatidir.

Kelajakni ko'ra bilish qobiliyati-o'z harakatlarining oqibatlarini oldindan ko'rishda, o'quvchining kelgusida qanday odam bo'lishi haqidagi tasavvur bilan bog'liq bo'lgan shaxsni tarbiyalab yetishtirishda, tarbiyalanuvchining qanday fazilatlarini taraqqiy etishini oldindan aytib bera olishda ifodalanadigan maxsus qobiliyat. Bu qobiliyat pedagogik optimizmga, tarbiyaning qudratiga, odamga ishonish bilan bog'liq bo'ladi.

Diqqatni taqsimlash qobiliyati-tarbiyachi uchun diqqatning barcha xususiyatlari hajmi, kuchi, idora qilina olishi ham taraqqiy etgan bo'lishi muhimdir.

Diqqat ayni bir vaqtda faoliyatning bir qancha turlari o'rtasida taqsimlanish qobiliyati tarbiyachining ishi uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Qobiliyat tajribali tarbiyachi mavzuni bayon qilish mazmunini va formasini o'z fikri yoki o'quvchi fikrini diqqat bilan kuzatadi, ayni vaqtda barcha o'quvchilarni o'z diqqat e'tiborida tutadi, toliqish, e'tiborsizlik tushkunlik alomatlarini hushyorlik bilan kuzatib boradi, barcha intizom buzish hollarini e'tibordan qochirmaydi, nihoyat shaxsiy hatti harakatlarini kuzatib boradi. Tajribasiz tarbiyachi ko'pincha materialni bayon qilishga berilib ketib o'quvchilarni e'tibordan chetda qoldiradi.

Tarbiyachi yuqoridagi qobiliyatlardan tashqari sabr-toqatli, irodali bo'lishi va ibrat-namuna bo'la olish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim. Tarbiyachi o'quvchilarni o'zining shaxsiy namunasi, o'z shaxsiy hulq atvori va butun shaxsi bilan ham tarbiyalaydi. Bolalar uchun tarbiyachining har bir hatti harakati namunadir. Bu holat tarbiyachidan bolalarga nisbatan juda ziyrak munosabatda bo'lishni talab etadi. Shuning uchun tarbiyachi o'zi o'qitadigan fanni mukammal bilish bilan birga yuksak axloqiy, ma'naviy pok, irodali, nazokatli, sabr toqatli, qat'iyatli, mehnatsevar, kamtar bo'lishi lozim.

1-topshiriq. Tarbiyachining pedagogik qobiliyatlarini F S M U texnologiyasi yordamida izohlang.

2-topshiriq. Blits so'rov


1. Tarbiyachi faoliyatida tashkilotchilik va obro' orttira olish qobiliyati qanday ahamiyatga ega?
2. Kommunikativ qobiliyat qanday guruhlariga ajratiladi?
3. Kommunikativ qobiliyatni o'stirish uchun nimalarga e'tobor berish kerak?
4. Kelajakni ko'ra bilish qobiliyatidan tarbiyachi qanday vaziyatlarda foydalanadi?
5. Tarbiyachida diqqatni taqsimlay olish qobiliyatiga bo'lmasligi qanday oqibatlariga olib keladi?

f

S

m

u



#### **4– amaliy mashg‘ulot.**

**Mavzu: Zamonaviy tarbiyachi imidji.**

Reja:

1. Pedagogik odob - tarbiyachi pedagogik faoliyatining eng muhim axloqiy mezon.

2. Pedagogik nazokatning mohiyati va xususiyati.

3. Pedagogik nazokatni egallash shart - sharoitlari

Amaliy mashg‘ulotning maqsadi: Magistrlar pedagogik odobning zamonaviy tarbiyachi pedagogik faoliyati davomidagi eng muhim axloqiy sifatlardan biri ekanligini bilib olishadi, tarbiyachi pedagogik nazokatini egallash shart -sharoitlarini o‘rganishadi.

Ta‘lim metodlari: Sinkveyn metodi, klaster, baliq skleti.

Ta'lim vositalari: tayanch matn, ekspert topshiriqlar.

Kutilayotgan natija: Tarbiyachi pedagogik odobi va nazokati bolalar bilan bo'lgan barcha faoliyat jarayonlarida katta ahamiyatga ega ekanligini, pedagogik nazokat bilan olib borilgan faoliyat samarali bo'lishini o'rganadilar.

Kichik ma'ruza: O'qituvchi bo'lish uchun bo'lajak muallim yuksak pedagogik odob madaniyatini egallashi zarur. Buning uchun bo'lajak o'qituvchi pedagogik odobning talab va qoidalarini bilib, o'zlashtirib olishi, tajribada pedagogik faoliyatda qo'llashi, o'zining dunyoqarashi va axlokiy tajribasi bilan boyitishi lozim, fikrlash va his etish, turmushda sinab ko'rish natijasida pedagogik odobning talab va qoidalari o'qituvchining shaxsiy e'tiqodiga, axloqiy fazilatlariga aylanadi.

«Ta'lim to'g'risida»gi Qonunning 5-moddasida shunday yozilgan: "Tegishli ma'lumoti, kasbiy tayyorgarligi bor va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega". Chunki hukumat xalk ta'limi sohasida o'rtaga qo'yilayotgan vazifalarni bajarish ko'p jihatdan o'qituvchiga bog'liq.

Pedagogik nazokat o'qituvchiga bolalar bilan muloqotda konflikt (qarama - qarshilik)dan qochishga, o'zaro munosabatni to'g'ri qurishga yordam beradi.

Nazokatli bo'lish barcha kishilarga qo'yilgan axloqiy talab, ayniqsa pedagoglarga bu juda muhim. Pedagogik takt o'qituvchining kasbiy sifati, uning mahoratining bir qismi.

Takt so'zi ta'sir etish ma'nosini bildiradi. Bu kishilar o'zaro munosabatini boshqarishga yordam beruvchi axloqiy kategoriyadir. Taktik xulq insonparvarlik prinsipiga asoslanib, murakkab konflikt holatlarida ham kishiga hurmat saqlab qolishni talab qiladi.

Nazokatli bo'lish barcha kishilarga qo'yilgan axloqiy talab, ayniqsa pedagoglarga bu juda muhim. Pedagogik takt o'qituvchining kasbiy sifati, uning mahoratining bir qismi.

Pedagogik takt - bu o'qituvchining o'quvchiga maqsadga muvofiq pedagogik ta'sir o'lchovi, muloqotning maxsuldor uslubini o'rnatish ko'nikmasi. Pedagogik takt o'quvchilar bilan muloqotda oxirgi holatga (choraga) yul qo'ymaydi.

Hurmat erkalash va talabchanlikni ham talab etadi. O'quvchiga munosabat ularning yosh xususiyatlariga ham bog'lik bo'ladi.

Pedagogik nazokat pedagog mahorat bilan , birga tarbiyalanadi va egallanadi. O'qituvchining ma'naviy yetuklik darajasi, bolalar bilan muloqot ko'nikmalarini hosil qilishi uchun maxsus bilimlarni egallashida o'z ustida ishlash natijasida erishadi.O'qituvchi takti darsda, sinfdan tashqari ishlarda va boshqa joylarda namoyon bo'ladi.

Avvalo, bu bilimlar yosh psixologiyasini va bolalarning individual xususiyatlarini bilish bilan bog'lik.

Axloq asoslarini bilish, xatti - haraktlardagi axloqiy ma'noni ko'rish ham katta ahamiyatta egadir. Shu bilan birga, o'quvchiga ta'sir etish yo'llarini bilish ular qobiliyatiga aylanishi lozim:

- bolalarni sevish, o'z muhabbatini ko'rsatish;
- bolalar xulqidagi nozikliklarni ko'rish va kuzatish;
- sharoitta moslashish;
- hamkorlikning maqsadga muvofiq yo'lini tanlash;
- bolalar bilan suhbat.

To'g'ri muloqot uslubini tanlashda o'zini boshqara olish, adolatlilik, boshqalar tajribasiga ijobiy yondashuv, pedagogik texnikani rivojlantirish, hazil - mutoyibaga moyillik ham katta ahamiyatga ega. Bunda o'qituvchi bolalarni hurmat qilishi va o'z qadrini saqlashi muhimdir.

Pedagogik faoliyatda turli konfliktlar, pedagogik vaziyatlar uchrab turadi. Shuning uchun yosh pedagoglar yuqoridagi qoidalarni bilishi lozim.Pedagogika o'z usullarini yo'q narsadan yaratmaydi, ularni o'ylab topmaydi. U hayotdan kishilar hulq-atvorining real omillarini, bolalar hayotini pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tarzda tashkil etish vazifalariga javob beradiganlarini tanlab oladi, tarbiyaviy ishda pedagogik ta'sir ko'rsatish usullari sifatida foydalanadi.

Pedagogik nazokat pedagogik mahorat bilan birga yillar davomida ustozlar tajribasini o'rgangan holda va o'z hayotiy hamda kasbiy faoliyati tajribalaridan kelib chiqib shakllantirilib boriladi. O'qituvchining ma'naviy yetuklik darajasi, nazokat sirlarini o'rganishda o'quvchilar bilan muloqot qilish ko'nikma va malakalarini egallashi, maxsus psixologik bilimlarga ega bo'lishida,

o'z ustida tinimsiz mehnat qilishi natijasida erishiladi. Avvalo bu bilimlar o'quvchilar yosh xususiyati psixologiyasini va bolalarning individual xarakterini bilish bilan bog'liq.

Axloq asoslarini bilish, xatti-harakatlarda axloqiy ma'noni kasb ettirish ham katta ahamiyatga ega. Shu bilan birga, o'quvchi ruhiyatiga ijobiy-tarbiyaviy ta'sir etish yo'llarini bilish o'qituvchilarning kundalik faoliyatiga aylanishi lozim:

- o'quvchilarni chin ko'ngildan sevish, o'z muhabbatini o'zaro munosabatda ko'rsata olish;

- o'quvchibr xulqi va ruhiyatidagi yashirin ichki tuyg'ulami anglashga harakat qilish, ko'rish va kuzatish;


- sinf jamoasidagi har qanday sharoit va muhitga moslashish,

- sinf jamoasi bilan o'zaro hamkorlikni ta'lim-tarbiyaviy maqsadga muvofiq yo'lini tanlash;

- o'quvchilar bilan norasmiy suhbatlarda o'z ichki hissiyotini sezdirmaslik, aksincha ular ishonchini qozonish.

Pedagogik nazokatning asosiy xususiyati shundan iboratki, tarbiyachiga muloqotni ijobiy hissiyotlar asosida qurishga, bolalar bilan psixologik kontaktga kirishish uslublarini saqlashga yordam beradi.

1-topshiriq. Zamonaviy tarbiyachi imidjini baliq skeleti metodi asosida ifodalang.



2-topshiriq. Tarbiyachida pedagogik nazokatni "Tushunchalar tahlili" metodi yordamida shakllantiring

Tushunchalar	Mazmuni




### **5– amaliy mashg‘ulot.**

**Mavzu: Pedagogik ta’sir ko’rsatishda nutq texnikasi va kiyinish madaniyati**

Reja:

1. Pedagogik ta’sir ko’rsatish metodikasi
2. Tarbiyachi faoliyatida pedagogik nazokatning o’rni.
3. Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisining kiyinish madaniyati

Amaliy mashg‘ulotning maqsadi: Zamonaviy tarbiyachiga xos xususiyatlardan muhimi ya’ni pedagogik ta’sir ko’rsatishning metodikasi, uni tarkibiy qismlari, ahamiyatini o’rgatish. Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisida nutq texnikasi va madaniyatining shakllanishi tarbiyachi imidjini asosiy xususiyatlaridan biri ekanligini o’rgatish.

Ta’lim metodlari: Sinkveyn metodi, klaster, BBB metodi.

Ta’lim vositalari: tayanch matn, ekspert topshiriqlar.

Kutilayotgan natija: Magistrlar zamonaviy tarbiyachiga xos xususiyatlardan biri pedagogik ta’sir ko’rsatishning metodikasi, uni tarkibiy qismlari, ahamiyatini bilib oladilar. Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisining nutq texnikasi va kiyinish madaniyati haqida o’rganishadi.

Kichik ma’ruza:

Pedagogik ta’sir ko’rsatish metodikasi bolalarning ijtimoiy-foydali faoliyatini pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tarzda tashkil etish uchun foydalaniladigan vositalar sistemasidan iboratdir. Bu vositalar tarbiyalanuvchi shaxsiga qaratilgan bo’lib, bolalarning xulq-atvorini rag’batlantiradi, ularning qiyin va murakkab vazifalarini quvonch ijodiy shavq-zavq manbaiga, har bir tarbiyalanuvchi O’quvchining shaxsiy muddaolariga aylantiradi.

Pedagogik ta’sir ko’rsatishning asosiy usullari talab, istiqbol, rag’batlantirish va jazolash, jamoatchilik fikridir.

Talab tajribada juda keng tarqalgan usul bo'lib, ta'lim va tarbiya jarayonida pedagogning tarbiyalanuvchiga shaxsiy munosabatining namoyon bo'lishi yo'li bilan u yoki bu xatti-harakatlarning rag'batlantirilishi yoki to'xtatilishini ta'minlaydi.

Istiqbol — ta'sir ko'rsatishning juda ta'sirchan usuli bo'lib, u bolalarning xatti-harakatlarini ular oldiga maroqli maqsadlar qo'yish yo'li ta'minlaydi, bu maqsadlar ularning shaxsiy intilishlari, qiziqish va muddaolariga aylanadi.

Rag'batlantirish va jazolash — tarbiyaning eng an'anaviy usuli bo'lib, bolalar hulq-atvoriga to'zatis kiritishni, ya'ni foydali xatti-harakatlarni ko'shimcha rag'batlantirishni va tarbiyalanuvchilarning nomaqbo'l xatti-harakatlarini to'xtatishni ta'minlaydi, bunda ularning huquq burchlarini kengaytirish yoki cheklash, ularga ahloqiy ta'sir ko'rsatish yo'lidan foydalaniladi.

Rag'batlantirish va jazolash metodi o'ziga xos xususiyatga ega bo'lganligi sababli uni qo'llanish alohida ehtiyotkorlikni, pedagoglarning sezgirligi va xushmuomalaligini talab qiladi.

Jamoatchilik fikri— ta'sir ko'rsatishning qudratli usuli bo'lib, bolalarning ijtimoiy foydali faoliyatini g'oyat har tomonlama va muntazam rag'batlantirib borishni ta'minlaydi, jamoaning tarbiyaviy vazifalarini ancha to'liq amalga oshiradi. Bu usul jamoa a'zolarining ijtimoiy faolligini va o'rtoqlarcha birdamligini rivojlantirishga yordam beradi.

Pedagogik vaziyat bilan u taqozo qilgan pedagogik ta'sir ko'rsatish usulining biror shakli o'rtasidagi bog'lanish muhim ahamiyatga egadir. Bu aloqadorlikni tushunish tarbiyachilarga o'z harakatlarida ko'proq samaradorlikka erishish, ularni ongli ravishda rivojlantirish imkonini beradi.

Nazokat (takt) faoliyatning barcha qismlarida zarur. Ayniqsa, bolalar bilimini nazorat qilish vaqtida bunga alohida e'tibor berish kerak. Javob berayotgan bolaning gapni bo'lib, "hech narsa bilmaysan", "bu gaplar nima kerak?" kabi so'zlar bilan ularni to'xtatish mumkin emas. Ba'zi duduq bolalar nazokatli o'qituvchi darsida yaxshi gapira olsa, taksiz o'qituvchi darsida javob berishda qiynaladilar.

O'quvchi gapirayotganda o'qituvchi uni quvvatlab, qo'llashi, mimikasi bilan ma'qullab turishi kerak. Javobni befarq tinglasa yoki

mensimay e'tibor bermasa o'quvchi shu o'qituvchiga javob berishdan qochadi.

Pedagogik nazokatning quyidagi xususiyatlari hozirgi kunda muvaffaqiyat poydevori hisoblanadi: o'qituvchi pedagogik nazokat talablariga amal qilib, o'zida muloqotning erkin demokratik asosini shakllantiradi;

- sinf jamoasida ongli intizomni vujudga keltiradi; o'quvchilar bilan haqiqiy muloqot madaniyatiga erishadi;

- o'qituvchi sinfda yakka hukmronlikdan, erkin muloqotga o'tib, demokratik prinsiplar asosida pedagogik faoliyatga kirishish shaklini qo'llaydi; o'quvchilarni ongli ravishda tartib-intizomga muloqot asosida o'rgatadi. O'qituvchining pedagogik faoliyatida nutq texnikasi eng murakkab va doimiy munozaralarga sabab bo'lib kelayotgan jarayon. Psixologik til bilan aytganda nutq texnikasi, notiq nutqining o'rinli yoki o'rinsiz ekanligini belgilashda namoyon bo'ladi. O'qituvchi har xil vaziyatlarda, turli xarakterdagi o'quvchilar bilan muloqotda bo'ladi. Demak u o'z nutqini ana shu vaziyatlar asosida, o'quvchilar holatiga qarab tuzishi, o'zgartirishi. doimo nutqining ta'sirchan chiqishiga e'tibor berishi, o'quvchilarni zeriktirib qo'ymasligi uchun tilning tasviriy vositalari bo'lmish metonimiya, metafora kabilardan foydalanishi lozim. O'quvchilar diqqatini jalb etish, o'rganilayotgan mavzuga ulami qiziqitira olish o'qituvchi nutq texnikasining asosiy xususiyatlaridandir

Texnik jihatdan nutqiy tajribaga ega bo'lgan o'qituvchining nutqi quyidagilarni ta'minlashi kerak:

- o'qituvchi va uning tarbiyalanuvchilari o'rtasidagi o'zaro munosabati va mahsuldor muloqotini;

- ta'lim jarayonida bilimni to'la qabul qilinishi, anglanishi va mustahkamlanishi;

- o'quvchilar faoliyatiga, ulardagi qobiliyat va iqtidor instinktini shakllantirish maqsadida ongi va hissiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatish;

- o'quvchilarning o'quv va amaliy faoliyatini maqsadga muvofiq tashkil etish.

"Pedagogik nutq texnikasi" tushunchasi o'qituvchilarning kommunikativ xulqi tushunchasi bilan uzviy bog'liq. O'qituvchining kommunikativ xulqi deyilganda, faqat uning gapirish va axborot berish jarayonigina emas, balki, o'qituvchi va


o'quvchi muloqoti uchun emotsional psixologik muhit yaratishga, ular o'rtasidagi munosabat va ish uslubiga ta'sir ko'rsatuvchi nutqni tashkil etish va unga mos o'qituvchining nutqiy nazokati ham ko'zda tutiladi.

Tarbiyachi tashqi ko'rinishi estetik ma'no kasb etgan bo'lishi lozim. Tashqi ko'rinishga e'tiborsiz qarash va haddan tashqari e'tibor berish ham to'g'ri kelmaydi. Tarbiyachining kiyinishi ham yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalash ishiga samarali ta'sir ko'rsatishi lozim. Tarbiyachi yuzida mehribonlik, harakatida yurushida bosiqlik, tabiiylik bilinib turishi kerak. Tarbiyachi kiyinish madaniyatiga ega bo'lishi, tarbiyachi kiyimi sodda, ozoda bejirim bo'lishi kerak. Ta'lim va tarbiya jarayonida bolalar diqqatini tez jalb etuvchi turli xil bezaklar (oltin, kumush, taqinchoqlar) dan foydalanmasligi, fasl yosh, gavda tuzulishi, yuz qiyofasi, hatto soch rangi va turmagiga muvofiq ravishda kiyinishni o'zlashtirishga erishishi zarur.


1-topshiriq. Pedagogik ta'sir ko'rsatish metodikasini innovatsion usulda ifodalang.

2-topshiriq. O'z tajribagiz asosida tarbiyachining tashqi ko'rinishi bolalar ta'lim tarbiyasiga qanday ta'sir ko'rsatishi usullarini ko'rsatib bering.

Tarbiyachi  
tashqi  
qiyofasi



3-topshiriq. Tarbiyachining nutq madaniyatining bolalar ta'lim tarbiyasiga ta'sirini klaster metodida ifodalab bering.



#### 6– amaliy mashg‘ulot.

**Mavzu: Tarbiyachi pedagogik faoliyatiga kreativ yondashuv.**

Reja:

1. Tarbiyachi faoliyatiga kreativ yondashuv.
2. Tarbiyachilarning kreativlik imkoniyatlari, ularning tarkibiy qismlari.

3. Bugungi kun tarbiyachisining ijodkorlik sifatleri

4. Tarbiyachi kreativligini ifodalovchi belgilar va tamoyillar.

Amaliy mashg‘ulotning maqsadi: Magistr larga tarbiyachining kreativ faoliyati, kreativ imkoniyatlari, kreativ sifatleri va kreativlikni ifodalovchi belgilarni o‘rgatish. Tarbiyachi kreativ faoliyatining ta’lim sifatiga ta’sirini o‘rgatish.

Ta’limning vositalari: tayanch matn ,markerlar, ekspert topshiriqlar.

Ta’limning metodlari: amaliy usullar ,klaster, savol-javob.

Kutilayotgan natija:Magistrlar tarbiyachida kreativlikni shakllantirish va rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslarini va amaliy jihatdan tavsiflashni o'rganadilar.

Kichik ma'ruza:

Kreativlik (lot., ing. —create – yaratish, -creative yaratuvchi, ijodkor) –individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma'nosini ifodalaydi. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini, zehni o'tkirligini tavsiflaydi. SHuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi.

Kreativ layoqat quyidagi o'zaro bir-biriga bog'liq bo'lgan qismlardan iborat bo'ladi:

1. Kreativlik maqsadi;
2. Ijodiy intilish;
3. Kreativ (ustanovka) qurish,
4. Kreativ yo'nalish;
5. Kreativ ifodali akt;
6. Kreativ o'z-o'zini boshqarish;
7. Kreativ faollik;
8. Kreativ intilishlar darajasi.

Tarbiyachining kreativligi uning ijodiy faoliyatida paydo bo'ladi va rivojlanadi. Pedagogning kreativlik potentsiali uning umumiy xususiyati sifatida aks etadi. U ijodiy faoliyatning dastlabki sharti va natijasi sanaladi. Mazkur sifat shaxsning o'z-o'zini namoyon qilish layoqatiga egalikni va

tayyorlikni ifodalaydi.Qolaversa, kreativ potentsial negizida har bir mutaxassisning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvati yaxlit holda namoyon bo'ladi.

Kreativ potentsial bilish jarayoniga yo'naltirilgan ijodkorlik bilan chambarchas bog'liq. Pedagogning kreativ potentsiali an'anaviy tafakkur yuritishdan farqli ravishda quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- tafakkurning tezkorligi va egiluvchanligi;
- yangi g'oyalarni yaratish qobiliyati;
- bir qolipda fikrlamaslik;

- o'ziga xoslik;
- tashabbuskorlik;
- noaniqlikka toqat qilish;

Pedagog kreativlik potentsialiga ega bo'lishi uchun kasbiy faoliyatida quyidagilarga e'tiborini qaratishi zarur:

- kasbiy faoliyatiga ijodiy yondashish;
- yangi-yangi g'oyalarni yaratishda faollik ko'rsatish;
- ilg'or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o'rganish;
- hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida fikr almashish.

Har bir pedagogning o'zini- o'zi rivojlantirishi va o'zini- o'zi namoyon eta olishi bevosita uning kreativlik qobiliyatiga egaligi bilan bog'liq. Kreativlik potentsialiga ega pedagog o'zida quyidagi malakalarni namoyon eta oladi:

- bajariladigan vazifaning mohiyati va ahamiyatini belgilay bilish;

- masalaning qo'yilishini tahlil qila olish;

- masalani hal qilish rejasini tuzish;

- masalani hal qilishda samarali metodlar (analiz, sintez, induksiya, deduktiya, taqqoslash va b.)larni qo'llash;

- masalani hal qilish usullarini tanlay olish;

- qabul qilingan qarorning to'g'riligini asoslash va qayta tekshirish;

- masalani hal qilishda kichik tadqiqot (izlanish)ni olib borish;

- masalani hal qilish sharoiti, jarayonning borishi va masala echimi

yakunlarini umumlashtirishga oid dalillarni rasmiylashtirish.

Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e'tibor qaratishi zarur. Ijodkorlik – muayyan yangilikning ahamiyati va foydali ekanligini belgilovchi shaxs faoliyati va uning natijasi.

Ijodkor shaxs – ijodiy jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshira oladigan hamda aniq ijodiy natija (mahsulot)larga ega shaxs.

Kreativ shaxs – jarayon yoki natija sifatida ijodkorlikni namoyon etuvchi, masalalarni yechishga nostandart usullar bilan yondasha olishga moyil, o'ziga xos harakatlarni tashkil etish, yangiliklarni

ilgari surishga, ijodiy mahsulotlarni yaratishga layoqatli va tayyor shaxs.

Ijod –ijtimoiy sub'ektning yangiligi, ahamiyati va foydaliligi jamiyat yoki muayyan guruh tomonidan tan olingan faoliyati yoki faoliyati natijasi.

Ijodkor shaxsni tarbiyalash – kasbiy-ijodiy faoliyat tajribalarini qaror toptirish va boyitish asosida ijodiy g'oya, ularni amalga oshirish ko'nikma va malakalariga ega shaxsni shakllantirish va rivojlantirish

Kasbiy-ijodiy faoliyat – mutaxassisning kasbiy masalalarni ijodiy hal qilish muvaffaqiyatini tavsiflovchi faoliyati, innovatsion xatti-harakati

Ijodiy topshiriqlar – muammoli vaziyatlarni tizimli tahlil asosida hal qilishga yo'naltirilgan masalalar tizimi.

Kasbiy-ijodiy imkoniyat – 1) kasbiy kompetensiya, malakaga egalik;

2) kasbiy ijod metodologiyasi asoslarini o'zlashtirganlik;

3) ijodiy tafakkurning shakllanganlik darajasi;

4) kasbiy-ijodiy layoqat va shaxsiy sifatlarning rivojlanganligi

Kasbiy ijodkorlik metodologiyasi – ijodkorlikning jarayon va natija sifatida ob'ektlar hamda muayyan kasbiy faoliyat turlariga munosabat ko'rinishidagi tuzilishi, mantiqiy tashkil etilishi, metod va vositalari haqidagi ta'limot.

Ijodiy tafakkur – tafakkurning ijod jarayonini tashkil etish va ijod natijalari (mahsullari)ni bashoratlashni ifodalovchi turi

Ijodiy qobiliyat – ijodiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish va uning natijalanganligini baholashda namoyon bo'ladigan individual xususiyati

Pedagogning kreativ potentsiali quyidagi tarkibiy asoslarni o'z ichiga oladi:

-Maqsadli-motivli yondashuv (ijodiy faoliyat qadriyat sanaladi va pedagogning qiziqishlari, motivlari, faoliyatni tashkil etishga intilishida ko'zga tashlanadi);

-Mazmunli yondashuv (o'zida pedagogik, psixologik, maxsus va innovatsion

xarakterdagi BKMni aks ettiradi);



-Tezkor-faoliyatli yondashuv (o'zida ma'lum fikriy-mantiqiy fikrlashga doir harakatlar, shuningdek, amaliy (maxsus, texnik, texnologik) faoliyat usullarini

ifodalaydi);

-Refleksiv-baholash (bunda shaxsiy ijodiy faoliyat mohiyatini anglash, o'z-o'zini tahlil qilish va o'z-o'zini baholash ko'zga tashlanadi);

Pedagogning kreativlik potentsiali ko'p darajali jarayon va u quyidagi tamoyillarga tayanadi:

-Muammoli xarakterga egalik

-Ijodiy yo'naltirilganlik

-Imkoniyatlarni oshirib borish

-Individuallikka erishish


-Kreativlikning yorqin namoyon bo'lishi

-Bir butunlik, izchillik, tizimlilik

-Shaxsning individual xususiyatlari va hayotiy faoliyatda o'rttirgan sifatlarining o'zaro uyg'unligi.

Kasbiy faoliyat samaradorligini baholashda pedagogning ijodkorligi – kreativ potentsiali darajasini baholash muhim ahamiyatga ega.

Pedagogning kreativlik potentsiali darajasini aniqlovchi mezonlar quyidagilar sanaladi :



Ushbu mezonlar pedagoglar kreativ potentsialini uch darajada aniqlash imkonini beradi

1-jadval. Pedagog kreativ potentsialining muhim darajalari

№	Darajalar	Daraja xususiyatlari
1	Yuqori	Muntazam ravishda turli tashabbuslarni ilgari suradi, kreativ qobiliyatga egaligini izchil namoyib etib boradi, kreativ jihatdan o‘ta faol, izlanuvchan
2	O‘rta	Ba‘zan u yoki bu tashabbusni ilgari suradi, kreativ qobiliyatga egaligi muntazam bo‘lmasa-da, ammo namoyon bo‘ladi, kreativ jihatdan bir qadar faol, izlanuvchan bo‘lishga intiladi
3	Past	Garchi u etarlicha asoslanmagan bo‘lsa-da, tashabbusni ilgari surshga intiladi, kreativ qobiliyati etarlicha namoyon bo‘lmaydi, izlanuvchan bo‘lishga intilmaydi

Pedagoglarda kreativlik sifatlari, ijodiy -pedagogik faoliyat malakalarini rivojlantirish borasida amerikalik tadqiqotchi Patti Drepeau tomonidan taklif qilingan yo‘llarda foydalanish kutilgan natijalarni qo‘lga kiritishga yordam beradi. Qolaversa, pedagoglarda kreativlik sifatlari shakllantirishda ustuvor tamoyillar asosida ish ko‘rish aniq maqsadga yo‘naltirilgan faoliyat samaradorligini kafolatlaydi.

1-topshiriq. Kreativ layoqatning o‘zaro bir-biriga bog‘liq bo‘lgan qismlarini noan‘anaviy usulda ifodalang.

2-topshiriq. Sizing amaliy tajribalaringizdan Pedagoglarning kreativlik imkoniyatini aniqlovchi mezonlar va ularning darajalaridan faoliyat jarayonida foydalanish yo‘llarini ko‘rsatib bering.

## **7-mavzu: Tarbiyachining innovatsion faoliyati**

### **Reja:**

1. Innovatsion pedagogikaning tushunchalari.
2. Ta‘limda innovatsion jarayonlarning o‘ziga xosligi
3. Innovatsiyaning rivojlanishi va bosqichlari.

**Amaliy mashg‘ulot ning maqsadi:** Innovatsion pedagogika, innovatsion jarayonlar, innovatsion faoliyatning rivojlanishi va

bosqichlarini o'rgatish. Magistrlarda innovatsion faoliyatning ta'lim jarayonidagi ahamiyatini shakllantirish.

**Ta'limning vositalari:** tayanch matn ,markerlar, ekspert topshiriqlar.

**Ta'limning metodlari:** amaliy usullar ,klaster, savol-javob.

**Kutilayotgan natija:** Innovatsion faoliyat ko'rsatish uchun innovatsion jarayonlarning o'ziga xosligini, innovatsiyaning rivojlanishini va bosqichlari bilib oladilar.

**Kichik maruza:**

Hozirgi davr Ta'lim taraqqiyoti yangi yo'nalish - innovatsion faoliyatni maydonga olib chiqdi. "Innovatsion pedagogika" atamasi va unga xos bo'lgan tadqiqotlar XX asrning 60-yillarida G'arbiy Yevropa va AQSHda paydo bo'lgan. Lug'aviy jihatdan "innovatsiya" tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda ("innovation") "yangilik kiritish" degan ma'noni anglatadi. Mazmunan esa tushuncha negizida "innovatsiya" tushunchasi muayyan tizimning ichki tuzilishini o'zgartirishga qaratilgan faoliyatni ifodalaydi.

Innovatsion ta'lim (ingl. —innovation – yangilik kiritish, ixtiro) –ta'lim oluvchida yangi g'oya, me'yor, qoidalarni yaratish, o'zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg'or g'oyalar, me'yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta'lim.

Innovatsion jarayon– yangilikning kiritilishi va shart-sharoitlari, tizimni yangi ko'rsatgichlarga muvaffaqiyatli o'tishini ta'minlovchi o'zgarishdir. Innovatsion o'zgarishlarga tayyorgarlik ko'rish va uni amaliyotga kiritish jarayonidir.

Innovatsion pedagogik g'oya– tizimlashtirilgan pedagogik g'oyalar; o'quv jarayoni bashorat etilishi, ma'lumotlar to'plami.

Ta'lim innovatsiyalari – ta'lim sohasi yoki o'quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo'llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlayoladigan shakl, metod va texnologiyalar.

Ta'lim innovatsiyalari "innovatsion ta'lim" deb ham nomlanadi.

"Innovatsion ta'lim" deganda odatda o'quv jarayoniga yangi (foydali) elementlar olib kirish tushuniladi. Shuning uchun ta'lim

tizimida innovatsiya o'zgartirish bilan bevosita bog'liq. Bunday o'zgartirishlar ta'lim tizimining:

- maqsadiga, mazmuniga, metod, texnologiyasiga, tashkil etish shakli va boshqaruv tizimiga;
- pedagogik faoliyatdagi o'ziga xoslik va o'quv-bilish jarayonini tashkil etishga;
- ta'lim darajalarini nazorat qilish va baholash tizimiga;
- o'quv- metodik ta'minotiga;
- tarbiyaviy ishlar tizimiga;
- o'quv reja va o'quv dasturlariga;
- o'quvchi va o'qituvchi faoliyatiga bog'liq.

Ta'lim tizimida innovatsion faoliyatning sub'ekti tarbiyachi, uning shaxsiy imkoniyati hisoblanadi. Bunda tarbiyachi shaxsining ijtimoiy -madaniy, intellektual va axloqiy imkoniyatlari yuksak ahamiyatga molik bo'ladi. Innovatsion pedagogik jarayonning muhim unsurlari shaxsning o'z -o'zini boshqarishi va o'zini - o'zi safarbar qila olishi hisoblanadi. Uning eng muhim yo'nalishlaridan biri talabalarning bilish faoliyatini rivojlantirish.

Ta'lim innovatsiyalari – Ta'lim sohasi yoki o'quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo'llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar.

Ta'lim innovatsiyalari “innovatsion ta'lim” deb ham nomlanadi. “Innovatsion ta'lim” tushunchasi birinchi bor 1979 yilda “Rim klubi”da qo'llanilgan.

Ta'lim innovatsiyalari bir necha turga ajratiladi. Ular:

1. Faoliyat yo'nalishiga ko'ra: pedagogik jarayonda yoki Ta'lim tizimini boshqarishda qo'llaniladigan innovatsiyalar.
2. Kiritilgan o'zgarishlarning tavsifiga ko'ra: radikal, modifikatsiyalangan hamda kombinatsiyalangan innovatsiyalar.
3. O'zgarishlarning ko'lamiga ko'ra: tarmoq , modul va tizim innovatsiyalari.
4. Kelib chiqish manbaiga ko'ra: jamoa tomonidan bevosita yaratilgan yoki o'zlashtirilgan innovatsiyalar.

Agar faoliyat qisqa muddatli, yaxlit tizim xususiyatiga ega bo'lib, faqatgina tizimdagi ayrim elementlarni o'zgartirishga xizmat qilsa u novatsiya (yangilanish) deb yuritiladi. Bordi-yu, faoliyat

ma'lum konseptual yondashuv asosida amalga oshirilib, uning natijasi muayyan tizimning rivojlanishiga yoki uni tubdan o'zgartirishga xizmat qilsa, u holda u innovatsiya (yangilik kiritish) deb ataladi.

Asosiy farqlar			
Novatsiya		Innovatsiya	
1	amaldagi nazariya doirasida qo'llaniladi	1	tizimli, yaxlit va davomli bo'ladi
2	ko'lam va vaqt bo'yicha chegaralanadi	2	ma'lum amaliyotda yangi faoliyat tizimini loyihalaydi
3	metodlar yangilanadi	3	sub'ektlarning faoliyati to'la yangilanadi
4	natija avvalgi tizimni takomillashtiradi	4	yangi texnologiyalar yaratiladi
			faoliyatda yangi sifat natijalariga erishiladi
			amaliyotning o'zi ham yangilanadi

Innovatsiyalar turli ko'rinishga ega. Quyidagilar innovatsiyalarning asosiy ko'rinishlari sanaladi

- yangi g'oyalar;
- tizim yoki faoliyat yo'nalishini o'zgartirishga qaratilgan aniq maqsadlar;
- noan'anaviy yondashuvlar;
- odatiy bo'lmagan tashabbuslar;
- ilg'or ish uslublari

Ta'lim tizimida yoki o'quv faoliyatida innovatsiyalarni qo'llashda sarflangan mablag' va kuchdan imkon qadar eng yuqori natijani olish maqsadi ko'zlanadi. Innovatsiyalarning har qanday yangilikdan farqi shundaki, u boshqarish va nazorat qilishga imkon beradigan o'zgaruvchan mexanizmga ega bo'lishi zarur.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda innovatsiya jarayoni sxemasi beriladi. U quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

1. Yangi g'oya tug'ilishi yoki yangilik kontsepsiyasini paydo qilish bosqichi, u kashfiyot bosqichi deb ham yuritiladi.

2. Ixtiro qilish, ya'ni yangilik yaratish bosqichi.

3. Yaratilgan yangilikni amalda qo'llay bilish bosqichi.

4. Yangilikni yoyish, uni keng tadbiq etish bosqichi.

5. Muayyan sohada yangilikning hukmronlik qilish bosqichi. Bu bosqichda yangilik o'zining yangiligini yo'qotadi, uning samara beradigan muqobili paydo bo'ladi.

Yangi muqobillik asosida, almashtirish orqali yangilikning qo'llanish doirasini qisqartirish bosqichi.

**1-topshiriq.** Innovatsion pedagogika tushunchalarini jadval asosida izohlang.

№	Tushunchalar	Ta'riflar
1	Innovatsion ta'lim	
2	Innovatsiya	
3	Innovatsion pedagogik g'oya	
4	Novatsiya	


**2-topshiriq.** Innovatsiyaning rivojlanishi va bosqichlarini yoritib bering.

-yangilikni idrok qilishga innovatsion shaylikni shakllantirish;


-yangicha harakat qila olishga o'rgatish.

Tarbiyachining innovatsion faoliyati o'z ichiga yangilikni tahlil qilish va unga baho berish, kelgusidagi harakatlarning maqsadi va kontsepsiyasini shakllantirish, ushbu rejani amalga oshirish va tahrir qilish, samaradorlikka baho berishni qamrab oladi.

**3-topshiriq.** Pedagogning innovatsion faoliyati nimalar bilan belgilanishini ko'rsatib bering.



**4-topshiriq.** Tarbiyachi innovatsion faoliyatining ahamiyatini baliq skeleti metodida ifodalang.



## 8 – amaliy mashg‘ulot.

**Mavzu: Maktabgacha ta‘lim tizimini texnologiyalashtirish**

### **Reja:**

1. “Texnologiya” tushunchasi.

2. Pedagogik texnologiya mezonlari, aspektlari va qo‘llanilish darajalari.

3. Tanqidiy fikrlash ta‘lim texnologiyalari.

**Amaliy mashg‘ulot ning maqsadi:** Texnologiya tushunchasi va pedagogik texnologiyalar haqida, ta‘lim jarayonida texnologiyalardan foydalanish to‘g‘risida bilimlar berish.

**Ta‘limning vositalari:** tayanch matn ,markerlar, ekspert topshiriqlar.

**Ta‘limning metodlari:** “Venn diagrammasi”, blits-so‘rov, aqliy hujum, amaliy usullar.

**Kutilayotgan natija:** Magistrlar ta‘lim va tarbiya jarayonini ta‘lim texnologiyalari orqali amalga oshirishni o‘rganadilar.

**Kichik maruza:** "Texnologiya" tushunchasi texnikaviy taraqqiyot bilan bog‘liq holda fanga 1872-yilda kirib keldi va yunoncha ikki so‘zdan - "texnos" (techne) san‘at, mahorat, hunar va "logos" (logos) - fan so‘zlaridan tashkil topib "hunar fani" ma‘nosini anglatadi. Biroq, bu ifoda ham, zamonaviy texnologik jarayonni to‘liq tavsiflab berolmaydi. Texnologik jarayon, har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalangan holda, operatsiyalarning muayyan ketma-ketlikda bajarilishni ko‘zda tutadi **Pedagogik texnologiya** - bu tarbiyachining ta‘lim-tarbiya vositalari yordamida bolalarga muayyan sharoitda ta‘sir ko‘rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxsiy sifatlarni shakllantirish jarayonidir.

Pedagogik texnologiya ta‘lim maqsadlariga erishish va shaxsning rivojlanishiga qaratilgan pedagogik faoliyatni muttasil ravishda rivojlantirish tizimi loyihasidir. Pedagogik texnologiya ta‘lim istiqbolining jarayonlashtirilgan aspektidir.

O‘qitish texnologiyasini belgilash – bu kasbiy faoliyat sohasidagi ta‘limiy va takomillashish samarasini ta‘minlovchi o‘kuv jarayonini me‘yoriy boshqarib turishdir. Ilmiy adabiyotlarda pedagogik texnologiyaning uch aspekti to‘g‘risida fikr yuritiladi: *ilmiy, tavsifiy, amaliy.*



**Ilmiy aspekt**da o'qitishning maqsadi, mazmuni va metodlari ilmiy asoslanadi, pedagogik jarayon loyihalashtiriladi.

**Tavsifiy aspekt**da rejalashtirilgan o'qitish natijalariga erishishning maqsadi, mazmuni, metodlari va vositalarining ishtiroki asosida algoritm jarayoni ishlab chiqiladi.

**Amaliy aspekt**da pedagogik texnologiya jarayoni amalga oshiriladi. Ta'lim amaliyotiga nisbatan pedagogik texnologiyaning uch sathi belgilanadi: *umumpedagogik, xususiy metodik, lokal (modul)*.

**Umumpedagogik texnologiya** yaxlit ta'lim jarayonini ifoda qiladi.

**Xususiy metodik texnologiya** bir fan doirasidagi o'quv -tarbiya jarayonini amalga oshirish metodlari va vositalaridan iborat bo'ladi.

**Lokal (modul) texnologiya** o'quv tarbiya jarayonining maxsus bo'limlariga texnologiyani tatbiq qilishni ifoda qiladi. Bu texnologiya xususiy didaktik va tarbiyaviy vazifalarni hal qilishga qaratiladi.

Tadqiqotchilar har qanday pedagogik texnologiyalarni qanoatlantiradigan mezonlarni belgilaydilar.

**Izchillik** pedagogik texnologiyaning mezoni sifatida jarayonning mantiqiyligi, pedagogik texnologiyaning barcha qismlarining o'zaro bog'likligi, yaxlitligini o'z ichiga oladi.

Pedagogik texnologiyaning mezonlaridan biri **boshqaruv**ga asoslanganligidir. U o'quv jarayoni diagnostikasi, uni rejalashtirish va amalga oshirishni loyihalash, undagi o'qitish metodlari va vositalari bilan o'zgartirib turishdan iborat bo'ladi.

Pedagogik texnologiyaning **samaradorlik** mezoni ta'lim jarayonining konkret sharoitlarida olinadigan yuksak natijalarni ko'zda tutadi.

**Qayta tiklash** pedagogik texnologiyalar mezonlaridan biridir. Unda pedagogik texnologiyalarni boshqa o'quv yurtlarida qo'llash imkoniyati tushuniladi.

SHunday qilib, oliy maktabda mutaxassislarining kasbiy tayyorgarligi murakkab va doimiy harakatdagi tizimni tashkil etadi. Bu tizimda bo'lg'usi o'qituvchining texnologik tayyorgarligi alohida o'rin tutadi. U bo'lg'usi pedagogning intellektual rivojlanishi, faol o'qishi, ijodiy shaxsning rivojlanishi, tafakkurning

kasbiy yo‘nalganligani idrok qilish, o‘quv-bilish faoliyatini tashkil etishda tadqiqiy (ilmiy) tamoyillarni amalga oshirish bilan bog‘langan. Bo‘lg‘usi pedagogning texnologik tayyorgarligi oliy o‘quv yurtida pedagogik texnologiyalarni amalga oshirishni talab qiladi. Oliy o‘quv yurti ta‘lim jarayonida foydalaniladigan va keng tarqalgan pedagogik texnologiyalar: muammoli o‘qitish, o‘qitishning tabaqalashtirilgan va individual texnologiyasi, programmalashtirilgan o‘qitish texnologiyasi, kompyuter axborot texnologiyasi, mualliflik texnologiyasidir.

Pedagogik texnologiyalar tasnifi:

1. An’anaviy texnologiya.
2. Ta‘limning fanga yo‘naltirilgan texnologiyasi.
3. Ta‘limning shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyasi.
4. O‘quvchilar faoliyati faolligini jadallashtirish asosidagi pedagogik texnologiya.
5. Muammoli ta‘lim texnologiyasi.
6. O‘quv jarayonini tashkil etish va samarali boshqarish asosidagi pedagogik texnologiya.
7. Axborot texnologiyalari.
8. Rivojlantiruvchi ta‘lim texnologiyalari.
9. Interaktiv texnologiyalar.
10. Tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi texnologiyalar.

Pedagogik texnologiyalarning vazifalari – pedagog-o‘qituvchilarni zamonaviy pedagogik texnologiyalarning mohiyatidan xabardor qilish hamda ularni maxsus fanlar asoslarini o‘qitishga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar jarayonini noan’anaviy shakllarda tashkil etishga, Ta‘lim jarayonini mukammal modul asosida loyihalashga erishish, Ta‘lim jarayonini loyihalash texnologiyasidan oqilona foydalana olish ko‘nikma va malakalariga ega bo‘lishga, Ta‘lim oluvchilar tomonidan nazariy bilimlarning puxta, chuqur o‘zlashtirili shi va ularda amaliy ko‘nikma va malakalar hosil bo‘lishining kafolati bo‘la olishga o‘rgatishdan iborat.

Ta‘lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni kiritish va ularni qo‘llashda quyidagi vazifalar belgilanadi va hal etiladi:

– pedagoglarni zamonaviy pedagogik texnologiya asoslari bilan tanishtirish – ma’ruza, adabiyotlar tavsiya etish;

– zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida ishlashni xohlovchi fidoyi

pedagoglarni aniqlash. Ular orqali pedagoglarga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llashdan ko‘zda tutilgan maqsadni, uning mohiyatini yetkazish;


– zamonaviy Ta’lim texnologiyalari asosida ishlamoqchi bo‘lgan pedagoglarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar qo‘llash jarayoniga tayyorlash yuzasidan quyidagi tashkiliy ishlarni amalga oshirish: ta’lim (tarbiya) jarayonining umumiy, yaxlit loyahasini ishlab chiqish, Ta’lim jarayonida hal etilishi lozim bo‘lgan aniq maqsad va vazifalarni belgilash, Ta’lim jarayoni mohiyatini bashoratlash va uning samaradorligini ta’minlashga yordam beruvchi eng samarali, maqbul shakl, usul hamda texnik vositalarni tanlash, ta’lim jarayonida o‘quvchining erkin, mustaqil faoliyat ko‘rsatishi uchun muayyan shart-sharoitlarni yaratish, ularda ma’lum ko‘nikma hamda malakalarning shakllanishi uchun vaqt o‘rnini belgilash, ularning bilimlari darajasini avvaldan tashxislash, o‘quvchilar faoliyatini yo‘naltirish, nazorat qilish hamda baholashni tashkil etish bilan bog‘liq individual maslahatlar berish, seminarlar, treninglar, ko‘rgazmali mashg‘ulotlar tashkil etish;

– zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida ishlovchi pedagoglarning Ta’lim jarayonini tashkil etishga ijodiy yondashuvi samaradorligini baholashning ishonarliligini ta’minlash uchun uning monitoringini olib borish, kuzatuv va tahlillar o‘tkazish, metodik yordamlar ko‘rsatish va ularning hisobotlarini eshitib borish;


– zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida ishlovchi pedagoglar tomonidan ishlab chiqilgan pedagogik texnologiya loyahasini mashg‘ulotlar jarayonida sinash;

– pedagogik texnologiyalar va undan ta’lim jarayonida foydalanish borasidagi nazariy va amaliy bilimlarga ega bo‘lgan ilg‘or pedagoglardan innovator pedagogik jamoani shakllantirish va h.k.

**1-topshiriq.** Pedagogik texnologiyalar tasnifini innovatsion usulda ko'rsatib bering.




**2-topshiriq.** Pedagogik texnologiya aspektlarini ifodalang.



**3-topshiriq.** Ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni "SWOT-tahlil" metodi yordamida ifodalang.

**"SWOT-tahlil" metodi.**

<i>S (strength)</i>	
<i>W (weakness)</i>	
<i>O (opportunity)</i>	
<i>T (threat)</i>	



**4-topshiriq.** Maktabgacha ta'limda ta'limni samarali amalga oshirish uchun muhim bo'lgan texnologiyalarni klaster metodida ifodalang.

**5-topshiriq.** Mashg'ulot ni loyihalash tartibini "T" sxemasi yordamida ifodalang.

<b>+ (ha, ijobiy)</b>	<b>- (yo'q, salbiy)</b>

### **9 – amaliy mashg'ulot.**

**Mavzu: Maktabgacha ta'lim tashkilotida mashg'ulotlarni tashkil etish yo'llari.**

#### **Reja:**

1. Mashg'ulot - maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'limni tashkil etishning asosiy shakli.
2. Didaktik maqsadiga ko'ra mashg'ulot ning turlari.
3. Mashg'ulotning tuzulishi.

**Amaliy mashg'ulot ning maqsadi:** Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim jarayonini amalga oshirish uchun magistr'larga mashg'ulot larning turlari, tuzulishi, mashg'ulot ning ahamiyati va vazifasini o'rgatish.

**Ta'lim metodlari:** Aqliy hujum, klaster, blits so'rov.

**Ta'lim vositalari:** Tayanch matnlar, markerlar, plakat, tarqatma materiallar, reja tuzish.

**Kutilayotgan natija:** Magistrlar mashg'ulot haqida, uning turlari va tarkibiy qismlari haqida bilimlarga ega bo'ladilar.

**Kichik ma'ruza:** Mashg'ulot bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarga ta'lim berishning asosiy shaklidir. Mashg'ulot – pedagogning bolalarni kerakli bilim va malakalardan frontal holda xabardor qilishidir. Tarbiyachi bolalarga ta'lim berishni kun davomida amalga oshiradi: ularning bilimlarini boyitadi, madaniy-gigienik, xulq madaniyati, gaplashishi nutiqi, sanoq - hisob

harakatlari kabi turli-tuman malaka va ko'nikmalarini shakllantirib boradi. Ammo ta'lim berishda bosh rolni mashg'ulot egallaydi. Mashg'ulot lar maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'limni tashkil etish shaklidir. U maktabgacha tarbiya yoshidagi hamma bolalar uchun majburiydir: unda dastur mazmuni belgilab berilgan, kun tartibida unga ma'lim o'rin va vaqt ajratilgan. Mashg'ulot tarbiyachi rahbarligida o'tkaziladi, tarbiyachi mashg'ulot da bolalarni yangi bilimlardan xabardor qiladi, bolalar egallab olgan bilimlarni esa aniqlab, mustahkamlaydi, bolalarning amaliy mashg'ulot larini tashki etadi. O'quv materialining mazmuni asta-sekin murakkablashtirilib boriladi. Mashg'ulot setkasini tuzganda haftada bolalarning ish qobiliyati yuqoriroq bo'ladigan kun tanlanadi. Ma'lumki, haftaning o'rtalarida (seshanba, chorshanba, payshanba) bolalarnig ish qobiliyati yuqori bo'lar ekan, bu kunlarga bolalarning aktiv faoliyatini talab etuvchi murakkabroq mashg'ulot tanlanadi (elementar matematika, nutqni rivojlantirish, savodga o'rgatish va h. k.) Jadval tuzganda bu mashg'ulot larni birinchi qo'yish kerak, bolalardan ko'p harakat qilishni, hissiy nagruzkani talab etuvchi mashg'ulot larni (musiqa, jismoniy tarbiya, tasviriy faoliyat) ikkinchi qilib qo'yiladi.

**Didaktik maqsadiga ko'ra mashg'ulot lar** quydagi xillarga bo'linadi: bolalarga yangi bilim beruvchi mashg'ulot lar, bolalarning egallagan bilimlarini mustahkamlovchi va sistemaga solivchi mashg'ulot lar; bolalarning bilimini tekshiruvchi-sinovchi mashg'ulot lar; kompleks mashg'ulot lar.

1. Bolalarga Yangi bilim beruvchi mashg'ulot larni o'tkazishdan maqsad-ularni yangi bilimlardan xabardor qilish, tevarak-atrofdagi narsa va buyumlar, voqealar to'g'risidagi bilimlarni aniqlash va kengaytirishdir. Bo'nday mshg'ulotlarga yangi ob'ektni kuzatish, hikoya qilib so'zlab berish va boshqalar kiradi. Mazkur mashg'ulot lar hamma yosh guruhlarida o'tkaziladi.

2. Bolalarning to'plagan bilim va tajribalarini mustahkamlovchi va sistemaga soluvchi mashg'ulot alr. Undan ko'zlangan asosiy maqsad idrok etilgan narsalarni anglab olish va dastlabki umumlashtirish. Buning uchun tanish ob'ekt kuzatiladi, ikki narsa solishtiriladi (xona o'simliklari, daraxtlar, hoyvonlar), didaktik o'yinlar, suhbatlar o'tkaziladi. Bunday mashg'ulot ni o'tkazish

orqali tarbiyachi bolalar nimani yaxshi o'zlashtirib olgan-u, nima yaxshi o'zlashtirilmaganini bilib oladi. Tarbiyachi mashg'ulot jarayonida bolalarning bilimini yangi narsalar – detallar bilan boyitib boradi.

3. Bolalarning bilimini sinovchi mashg'ulot lar. Bunday mashg'ulot lardan

maqsad tarbiyachi bolalar dastur bo'yicha o'zlashtirilishi lozim bulgan bilim va malakalarni o'zlashtirib oldilarmi-yo'qmi, shuni bilib oladi va o'zining bo'lajak ish mazmuni, metodini belgilaydi. Mashg'ulot ni tarbiyachi o'z xohishi bilan kvartal,yarim yil va yilning oxirgida, shuninigdek mudira va metodistning iltimosiga binoan o'tkazishi mumkin.

4. Kompleks mashg'ulot lar bolalar bog'chasi tajribasida keng tarqalgan bo'lib, bunday mashg'ulot larda bolalarga yangi bilim beriladi, egallangan bilimlar mustahkamlanadi va takrorlanadi, sistemaga solinadi, olgan bilim va malakalarini amalda qo'llashga o'rgatiladi. Bolalar bog'chasida tasviriy faoliyat konstruksiyalash, tevarak-atrofdagi ijtimoiy hayot va tabiat bilan tanishtirish, nutiqni o'stirish, savdo o'rgatish, eng oddiy matematik tasavvurlarni rivojlantirish, musiqa va jismoniy tarbiya mashg'ulot lari o'tkaziladi. Mashg'ulot ga to'g'ri tayorgarlik ko'rilib, uyushgan holda o'tkizilganda, bolalar oldigi ma'lum aqliy vazifa qo'yilgan taqdirda, ularning fikrlash faoliyati rivojlanadi. Aqliy vazifalarning birligi va muayyan qiyinchilik bolalarni uyushtiradi va ularning diqqatini ma'lum tomonga yo'naltiradi. Eng avvalo bolaning aqliy vazifani hal etish yo'lidagi qiyinchilikni engish imkoniyati to'g'iladi, ntijada bolada faoliyatga qiziqish uyqonib, u malakani egallash uchun mustaqil intiladi, o'ylaydi va vazifaning uddasidan chiqish uchun faqm-farosatini ishga soladi.

**Mashg'ulot quyidagi tuzilishga ega: bolalarni uyushtirish, asosiy qism, yakunlovchi qism.** Bolalar mashg'ulot ga qiziqib qatnashishlari va unda faol ishtirok etishlari uchun uning mazmuni va metodikasi yaxshilab puxta o'ylab olinishi kerak. Bolalar o'quv faoliyatini qanchalik puxta egallab olsalar, tarbiyachini e'tibor bilan tinglab, o'yindan mshg'ulotga osanlik bilan o'tadilar. Tarbiyachi bolalarni yig'ib, ularning makshg'ulotga tayyorligini tekshiradi:



tashqi ko'rinishi, joy-joyiga to'g'ri o'ltiriganligi, diqqatini to'plaganini sinab kuradi. Mahg'ulot muvaffaqiyatli o'tishi uchun bolalar oldida turgan faoliyatga qiziqish uyg'otishi, buning uchun bolalarning yoshi, qiziqishi, faoliyatiga mos har xil usullarni qo'lashi kerak. Kichik guruh bolalarida mashg'ulot ga qiziqish uyg'otish uchun bolalarni qiziqtiradigan mazmundagi, kutilmagan, topishmoqli usullardan foydalanadi. «Quloq solinglar-chi, kimdir eshik qoqyapti! Bu qo'g'irchoq biznikiga mehmonga kelibda», - deb mashg'ulot ni boshlash mumkun. Bolalarning narsalar va ularning nimaga ishlatilishi to'g'risidagi tasavvurini tartibga solivchi mashg'ulot manna shunday boshlanadi.

Katta guruhlarda qanday mashg'ulot bo'lishini tarbiyachi bolalarga oldindan

aytib quydi. Bu bolalarning bo'lajak mashg'ulot ga qiziqishini orttiradi. Masalan, mustaqillik maydoniga ekskursiyaga borishni bolalarga bir hafta oldin aytib o'tadi va ularga rasimlarni ko'ribshni, ota-onasi bilan sayr qilganda nimalarni ko'rganini eslashni taklif etadi. Bolalar bu kunni zo'r qiziqish bilan kutishadi. Katta va tayyorlov guruhlaridagi bolalar mashg'ulot ning zarurligi va

majburiyiligini tushinishlari, unga ongli ravishda tayyorlanishlari zarur.

Asosiy qism. Mashg'ulot da bolalarga Yangi bilim beriladi, topshiriqni bajarish

yuzasidan yo'l-yo'riq ko'rsatiladi, qiynalغان bolalarga yordam berilajdi. Bolalar bilan bo'ladigan jamochilik munosa'atlarini alohida munosabat bilan qo'shib olib boriladi. Topshiriqni bajarishni hamma bolalar uddalay olishlari uchun tarbiyachi har xil metod va usullarni qo'laydi. Mashg'ulot ning boshlanishidanoq bolalarning diqqatini tashkileta bilishi kerak. Bu bolalar lodiga qo'yilgan aqliy vazifaga bog'liq. Bolalarga qanday ishlar olib

borish zarurligi ko'rsatiladi va tushuntiriladi, ularni ayrim bolalarga alohida


takrorlash shart emas, balki hamma bolalarni e'tibor bilan eshitib o'tirishga o'rgatish kerak. Zarurat tug'ilsagina takrorlash mumkun. Bog'chadagi bolalar o'qish, yozishni bilmaganligi uchun o'tilgan materialni qaytarib mustahkamlay olmaydilar, shuning uchun bolalarga berilgan bilimni mustahkamlash uchun tarbiyachi

takrorlash va mashq qildirish usullaridan foydalanadi. Mexanik qaytarish, yodlatishdan qochish kerak, chunki anglab olinmagan material tezda esdan chiqadi. Qaytarish, mashq qildirishda tarbiyachi fikrlarni to'ldirib, tartibga solib boradi, bu bolalarda bilimga qiziqish uyg'otadi va u narsa to'g'risidagi tasavvur va tushunchalarini chuqirlashtiradi. Mashg'ulotni dastur maqsad va bolalar yoshiga qarab mustahkamlashning har xil usullari qo'llaniladi.

Bolalar o'zlashtirib olishi va javob qilishi kerak bo'lgan material so'z orqali

amalga oshiriladi. Shuning uchun u yoki bu ishni bajarishda bolalardan uni qanday amalga oshirmoqchi ekanini so'z bilan tushuntirib berish talab etiladi (masalan, sonsanoqqa o'rgatishda, qurish-yasashda, rasm chizganda qanday tartib bilan bajarishi, buning uchun qanday materialdan foydalanishini tushuntirib berishi talab etiladi). Mustahkamlash jarayonida didaktik material bilan bajariladigan mashq aqliy vazifani o'z ichiga olsa, bolalarda mustaqillikni tarbiyalashda katta ahamiyatga ega bo'ladi.

**1-topshiriq. Mashg'ulotni tuzilishini klaster metodida ko'rsatib bering.**



**2-topshiriq.** Mashg‘ulot turlarini noan‘anaviy metod asosida ifodalang.

**3-topshiriq.** ”Ilk qadam davlat dasturi” asosida faoliyat ishlanmasi tuzing.

### **10–amaliy mashg‘ulot.**

**Mavzu: Maktabgacha ta‘lim tashkilotida mashg‘ulotlarni qiziqarli tashkil etish.**

#### **Reja:**

1. Ekskursiya bolalarga ta‘lim berishning maxsus shakli.

2. Multimediali kompyuter texnologiyalari asosida mashg‘ulotlarni tashkil etish.

3. ”Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi asosida mashg‘ulot larni tashkil etish.

**Amaliy mashg‘ulot ning maqsadi:** Maktabgacha ta‘lim tashkilotida bolalarga ta‘lim berishda mashg‘ulot va ekskursiyaning o‘rnini, ahamiyatini, mashg‘ulot larni kompyuter texnologiyalari asosida tashkil etishning samarasini, ”Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi asosida mashg‘ulot ishlanmasi yaratishni o‘rgatish.

**Ta‘limning vositalari:** tayanch matn, marker, materiallar,

**Ta‘limning metodlari:** aqliy hujum, blits- so‘rov, amaliy usullar, ”Venn diagrammasi“, reja tuzish.

**Kutilayotgan natija:** Magistrlar maktabgacha ta‘lim tashkilotida bolalarga ta‘lim berishda mashg‘ulot va ekskursiyaning o‘rnini, ahamiyatini, mashg‘ulot larni kompyuter texnologiyalari asosida tashkil etishning metodikasi, ”Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi asosida mashg‘ulot ishlanmasi tuzishni o‘rganib oladilar.

**Kichik ma‘ruza:** Ekskursiya bolalarga ta‘lim berishning maxsus shaklidir. Mashg‘ulot dagi kabi ekskursiyada ham dastur mazmuni bilan bog‘liq ta‘lim va tarbiya vazifalari qo‘yiladi. Mashg‘ulot kabi ekskursiyada ham hamma bolalar qatnashadi. Ekskursiyalar mazmuniga ko‘ra shartli tarzda ikki turga bo‘linadi: tabiatga uyushtiriladigan ekskursiya — bog‘, o‘rmon, daryo, o‘tloq, shuningdek, hayvonot bog‘i, botanika bog‘iga (bular turli mavsumda o‘tkaziladi) ekskursiyalar hamda qishloq xo‘jalik ekskursiyasi — dala, parrandachilik fabrikasi, bog‘, ekinzor va shu

kabilarga kattalarning mehnati bilan tanishish maqsadida uyush- tiriladigan ekskursiyalar.

Ekskursiya mashg'ulot turi sifatida o'rtta, katta hamda tayyorlov guruhlarida o'tkaziladi. Ekskursiyadan ko'zlangan asosiy maqsad bolalarning tevarak atrofdagi hayot to'g'risidagi tasavvur va taassurotlarini shakllantirish. Har bir ekskursiya uchun barcha bolalar egallashlari shart bo'lgan dastur mazmuni belgilanadi. Shunga ko'ra ekskursiyada asosan kuztish metodidan foydalaniladi. Bolalarda ekskursiyaga qiziqish uyg'otish uchun ularga qaerga ekskursiyaga borishlari, undan ko'zlangan maqsad to'g'risida tarbiyachi qisqacha so'zlab beradi. Ekskursiyaga tarbiyachi bolalar bilan birgalikda tayyorg'arlik ko'radi, olib boriladigan jihozlar bolalar bilan birgalikda tanlanadi, joylashtiriladi va kimlar nimani olib borishi belgilanadi, tarbiyachi bolalarga ekskursiyada o'zlarini qanday tutishlari kerakligini eslatadi. Bunday ekskursiyalarni mazmunli tashkil etish va uyushqoqlik bilan o'tkazishda tarbiyachining rahbarlik roli muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan Davlat talablarida maktabga tayyorlov guruhi bolalarini savodchiqarishga tayyorlash, elementar matematik bilim berish va atrof-olamni o'rganish, ta'lim o'yinlari yo'nalishlari bo'yicha quyidagilar qayd etilgan: nutqo'stirish bo'yicha nutq-tovush madaniyatini shakllantirish, ijodiy hikoya qilish, nutqning grammatik tuzilishini shakllantirish, lug'atini boyitishni jadallashtirish, matematika bo'yicha son va sanoq, miqdor (kattalik), shakllar, fazoviy tasavvurlar, vaqt haqida tasavvur hosil qilish. Ta'limiy o'yinlar bo'yicha rangni top ,shaklni top (doira, kvadrat, uchburchak va boshqa shakllar), halqalarning shakli va ranglari bo'yicha o'yinlar, ekologiyaga oid o'yinlar va turli xil noan'anaviy rivojlantiruvchi o'yinlar, tabiat bilan tanishtirish bo'yicha gulzorga ekskursiya, sayohat, kabutar singari qushlarni kuzatish, ularning xususiyatlari va farqi, havo va uning xossalari bilan tanishtirish, suv va uning xususiyatlari bilan tanishtirish kiradi. Multimediali kompyuter texnologiyasining ta'lim-tarbiya berish metodikasini bayon qilishdan oldin uning quyidagi ikki jihatiga e'tibor berish kerak:

1) agar u yoki bu multimedia vositasi tarbiyalanuvchilarga bayon etib borilmasdan namoyish etilsa, u oddiy multfilm bo'lib qoladi.

2) agar tarbiyachi multimedia vositasini namoyish etish davomida uni tahlil etib (tushuntirib, bayon etib) borsa, ta'lim jarayonini aks ettirib, multimedia texnologiyasiga aylanadi.

Shuning uchun, MTTlar sharoitida kompyuterlardan ta'lim-tarbiya jarayoniga foydalanish metodikasini ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o'rtasidagi dialog texnologik xaritaga kiritilgan reja asosida olib boriladi. Agar MTTdagi kompyuterlar soni 5-6 dan ortiq bo'lsa, mashg'ulot frontal ravishda, bitta bo'lsa, undan navbatma-navbat foydalanilgan holda o'tkaziladi.

Bunday holda taklif etilgan birinchi tarbiyalanuvchi tarbiyachi tomonidan berilgan savolga to'g'ri javob bera olmasa, ikkinchidan so'raladi. Agar MTTlarda proyektor va ekran (yoki elektron doska) bo'lsa, tarbiyachi mashg'ulotni kompyuter-elektron doska usulidan foydalanib olib boradi. Bu holda (MTTda bitta kompyuter bo'lgan hol) kompyuter xotirasidagi o'rganiladigan material elektron doskaga chiqarilib tarbiyachi guruhning barcha bolalari bilan muloqotda bo'ladi. Mashg'ulot davomida o'rganiladigan materialning har bir bo'lakchasini tarbiyalanuvchilar javoblaridan keyin tarbiyachining o'zi xulosalab boradi.

Kompyuterda bajariladigan elementar matematik amallarni tarbiyachi nazorati asosida tarbiyalanuvchilarning o'zlari mustaqil bajaradilar va o'zlarining kompyuter savodxonliklarini rivojlantirib boradilar. Kompyuter-an'anaviy mashg'ulotlarda foydalaniladigan tarqatma materiallarni o'rnini bosa oladi. Masalan, an'anaviy usulda harflar va raqamlar tarqatma material sifatida karton qog'ozdan tayyorlanib kelinadi. Multimedia texnologiyasida esa, ular monitor ekranida tayyor holda ko'rsatiladi. Odatdagi mashg'ulot qo'llanmasi o'rnini elektron qo'llanma bosa oladi.

15-20 daqiqali ikkinchi bosqich (dam olish bosqichi)dan so'ng, uchinchi bosqichda birinchi bosqichda kompyuterdan foydalanib, o'rganilgan materiallar savol-javob asosida mustahkamlanadi va tarbiyalanuvchilarning bilimlari baholanadi. Mashg'ulot oxirida uyga vazifa beriladi. Tarbiya-lanuvchilarga uyga beriladigan

topshiriqlar kundalik turmushda uchraydigan masalalardan bo'lishi maqsadga muvofiq. Masalan, hovlidagi daraxtlarni sanab kelish, qaychi yordamida qog'ozdan uchburchak, to'rtburchak shakllarini, A harfini yasab kelish kabi topshiriqlar beriladi.

Multimedia texnologiyasidan foydalanib mashg'ulot o'tkazishda analogiya metodidan foydalanish samarali natija beradi. Masalan, kompyuterning tashqi qurilmasini o'rganishda televizor bilan taqqoslab tushuntirish mumkin.

Kompyuterda yozuv ishlarini amalga oshirish mexanik yozuv mashinasi bilan taqqoslanadi. Multimedia texnologiyasidan foydalanilgan mashg'ulot (kompyuterli ta'lim)da slayd, taqdimot va boshqa ko'rgazmali vositalar tayyorlash va misollar tanlashda, eng avvalo bolalarga tanish bo'lgan hodisalar, buyumlar, obyektlar, uyro'zg'or anjomlaridan, shuningdek, oiladagi kundalik jarayon va hodisalardan foydalanish kerak. Kompyuterli mashg'ulotdan faqat MTMLarining maktabga tayyorlov guruhleri(6-7yosh)da emas, balki o'rta guruhlarda ham foydalanish mumkin.

Bunday guruhlarda kompyuter ekraniga tarbiyachining izohi bilan turli qiziqarli tarbiyaviy o'yinlar yoki bolalarning kundalik hayotiga doir ko'rgazmalarni namoyish etish ham qo'l keladi.

Ilk qadam davlat dasturi asosida tashkil etilgan mashg'ulot ishlanmasi.

**Mashg'ulot nomi:** Nutqni rivojlantirish

**Mavzu:** Hashorotlar

**Guruh:** Kichik

**Ta'limiy maqsad:** Hashorotlar va ularning nomi bilan tanishtirish, zararkunanda va foyda keltiradigan hashorotlarni farqlashga o'rgatish.

**Tarbiyaviy maqsad:** Bolalar o'rtasida do'stona munosabatni yaratish, kichik guruhlarda ishlashga o'rgatish, tabiatga va undagi foydali hashorotlarga mehr uyg'otish.

**Rivojlantiruvchi maqsad:** Bolalar tafakkuri va xotirasini o'yin orqali rivojlantirish, ma'nan barkamol shaxsning shakllanishiga ko'maklashish.

**Kerakli jihozlar:** hashorotlar surati, ertak kitoblar

**Metod:** Ko'rgazmalilik, savol-javob, kuzatish, tushuntirish.

**Mashg'ulot ning borishi:**

Har bir bolaning qo'liga hashorotlar rasmlari beriladi.

**Tarbiyachi:** Bolajonlar qo'lingizga bergan suratlarimga qaraymiz. Bu rasmlar bilan bitta bitta tanishamizmi?

**Bolalar:** Ha

**Tarbiyachi :** Demak birinchi rasmni qo'limizga olamiz.

Bolalar kapalak rasminini qo'lga olishadi.

**Tarbiyachi:** Bolajonlar bu chiroyli hashorotning nomini bilasizmi? Bilsangiz qani aytingchi buning nomi nima ?

**Bolalar:** Bu hashorotning nomi —Kapalak

**Tarbiyachi:** Barakalla bolajonlar.Ularni ko'proq gullarning atrofida uchratishimiz mumkin. Chunki ular gullarni judayam yaxshi ko'rishadi.Sizlar ham gullarni yaxshi ko'rasizmi?

**Bolalar :** Ha

**Tarbiyachi:** Judayam yaxshi endi keyingi hashorotimiz bilan tanishamiz . Keyingi rasmga qaraymiz.

Bu rasmda nima tasvirlangan? Bu rasmda asalarini ko'ramiz .

Asalari qanday ovoz chiqarib uchadi —Vizz-vizz deb ovoz chiqaradi bolajonlar.

Qani qaytaraylikchi?

**Bolalar :** Vizz-vizz, vizz-vizz

**Tarbiyachi:** Barakalla! Bilasizmi bolalar asalari bizga ko'p mehnatlar qilib , mazzali bo'lgan asalni yig'adi. Shuning uchun asalari bizning do'stimiz. Keling bolalar men sizlarga keyingi hashorotni ertak orqali tanishtiraman.Bir bor ekan, bir yo'q ekan. Qadim zamonda bir chumoli bo'lgan ekan.Bolalarga chumolining rasmi ko'rsatiladi.Kunlardan bir kun chumoli yo'lda ketayotib bir kishiga yo'liqibdi. U odam barcha qushlar va jonzotlar tilini bilarkan.

-Nega boshing bunchalar katta?- deb so'rabdi odam chumolidan.

-Nimagaki boshim aql-zakovatga to'la,- deb javob beribdi chumoli.

-Nega beling bu qadar ingichka?- yana so'rabdi odam.

-Chunki juda kam ovqat yeyman?- debdi chumoli.

-Xo'sh, qancha ovqat yeysan?- so'rashda davom etibdi odam.

-Bitta bug'doy doni menga bir yilga yetadi,- deb javob qaytaribdi chumoli.

-Ko'ramiz, bitta bug'doy doni bir yilga yetarmikin,yo'qmi,- debdi odam va qalpog'ini astarini ochib, ichiga chumoli bilan bir dona bug'doy donini solib qo'yibdi.

Oradan bir yil o'tibdi. Odam chumoli haqida butunlay unutib yuboribdi. Ikkinchi yil tugay deganida birdan chumoli bilan kelishuv esiga tushibdi. Qalpog'ining astarini ochib ko'rsa, chumoli hamon o'tirganmish,yonida yarimta bug'doy doni turganmish.

-Bitta bug'doy doni menga bir yilga yetadi deganding, ikki yil o'tsa ham zaxirangda donning yarmi turibdi-ku,- debdi hayratlanib odam.

-Meni qalpog'iga tiqib qo'ygan tentak umuman esidan chiqarvorsa kerka deb o'ylab, ochdan o'lmaslik uchun bug'doy donini to'rt qismga bo'lgandim,- javob qaytaribdi chumoli. Demak rasmda qaysi hashorot tasvirlangan ekan?

**Bolalar:** Chumoli

**Tarbiyachi:** Barakalla! To'g'ri topdingiz. Bu chumoli. U judayam

mehnatkash,aqlli,sabrli.

Hozir biz sizlar bilan qiziqarli o'yin o'ynaymiz.Qani, bolalar yarim oyga o'xshab

turib olaylik-chi!

Bolalar yarim oy shaklida turadilar.

**Tarbiyachi:** Qo'llarimizni balandga qanday ko'taramiz?

**Bolalar:** Daraxtlar kabi.

**Tarbiyachi:** Qo'llarimizni qanday ushlaymiz?

**Bolalar:** Tog'lar kabi.

**Tarbiyachi:** Qo'llarimizni yuqoriga ko'tarib,qanday tebratamiz?

**Bolalar:** Shamol kabi.

**Tarbiyachi:** Qo'llarimizni oldinga uzatib,qanday harakatlantiramiz?

**Bolalar:** Yomg'ir yog'gandek.

**Tarbiyachi:** O'tirgan holda barmoqlarimizni qanday sakratdik?

**Bolalar:** Yomg'ir yerga tushgandek.

**Tarbiyachi:** Qo'llarimizni yonga uzatib ,qanday tebratamiz?



**Bolalar:** Qushlar uchayotgandek.

**Tarbiyachi:** Qo‘limizni yarim bukib, barmoqlarimizni ochib qanday sakraymiz?

**Bolalar:** Gullar ochilgandek.

**Tarbiyachi :** Bularning bari bahor faslida ro‘y beradi.Hashorotlar ham o‘z uylaridan bahor faslida chiqishadi.

Endi bolalar o‘z joyimizga o‘tiramiz .

**Yakuniy qism:**

**Tarbiyachi:** Bolalar

bugun biz nimalarni o‘rgandik?

**Bolalar:** Hasharotlarni.


**Tarbiyachi:** Qaysi hashorotlar haqida bilib oldingiz?

**Bolalar:** Chumoli,chigirtka ,kapalakni bilib oldik.

**Tarbiyachi:** Barakalla!

Shu kabi savollar bilan mashg‘ulot yakunlanadi

**1-topshiriq. Mashg‘ulotlarni tashkil etish bo‘yicha fikrlaringizni innovatsion, noan‘anaviy usulda ifodalang.**



**2-topshiriq. "Ilk qadam davlat dasturi" asosida faoliyat ishlanmasi tuzing.**

## 11– amaliy mashg‘ulot.

**Mavzu: Rivojlangan mamlakatlarda maktabgacha ta’lim tizimi**

**Reja:**

1. Germaniyada maktabgacha tarbiya tizimi.

2. Buyuk Britaniyada maktabgacha ta’lim tizimining o‘ziga xosliklari.

3. Belgiyada maktabgacha ta’lim tizimining tuzilishi.

**Amaliy mashg‘ulot ning maqsadi:** Magistrlarga Germaniya, Buyuk Britaniya va Belgiya kabi xorijiy mamlakatlarning maktabgacha ta’lim tizimini o‘rgatish. Xorij tajribasining samarali usullarini maktabgacha ta’lim tashkilotlarida qo‘llash uchun o‘rgatish.

**Ta’lim metodlari:** Klaster, “Venn diagrammasi”, “Insert jadvali”

**Ta’lim vositalari:** Tarqatma savollar, krassvord, marker, eksport topshiriqlar.

**Kutilayotgan natija:** Xorijiy mamlakatlar tajribasidagi maktabgacha ta’lim tiziminining natijalarini o‘rganish orqali magistrlarga maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’limni tashkil etishning noanaviy, samarali usullarini yaratishni o‘rgatish.

**Kichik maruza:** Maktabgacha Ta’lim tizimi Germaniya Ta’lim tizimida muhim bosqich hisoblanadi. Maktabgacha Ta’lim bolalar bog‘chasi (Kindergarten)da amalga oshiriladi. Bolalar bog‘chasiga 3-6 yoshdan maktab yoshigacha borishadi.

Rivojlanishdan orqada qolgan yoki yoshi mos bosqichga yetmagan bolalar maktabgacha sinflarda (nem. Vorklassen) va maktablar qoshidagi bolalar

bog‘chasida (nem. Schulkindergarten) taxsil oladilar. Bu bog‘chalar alohida Federal yerlar qoidasiga ko‘ra yoki maktabgacha sektorga yoki boshlang‘ich Ta’lim sektoriga bo‘ysunadi.

Maktabgacha Ta’lim majburiy emas, lekin ko‘pgina Federal yerda rivojlanishda orqada qolgan bolalar uchun majburiy hisoblanadi. Bolalar bog‘chalari ta’limning quyi bosqichi hisoblansada, lekin u davlat tizimi tarkibiga kirmaydi. Bog‘chalarni mablag‘ bilan ta‘minlash turli jamoat tashkilotlari, xayriya birlashmalari, korxonalari, xususiy shaxslar, diniy muassasalar

zimmasida. Germaniyada 3 yoshdan 6 yoshgacha bo‘lgan bolalarning 80%i bog‘chalarga qatnaydilar. Bolalar bog‘chasiga farzandlarni berish ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi. Bolalar bog‘chasiga qatnash uchun ota-onalardan ularning daromadiga qarab ma‘lum miqdorda to‘lov olinadi

.Maktabgacha bolalar bog‘chasi tayèrlov sinflari va kirish guruhlarini maktab ta‘limining birinchi bosqichiga kiradi.

Buyuk Britaniyada ikkita ta‘lim tizimi mavjud: birinchi - Angliya, Uels va SHimoliy Irlandiya; ikkinchisi – SHotlandiyada. Bu ikki tizim bir birini inkor qilmaydi Buyuk Britaniyada 3 yoshdan 5 yoshgacha bolalar bolalar bog‘chalari va maktabgacha sinflarga borishi mumkin : davlat (nursery school playgroup) yoki xususiy (kindergarten) maktabgacha Ta‘lim muassasalari.Buyuk Britaniya ta‘lim tizimining afzalliklari quyidagilar:

Britaniya sertifikatlari, diplomlari va berilgan darajalari butun dunyoda tan olinadi.

-Eng zamonaviy Ta‘lim metodlari, doimo modernizatsiyalashgan ta‘lim vositalari va eng asosiysi, mahoratli professor- o‘qituvchilar.

-Doimiy nazorat va mustaqil tanlash imkoniyatlari.

Buyuk Britaniya ta‘lim tizimining xususiyatlari

- Intizom .

-Erta ixtisoslashtirish.

-Ta‘lim olishda mustaqillik va initsiativa. Asosiy e‘tibor ilmiy tadqiqot

ishlarni olib borishga va esselarni tayyorlashga qaratilgan.


-Ijtimoiy va jamoatchilik tadbirlarda qatnashish.

Belgiyada maktabgacha Ta‘lim 2,5 yoshdan boshlanadi. Ushbu belgilangan yoshga yetganda bolalarni maktabgacha Ta‘lim muassasasiga berishadi, shu sababli guruhdagi bolalar soni yil davomida o‘zgarib boradi. Maktabgacha ta‘lim guruhlarining asosiy maqsadi: bolalarning bilish, bilim orttirish (kognitiv), kommunikativ va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish hisoblanadi. Mashg‘ulot lar o‘yin shaklida olib boriladi. Maktabgacha ta‘lim majburiy Ta‘lim dasturiga kiritilmagan bo‘lsada, Belgiyada taxminan 90%gacha bo‘lgan bolalar unga qatnashadi. Ko‘p hollarda maktabgacha ta‘lim muassasalari boshlang‘ich maktablarga uyg‘unlashgan bo‘ladi.

Bolalar 6 yoshga yetganda boshlang'ich maktabning birinchi sinfiga o'qishga kiradi.


Yaponiya ta'limining shakllanishi 1867-1868 yillarda boshlangan. Yaponiya o'z oldiga 2 vazifani: 1-boyish, 2-g'arb texnologiyalarini Yaponiya ishlab chiqarishiga kiritish masalasini qo'ydi va bu ishni amalga oshirish uchun birinchi galda ta'lim tizimini tubdan o'zgartirish kerakligini angladi.

**1-topshiriq.** Talabalar 6 guruhga bo'linib, har bir guruh o'ziga tegishli bo'lgan davlatdagi ta'lim tizimi haqida so'zlab beradi.



**2-topshiriq.** Rivojlangan davlatlar maktabgacha ta'lim tizimining umumiy va farqli jihatlarini "VENN" diagrammasi asosida ifodalang.

### "VENN" diagrammasi



**3-topshiriq.** Korea maktabgacha ta'lim tizimini "BBB" texnologiyasidan foydalangan holda jadvalda ifodalang.

<i>Bilaman</i>	<i>Bilishni xohlayman</i>	<i>Bilib oldim</i>

**4-topshiriq.** Xorijiy mamlakatlardan Yaponiya va Xitoy maktabgacha ta'lim tizimini misolida quyidagi jadvalga joylashtirish.

<i>Nº</i>	<i>Yaponiya</i>	<i>Nº</i>	<i>Xitoy</i>

### III BOB. MAVZULARGA DOIR TESTLAR VA GLOSSARIY

#### **Mavzu: Maktabgacha tarbiya tashkiloti tarbiyachisining kompetensiyasi.**

1. Shaxsiy kompetensiyaga nimalar kiradi?

\*A) O'z fanini chuqur bilish

B) Muloqotchanlik

C) AKT ni bilish

D) Didaktikani bilish

2. Tarbiyachi kompetensiyasi piramidasi nimalardan iborat?

\*A) Motiv, munosabat, bilim, malaka, xulq-atvor

B) Kasbiy mahorat va malaka

C) Kasbiy bilim, tushuncha, malaka

D) Kasbiy mahorat, tajriba, bilim, ko'nikma

3. Pedagogik jarayonning bir butunligi nima?

\*A) Maqsad, mazmun, hamkorlik

B) Vosita va usullar, do'stona aloqa

C) Shakl, natija va shart-sharoitlar

D) Maqsad, mazmun, usul, vosita, shakl, hamkorlik va natija

4. Ta'limni tashkil qilishning noan'anaviy shakllarini aniqlang?

\*A) Muloqot, baxs-munozara, didaktik o'yin, trening

B) Muloqot

C) Didaktik o'yinlar

D) Trening va boshqalar

5. Qaysi javobda Abu Nasr Forobiyning pedagogik asari to'g'ri ko'rsatilgan?

\*A) "Fozil odamlar shahri"

B) "Qobusnoma"

C) "Mahbub-ul qulub"

D) "Turkiy guliston yoxud axloq"

6. Ta'limning ijtimoiy-pedagogik funksiyalarini belgilang

\*A) Ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi

B) O'quvchilarning bilish faoliyatini boshqarish

C) Natijalarni baholash va nazorat etish

D) O'qituvchining darsga tayyorlanishi

7. Tarbiyaning predmeti nima?

- \*A) Shaxs
- B) Dars
- C) Mashg'ulot
- D) O'yin

8. Kompetensiya so'zining ma'nosi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

\*A) Kompetensiya-(lot.competenre - "layoqat, munosib bo'lmoq")

- B) Kompetensiya-(yun.competenres – muomala)
- C) Kompetensiya-(fran.compete – ijodkorlik)
- D) Kompetensiya-(lot.competenre – bilimdonlik)

9. Kasbiy kompetentlikka ega bo'lishda nima muhim ahamiyatga ega?

- \*A) O'z ustida ishlash va o'z o'zini rivojlantirish
- B) Mustaqil faoliyat ko'rsatish
- C) Ish tajribasini o'rganish
- D) AKTdan foydalanish

10. Pedagogning kasbiy kompetentligi nima bilan xarakterlanadi?

- \*A) Kreativlik
- B) Kompetensiya
- C) Kuzatuvchanlik
- D) O'z- o'zini tahlil qilish

### **Mavzu: Tarbiyachining pedagogik mahorati**

1. "Ilk qadam o'quv dasturining nechanchi bobida mashg'ulotlar jadvali berilgan?"

- \*A) 7-bob , 3-ilovasida.
- B) 5-bobda.
- C) 4- bobda.
- D) 3-bobda

2.«Tarbiyachi – ustoz bo'lish uchun, boshqalarning aql-idrokini o'stirish, ma'rifat ziyosidan bahramand qilish, haqiqiy vatanparvar, haqiqiy fuqaro etib yetishtirish uchun, eng avvalo, tarbiyachining o'zi ana shunday yuksak talablarga javob berishi, ana shunday buyuk fazilatlarga ega bo'lishi kerak» Bu fikr kimga tegishli?

\*A) I.Karimov

B) A.S. Makorenko.

C) P.D.Redkin

D) Abu Nasr Farobiy

3. Tarbiyachining bilish qobiliyatini Markova g'oyasiga ko'ra nechta guruhga bo'lish mumkin?

\*A) 5 ta

B) 7 ta

C) 6 ta

D) 3 ta

4. "Tarbiyachi- aql farosatga, chiroylik nutqqa ega bo'lishi va o'quvchilarga aytmoqchi bo'lgan fikrlarini to'liq va aniq ifodalay olishni bilishi kerak" ushbu fikrlar muallifi kim?

\*A) Al-Farobiy.

B) A.S. Makorenko.

C) P.D.Redkin

D) A.Avloniy

5. Tarbiyachining, tarbiyalanuvchining ichki dunyosiga kira bilish qobiliyati qaysi javobda to'g'ri berilgan?

\*A) Abu Ali ibn Sino

B) Alisher Navoiy

C) Nosiruddin Rabg'uziy

D) Abu Rayxon Beruniy

6. Pedagogik mahorat asoslari fanining paydo bo'lishi qaysi buyuk pedagog nomi bilan bevosita bog'liq?

\*A) A.S. Makarenko

B) Al-Farobiy

C) P.D.Redkin

D) Y.A.Kamenskiy

7. Pedagogik mahorat komponentlarini hosil qiladigan nechta malaka guruhlari farqlanadi?

\*A) 5 ta

B) 7 ta

C) 6Ta

D) 3 ta

8. Tarbiyachining qaysi qobiliyatini Markova g'oyasiga ko'ra 7guruhga bo'lish mumkin?



- \*A) Bilish
- b) Kuzatuvchanlik
- C) Nutq

D) Bilish9. Nutq yordamida, shuningdek, imo – ishora vositasida o‘z fikr va tuyg‘ularini aniq ifodalash qaysi qobiliyatga tegishli?

- \*A) Nutq qobiliyati
- C) Komunikativ qobiliyat
- B) Kuzatuvchanlik qobiliyati
- D) Didaktik qobiliyat

10. “Tarbiyachi faoliyati aslida, mohiyat bilan tashkilotchilik faoliyati ham muhim hisoblanadi” -bu fikr kimga tegishli?

- \*A) A.S. Makarenko.
- B)Al-Farobiy.
- C) P.D.Redkin
- D)K.D.Ushinskiy

### **Mavzu: Pedagogik qobiliyat va uning asosiy turlari**

1.Pedagogik qobiliyatning nechta turi mavjud?

- \*A) 9 ta
- B) 7 ta
- C) 8 ta
- D) 5 ta

2. Bu qobiliyatlar tarbiyachining pedagogik vaziyat va turli xil jarayonlarni anglab yetishi va to‘g‘ri baholay bilishlarida namoyon bo‘ladi. Ushbu jumlada qaysi qobiliyat haqida fikr yuritilgan?

- A)\*Tadqiqiy qobiliyat C) Kommunikativ qobiliyat
- B) Perseptiv qobiliyat D) Nutqiy qobiliyat

3.Tarbiyachini “Yosh qalb uchun yoqimli quyosh nuri”ga qiyoslagan olim qaysi javobda ko‘rsatilgan?

- \*A) K. D. Ushinskiy
- B) S. Makarenko
- C) Alisher Navoiy
- D) Nosiruddin Rabg‘uziy

4.Pedagogik qobiliyat shaxsning kasbiy yo‘nalishdagi yuqori ko‘rinishidir, har qanday faoliyat qobiliyatning asosiy ko‘rsatgichi uning fikricha, maxsus umumlashgan malakalarni egallaganligidir”.

– Ushbu fikrlar kimga tegishli?

\*A) V.A. Slastenin

C) Yusuf Xos Hojib

B) Y.A. Komenskiy

D) Abu Nasr Forobiy

5. Qobiliyatlar pedagogik nuqtayi nazarda maqsadga muvofiq bolalar, ularning ota-onalari, hamkasblar, ta'lim muassasi rahbariyati bilan aloqa o'rnatishda namoyon bo'ladi. Ushbu ta'rif qaysi qobiliyat turiga mos?

\*A) Tadqiqiy qobiliyat

B) Perseptiv qobiliyat

C) Nutqiy qobiliyat

D) Kommunikativ qobiliyat

6. "Axloqiy qobiliyat" tushunchasini qaysi olim ilk bor qo'llagan?

A) C.K.D. Ushinskiy

B) P. G. Redkin

C) Y.A. Komenskiy

D) V.N. Slastenin

7. Pedagog matonatli, sof vijdonli, rostgo'y va bolani tarbiyalash metodlarini, axloq qoidalarini yaxshi biladigan odam bo'lmog'i lozim. Pedagog tarbiyalanuvchining butun ichki va tashqi dunyosini o'rganib, uning aql qatlamlariga kira olmog'i lozim". - Ushbu fikrlar kimga tegishli?

A) \* Abu Ali ibn Sino \* C) Alisher Navoiy

B) Beruniy D) Rabg'uziy

8. Qobiliyatli tarbiyachi darsini bayon qilish mazmunini va shaklini diqqat bilan nazorat qiladi. Shu bilan birga u barcha bolalarni kuzatadi. Zo'riqish, xushyorlik alomatlarini sezib turadi. - Ushbu ta'rif qaysi qobiliyatga mos?

\*A) Nutqiy qobiliyat

B) Diqqatni taqsimlash qobiliyati

C) Perseptiv qobiliyat

D) Kommunikativ qobiliyat

9. "Pedagogika" tushunchasi kim tomonidan kiritilgan?

\*A) Y.A. Komenskiy

B) Slastenin

C) Nosiriddin Rabg'uziy

D) K.D. Ushinskiy

10. Bolalar ichki dunyosiga kira olish, ularning hissiy holatlarini obyektiv baholashi, qiziquvchanlik, parishonxotirlik, faollik yoki passivliklarni ko'ra bilish, seza bilish bilan xarakterlanadi.- Ushbu ta'rif qaysi qobiliyat haqida?

- \*A) Perseptiv qobiliyat
- B) Nutqiy qobiliyat
- C) Obro' orrtira olish qobiliyati
- D) Tashkilotchilik

**Mavzu: Zamonaviy tarbiyachi imidji.**

1. Takt so'zi qanday ma'noni bildiradi?

- \*A) Ta'sir etish
- B) Nazorat qilish
- C) Boshqaruv
- D) Tahlil etish

2.....-bu o'qituvchining o'quvchiga maqsadga muvofiq pedagogik ta'sir o'lchovi, muloqotning maxsuldor uslubini o'rnatish ko'nikmasi. Jumlani to'ldiring.

- \*A) Pedagogik takt
- B) Pedagogik tushuncha
- C) Pedagogik fikrlash
- D) Pedagogik suhbat

3. Tarbiyachi tarbiyalanuvchilar bilan o'zaro munosabatni qaysi tuyg'ular bilan mustahkamlab borishi kerak?

- \*A) Ishonch va do'stlik
- B) Mehribonlik
- C) Qattiqqo'lik
- D) Vatanparvarlik

4. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunning nechanchi moddasida shunday yozilgan: Maktabgacha ta'lim va tarbiya bolalarni o'qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan ta'lim turidir. \*A) 8-modda

- B) 11 modda
- C) 6-modda
- D) 9-modda.

5. Ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, ma'rifatli yoshlarni tarbiyalab voyaga yetkazish ..... zimmasida.

\*A) Tarbiyachi

B) Ota

C) Psixolog

D) Ona

6. Haq yo'lida kim senga bir harf o'qitmish ranj ila,

Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz ganj ila. Jumla kimga tegishli?

\*A) A.Navoiy

B) Abu Nasr Farobiy

C) A.Avloniy

D) Z.M.Bobur

7. Pedagogik ta'sirning yetakchi usullaridan biri?

\*A) Pedagogik talab

B) Pedagogik mahorat

C) Pedagogik nazokat

D) Pedagogik hodisa

8. Taktika tanlash bo'yicha qaysi psixolog kitoblar yozgan?

\*A) A.B.Dobrovich

B) Vigotskiy

C) Elkonin

D) P.Pavlov

9. .... tarbiyachining tarbiyalanuvchilar bilan o'zaro munosabatini tashkil qilish vositasi.

\*A) Pedagogik nazokat

B) Pedagogik odob

C) Pedagogik mahorat

D) Pedagogik hamkorlik

10. Pedagogik nazokat nimani talab qiladi?

\*A) Doimiy izlanishni

B) Ko'ngilchanlikni

C) Talabchanlikni

D) Qattiqqo'llikni

## **Mavzu: Tarbiyachining nutq texnikasi va madaniyati**

1. Tarbiyachi nutq texnikasining asosiy xususiyatlari qaysi javobda berilgan?

\*A) Bolalar diqqatini jalb etish, o'rganilayotgan mavzuga ularni qiziqitira olish

B) Nutqida yangi kirib kelgan so'zlardan foydalanish

C) Bolalarga chet tilida gapirish

D) Bolalarga sekin gapirish

2. Tarbiyachi faoliyatidagi "Pedagogik nutq texnikasi" tushunchasi qaysi tushuncha bilan uzviy bog'liq

\*A) Kommunikativ

B) Pedagogik nazokat

C) Hech biri bilan

D) Kreativlik

3. "Odobning boshi til" maqoli qaysi asarda keltirilgan?

\*A) "Devonu lug'otit turk"

B) "Qobusnoma"

C) "Majolis un-nafois"

D) "Qutadg'u bilig"

4. Nutqning adabiy til me'yorlariga to'g'ri kelishi nima deb ataladi?

\*A) Nutqning to'g'riligi

B) Nutqning ravonligi

C) Nutqning chiroyliligi

D) Nutqning mantiqiyligi

5. Nutqning qaysi sifati sinonimlardan o'rinli foydalanish, iboralarni to'g'ri qo'llashni taqozo etadi?

\*A) Nutqning aniqligi

B) Nutqning sofligi

C) Nutqning tushunariligi

D) Nutqning mantiqiyligi

6. G'ayri adabiy til unsurlaridan holi bo'lgan nutq -..... deyiladi.

\*A) Nutqning sofligi

B) Nutqning aniqligi

C) Nutqning ta'sirchanligi

D) Nutqning to'g'riligi

7. Tarbiyachi nutqida kuzatiladigan kamchiliklardan biri?

- \*A) Fonatsiya
- B) Tasvir
- C) To'xtam
- D) Diksiya

8. Notiq bo'lish uchun avvalo, tabiiy qobiliyat zarurligini, tabiiy qobiliyat esa ruhiy va jismoniy turlarga bo'linishini qaysi olim aytgan?

- \*A) M.V.Lomonosov
- B) B.Malinovskiy
- C) R.A.Bugadov
- D) K.Fossler

9. "Ey farzand so'zning yuz va orqa tomonini bilgin" ushbu so'zlar kimga tegishli?

- \*A) Kaykovus
- B) A.Navoiy
- C) Yusuf xos Hojib
- D) Abu Rayxon Beruniy

10. Tinglovchi ruhida o'zgarish, hayajon yasovchi nutq.....deyiladi.

- \*A) Nutqning ta'sirchnligi
- B) Nutqning to'liqligi
- C) Nutqning sofligi
- D) Nutqning tushunarligi

**Mavzu: Tarbiyachi-pedagog faoliyatiga kreativ yondashuv**

1. Kimning nuqtai nazariga ko'ra kreativ fikrlash, eng avvalo, muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash sanaladi?

- \*A) Patti Drapeau
- B) J.P.Lui
- C) K.D.Ushinskiy
- D) Slastin

2. Kimlar uchun kreativlik, umuman olganda, yangilik sanaladi. Ular kreativlik negizida noan'anaviylik, qiziquvchanlik, tasavvur, hazil-mutoyiba tuyg'usi va erkinlik mavjud bo'lishiga e'tiborni qaratadilar?

- \*A) G'arb kishilari
- B) Yunonliklar
- C) Sharq kishilari

D) Rimliklar

3. Kimlar kreativlikni ezgulikning qayta tug'ilish jarayoni, deb tushunadilar ?

\*A) Sharq kishilari

B) Yunonliklar

C) Rimliklar

D) G'arb kishilari

4. Mashg'ulotlarda "kreativlik yo'l xaritasi" nechta yo'nalish bo'yicha harakat qiladi?

\*A) 4

B) 3

C) 5

D) 2

5. Maqsadli-motivli yondashuv nima?

\*A) Ijodiy faoliyat qadriyat sanaladi va u pedagogning qiziqishlari, motivlari, faoliyatni tashkil etishga intilishida ko'zga tashlanadi

B) O'zida pedagogik, psixologik, maxsus va innovatsion xarakterdagi BKMni aks ettiradi

C) O'zida ma'lum fikriy-mantiqiy fikrlashga doir harakatlar, shuningdek, amaliy (maxsus, texnik, texnologik) faoliyat usullarini ifodalaydi

D) Bunda shaxsiy ijodiy faoliyat mohiyatini anglash, o'z o'zini tahlil qilish va o'z-o'zini baholash ko'zga tashlanadi

6. Mazmunli yondashuv nima?

\*A) O'zida pedagogik, psixologik, maxsus va innovatsion xarakterdagi BKMni aks ettiradi

B) O'zida ma'lum fikriy-mantiqiy fikrlashga doir harakatlar, shuningdek, amaliy (maxsus, texnik, texnologik) faoliyat usullarini ifodalaydi

C) Bunda shaxsiy ijodiy faoliyat mohiyatini anglash, o'z o'zini tahlil qilish va o'z-o'zini baholash ko'zga tashlanadi

D) Ijodiy faoliyat qadriyat sanaladi va u pedagogning qiziqishlari, motivlari, faoliyatni tashkil etishga intilishida ko'zga tashlanadi

7. Tezkor-faoliyatli yondashuv nima?

\*A) O‘zida ma’lum fikriy-mantiqiy fikrlashga doir harakatlar, shuningdek, amaliy (maxsus, texnik, texnologik) faoliyat usullarini ifodalaydi

B) O‘zida pedagogik, psixologik, maxsus va innovatsion xarakterdagi BKMni aks ettiradi

C) Bunda shaxsiy ijodiy faoliyat mohiyatini anglash, o‘z o‘zini tahlil qilish va o‘z-o‘zini baholash ko‘zga tashlanadi

D) Ijodiy faoliyat qadriyat sanaladi va u pedagogning qiziqishlari, motivlari, faoliyatni tashkil etishga intilishida ko‘zga tashlanadi

8. Refleksiv-baholash nima?

\*A) Bunda shaxsiy ijodiy faoliyat mohiyatini anglash, o‘z o‘zini tahlil qilish va o‘z-o‘zini baholash ko‘zga tashlanadi

B) O‘zida ma’lum fikriy-mantiqiy fikrlashga doir harakatlar, shuningdek, amaliy (maxsus, texnik, texnologik) faoliyat usullarini ifodalaydi

C) O‘zida pedagogik, psixologik, maxsus va innovatsion xarakterdagi BKMni aks ettiradi

D) Ijodiy faoliyat qadriyat sanaladi va u pedagogning qiziqishlari, motivlari, faoliyatni tashkil etishga intilishida ko‘zga tashlanadi

9. Rasmlar, suratlar, chizmalar va boshqa grafik tasvirlar hamda ularning izohlarini o‘zida aks ettiruvchi elektron shakldagi to‘plam nima deyiladi?

\*A) Elektron albom

B) Elektron atlas

C) Multimedia

D) Raqamli video lavhalar

10. Elektron atlas nima?

\*A) Yun. “Atlas” – birinchi bo‘lib, osmon globusini yaratgan afsonaviy Liviya podshosining nomidan) – muayyan o‘quv moduli (o‘quv fani) bo‘yicha tavsiya etilgan va o‘ziga xos grafik tasvirlarga ega bo‘lib, o‘quv maqsadlariga ko‘ra foydalaniladi

B) Rasmlar, suratlar, chizmalar va boshqar grafik tasvirlar hamda ularning izohlarini o‘zida aks ettiruvchi elektron shakldagi to‘plam



C) O'quv moduli (o'quv fani) bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga yordam beradigan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan 3D o'lchamdagi zamonaviy o'quv manbai

D) Bir necha ko'rinishdagi: elektron shakldagi grafik, matnli, raqamli, ovozli, musiqali, video, audio, fotografiya, harakatlanuvchi obrazlar(animatsiyalar) va boshqa axborotlarni uzatuvchi kompyuter texnologiyalari uchun taalluqli umumiy tushuncha

**Mavzu :Kreativ yondashuv asosida mashg'ulotlarni tashkil etish**

1. Kreativ so'zining ma'nosi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

\*A) "faol", "ijodkor", "yaratuvchan"

B) "o'zgaruvchan"

C) "barbod qiluvchi"

D) "tiklovchi"

2. Shaxsning kreativligi nimalarda namoyon bo'ladi?

\*A) Tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi.

B) Shaxsning qiziquvchanligida

C) Shaxsning javobgarligida

D) Nutqida

3. Amerikalik psixolog P. Torrens fikricha, kreativlik bu-

\*A) Muammo yoki ilmiy farazlarni ilgari surish

B) Muommolarni orqaga surish

C) Ilmiy tadqiqotlar olib borish

D) Kuzatuvchilik

4. Stereotiplar- bu

\*A) Shu paytgacha ma'lum bo'lgan va umumqabul qilingan fikrlardir

B) Jamoa qabul qilgan fikri

C) Yakka shaxsning fikri

D) Insonning shaxsiy fikri

5. Tomas Edison kreativlik haqida nima deydi?

\*A) G'ayri ixtiyoriy jarayon

B) Barbod qiluvchi jarayon

C) Shu paytgacha ma'lum bo'lgan va umumqabul qilingan fikrlardir

D) Yakka shaxsning fikri

D) Yakka shaxsning fikri

6. Jorj Bernard Shouning kreativlik haqida aytgan fikrini to‘g‘ri belgilang!

\*A) “Ko‘pchilik yiliga ikki-uch marta o‘ylaydi. Mening butun dunyoga mashhurligim sababi — haftada bir yoki ikki marta o‘ylaganim”.

B) O‘ylash odamni tentak qiladi.

C) Ko‘p fikrlaydigan inson aqlli inson.

D) O‘y fikrlar insonni o‘ldiradi

7. MTT da AKTni joriy etishning asosiy sharti bu-

\*A) Kompyuter xavfsizligi rejimiga rioya qilish.

B) Guruhda barcha bolalarni kompyuter bilan ta‘minlash.

C) Tarbiyachilarni hammasi AKT mutaxassisi bo‘lishi.

D)Faollikni oshirish

8. Bolalar pedagogi Mariya Montessori g‘oyalaridagi asosiy nuqta—bu

\*A) O‘quv faoliyatini maksimal darajada individuallashtirish, aniq o‘ylangan va mohirona dasturlangan dasturdan foydalanish. Har bir bolaning rivojlanishi uchun poydevor bo‘ladi.

B) O‘quv faoliyatidagi yetakchilik

C) Bolalarni jamoa bo‘lib o‘ynashlariga zamin yaratish

D) O‘zlarini erkin his qilishga imkoniyat yaratish

9. Montessori qarashlari to‘g‘ri berilgan qatorni aniqlang ?

\*A) Guruh jihozlarini tashkil qilish, mustaqillikni rivojlantirish, bolani to‘g‘ri ovqatlantirish, gimnastika, hissiyotlarni tarbiyalash va ularni rivojlantirishni ilgari surgan.

B) Bolalar bog‘chasida bolalarni juda ham erkin qo‘yish g‘oyasini ilgari surgan

C) Bolalarni ta‘lim olishidagi muommalarni bartaraf etishni ilgari surgan

D) O‘yin faoliyati yetakchiligini ilgari surgan

10. Tarbiyachi mashg‘ulotlarni kreativ yangicha usulda olib borishi –

\*A) Bolalar ongiga ta‘sir qilib, ularni xotirasini rivojlantiradi

B) Bolalarning qo‘l motorikasini rivojlantiradi

C) Bolalarni xulqini yaxshilashga yordam beradi

D)Bolalarga erkinlik beradi

## **Mavzu : Tarbiyachining innovatsiyon yondashuvi**

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarga aqliy tarbiya berish vazifalari qaysilar?

- \*A) Bilishga qiziqish uyg‘otish va aqliy qobiliyatlarni, aqliy ko‘nikma va malakalarni, aqliy mehnat madaniyatini rivojlantirish
- B) Bolalarda tabiat va jamiyat to‘g‘risidagi bilimlar sistemasini, ilmiy dunyoqarashini shakllantirish

C) Bolalar nutqini o‘stirish

D) Bolalarga boshlang‘ich elementar matematik bilimlar berish

2. Mashg‘ulot qanday tuzilishga ega?

\*A) Bolalarni uyushtirish, asosiy qism, yakunlovchi qism

B) Mashg‘ulotning maqsadi, yakuni

C) Mashg‘ulotning borishi

D) Kirish, o‘rta, yakuniy

3. Pedagog-tarbiyachi o‘z kasbining mohir ustasi bo‘lishi uchun qanday shartlarga amal qilishi lozim?

\*A) Yosh avloni kerakli bilim, malaka, ko‘nikmalardan xabardor qilishi

B) Oliy ma‘lumotli bo‘lishi

C) Bolalarni kuzata oladigan bo‘lishi

D) Mehnatsevar bo‘lishi

4. Tarbiyachi qachon bolalarga ta‘sir ko‘rsata oladi?

\*A) Kundalik hayotda, o‘yinlarda, mashg‘ulotlarda, birgalikdagi mehnat faoliyatida bolalar bilan muomalada

B) Kundalik hayotda

C) Bayram ertaliklarda, o‘yinlarda

D) Mashg‘ulotlarda, birgalikdagi mehnat faoliyatida

5. Ta‘lim innovatsiyalari faoliyat yo‘nalishiga ko‘ra qanday turlarga bo‘linadi?

\*A) Pedagogik jarayonda yoki ta‘lim tizimini boshqarishda qo‘llaniladigan innovatsiyalar.

B) Radikal, modifikatsiyalangan hamda kombinatsiyalangan innovatsiyalar.

C) Tarmoq , modul va tizim innovatsiyalari

D) Jamoa tomonidan bevosita yaratilgan yoki o‘zlashtirilgan innovatsiyalar.

6. Kelib chiqish manbaiga ko'ra innovatsiyalarning qanday turlari farqlanadi?

\*A) Jamoa tomonidan bevosita yaratilgan yoki o'zlashtirilgan innovatsiyalar.

B) Pedagogik jarayonda yoki ta'lim tizimini boshqarishda qo'llaniladigan innovatsiyalar.

C) Radikal, modifikatsiyalangan hamda kombinatsiyalangan innovatsiyalar.

D) Tarmoq , modul va tizim innovatsiyalari.

7. Innovatsiyalarning asosiy ko'rinishlari berilgan javobni toping.

\*A) Yangi g'oyalar, noan'anaviy yondashuvlar, odatiy bo'lmagan tashabbuslar, ilg'or ish uslublari

B) Noan'anaviy g'oyalar, zamonaviy yondoshuvlar, an'anaviy tashabbuslar

C) Yangi g'oyalar, an'anaviy yondoshuvlar, ilg'or ish tajribalari

D) Yangi g'oyalar, kreativ yondashuvlar

8. Ta'lim tizimida innovatsion faoliyatning sub'ekti -....!

\*A) Tarbiyachi, uning shaxsiy imkoniyati hisoblanadi.

B) Bolalarning mustaqil faoliyati hisoblanadi.

C) Zamonaviy texnologiyalar

D) O'yin faoliyati

9. O'zgarishlarning ko'lamiga ko'ra ta'lim innovatsiyalarining qanday turlari farqlanadi?

\*A) Radikal, modifikatsiyalangan hamda kombinatsiyalangan innovatsiyalar.

B) Pedagogik jarayonda yoki ta'lim tizimini boshqarishda qo'llaniladigan innovatsiyalar.

C) Tarmoq , modul va tizim innovatsiyalari.

D) Jamoa tomonidan bevosita yaratilgan yoki o'zlashtirilgan innovatsiyalar.

10. Tizimlashtirilgan pedagogik g'oyalar, o'quv jarayoni bashorat etilishi, ma'lumotlar to'plami nima deyiladi?

\*A) Innovatsion pedagogik g'oya

B) Innovatsiya

C) Novatsiya

D) Innovatsion ta'lim

**Mavzu: Innovatsiyon faoliyatni tashkil etishga ta'sir etuvchi omillar**

1. "Innovatsiya" tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda ..... ma'noni anglatadi. Jumlani to'ldiring.

- \*A) "yangilik kiritish" degan ma'noni anglatadi
- B) "eskini yangilash" degan ma'noni anglatadi
- C) "zamonaviy" degan ma'noni anglatadi
- D) "ijodkorlik" degan ma'noni anglatadi

2. Innovatsion faoliyatga to'liq ta'rif bergan olim kim?

- \*A) Y. Shumpeter
- B) A. Nikolskaya
- C) V. Slastenin
- D) G. A. Mikritichyan

3. ....- bu ta'lim oluvchida yangi g'oya, me'yor, qoidalarini yaratish, o'zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg'or g'oyalar, me'yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta'lim

- \*A) Innovatsion ta'lim
- B) Maxsus ta'lim
- C) Individual ta'lim
- D) Hamkorlikdagi ta'lim

4. "Innovatsiya yangilikni tabiiy etishning yakuniy natijasi bo'lib, obyekt boshqaruvini o'zgartirish ijtimoiy, iqtisodiy, ilmiy, texnikaviy, ekologik va boshqa ko'rinishdagi samaradorlikdir". Fikr muallifini aniqlang.

- \*A) R. Fatxutdinov
- B) A. Nikolskaya
- C) V. Slastenin
- D) G. A. Mikritichya

5.... - pedagogning o'z kasbini takomillashtirishdagi mavjud shakl va vositalarni egallashga ijodiy yondashuvini nazarda tutadi. Nuqtalar o'rnini to'ldiring.

- \*A) Innovatsion faoliyat
- B) Pedagog tafakkur
- C) Pedagogik bilim
- D) Malakaviy yondashuv

6 “Dunyoni idrok qilishning birinchi sharti – faoliyat, ikkinchi sharti- tarbiyadir”. Fikr muallifini aniqlang?

\*A) A.N.Leontev

B) A.Nikolskaya

C) V.Slastenin

D) G.A.Mikritichyan

7. Kimning fikriga ko‘ra, faoliyatni yangilash 3 bosqichda, ya‘ni tayyorgarlik, rejalashtirish va joriy etish bosqichlarida amalga oshiriladi.\*A) A.Nikolskaya

B) V.Slastenin

C) G.A.Mikritichyan

D) A.N.Leontev 8.Innovatsiya qachondan ma‘lum tushuncha sifatida ishlatila boshlagan?

\*A) Dastavval iqtisodiyotga XX asr boshlarida kirib kegan

B) Pedagogikaga XIX asrning oxirlarida kirib kelgan

C) XXI asr boshlarida tushuncha sifatida ishlatila boshlagan

D) XXI asrning ikkinchi yarmidan

9. Tarbiyachini innovatsion faoliyatga tayyorlash nechta yo‘nalishda amalga oshiriladi?

\*A) Ikkita

B) To‘rtta

C) Uchta

D) Beshta

10. Tarbiyachini innovatsion faoliyatga tayyorlashning yo‘nalishlari qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

\*A) Yangilikni idrok qilishga innovatsion shaylikni shakllantirish; -yangicha harakat qila olishga o‘rgatish.

B) Yangilikni tahlil qilish; -unga baho berish.

C) Harakatlarning maqsadini aniqlash; -kontseptsiyasini shakllantirish.

D) Yangicha harakat qila olishga o‘rgatish; - yangilikni tahlil qilish.

**Mavzu: Maktabgacha ta‘lim tizimini texnologiyalashtirish**

1. Texnologiya so‘zining ma‘nosi nima?

\*A) Yunoncha “techne”- mahorat, san‘at va “logo”- tushuncha, o‘rganish

B) Inglizcha” mahorat”

- C) Yunoncha “techne”-mahorat
- D) Ruscha “ mahorat”, “o’rganish”

2. Maktabgacha ta’lim tizimida qanday texnologiyadan foydalaniladi?

- \*A) O‘yin
- B) Mashg‘ulotdan
- C) O‘yin va mashg‘ulotdan
- D) Harakatli o‘yinlar

3. Xalq pedagogikasida “maslahat so‘rash “ qaysi tarbiya usuliga kiradi?

- \*A) Jazo, nasihat
- B) Namuna ko‘rsatish
- c) Ibrat
- d) Tushuntirish, namuna

4. Didaktik o‘yinning muhim elementi nima?

- \*A) O‘yinning qoidasi
- B) O‘yinning maqsadi
- C) Kerakli jihozlar
- D) O‘yinning borishi

5. Inson umri davomida olishi kerak bo‘ladigan axborot-ma’lumotlarni 70 foizini necha yoshgacha oladi?

- \*A) 5 yoshgacha
- B) 4 yoshgacha
- C) 6 yoshgacha
- D) 7 yoshgacha

6. Pedagogik texnologiyaning aspektlari to‘g‘ri berilgan javobni aniqlang.

- \*A) Ilmiy, tavsifiy, amaliy
- B) Nazariy, amaliy, tahliliy
- C) Kreativ, ilmiy, amaliy
- D) Nisbiy, absalyut

7. Pedagogik texnologiya mezonlari qaysi javobda berilgan?

- \*A) Izchillik, boshqaruv, samaradorlik, qayta tiklash
- B) Aniqlik, zamonaviylik, o‘zgaruvchanlik
- C) Samaradorlik, qayta tiklash, yangilash
- D) Izchillik, boshqaruv, ketma-ketlik, qayta tiklash

8. Pedagogik talab nima?

- \*A) Tarbiyaning eng muhim usullaridan biridir
- B) Ta’limning muhim usuli

C) Pedagogik zarurat

D) Zamonaviy metod

9. Bolalarni axloqiy shakllantirishda tarbiyachining eng ta'sirli usuli qaysi?

\*A) Suhbat va hikoya

B) O'z- o'zini tarbiyalash

C) Suhbat

D) O'rgatish

10. Pedagogik jarayonda ishtirok etadigan tizim tarkibiy qismlariga nimalar kiradi?

\*A) Tarbiyachi, tarbiyalanuvchilar, tarbiyaviy shart-sharoit

B) Pedagogik mahorat, pedagogik bilim, ko'nikma va malakalar

C) Ta'lim, tarbiya, o'qitish

D) Pedagogik jarayon tamoyillari

**Mavzu: Sahnalashtirish o'yinlarining ahamiyati va o'ziga xos xususiyatlari**

1. O'yin qanday turlarga bo'linadi?

\*A) Ijodiy, qoidali

B) Syujetli-rolli, sahnalashtirgan

C) Qurish-yasash, didaktik

D) Harakatli, qoidali

2. O'yinchoqlarga qanday talablar qo'yiladi?

\*A) Pedagogik, gigeynik, badiiy talab

B) Psixologik, gigeynik talab

C) Pedagogik, psixologik talab

D) Estetik talab

3. Qoidali o'yin turlari?

\*A) Didaktik, harakatli, musiqiy

B) Harakatli, harakatsiz

C) Stol bosma, og'zaki so'z o'yinlari

D) Musiqiy va harakatli

4. Qaysi o'yin turi badiiy asar asosida tuziladi?

\*A) Sahnalashtirilgan o'yinlar

C) Syujetli rolli o'yinlar

B) Didaktik o'yinlar

D) Ijodiy o'yinlar

5. Bolalarni tarbiyalashda asosiy faoliyat nima hisoblanadi?



\*A) O‘yin

B) Mehnat

C) Tarbiya

D) O‘quv

6. Ijodiy o‘yinlarga qanday o‘yinlar kiradi?

\*A) Syujetli- rolli, sahnalashtirilgan, qurish va yasash.

B) Didaktik o‘yinlar

C) Sport o‘yinlar

D) Harakatli o‘yinlar

7. Hozirgi pedagogik adabiyotlarda o‘yinchoqlar qanday turlarga bo‘linadi?

\*A) Syujetli, didaktik, qurish-yasash, sport, motorli

B) Texnika, harakatli

C) Yumshoq o‘yinchoqlar

D) Qurish-yasash

8. Sahnalashtirilgan o‘yinlarni tashkil etish nechta bosqichda amalga oshadi?

\*A) 4 B) 2 C) 3 D) 5

9. Harakatli o‘yinlar qachon rejalashtiriladi?

\*A) Ertalabki va kechki sayr soatlarida kuniga 1-2 marta

B) Ertalabki gimnastika vaqtida

C) Kunning ikkinchi yarimida

D) Mashg‘ulotlar vaqtida

10. Sahnalashtirish o‘yinlari deb qanday o‘yinlarga aytiladi?

\*A) Bolalarning mustaqil ijodiy o‘yin turi bo‘lib, unda badiiy asar va hikoyalar bolalar tomonidan rollarga bo‘lib ijro etiladi.

B) Bolalarning o‘yin jarayonida o‘yin qoidalarini o‘zlarini o‘ylab topishadi

C) Maktab yoshidagi bolalarning yoshi va imkoniyatlariga mos keladigan ta‘lim berish metodi

D) Bolalarning mustaqil didaktik o‘yin turi bo‘lib, unda bolar rollarni ijro etishadi.

**Mavzu: Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida mashg‘ulotlarni tashkil etish yo‘llari**

1. Mashg‘ulotga tayyorlanish mazmuniga nimalar kiradi?

\*A) Mashg‘ulotni rejalashtirish, kerakli jihozlarni oldindan tayyorlab qo‘yish, bolalarni mashg‘ulotga tayyorlash

B) Mashg'ulot vaqtida pedagogik yangilikning vujudga kelishi, ularning jadal o'zlashtirilishi va amaliyotga tadbiq etilishi

C) Kerakli jihozlarni oldindan tayyorlab qo'yish, to'g'ri o'tirish

D) Faollik, didaktik o'yinlar, evristik, kreativ, muammoli, loyihashtirilgan

2. Maktabgacha yoshdagi bolalar jamoasining asosiy ishtirokchilari kimlar?

\*A) Bolalar

B) Bola va ona

C) Ota va ona

D) Tarbiyachi

3. O'rta guruhda ilk matematik tasavvurlarni shakllantirish mashg'uloti 1 yilda necha marta o'tkaziladi?

\*A) 36 marta

B) 72 marta

C) 65 marta

D) 38 marta  
4. Maktabgacha ta'limda kompyuterli ta'limiy va rivojlantiruvchi o'yinlarning davomiyligi?

\*A) 5-10 daqiqa

B) 10-15 daqiqa

C) 25-30 daqiqa

D) 15-20 daqiqa

5. 5-6 yoshli guruhlarda hafta mobaynida ikki marta o'tiladigan mashg'ulot?

\*A) Atrof olam bilan tanishtirish, nutqni rivojlantirish, rasm chizish, jismoniy tarbiya

B) Atrof olam bilan tanishtirish, nutqni rivojlantirish, rasm chizish, jismoniy tarbiya, tabiat

C) Atrof olam bilan tanishtirish, nutqni rivojlantirish, rasm chizish, jismoniy tarbiya, tabiat, matematika

D) Atrof olam bilan tanishtirish, nutqni rivojlantirish, rasm chizish, jismoniy tarbiya, tabiat, matematika, badiiy adabiyot

6. Maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyat turini aniqlang?

\*A) O'yin

B) Mashg'ulot

C) Mehnat

D) Kuzatish 7. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqning qaysi turi rivojlangan bo‘ladi:

- \*A) Ichki nutq
- B) Tashqi nutq
- C) Og‘zaki nutq
- D) Ichki va tashqi nutq

8. 6-7 yoshli bolalar hayotida qaysi faoliyat yangi hisoblanadi?

- \*A) O‘qish
- B) Mehnat
- C) O‘yin
- D) Muloqot

9. Maktabgacha ta’limga qo‘yiladigan davlat talablarida “talab” so‘zining ma’nosi qanday ta’riflanadi?

- \*A) Biror-bir aniq yoshdagi bolalar bilishi va bajara olishi shart bo‘lgan talablar majmuidir
- B) Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi
- C) Bilish jarayonining rivojlanishi
- D) Bolaning yosh xususiyatlari

10. Maktabgacha ta’lim muassasalarida asosiy rivojlantiruvchi o‘yin markazlarini belgilang?

- \*A) Qurish-yasash va konstruktorglash, syujetli-rolli o‘yin va dramalashtirish, nutq va til, ilm-fan va tabiat, san’at, musiqa va ritmika markazlari
- B) Qurish-yasash va konstruktorglash, syujetli-rolli markazlari
- C) Nutq va til, fan va tabiat, san’at, musiqa va ritmika markazlari
- D) Qurish-yasash va konstruktorglash, syujetli-rolli, nutq va til, fan va tabiat, san’at, musiqa va ritmika, matematika, jismoniy tarbiya markazlari

**Mavzu: Mashg‘ulotning turlari, tuzilishi.**

1. Qaysi javobda mashg‘ulot jadvalini tuzish talablari noto‘g‘ri berilgan?

- \*A) Mashg‘ulotlar mavzusini oyga teng taqsimlash
- B) Kun davomida 1-bo‘lib, bolalardan aqliy zo‘r berishni talab etadigan mashg‘ulotlarni rejalashtirish.

C) Haftaning birinchi va oxirgi kunlariga osonroq mashg'ulotlarni rejalashtirish

D) Kunning davomida ikkinchi bo'lib yengilroq mashg'ulotlarni rejalashtirish.

2. Ta'lim berishda bosh rol ni nima egallaydi?

\*A) Mashg'ulot

B) Suhbat

C) Sayr

D) Ekskursiya

3. .... - ta'lim beruvchi pedagog va bolalarning maxsus tashkil etilgan faoliyati.

\*A) Ta'lim shakli

B) Ta'lim qonuniyati

C) Ta'lim maqsadi

D) Ta'lim metodi

4. Qaysi mashg'ulot turida bolalarga yangi bilim beriladi, egallangan bilimlar mustahkamlanadi, takrorlanadi, sistemaga solinadi, olgan bilimlarni amalda qo'llashga o'rgatiladi?

\*A) Kompleks mashg'ulot

B) Yangi bilim beruvchi mashg'ulot

C) Sinovchi mashg'ulot

D) Mustahkamlovchi mashg'ulot

5. Tarbiyachi mashg'ulotning qaysi qismida bolalarni yig'ib, ularning mashg'ulotga tayyorligini tekshiradi?

\*A) Bolalarni uyushtirish

B) Asosiy qism

C) Yakunlovchi qism

D) Kirish qismi

6. Qaysi guruh bolalariga qanday mashg'ulot bo'lishini tarbiyachi oldindan aytib qo'yadi?

\*A) Katta guruh

B) Hamma guruhda

C) O'rta guruh

D) Kichik guruh

7. Qaysi mashg'ulot turning asosiy maqsadi idrok etilgan narsalarning anglab olish va dastlabki umumlashtirishga o'rgatishdir.

- \*A) Mustahkamlovchi mashg'ulot
- B) Sinovchi mashg'ulot
- C) Yangi bilim beruvchi mashg'ulot
- D) Kompleks mashg'ulot

8. Hikoya qilib so'zlab berish, yangi obyektни kuzatish qaysi mashg'ulotga kiradi?

- \*A) Yangi bilim beruvchi
- B) Mustahkamlovchi mashg'ulot
- C) Sinovchi mashg'ulot
- D) Kompleks mashg'ulot

9. Mashg'ulotlarning nechta turi bor?

- \*A) 4 ta
- B) 6 ta
- C) 2 ta
- D) 3 ta

10. Qaysi mashg'ulot turi direktor va uslubchi iltimosiga binoan ham o'tkazilishi mumkin?

- \*A) Bolalar bilimini sinovchi mashg'ulot
- B) Kompleks mujassam mashg'ulot
- C) Mustahkamlovchi mashg'ulot
- D) Bolalarga yangi bilim beruvchi mashg'ulot

**Mavzu: Rivojlangan mamlakatlarda maktabgacha ta'lim tizimi**

1. Yaponiyada nechanchi yili "Ta'lim haqida" qonun qabul qilingan?

- \*A) 1872
- B) 1882
- C) 1876

D) 18802. Qaysi davlatning ta'limi g'arb ta'limi bilan uyg'unlashgan?

- \*A) Yaponiya
- B) Janubiy Koreya
- C) Isroil
- D) Malayziya

3. Qaysi mamlakatning maktabgacha ta'lim muassasasi davlat tizimiga kirmaydi?

- \*A) Germaniya

B) Amerika

C) Fransiya

D) Italiya

4. Bolalar bog'chasini "Tafakkur ustaxonasi" deb ataydigan xalq?

\*A) Olmon

B) Koreys

C) Yapon

D) Xitoy

5. AQSHda bolalar maktabgacha ta'lim muassasasida necha yoshgacha tarbiyalanadi?

\*A) 3-5 yoshgacha

B) 3-6 yoshgacha

C) 3-7 yoshgacha

D) 3-4 yoshgacha

6. Fransiyada boshlang'ich ta'lim mazmunini qaysi asosiy fanlar tashkil qiladi?

\*A) Matematika, ona tili, adabiyot

B) Ona tili va adabiyot

C) Matematika, ona tili, estetika

D) Ona tili va matematika

7. "Kinder garden" tayyorlov bog'chasi qaysi mamlakatniki?

\*A) AQSH

B) Germaniya

C) Italiya

D) Polsha

8. Bolalar maxsus avtobusda maktabga boradigan davlat?

\*A) Amerika

B) Germaniya

C) Niderlandiya

D) Finlandiya

9. Xususiyy bog'chalar qaysi davlatda rivojlangan?

\*A) Yaponiya

B) Koreya

C) Fransiya

D) Rossiya

10. Germaniyada maktabgacha ta'lim muassasasi necha yoshli bolalarni qamrab olgan?

\*A) 3-6yoshgacha

B) 3-5 yoshgacha

C) 3-7yoshgacha

D) 3-4yoshgacha

**Mavzu: Koreya, Yaponiya va Germaniya davlatlarida maktabgacha ta'lim tizimi**

1. Koreyada bolalarni matematikaga qachondan boshlab o'rgatiladi?

\*A) 2 yoshdan 3 yoshgacha

B) 3-4 yoshida

C) 3 yoshdan keyin

D) 2-4 yoshida

3. Yaponiyada bolalar bog'chalariga necha yoshdan qabul qilinadi?

\*A) 4yoshdan

B) 3 yoshdan

C) 2 yoshdan

D) 1-2 yoshdan

4. Jamoat tashkilotlari, korxonalar, xususiy shaxslar tomonidan mablag' bilan ta'minlanadigan bog'chalar qaysi davlatga tegishli?

\*A) Germaniya

B) Yaponiya

C) Fransiya

D) AQSh

5. Munitsipal va prefektura turidagi bog'chalar qaysi davlatga tegishli?

\*A) Koreya

B) Belgiya

C) Germaniya

D) Xitoy 6. Yaponiyada xususiy maktabgacha ta'lim tashkilotlari necha foizni tashkil qiladi?

\*A) 80 %

B) 70 %

C) 90 %

D) 60 %

7. Germaniyada maktabgacha ta'lim muassasasida necha yoshli bolalar tarbiyalanadi?

\*A) 3-6 yosh

B) 3-5 yosh

C) 4-6 yosh

D) 3-7 yosh

8. Britaniyada maktabgacha ta'lim muassasalarida necha yoshli bolalar ta'lim oladi?

\*A) 3-5 yoshli

B) 5-6 yoshli

C) 1-5 yoshli

D) 2-7 yoshli  
9. Belgiyada bolalar necha yoshdan maktabgacha ta'lim muassasasiga qabul qilinadi?

\*A) 2,5 yoshdan

B) 3 yoshdan

C) 3,5 yoshdan

D) 2 yoshdan

9. Koreys bolalar bog'chasi necha shaklda yuritiladi?

\*A) 3 xil shaklda

B) 2 xil shaklda

C) 4 xil shaklda

D) 5 xil shaklda

10. Yaponiyada bolalar bog'chasining muddati qancha

\*A) 3 yil

B) 4 yil

C) 2 yil

D) 5 yil



## GLOSSARIY

**Axloq** (lotincha «moralis» - xulq-atvor ma'nosini bildiradi) - ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soluvchi, muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlari yig'indisi.

**Axloqiy ong** – shaxsga axloqiy me'yorlar va xulq-atvor qoidalari to'g'risidagi nazariy bilimlarni berish asosida hosil qilinuvchi ong shakli.

**Axloqiy tarbiya** – muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan tartib, odob, o'zaro munosabat, muloqot va xulq-atvor qoidalari, mezonlarini o'quvchilar ongiga singdirish asosida ularda axloqiy ong, axloqiy faoliyat ko'nikmalari va axloqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi.

**Bilim** - bu ijtimoiy tarixiy ong, insoniyat hayoti davomida to'plangan, amalda sinovdan o'tgan va obyektiv dunyoni chuqurroq anglashga, hamda o'zgartirishga yo'naltirilgan tabiat, jamiyat, tafakkur va faoliyat usullari qonuniyatlari haqidagi

ilmiy tushunchalarning yaxlit va tizimlashtirilgan majmuidir.

**Divergent tafakkur** - (lotincha divergere - “bo'linish”) ijodiy tafakkur metodlaridan biri bo'lib, berilgan bir muammoning bir qancha yechimlarini topish, shuning bilan bir qatorda, divergent tafakkur “bir vaqtning o'zida turli yo'nalishlarda izlanish, ya'ni bir muammoga bir nechta turli javoblar borligini va original ijodiy g'oyalarning tug'ilishiga xizmat qiladi. Divergent tafakkurning asosida kreativlik yotadi.

**Ektremal kompetentlik** - favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon

ishdan chiqqan) da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to'g'ri harakatlanish malakasiga egalik.

**Fan**– yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiqaruvchi.

**Hikoya** – tarbiyachi tomonidan mavzuga oid dalil, hodisa va voqealarning yaxlit yoki qismlarga bo'lib, tasviriy vositalar yordamida obrazli tasvirlash yo'li bilan ixcham, qisqa va izchil bayon qilinishi.

**Intellekt** - insonning umuman bilish faoliyati, fikrlash qobiliyati, tushunish, mulohaza, tafakkur, aql ma'nosini anglatadi.

**Interfaol** –so‘zi inglizcha so‘z bo‘lib, “inter” – o‘zaro va “act” - harakat qilmoq ma'nolarini bildirib, ularning umumiy mazmuni interfaol – ya'ni o‘zaro harakat qilmoq ma'nosini anglatadi.

**Innovatsion faoliyat** - yangi ijtimoiy talablarning an'anaviy me'yorlarga mos kelmasligi yoki yangi shakllanayotgan g'oyalarning mavjud g'oyalarni inkor etishi natijasida vujudga keladigan majmual muammolarni yechishga qaratilgan faoliyat.

**Innovatsion ta'lim** (ingl. “innovation” - yangilik kiritish, ixtiro)

**Individual rivojlanish dasturi (IRD)** – har bir shaxs yoki mutaxassisning o‘zida ma'lum sifat, BKM, kasbiy kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish ehtiyojlari asosida ishlab chiqilgan shaxsiy-amaliy xarakterdagi dastur.

**Interfaol mashg'ulot** – o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘zaro faol ishtirok etadigan mashg'ulot. Bu jarayon o‘zaro hamkorlikda kechadi.

**Interfaol usul** - bu ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi faol hamkorlikdagi ta'lim usuli bo'lib, ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchi bir-birini to'liq tushunishga erishiladi.

**Integratsiya** – o‘qitishning maqsad va omillarini bir butun qilib birlashtirish.

**Ijtimoiy kompetentlik** - ijtimoiy munosabatlarda faollik ko'rsatish ko'nikma,

malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda sub'ektlar bilan muloqotga kirisha olish.

**Innovatsion kompetentlik** - pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta'lim sifatini

yaخشilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g'oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga samarali tatbiq etish.

**Informatsion kompetentlik** - axborot muhitida zarur, muxim, kerakli, foydali

ma'lumotlarni izlash, yig'ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o'rinli, samarali foydalanish.

**«Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»** - «Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalariga muvofiq, milliy tajribaning tahlili hamda ta'lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqlol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirish mazmunini belgilab beruvchi yuridik hujjat.

**Kasbiy kompetentlik** – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishi.

**Kompetensiya** (lot. sompeto - erishyapman, munosibman, loyiqman) u yoki bu sohadagi bilimlar, tajriba degan ma'nolarni anglatadi, o'zbek tilidagi lug'aviy ma'nosi «yaxshi biladigan», «tajribaga ega bo'lgan» kabi ma'nolarni bildiradi.

**Kompetentlik** – tushunchalar tizimi va tushunish bo'lishligini talab etadigan, amaliy faoliyatni amalga oshiruvchi qobiliyat, yuzaga keladigan muammo va vazifalarni tezkor hal qilishga imkoniyat yaratuvchi, o'ylashning mos ravishdagi tipidir.

**Kommunikativ kompetentlik** – ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, bolalar bilan samimiy muloqotda bo'lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta'sir ko'rsata olish.

**Konvergent tafakkur** - (lotincha convergere- “bir yo'ldan”) tafakkur formasi bo'lib, muammoning bir qancha yechimlaridan faqat yagona to'g'risini tanlashdir. Konvergent tafakkur asosida intellekt yotadi, shuning uchun intellektual tafakkur deb ham ataladi.

**Kreativ kompetentlik** - pedagogik faoliyatga tanqidiy, ijodiy yondashish, o'zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish.

**Kreativlik** – bu yangi, original g'oyalarni yaratish, fikrlashning nostandart shakli, berilgan muammolarga omadli yechimlar topishdir.

**Ko'nikma** - u yoki bu ishni bajarishning avtomatlashgan usuli bo'lib, ongli ishning bajarilishini nazorat qilishdan ozod qiladi va uni ishda qo'yilgan maqsadga qaratadi.

**Maktabgacha ta'lim** - bolaning sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlovchi, unda o'qishga intilish hissini uyg'otuvchi, uni muntazam ta'lim olishga tayyorlovchi hamda bola olti-yetti yoshga yetguncha davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari va oilalarda amalga oshiriluvchi ta'lim bosqichi.

**Maktabgacha ta'lim pedagogikasi** – maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tarbiyalash, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga yetkazish masalalarini o'rganadi.

**Mashq va o'rgatish (faoliyatda mashqlantirish) metodlari**-muayyan mashqyordamida bolalar faoliyatini oqilona, maqsadga muvofiq va har tomonlama puxta tashkil qilish, ularni axloq me'yorlari va xulq-atvor qoidalarini bajarishga odatlantirish usullari.

**Ma'naviyat (arabcha «ma'naviyat» - ma'nolar majmui)** – mohiyatiga ko'ra ijtimoiy taraqqiyotga ijobiy ta'sir o'tkazuvchi falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvur, tushuncha va g'oyalar majmui.

**Ma'lumot** - kishi sezgi a'zolari, asboblar va boshqalar yordamida qayd etiladigan, tashqi olamdan olingan belgilar to'plamidir.

**Maxsus kompetentlik** - kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish,

kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona xal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, BKMni izchil rivojlantirib borish.

**Metodik kompetentlik** - pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta'lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to'g'ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo'llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo'llash.

**Nafosat tarbiyasi** (estetik tarbiya- lotincha «estezio» go'zallikni his qilaman) - o'quvchilarni voqelik, tabiat, ijtimoiy va mehnat munosabatlari va turmush go'zalliklarini anglash, idrok etish va to'g'ri tushunishga o'rgatish, ularning badiiy didini o'stirish, ularda go'zallikka muhabbat uyg'otish, ular tomonidan go'zallikni yaratish qobiliyatlarini tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi.

**Oila** – kishilarning nikoh yoki qon-qarindoshlik rishtalari, umumiy turmush tarzi, axloqiy mas’uliyat hamda o‘zaro yordamga asoslanuvchi kichik guruhi.

**Oila tarbiyasi** – ota-onalar (yoki bola kamoloti uchun mas’ul shaxslar) tomonidan tashkil etiluvchi hamda farzandlarni har tomonlama yetuk, sog‘lom etib tarbiyalashga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon.

**Oilaviy munosabatlar** – ota-onalar (yoki bolaning kamoloti uchun mas’ul bo‘lgan shaxslar) hamda farzandlar o‘rtasida turli yo‘nalishlarda tashkil etiluvchi munosabatlar.

**Pedagogik talab** - turli harakatlarni bajarish, muayyan faoliyat jarayonida ishtirok etishda o‘quvchi amal qilishi zarur bo‘lgan ijtimoiy xulq-atvor me’yorlarini ifodalovchi vazifa; tarbiyaning eng muhim usuli.

**Pedagogik texnologiya**– ta’lim va tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, texnologik yondashuv asosida ta’lim va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish muammolarini o‘rganadi.

**Pedagogika** (yunoncha «paidagogike» bo‘lib, «paidagogos» - bola, yetaklayman) – ijtimoiy tarbiyaning umumiy qonuniyatlari, muayyan jamiyatda yagona ijtimoiy maqsadga muvofiq yosh avlodni tarbiyalash hamda unga ta’lim berishning mohiyati va muammolarini o‘rganadigan fan.

**Pedagogik diagnostika** (yunoncha – “bilish”, “aniqlash” ma’nosini anglatadi) - bu muayyan bosqichlarda bolaning individual xususiyatlari va rivojlanish istiqbollarini aniqlash imkoniyatini beradigan mexanizm.

**Pedagogik kreativlik** - pedagogning an’anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta’lim va tarbiya jarayonini samaradorligini ta’minlashga xizmat qiluvchi yangi g‘oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy xal qilishga bo‘lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyati.

**Pedagogik muloqot** - pedagogik jarayonda ishtirok etuvchilar o‘rtasida amalga oshiriladigan murakkab o‘zaro tavsiya jarayoni. Bu muloqot jarayonida ishtirokchilarni hamkorlikda ishlashi, bir-birlariga yordam berishi, harakatlarni o‘zaro muvofiqligiga erishish kabilar samarali natijalar beradi.

**Psixologik kompetentlik** - pedagogik jarayonda sog'lom psixologik muhitni yarata olish, bolalar va ta'lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o'z vaqtida anglay olish va bartaraf etish.

**Rag'batlantirish** - tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga ijobiy baho berish asosida unga ishonch bildirish, ko'nglini ko'tarish va uni qo'llab-quvvatlash usuli.

**Reaksiya** - materialga nisbatan qanday operatsiyani qo'llash natijasi.

**Refleksiya** (lot. "reflexio" - ortga qaytish, aks etish) kishining o'z xatti-harakatlari, ularning asoslarini tushunib yetishi, faxmlashiga qaratilgan nazariy faoliyati, bilishning alohida faoliyati, shaxsiy kechinmalari, his-tuyg'ulari va o'y-xayollari mohiyatini fikrlash orqali anglash, o'z-o'zini tahlil qilishi.

**Rivojlanish** - shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon.

**Suhbat** - savol va javob shaklidagi dialogik ta'lim metodi.

**Ta'lim vositalari** - ta'lim samaradorligini ta'minlovchi ob'yektiv (darslik, o'quv qo'llanmalari, o'quv qurollari, xarita, diagramma, plakat, rasm, chizma, dioproektor, magnitafon, videomagnitafon, uskuna, televizor, radio, kompyuter va boshqalar) va sub'yektiv (o'qituvchining nutqi, namunasi, muayyan shaxs hayoti va faoliyatiga oid misollar va hokazolar) omillar.

**Ta'lim jarayoni** - o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

**Ta'lim konsepsiyalari** (lotin tilidan «conceptio» - tizim) - ta'lim-tarbiya mazmuni, istiqbolini yorituvchi yaxlit qarashlar tizimi; uzluksiz ta'lim tizimining turli bosqichlarida ta'lim muassasalari faoliyati yo'nalishi, maqsad va vazifalarini belgilashning alohida usuli.

**Ta'lim mazmuni** - davlat ta'lim standartlari asosida belgilab berilgan hamda ma'lum sharoitda muayyan fanlar bo'yicha o'zlashtirilishi nazarda tutilgan ilmiy bilimlar mohiyati.

**Ta'lim maqsadi** (o'qish, bilim olish maqsadi) – ta'limning aniq yo'nalishini belgilab beruvchi yetakchi g'oya.

**Ta'lim metodlari** – ta'lim jarayonida qo'llanilib, uning samarasini ta'minlovchi usullar majmui.

**Ta'lim muassasi Ustavi** – ta'lim muassasasiga rahbarlik mohiyatini yorituvchi hamda uning faoliyatini boshqarish tizimini aniqlovchi hujjat.

**Ta'limni boshqarish** – ta'lim muassasalarining faoliyatini yo'lga qo'yish, boshqarish, nazorat qilish hamda istiqbollarni belgilash masalalarini o'rganadi.

**Tamoyil** (yunoncha «principium») – biror-bir nazariyaning asosi, negizi, asosiy boshlang'ich qoidasi; boshqaruvchi g'oya, faoliyatning asosiy qoidasi; umumlashtirilgan talab.

**Tarbiya** – muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.

**Tarbiya jarayoni** -tarbiyachi va tarbiyalanuvchi (o'qituvchi va o'quvchi) lar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan samarali hamkorlik jarayoni.

**Tarbiya mazmuni** - shaxsning shakllanishiga qo'yiluvchi ijtimoiy talablar mohiyati.

**Tarbiya metodi** (yunoncha «metodos» – yo'l) – tarbiya maqsadiga erishish yo'li; tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg'ulari va xulqiga ta'sir etish usullari.

**Tashhis** –didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilash.

**Ta'lim** – tarbiyalanuvchilarga nazariy bilimlarni berish asosida ularda amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini tarbiyalashga yo'naltirilgan jarayon.

**Ta'lim va tarbiya mazmuni** – shaxsning aqliy va jismoniy qobiliyatini har tomonlama rivojlantirish, dunyoqarashi, odobi, xulqi, ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlik darajasini shakllantirish jarayonining mohiyati.

**Texnologik kompetentlik** - kasbiy-pedagogik BKMni boyitadigan ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.

**“Texnologiya”** soʻzi (“texnos” - xunar va “logos” - fan) hunar, sanʼat fani maʼnosini anglatadi.

**“Texnika”** (hunar sanʼat-grekcha) - usul va vosita elementlarning yigʻindisi, uning tarkibi - muloqot va munosabatdan iborat.

**Uzluksiz taʼlim** – malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi boʻlib, taʼlimning barcha turlarini, davlat taʼlim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimining tuzilmasi va uning faoliyat koʻrsatish muhitini oʻz ichiga oladi.

**Oʻqituvchi (pedagog)** – pedagogik, psixologik va mutaxassislik yoʻnalishlari boʻyicha maxsus maʼlumot, kasbiy tayyorgarlik va maʼnaviy-axloqiy sifatlarga ega hamda taʼlim muassasalarida faoliyat koʻrsatuvchi shaxs.

**Oʻquv dasturi** – muayyan oʻquv fani boʻyicha bilim, koʻnikma va malakalar mazmuni, umumiy vaqtning mavzularni oʻrganilishi boʻyicha taqsimlanishi, mavzularning ketma-ketligini belgilash hamda ularning oʻrganilish darajasini yorituvchi meʼyoriy hujjat.

**Oʻquv qoʻllanma** – 1) maʼlum oʻquv fanlari boʻyicha metodik materiallar, tushuntirishlar, tavsiyalarni yorituvchi hamda oʻqituvchi yoki oʻquvchilar uchun moʻljallangan manba; 2) muayyan fan boʻyicha tayyorlangan hamda metodik jihatidan oʻquv-tarbiyaviy jarayonda bevosita foydalanish imkonini beruvchi qoʻshimcha oʻquv materiallari.

**Oʻrgatish** - tarbiyalanuvchilar ijtimoiy xulq-atvor koʻnikmalari, odatlarini shakllantirish maqsadida rejali va izchil tashkil qilinadigan turli harakatlar, amaliy ishlar.

**Oʻz-oʻzini rivojlantirish** – shaxsning oʻzida kasbiy tajriba, malaka va mahoratni takomillashtirish yoʻlida aniq maqsad va puxta oʻylangan vazifalar asosida mustaqil ravishda amaliy harakatlarni tashkil etishi.

**Shaxs** - psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega boʻlgan jamiyat aʼzosi.

**Shaxsiy kompetentlik** - izchil ravishda kasbiy oʻsishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda oʻz ichki imkoniyatlarini namoyon qilish.



## Asosiy adabiyotlar

1. Фарберман Б. Илғор педагогик технологиялар.- Т.:“Фан”,2000 й.

2. Ёўдошев Ж.Ф., Усмонов С.А. Педагогик технология асослари:-Т.:“Тарбиячи”,2004 й.

3. Толипова Ж.О. Педагогик технологиялар-дўстона муҳит яратиш омили.-Т.:ЮНИСЕФ,2005 й.

4. Толипов Ў.Қ., Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг тадбиқий асослари (ўқув кўлланма).-Т.:“Фан” нашриёти, 2006 й.

5. Qodirova F.R., Toshpo‘latova SH.Q., Kayumova N.M., Agzamova M.N. “Maktabgacha pedagogika” T.: Tafakkur, T- 2019.

6. Maktabgacha ta‘lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 802-сон Qarori. 22.12.2020

## Qo‘shimcha adabiyotlar

7. Ш.М. Мирзиёев “Буюк келажакимизни мард ва олийжоноб халқимиз билан бирга қурамиз”Т. 2017 й.

8. Ш.М. Мирзиёев “ Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Т.2016 й.

9. Ш.М. Мирзиёев “Қонун устуворлиги ва исон манфаатларини таъминлаш –юрт фаровонлиги гарови. Т. 2016 й.

10. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси. Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармони. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами.2017.6-сон,70-модда.

11. Мирзиёев Ш.М. “2017-2021 йилларда мактабгача таълим тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори. Т.: - 2016. 2-декабр.

12. Н.Қаюмова. Мактабгача педагогика. Т.: ТДПУ 2017 йил.

13. Файзуллаева Н. Педагогик билимлар-ўқитувчи касбий маҳоратининг назарий асоси. Узлуксиз таълим ж. –Т.:2006 й. 6-сон.

14. Файзуллаева Д.М., Ганиева М.А., Неъматов И. Назарий ва амалий ўқув машғулотида ўқитиш технологиялари тўплами. Мет.кўлл.-Т.:ТДИУ,2013.-137 б

15.Холиков А. Педагогик маҳорат. –Т.: Дарслик. Иқтисод-молия. 2011. - 420 б.

16.Хошимов К., Нишонова С. Педагогика тарихи.-Т.: А. Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси нашриёти, 2005.

17.Шаповаленко И Б. Возрастная психология (Психология развития И возрастная психология):учебник для студентов вузов.-М. Гардарики,2007.-349 с.

### **Axborot manbalari**

18. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi:<http://www.edu.uz>.

19.O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi:  
[www.uzedu.uz](http://www.uzedu.uz)

20.Xalq ta’limi axborot- kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi: [www.multimedia.uz](http://www.multimedia.uz).

21.Ijtimoiy axborot ta’lim portali: [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz).

22.Maktabgacha ta’lim vazirligi: [www.mtv.uz](http://www.mtv.uz).

## MUNDARIJA

<b>Kirish</b> .....	3
<b>I BOB. "PEDAGOGIK KASBIY KOMPETENTLIGI VA KREATIVLIK" FANINING NAZARIY ASOSLARI</b>	
1-mavzu: Maktabgacha tarbiya tashkiloti tarbiyachisining kompetensiyasi.....	5
2-mavzu: Tarbiyachining pedagogik mahorati.....	18
3-mavzu: Pedagogik qobiliyat va uning va asosiy turlari.....	24
4-mavzu: Zamonaviy tarbiyachining imidji.....	35
5-mavzu: Tarbiyachi-pedagogning faoliyatiga kreativ yondashuv. Kreativ yondashuv asosida mashg'ulotlarni tashkil etish.....	57
6-mavzu: Tarbiyachining innovatsion faoliyati.....	73
7-mavzu: Innovatsion faoliyatni tashkil etishga ta'sir etuvchi omillar.....	99
8-mavzu: Maktabgacha ta'lim tizimini texnologiyalashtirish.....	106
9-mavzu: Sahnalashtirish o'yinlarining ahamiyati va o'ziga xos xususiyatlari.....	120
10-mavzu: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mashg'ulotlarini tashkil etish yo'llari.....	128
11- mavzu: Rivojlangan davlatlarda maktabgacha ta'lim tizimi..	156
<b>II BOB. AMALIY MASHG'ULOTLAR ISHLANMALARI</b>	
1-amaliy mashg'ulot. Maktabgacha tarbiya tashkiloti tarbiyachisining kompetensiyasi.....	170
2-amaliy mashg'ulot. Tarbiyachining pedagogik mahorati.....	174
3-amaliy mashg'ulot. Tarbiyachi uchun muhim pedagogik qobiliyatlar.....	176
4-amaliy mashg'ulot. Zamonaviy tarbiyachi imidji.....	180
5-amaliy mashg'ulot. Pedagogik ta'sir ko'rsatishda nutq texnikasi va kiyinish madaniyati.....	184
6-amaliy mashg'ulot. Tarbiyachi pedagogik faoliyatiga kreativ yondashuv.....	188
7-amaliy mashg'ulot. Tarbiyachining innovatsion faoliyati.....	193
8-amaliy mashg'ulot. Maktabgacha ta'lim tizimini texnologiyalashtirish.....	199
9-amaliy mashg'ulot. Maktabgacha ta'lim tashkilotida	

mashg'ulotlarni tashkil etish yo'llari.....	205
10–amaliy mashg'ulot. Maktabgacha ta'lim tashkilotida	
mashg'ulotlarni qiziqarli tashkil.....	210
11–amaliy mashg'ulot. Rivojlangan mamlakatlarda	
maktabgacha ta'lim tizimi.....	217

### **III BOB. MAVZULARGA DOIR TESTLAR VA**

#### **GLOSSARIY**

Mavzularga doir testlar.....	221
Glossariy.....	248
Adabiyotlar.....	256

**Quchqorova Nargiza Mamajonovna**

## **PEDAGOGIK KASBIY KOMPETENTLIGI VA KREATIVLIK**



**darslik**



**Texnik muharrir: I.Ashurmatov**  
**Sahifalovchi: O.Umarov**

### **“Bookmany print” nashriyoti**

Nashriyot tasdiqnoma raqami № 022246. 28.02.2022-y.

Bosishga ruxsat etildi: 4.04.2022.

“Times New Roman” garniturasida. Qog‘oz bichimi: 60x84 <sup>1</sup>/<sub>16</sub>

Nashriyot bosma tabog‘i 15,6 Shartli bosma taboq 15,2.

Adadi 100 nusxa. Ofset bosma usulida bosildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

“BOOKMANY PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

E-mail: [bookmany\\_print@mail.ru](mailto:bookmany_print@mail.ru)

📞 t.me/Bookmanyprint 📞 +998 99 180 97 10



Quchqorova Nargiza Mamajonovna 1979-yil Farg'ona viloyatida tug'ilgan, millati o'zbek, oilali, 3 nafar farzandi bor.

Quchqorova Nargiza Mamajonovna 2020-yil 11-avgustda Nukus davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.34.01

raqamli ilmiy kengashda 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligi bo'yicha "Kompleks yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining iqtisodiy madaniyatini rivojlantirish" mavzusida pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan.

Ilmiy faoliyati davomida 42 ta ilmiy va uslubiy maqolalari nashr etilgan bo'lib, ulardan 8 tasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK ro'yxatidagi jurnallarda, 8 ta xorijiy jurnallarda, 1 ta SCOPUS, 20 ta xorijiy va respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida chop etilgan. Bundan tashqari 1 ta o'quv qo'llanma, 1 ta monografiya, 3 ta o'quv-uslubiy qo'llanmalari nashr etilgan.

N.M. Quchqorova 2021-yil O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi huzuridagi "Mahalla va oila" ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan bajarilishi rejalashtirilgan JHBL-61 "Harbiy oila farzandlarining ijtimoiylashuvini kompleks tadqiq etish" mavzusidagi qisqa muddatli ilmiy-tadqiqot loyiha rahbari sifatida faoliyat olib borgan.

Quchqorova Nargiza Mamajonovna faoliyati davomida ta'lim-tarbiya jarayonini yaxshilash, yuqori malakali kadrlar tayyorlash va universitet ilmiy salohiyatini oshirish ishlariga o'zining munosib hissasini qo'shmoqda.



ISBN 978-9943-8095-7-4



9 789943 809574